

327
4-19

D.I. MADAMINOVA

XALQARO TASHKILOTLAR NAZARIYASI VA AMALIYOTI



0262
327
M-19

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI

Madaminova D.I.

XALQARO TASHKILOTLAR NAZARIYASI VA AMALIYOTI

*(5120700- Jahon siyosati bakalavriat ta'lim yo'nalishida tahsil
olayotgan talabalar uchun darslik)*



Toshkent
«Tafakkur avlodi»
2021

UO'K: 327.3(07)

KBK: 66.4ya7

M 14

Madaminova D.I.

Xalqaro tashkilotlar nazariyasi va amaliyoti [Matn]
darslik, – T., «Tafakkur avlodi», – 2021. – 256 bet

Xalqaro munosabatarning muhim subyektlaridan biri bo'lgan xalqaro tashkilotlarning tashkil etilishi, suveren davlatlar tomonidan ularga bir qator huquq va majburiyatlar berilishini, shuningdek, xalqaro huquq normalarini yaratish va qo'llanilishida ishtirok etish va ushbu normalarga rioya etilishi ustidan nazorat o'rnatish vakolati tan olinishini anglatadi. Jahon siyosati va xalqaro munosabatlarning rivojlanish jarayonini mantiqan anglab yetish uchun uning tarkibiy shakllanishida yetarlicha jiddiy o'rin tutuvchi xalqaro tashkilotlar faoliyatini o'rganishni talab qiladi. Shu boisdan, siyosiy maydonda sodir bo'layotgan voqea-hodisa va siyosiy jarayonlarning mazmun-mohiyatini anglash va muammoning yechimini topishda jahon siyosatining turli jabhalarini o'rganish va tahlil etish talab etiladi. Ma'ruzalar matni namunaviy dastur va ta'lim yo'nalishining o'quv rejasida tuzilgan.

Mazkur darslikda xalqaro tashkilotlar genezisi, tushunchasi, tipologiyasi va tasnifi, xalqaro tashkilotlar organlari, turlari hamda a'zolikning talab va tarablari, shuningdek, universal xarakterdagi va mintaqaviy tashkilotlarning davlat taraqqiyotining muhim sohaslarida tutgan o'rni ifodalanadigan barcha tushunchalar qamrab olingan va ularning mohiyati ochib berilgan. Darslikda xalqaro tashkilotlarning nazariy asoslari va amaliy jihatlari yoritilgan bo'lib, u 5120700 - Jahon siyosati bakalavriat ta'lim yo'nalishining "Xalqaro tashkilotlar nazariyasi va amaliyoti" fanidan darslik sifatida tavsiya etiladi.

Mas'ul muharrir:

R.Jumayev

s.f.d., prof.

Taqrizchilar:

U.Idirov

s.f.d., prof.

M.Muhammadsidiqov

s.f.d., dots.

Ushbu darslik Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti O'quv-uslubiy Kengashining 19-may 2020-yildagi 5-son majlisida ko'rib chiqilgan va nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9943-6899-0-9

© Madaminova Durдона Iskandarovna

© «Tafakkur avlodi», 2021

KIRISH

Shaxs, jamiyat, davlat – bularning bari uzviy bog‘liqlikda, uzluksiz tarzda bir-birini to‘ldirib, boyitib, rivojlantirib turuvchi tushunchalardir. Insoniyat tabiat qonuni asosida hamisha taraqqiyotga intilib keladi. Tabiiyki, davlatimizning istiqlol va mustaqillik sharoitida hayotimiz ham shu mantiqda bo‘ysunadi. Demak, taraqqiyot bir-biri bilan bog‘liq, birin-ketin amalga oshiriladigan islohot va yangilanishlar zanjiridan iborat.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev bugungi kunda davlatimizda kechayotgan yangilanish va taraqqiyotning yorqin ifodasi sifatida “Inson davlat idoralari uchun emas, davlat idoralari inson uchun xizmat qilishlari kerak” ekanini nafaqat so‘zda, balki amalda ham isbotlamoqda. Yurtimizda olib borilayotgan keng ko‘lamli islohotlar asrlarga tatigulik natijalarni qo‘lga kiritish imkonini berayotgani hech birimiz uchun sir emas. Shunday ekan, mavjud islohotlar demokratik jarayonlarga yangicha yondashuvni talab qilishi tabiiy. Shunga ko‘ra, ularga yanada ko‘proq jushqinlik bag‘ishlashga qodir barcha imkoniyatlar, mexanizmlar, mavjud texnologiya va nafi tegadigan tajribadan to‘liq hamda oqilona foydalanish zarur.

Xalqaro shartnomalar asosida tashkil etilgan xalqaro tashkilotlar sonining ortishi, zamonaviy dunyoda xalqaro huquq va tartibning mustahkamlanishiga xizmat qiladi, deyish o‘rinlidir. Xalqaro hayotning yangi bosqichida xalqaro tashkilotlarning yanada kengayishi xalqaro huquq va tartibni o‘rnatish va barqarorlashtirishda munosib hissa qo‘shishi tabiiy. Zamonaviy siyosiy jarayonlarda xalqaro tashkilotlar faoliyatining ushbu yo‘nalishi alohida ahamiyatga ega. Ko‘plab xalqaro tashkilotlarning o‘zaro munosabatlari doirasida milliy davlatlar o‘z milliy manfaatlarini va davlat suverenitetini xalqaro hamkorlik ehtiyojlari bilan o‘zaro muvofiqlashtirish imkoniga ega bo‘ladilar.

Davlatlar va xalqlar o‘rtasidagi ko‘p tomonlama hamkorlik manfaatlariga xizmat qilish vazifasini o‘z zimmasiga olgan doimiy xalqaro hukumatlararo va nohukumat tashkilotlarining paydo bo‘lishi internatsionalizatsiya jarayonining natijasi bo‘ldi, desak xato bo‘lmaydi. XHT va XNTlar tarmog‘ining keying yillardagi kengayishi xalqaro maydonda yuz bergan muhim sifat o‘zgarishlari bilan izohlanadi. Shu bilan birga, xalqaro hayotning muayyan sohalari

ko'payib bormoqda, ularni tartidga solish va boshqarishda esa, XHT va XNTlar bevosita ishtirok etmoqda.

Jahon siyosatida yuz berayotgan o'zgarishlar, yangilanishlar va tub burilishlarning mazmun-mohiyati, sabab va oqibatlari hamda ularning harakatlantiruvchi kuchlari haqidagi tasavvurlarga asoslangan bilimlarni qo'llash, siyosiy o'zgarishlarni tadqiq etish, bashorat qilish bilan bir qatorda siyosiy hayotda faol ta'sir ko'rsatish, ijtimoiy foydali natijaga erishish imkonini beradi. Ushbu darslik yuqoridagi maqsadlarga erishishga xizmat qiladi, degan umiddamiz.

I BOB. XALQARO TASHKILOTLAR GENEZISI

1-§. Xalqaro tashkilotlarning paydo bo'lish asoslari

Xalqaro hamkorlikning dastlabki shakllari dunyo sahnasida davlatlar paydo bo'lishi bilan yuzaga keldi. Qadimda faoliyat yuritgan ko'plab siyosiy va hududiy birliklar (qabilalar konfederatsiyalari va boshqa qabilalar birlashmalari)dan farqli o'laroq, davlat o'zining barqaror hokimiyatga egaligi, aholining aniq taqsimlangan hududiy tizimi va mustaqil siyosiy faoliyat yuritish qobiliyati, ya'ni suverenitetga ega ekanligi bilan ajralib turar edi. Ilk davlat tuzilmalarining hududiy o'sishi muqarrar ravishda chegaralar va manfaatlarining yaqinlashishiga olib kelgani bois, davlat oliy hokimiyatining (boshqaruv va majburlash funksiyalariga qo'shimcha ravishda) boshqa davlatlarning shu kabi institutlari bilan aloqalarni shakllantirish va mustahkamlasdan iborat yana bir funktsiyasi paydo bo'ldi. Doimiy aloqalarning o'rnatilishi davlatlararo munosabatlarni murakkablashtirgan holda, mavjud munosabatlarning istiqbollari va muammolarini ham yuzaga keltira boshladi. Masalan, mudofaa va tashqi savdo munosabatlari bilan bog'liq muammolar millatlararo tuzilmalarning doimiy asosda faoliyat yurituvchi mexanizmini yaratish zaruratini yuzaga keltirdi.

Xalqaro hamkorlik tuzilmalarining vujudga kelishi jarayonini **Qadimgi Yunoniston** misolida ko'rish mumkin. Qadimgi Yunoniston uchun siyosiy davlatlar ittifoqlari faolyati odatiy hol hisoblanar edi. Aksariyat hollarda ularning vakolati doirasiga o'zaro xavfsizlikni ta'minlash, iqtisodiy ta'sirni doirasini kengaytirish kabilar kirar edi. **Afina dengiz ittifoqi** (mil. avv. 478-404, 378-337-yillar) bu kabi hamkorlikning eng nufuzli vakillaridan biri bo'lib hisoblanar edi.

Ko'pincha ularning vakolati sohasiga hamkorlikda xavfsizlikni ta'minlash, iqtisodiy ta'sir ko'rsatish va boshqalar kirar edi. **Afinaning dengiz ittifoqi** (miloddan avvalgi 478-404, 378-337-yillar) bunday hamkorlikning eng ko'zga ko'ringan vakillaridan biri bo'lgan.

Xalqaro munosabatlarning zamonaviy tizimi xalqaro huquqning umume'tirof etilgan me'yorlariga asoslanadi. Ma'lumki, barcha xalqaro shartnomalar BMT ro'yxatiga olingan. Shu bilan birga, tan olish kerakki, zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimida mavjud xalqaro shartnomalar va ularning qoidalarini yagona va majburiy

izohlashni samarali amalga oshiradigan va bunday sharhlarga muvofiq barcha davlatlar tomonidan so'zsiz bajarilishini ta'minlaydigan organ mavjud emas.

Hatto BMT Xavfsizlik Kengashi doimiy a'zolarining o'zaro mos keluvchi ovozlari asosida qaror qabul qilinishi mumkin. BMT Xalqaro Sudining qarama-qarshi xalqaro-huquqiy masala bo'yicha qabul qilgan qarorlari (agar ular buni oldindan qabul qilishga kelishib olgan bo'lsalar) davlatlar uchun majburiydir. Hech bir suveren davlat, xalqaro shartnomalar qoidalarini u bilan kelishib bo'lmaydigan tarzda talqin qilinishga majbur etilishi mumkin emas. Mavjud sharoitlarda, zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimida XNTlarning o'rmi alohida ahamiyat kasb etishi tabiiy. Doimiy faoliyat ko'rsatadigan XNTlarni ta'sis etuvchi davlatlar mavjud xalqaro munosabatlar tizimining alohida segmentlarini ajratib turadi hamda tashkil etilgan XNTlarning institutlari va ijroiya organlari yordamida ularning umumiy manfaatlariga muvofiq tarzda tartibga solish qoidalarini to'g'risida ratifikatsiya qilinishi lozim bo'lgan shartnoma tuziladi. Bu borada ularga muayyan vakolatlar berilgan.

XNTlar, qoida tariqasida, doimiy va nomuayyan muddatga tashkil etilgani bois, ularning asosiy shartnomalari qoidalarini a'zo davlatlar uchun doimiy xalqaro huquq normalariga aylanadi. Bunday tashkilotlar sonining ortib borishi munosabato bilan ular xalqaro huquq va tartibning ajralmas qismiga aylanadi¹. Odatda, ta'sischi davlatlar mazkur XNTlar qoshida barcha a'zo davlatlar uchun tashkilot faoliyatiga doir yagona va majburiy xarakterdagi qarorlar chiqaruvchi sud instansiyalari faoliyatini yo'lga qo'yadilar. Bunda suveren davlatlar o'z majburiyatlarini bajarishlari (mavjud XNT sudlari tomonidan talqin qilinganidek) yoki uning tarkibidan chiqishlari lozim.

Doimiy davlatlarni ular tomonidan tashkil etilgan XNTlar ijroiya suveren davlatlarni organlari tomonidan tartibga solish va boshqarish hokimiyati aylantirganda, tabiiyki, ularga berilgan vakolatlar obyektlariga suveren davlatlarning xalqaro huquqiy normalarni doirasida suveren davlatlarning talqin qilish imkoniyati keskin cheklanadi. Mazkur missiyani XNTlar kabi samarali amalga oshirishning imkoni bo'lgan.

Wallace M., Singer J. D. Intergovernmental Organization in the Global System, 1815-1945. A Quantitative Description / International Organizations. 2019. – P. 239–267.

Xalqaro huquqning yangi subyekti sifatida xalqaro tashkilotlarning tashkil etilishi, suveren davlatlar tomonidan ularga bir qator huquq va majburiyatlar berilishini, shuningdek, xalqaro huquq normalarini yaratish va qo'llanilishida ishtirok etish va ushbu normalarga rioya etilishi ustidan nazorat o'rnatish vakolati tan olinishini anglatadi.

Shunday qilib, suveren davlatlar tomonidan ta'sis etilgan xalqaro tashkilotlar ularni xaotik xarakterdagi xalqaro munosabatlar tizimida davlatlarning huquqlariga putur yetkazmagan holda barqaror xalqaro-huquqiy tartibni o'rnatib kelmoqdalar. Ularning xalqaro munosabatlar tizimining ayrim segmentlarini tartibga solish doirasi qanchalik keng bo'lsa, tizimning o'zi ham shunchalik uyushgan va tizimli bo'ladi. Shunga ko'ra, xalqaro shartnomalar asosida tashkil etilgan xalqaro tashkilotlar sonining ortishi, zamonaviy dunyoda xalqaro huquq va tartibning mustahkamlanishiga xizmat qiladi, deyish o'rinlidir. Xalqaro hayotning yangi bosqichida xalqaro tashkilotlarning yanada kengayishi xalqaro huquq va tartibni o'rnatish va barqarorlashtirishda munosib hissa qo'shishi tabiiy. Zamonaviy siyosiy jarayonlarda xalqaro tashkilotlar faoliyatining ushbu yo'nalishi alohida ahamiyatga ega.

Ko'plab xalqaro tashkilotlarning o'zaro munosabatlari doirasida milliy davlatlar o'z milliy manfaatlari va davlat suverenitetini xalqaro hamkorlik ehtiyojlari bilan o'zaro muvofiqlashtirish imkoniga ega bo'ladilar. Shu o'rinda, xalqaro tashkilotlarga a'zolik muqarrar ravishda a'zo davlatlarning davlat suverenitetini cheklashga olib keladi, degan taxmin noo'rin ekanini ta'kidlash joiz. Ayrim suveren davlatlarning xalqaro tashkilotlar doirasidagi faolligi, ularning tashqi aloqalarni boshqarish doirasini sezilarli darajada kamaytirgan holda, xalqaro munosabatlarning boshqa subyektlari bilan o'zaro munosabatlari xususiyatiga jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda. Zero, ikki tomonlama munosabatlarda davlatlar ko'plab xalqaro tashkilotlar va xalqaro huquq oldidagi majburiyatlarini to'laqonli hisobga olishlari talab etiladi.

Bugungi kunga kelib, YIga a'zo davlatlar o'zaro mavjud qarama-qarshiliklarni hal qilish maqsadida qurolli kuchlarga murojaat qiladigan vaziyatni tasavvur qilish juda qiyin. Buning uchun yuzaga kelgan qarama-qarshilik yoki nizolarni siyosiy yo'l bilan hal qilish imkonini beradigan siyosiy mexanizm va institutlar yaratilgan.

Mintaqaviy integratsion guruhga mansub bo'lgan xalqaro tashkilotlar, a'zo davlatlar o'rtasidagi integratsion jarayonlarning rivojlanib borishi sharoitida bilan, BMT nizomining VIII bobida ko'zda tutilganidek, BMT Xavfsizlik Kengashiga murojaat qilmasdan, mintaqadagi integratsion makonda xalqaro tinchlik va xavfsizlikni ta'minlashga qodir.

Dunyoning turli mintaqalarida integratsiya jarayonlarini yanada rivojlantirish va chuqurlashtirish sharoitida xalqaro tinchlik va xavfsizlikni mintaqaviy va xalqaro miqyosda ta'minlashda mintaqaviy integratsion guruhga mansub xalqaro tashkilotlarning roli sezilarli darajada ortishi va shu bilan xalqaro tinchlik va xavfsizlikni ta'minlashning barcha zamonaviy tizimiga ta'sir ko'rsatishi tabiiy. Kelgusida mavjud holat BMT Xavfsizlik Kengashining nazkur sohadagi o'rni va roliga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Ma'lumki, Yevropa Ittifoqida, ko'plab boshqa xalqaro tashkilotlarda bo'lgani kabi, nafaqat a'zo davlatlar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi, balki mintaqaviy miqyosdagi muayyan sohalarda xalqaro-huquqiy tartibni o'rnatuvchi huquqiy normalar tizimi yaratilgan. Mintaqaviy tashkilot normalari xalqaro huquqning umume'tirof etilgan me'yorlariga zid kelmaydi va ayni paytda u universal xarakterga ega bo'la olmaydi va faqat a'zo davlatlar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solish bilan cheklanadi. Shu boisdan, jahonda mintaqaviy integratsiya guruhlari soni tobora ortib borayotgan sharoitda mavjuf normalarning xalqaro muloqot maydonidagi ta'sirini oshirish borasidagi tahliliy tadqiqot ishlarini amalga oshirish zarurati yuzaga keladi.

So'nggi o'n yilliklarda BMT tizimi, xususan, BMT Xavfsizlik Kengashida islohotlarni amalga oshirish muammolariga katta e'tibor qaratilmoqda. Ko'p hollarda ularning yechimi BMT Xavfsizlik Kengashi tarkibidagi o'zgarishlar va uning a'zolarining vakolatlari to'g'risidagi munozaralarga sabab bo'lmoqda. Shu bilan birga, BMT tizimini o'zgaruvchan xalqaro muhitga moslashtirish jarayoni uzluksiz tarzda davom etayotganini ta'kidlash joiz. Masalan, barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan operatsiyalarni eslatib o'tishning o'zi kifoya. Ma'lumki, BMT nizomida ular haqida hech bir so'z aytilmagan, ammo shunga qaramay, bugungi kunda BMT shafe'ligida o'nlab tinchlikparvar missiyalari faoliyat ko'rsatmoqda.

BMTning zamonaviy tizimi a'zo davlatlarning suveren tengligi prinsipiga asoslangan bo'lib, avvalo davlatlararo munosabatlarni

tartibga solishga qaratilgan. Ayni paytda, zamonaviy nizo va urushlar alohida davlatlarning rivojlanishi, ularning ichki ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli tufayli tobora keng tus olmoqda. Ma'lumki, BMT Xavfsizlik Kengashi xalqaro tinchlik va xavfsizlikka tahdid deb toplimagan bu kabi nizoli vaziyatlarni hal qilish vakolatiga ega emas.

Aftidan, BMT islohoti doirasida asosiy e'tibor Xavfsizlik Kengashining tarkibiga emas, balki tashkilotning xalqaro tinchlik va xavfsizlikka taalluqli yangi muammolarni hal qilish qobiliyatiga qaratilishi kerak.

BMTga a'zo davlatlar rahbarlari tomonidan Mingyillik deklaratsiyasining qabul qilinishi va uning asosida Mingyillik rivojlanish maqsadlarining ishlab chiqilishi bu yo'ldagi muhim qadamlardan biri bo'ldi. BMTga a'zo davlatlarning global siyosati jahon hamjamiyatning sa'y-harakatlarini muvofiqlashtirish va ularni jahon siyosatining muhim ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal qilishga yo'naltirishga qaratilgan:

- qashshoqlik va kanbag'allikni tugatish;
- tug'ruq paytida onalar va bolalar o'rtasidagi o'limlar sonini kamaytirish;
- OITS va boshqa og'ir kasalliklarga qarshi kurash;
- gender tenglikka erishish va har ikkala jins vakillari uchun ta'lim olish uchun teng imkoniyatlarni yaratish;
- atrof-muhitni muhofaza qilish;
- rivojlanish maqsadida global hamkorlikni yo'lga qo'yish kabilar shular jumlasidandir.

Shunday qilib, BMT xalqaro terrorizm, uyushgan jinoyatchilik, noqonuniy immigratsiya, giyohvand moddalar kontrabandasi, demografik nomutanosiblik kabi xalqaro tinchlik va xavfsizlikka tahdid soluvchi hodisalarning ildizlarini yo'q qilishga yordam bermoqda. Shunga ko'ra, BMTning o'zgaruvchan xalqaro muhitga moslashuvi jarayoni boshlandi, desak xato bo'lmaydi. Agar ilgari harbiy-siyosiy masalalar tashkilot faoliyatida muhim o'rinni egallab kelgan bo'lib, tinchlik va xalqaro xavfsizlikni ta'minlash istiqbollari asosan ularning prizmasida ko'rib chiqilgan bo'lsa, hozir vaziyat tubdan o'zgarimoqda.

Ta'kidlash joizki, Birlashgan Millatlar Tashkilotini isloh qilish doirasida Iqtisodiy va Ijtimoiy Kengashning funksiyalari, shuningdek, uning faoliyatini tashkil etish, rivojlanishni qo'llab-quvvatlash

dasturlari, shuningdek, BMT darajasidagi global muammolarni hal qilish masalalarini batafsil ko'rib chiqish lozim. Mazkur masalalar xalqaro tashkilotlar, xususan, BMTning rolini oshirish bo'yicha fundamental ilmiy tadqiqotlar o'tkazishni talab qiladi. Agar ushbu tendentsiyalar yanada rivojlansa, unda xalqaro tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash muammosi yangicha qiyofada ko'ndalang qo'yilishi mumkin. Shuningdek, BMT faoliyatining turli sohalari o'rtasida vakolatlarni qayta taqsimlash va tarkibiy o'zgarishlar amalga oshirilidhi ham ehtimoldan holi emas.

Xalqaro tashkilotlarning sinxron shakllanishi jamiyat rivojining o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq bo'lgan umumiy sabablar tufayli yuzaga kelgan. Davlatlararo munosabatlardan tashqarida o'z yechimini kutayotgan ko'plab muammolar uzoq muddatli va ko'p qirrali asosda hal etladigan doimiy va ko'p tomonlama hukumatlararo va nohukumat hamkorlikning turli shakllarini yaratish zarurati yuzasidan yuzaga kelgan internatsionalizatsiya jarayonlari doirasida hal etila boshlandi.

Xalqaro tashkilotlar paydo bo'lishi bilan, bugungi kunda dunyo siyosati va xalqaro munosabatlarning asosiy elementlaridan biriga aylanib ulgurgan "xalqaro aloqalarning yangi instituti shakllana boshladi"². Bir yarim asr davomida 68 mingdan ortiq XHT va XNTlar paydo bo'ldi. 1910-yilning may oyida Bryusselda tashkil etilgan Xalqaro uyushmalar ittifoqi xalqaro tashkilotlar to'g'risida eng to'liq ma'lumotga ega³. Ko'psonli XHT va XNTlarning paydo bo'lishi va rivojlanishi ilmiy-nazariy tadqiqotlarni yuritishni talab qiladi.

Xalqaro tashkilotlarga oid tadqiqotlardan biri rus olimi, professor P.E. Kazanskiy tomonidan 1897-yilda Odessada nashr etilgan "Davlatlarning umumiy ma'muriy ittifoqlari" nomli uch jildlik asarida aks etgan⁴. Sankt-Peterburg davlat universiteti dotsenti A.E.Kuteinikov tomonidan esa Rossiya va xorijiy davlatlardagi XHT bugungi holati haqida batafsil ma'lumot berilgan⁵. Rus tadqiqotchilarining ilmiy

² Коваленко И.И. Международные неправительственные организации. - М.: Международные отношения, 2016. - С. 65.

³ Морозов Г.И.. Актуальные проблемы деятельности международных организаций: Теория и практика. - Москва: Международные отношения, 2012. - С. 24.

⁴ Морозов Г.И.. Актуальные проблемы деятельности международных организаций: Теория и практика. - Москва: Международные отношения, 2012. - С. 7.

⁵ Кутейников А.Е. Международные межправительственные организации. Теоретико-социологический анализ. - С.-Пб.: Издательство Санкт-Петербургского университета, 2018. - С. 73.

izlanishlari va nashrlari sirasiga A.X. Abashidze, T.M. Bikova, A.I. Kaminina. I.I. Kovalenko, E. Kuznetsova, I. Malkina, T.D. Matveeva, E.N. Nikolayeva va D.A. Ursina kabilarni kiritish mumkin.

2-§. Delos ittifoqi, Ganzey Ligasi zamonaviy xalqaro tashkilotlarning prototiplari sifatida

Ittifoq a'zolari Afina bilan qasamyod yordamida o'zaro bog'langan bo'lib, unga ko'ra ular afinalik qo'mondonlarga bo'ysunishlari, ularga har yili naqd pul (jami 460 talant) to'lashga yoki teng miqdordagi kema va askarlarni yetkazib berishga va'da berganlat. Ittifoq a'zolarining katta qismi kemalar va odamlarni yetkazib berishni afzal ko'rdilar. Ittifoq g'aznasi Delosda (Delos Union) joylashgan bo'lib, u yerda kasaba uyushma tarkibiga kiruvchi shahar-davlatlar vakillarining yillik yig'ilishi o'tkazilgan.

DELOS ITTIFOQI - (1-Afina dengiz ittifoqi) - yunon dengiz bo'yi shaharlari va Egey dengizidagi orollarning Afina boshchiligidagi ittifoqi (mil.av. 478/477-404). Ittifoq a'zolarining kengashlari Delos o.da, Apollon ibodatxonasida o'tkazilgan. Peloponnes urushi (mil. av. 431-404)da Afina mag'lubiyatga uchragach, tarqatib yuborilgan.

Yunonistonning forslar ustidan g'alaba qozonganidan so'ng, Ittifoqning faoliyati kengayib, asosiy e'tibori O'rtayer dengizi mintaqasida savdo-sotiqni kengaytirishga qaratilgan edi. Ittifoq umumiy xazina va umumiy flotga ega bo'lib, barcha masalalar umumiy yig'ilishda hal etilar edi, bunda har bir shahar bitta ovozga ega bo'lgan. Yig'ilishda boshqaruv organlari saylangan. Afina dengiz ittifoqida yagona sud tizimi faoliyat yuritgan vaqtlar ham bo'lgan.

Davlatlararo hamkorlik rivojlidagi muhim sahifalardan yana biri **O'rta asrlar (V-XV asrlar)**ga to'g'ri keldi. Ushbu tarixiy bosqichning dastlabki yillari xalqaro munosabatlarning o'ziga xos murakkabligi va antagonizm bilan ajralib turar edi, zero ular millatlararo xususiyatga ega edi. Biroq, Buyuk jug'rofiy kashfiyotlar davriga kelib, shaxslararo munosabatlar kengayib, vaziyat tubdan o'zgardi. Xalqaro aloqalarnig keskin o'sishi sharoitida davlatlar rahbarlari oldida savdo va xavfsizlik sohasidagi bir qator jiddiy vazifalar ko'ndalang qo'yildi. Xalqaro vaziyatning o'garishi

sharoitida davlatlararo munosabatining xususiyatida ham o'zgarish kuzatildi. Yangi shart-sharoitlar tuzilayotgan alyanslarga oldida alohida talablar qo'ydi: birinchidan, ular teng huquqli bo'lishi; ikkinchidan, ular doimiy asosda tuzilishi lozim edi.

Ganzev ittifoqi – XIII asr boshlarida umumiy strategiyani ishlab chiqish va ittifoq a'zolarining siyosiy va iqtisodiy manfaatlarini amalga oshirish maqsadida tashkil etilgan Yevropaning shimolidagi mustaqil shaharlar ittifoqi.

Jumladan, **Ganzev ittifoqi** mustaqil savdo shaharlari o'rtasida, XIII asr boshlarida avj olgan qaroqchilar faolyatiga javoban Yevropaning shimoliy shaharlaridan iborat tarkibda tashkil etilgan. Uning poytaxti dastlab Lubekda bo'lgan, keyinchalik esa, Xansaga ko'chib o'tgan. Ganzev ittifoqining o'ziga xos xususiyatlari:

- muayyan nizomga mos ravishda umumiy qoidalarning mavjudligi;
- barcha muhim masalalar shaharlarning umumiy yig'ilishida (Ganzetag) hal qilingan;
- umumiy mulkning mavjudligi (flot, omborlar);
- umumiy xazina;
- davlatlararo munosabatlarning teng huquqli a'zosi sifatida boshqa davlatlarga urush e'lon qilish huquqi.

Bu xususiyatlarning barchasi zamonaviy hukumatlararo tashkilotlarga xos talablarga to'la javob beradi.

3-§. XVII - XVIII asrlarda tashkil etilgan xalqaro Yevropa konferentsiyalari

O'rta asrlar haqida gap ketganda, katolitsizm haqida so'z yuritmaslik mumkin emas. Katolik cherkoviga birikish, yagona Yevropa hamjamiyatini shakllantirish uchun asos bo'ldi. Muayyan vaqt oralig'ida katolik cherkovi Yevropadagi fuqarolar urushlarini to'xtata oladigan va dunyoviy hokimiyatning o'zboshimchaliklarini cheklaydigan yagona kuchga aylangan edi. Ammo vaqt o'tishi bilan, milliy davlatlar jamiyat ehtiyojlarini qondirish borasidagi javobgarlikni o'z zimmasiga ola boshladilar. Natijada "Vestfaliya tizimi" deb nomlangan tizim yaratilgan bo'lib, uzoq yillar davomida u

Yevropada va uning tashqarisidagi xalqaro munosabatlarning rivojlanish yoʻnalishlarini belgilab berdi.

Vestfal tizimi - mustaqil davlatlar suvereniteti va oʻzaro ichki ishlarga aralashmaslik tamoyiliga asoslangan. Tizim Yevropadagi qonli oʻttiz yillik urushdan keyin tashkil etilgan.

Vestfaliya shartnomasining amalga oshirilishi xalqaro hukumatlararo tashkilotlarining shakllantirilishi uchun zarur boʻlgan bir qator shart-sharoitlarni yaratdi:

- xalqaro munosabatlarning nisbatan barqaror tizimi shakllandi;
- davlatlarning siyosiy va iqtisodiy yoʻnalishlardagi uzoq muddatli milliy manfaatlarini belgilab berildi;
- xalqaro munosabatlarni yuritishga doir davlat monopoliyasi oʻrnatildi;
- birgalikda (davlatlararo) hal qilishni talab qiladigan umumiy millatlararo muammolar vujudga keldi.

Ushbu shart-sharoitlarni yuzaga keltirishda Yevropaga qariyb ikki asr talab etildi. Bu vaqt ichida AQSh oʻz mustaqilligini qoʻlga kiritdi, natijada burjuaziya hokimiyat tepasiga kelib, Amerika davlatining siyosatini belgilab berdi. Fransiyadagi burjuaziyaning hokimiyat tepasiga olib kelgan Buyuk burjua inqilobi Buyuk Britaniya va Gollandiyada burjua siyosiy rejimlarining oʻrnatilishiga hissa qoʻshdi. Aynan shu davlatlar Yevropada hukmronlik oʻrnatib, uning keyingi yillardagi rivojini belgilab berdilar. Siyosiy inqiloblar Yevropaning iqtisodiy jihatdan tiklanishiga oʻziga xos turtki boʻldi (Buyuk Britaniyadagi sanoat inqilobi). Natijada davlatlar oʻrtasida iqtisodiy aloqalarning keskin (10-100 marta) kuchayishi kuzatildi. Mamlakatlar oʻrtasida doimiy konstruktiv hamkorlik aloqalarining mavjudligi davlatlar rivoji uchun muhim ahamiyat kasb etdi.

Yevropadagi davlatlararo hamkorlikning kuchayishiga sabab boʻlgan omillardan biri Napoleonning tajovuzkor siyosatiga qarshi kurashda oʻzaro birlashish zarurati bilan bogʻliq edi. Napoleonga qarshi kurash maqsadida Yevropa davlatlarining frantsuzlarga qarshi koalitsiyasi (Buyuk Britaniya, Avstriya, Rossiya, Prussiya) tuzildi. Vena Kongressi "Napoleon urushlari"ga chek qoʻydi.

Vena Kongressi (1.11.1814-9.06.1815) - Fransiyada monarxiya tuzumini tiklash va Yevropada yangi chegaralarni mustahkamlash maqsadida Napoleon urushlari tugaganidan keyin Angliya, Rossiya, Avstriya va Prussiya tashabbusi bilan chaqiriladigan.

Aynan Vena Kongressi buyuk davlatlar xalqaro konferentsiyalarini muntazam ravishda chaqirishga zamin yaratdi, bunda asosiy Yevropa davlatlariga xalqaro muammolarni muhokama qilish va yechimlarni topish imkoni berildi. Dastlabki yillarda asosan Yevropa muammolari hal qilindi; keyingi yillarda kuchlar o'zlarining vakillarini aniq xalqaro muammolarni hal qilish uchun yig'ala boshladilar (masalan, Qrim urushi yakunlari yuzasidan chaqirilgan 1856-yilgi Parij Kongressi).

Vena Kongressining boshqa muhim natijalari sifatida Yevropada inqilobiy chiqishlarni tugatish maqsadida "Muqaddas"ning tashkil etilishi;

— "daryolar bo'ylab savdo almashinuvining kengayishi natijasida bozorka doir muammolarini hal etila boshlashi. Natijada "Erkin sayohat to'g'risida"gi deklaratsiya qabul qilindi, mazkur hujjat esa Reyn bo'ylab tariflar va savdoni tartibga soluvchi Reyn Komissiyasi dastlabki to'laqonli XHTga tuzildi.

Yoshlik muammosi hal etildi. tashkilotlarning rivoji kommunikatsiyalarga yondashuvni shakllantirish zaruratini taqozo etdi.

Yonadalaro yondashuvni shakllantirish zaruratini taqozo etdi. 1850-yilda Prussiya, Avstriya, Bavariya va Saksoniya

Yonadalaro yondashuvni shakllantirish zaruratini taqozo etdi. 1850-yilda Prussiya, Avstriya, Bavariya va Saksoniya

Yonadalaro yondashuvni shakllantirish zaruratini taqozo etdi. 1850-yilda Prussiya, Avstriya, Bavariya va Saksoniya

Yonadalaro yondashuvni shakllantirish zaruratini taqozo etdi. 1850-yilda Prussiya, Avstriya, Bavariya va Saksoniya

Yonadalaro yondashuvni shakllantirish zaruratini taqozo etdi. 1850-yilda Prussiya, Avstriya, Bavariya va Saksoniya

Yonadalaro yondashuvni shakllantirish zaruratini taqozo etdi. 1850-yilda Prussiya, Avstriya, Bavariya va Saksoniya

Yonadalaro yondashuvni shakllantirish zaruratini taqozo etdi. 1850-yilda Prussiya, Avstriya, Bavariya va Saksoniya

aktorlardan biri sifatida talqin etiladi. Bu kabi ilk tashkilotlar XIX asrning ikkinchi yarmiga kelibgina shakllana boshladi. Demak, bu vaqtga qadar jahon hamjamiyati tomonidan bu kabi birlashmalarga nisbatan ehtiyoj sezilmagan. Shu o'rinda bir qator savollar o'rtaga tashlanadi:

– Suveren davlatlarni doimiy xalqaro hukumatlararo tashkilotlar (XHT)ni tuzishga qanday omillar majbur qildi?

– Xalqaro munosabatlar tizimining qanday sifat ko'rsatkichlari ularni shakllantirish zaruratini yuzaga keltirdi?

– Bugungi kunga kelib, ular qaysi yo'nalishlarda taraqqiy etmoqdalar?

– Mavjud fenomen zamonaviy tsivilizatsiyaning kelgusi taraqqiyoti hamda xalqaro tinchlik va xavfsizlikni ta'minlashga qanday ta'sir ko'rsatishi mumkin?

Uning nazariy asoslari xalqaro tashkilotlar fanining asoschilaridan biri, taniqli sovet va rus olimi, MGIMO professori Grigoriy Iosifovich Morozov tomonidan yaratilgan⁶.

Ko'p asrlar davomida davlatlar o'z faoliyati davomida xalqaro munosabatlarning boshqa subyektlari bilan munosabatlarni asosan ikki tomonlama munosabat o'rnatib kelganlar. Ba'zida davlatlar muayyan muammolarni hal etishda ko'p tomonlama diplomatiyaning turli shakllaridan foydalanib kelsalarda, amalda ular doimiy va barqaror xaraktarga ega bo'lmagan. 1648-yilgi Vestfaliya tinchlik shartnomasining qabul qilinishi munosabati bilan suveren davlatlarning paydo bo'lishi, ularda o'z hududi, tabiiy boyliklari va aholisi ustidan suverenitetga xos bo'lgan huquqlarni tasdiqlash, himoya qilish va ta'minlanishga qaratilgan intilishlar avj oldi.

Dunyo sahnasiga chiqib kelgan har bir yangi suveren davlat xalqaro miqyosda o'z manfaatlarini himoya qilish maqsadida individual o'yinchi sifatida faoliyat yurita boshladi. Suveren davlatlar o'rtasidagi munosabatlar taraqqiy etishi munosabati bilan xalqaro munosabatlarni tartibga soluvchi ilk xalqaro normalar vujudga kela boshladi. Yangi suveren davlatlar maydoni, harbiy va iqtisodiy qudratiga ko'ra bir-biridan farq qilar edilar. Tez orada ular orasidan xalqaro munosabatlar tizimida eng iqtisodiy va harbiy qudratli

⁶Морозов Г.И.. Актуальные проблемы деятельности международных организаций: Теория и практика. – Москва: Международные отношения, 2012. – С. 54.

jihatidan nisbatan ustun mavqeni egallab turgan yirik davlatlarning kichik guruhi ajralib chiqdi. Xalqaro maydon harbiy va iqtisodiy jihatdan zaif davlatlar va xalqlar hisobidan o'z manfaatlarini himoya qilishga uringan yirik kuchlarning raqobat maydoniga aylandi.

Buyuk davlatlar xalqaro xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiluvchi xalqaro mexanizmlarning yaratilishiga qiziqish bildirmadilar, zero mazkur birlashmaga a'zo bo'lgan davlatlarning teng asoslarga faoliyat yuritishlari, ular tomonidan harbiy kuch yordamida o'z manfaatlarini himoyalashda to'siq sifatida e'tirof etilar edi. Ularni avvalo g'animlarga qarshi kurashda boshqa davlatlar bilan vaqtincha harbiy ittifoq va koalitsiyalar tuzish imkoniyati qiziqtirar edi. Kichik va o'rta suveren davlatlar mavjud xalqaro munosabatlar tizimiga sezilarli ta'sir ko'rsatish imkoniga ega bo'lmaganliklari bois, qudratli davlatlar bilan koalitsiyaga kirishishga majbur bo'lar yoki manfaatlar to'qnashuvi qurboniga aylanmaslik maqsadida xalqaro ishlarda faol ishtirok etishdan tiyilar edilar. Shuning uchun XIX asrda Yevropaning kichik va o'rta davlatlari orasida xalqaro ishlarda mutlaq betaraf bo'lish istagi alohida ahamiyat kasb etib, mavjud holat ularning tashqi siyosiy faoliyatiga sezilarli ta'sir o'tkazdi.

Mavjud holat 1814-1815-yillardagi Vena Kongressi yakunlaridan so'ng yanada yaqqol namoyon bo'la boshladi. 1815-yil sentyabr oyida Avstriya, Prussiya va Rossiya monarxlarini tomonidan Muqaddas Ittifoqni ta'sis etish to'g'risidagi shartnoma tuzilib, u amalda Yevropa hukumati vazifasini o'z zimmasiga olgan edi. 1815-yilning noyabr oyida Avstriya, Buyuk Britaniya, Prussiya va Rossiya vakillari ishtirokida To'rtlar ittifoqi asos solingan bo'lib, keyinchalik, ya'ni 1818-yilga kelib uning tarkibiga Fransiya ham kiritilgan. Buyuk davlatlarning xalqaro birlashmasi nafaqat Yevropadagi xalqaro munosabatlar tizimini boshqarish, balki turli mamlakatlarning ichki rivojlanishini o'z nazoratiga oldi. Ikki tomonlama diplomatiya qit'adagi davlatlararo munosabatlardagi o'z monopoliyasini yo'qotdi. "Yevropa kontserti" amaliyoti salkam qirq yil davom etdi.

Germaniya va Fransiya o'rtasida 1804-yilda tuzilgan va 1815-yilning 9-iyunda Vena Kongressi tomonidan rasman ta'sis etilgan kelishuv natijasida tuzilgan hamda kemalarning Yevropa suvlari bo'ylab erkin harakatlanishini ta'minlashga xizmat qiluvchi Reyndagi navigatsiya bo'yicha Markaziy komissiya hukumatlararo tashkilotlarning ilk ko'rinishi sifatida namoyon bo'ldi.

Shuningdek, XIX asr boshlarida Germaniyaning Bojxona ittifoqi tuzilib, u davlatlararo bojxona to'siqlarini bartaraf etish maqsadini ko'zlagan Germaniya mustaqil suveren davlatlarining koalitsiyasi bo'lib xizmat qildi. Bojxona ittifoqining tashqi chegarasida undirilgan bojxona to'lovlari asosida umumiy kassa shakllantirilib, daromadlar ishtirokchi davlatlarning o'rtasida ularning aholi soniga mutanosib ravishda o'zaro taqsimlanar edi⁷. Mazkur ittifoq ularning yagona davlat sifatida birlashuvi yo'lidagi muhim qadamlardan biri bo'ldi va u keyinchalik shakllangan klassik xalqaro tashkilot belgilariga ega emas edi.

1860-yillarga qadar qudratli davlatlar o'zlarining harbiy kuchi va o'zlari uchun foydali bo'lgan har qanday to'siqlarni yenga olish qobiliyatiga tayanib, mudofaa salohiyati jihatidan nisbatan kuchsiz bo'lgan suveren davlatlar bilan hamkorlikda XHTlar tashkil etish zaruratiga ehtiyoj sezmagalar. XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib, jahon savdosi jadal sur'atlar bilan rivojlana boshlagan vaqtdan boshlab, jahon iqtisodiy munosabatlarining rivoji barqaror xalqaro-huquqiy, savdo-iqtisodiy, transport, aloqa, moliyaviy va boshqa sharoitlarning ta'minlashini talab etdi. Ushbu maqsadlarga esa, kuch omiliga tayangan holda ikki tomonlama munosabatlar doirasida emas, balki kichik va o'rta davlatlarning o'zaro ishonchli hamkorligi asosidagina erishish mumkin edi.

Davlat organlaridan mustaqil ravishda, lekin ularning ko'rsatmalariga binoan va ularning roziligi asosida, ularni tashkil etgan suveren davlatlarning umumiy manfaatlariga muvofiq holda ko'p qirrali davlatlararo munosabatlarning ayrim yo'nalishlarini boshqarish funksiyasini o'z zimmasiga oladigan doimiy xalqaro tuzilmalarni tashkil etish zarurati paydo bo'ldi. Natijada Yerni o'lchash bo'yicha xalqaro ittifoq (1864), Jahon telegraf ittifoqi (1865), Umumjahon pochta ittifoqi (1874), Xalqaro og'irlik va o'lchovlar byurosi (1875), Intellektual mulkni himoya qolish bo'yicha Xalqaro ittifoq (1886), Xalqaro transport ittifoqi (1890) va boshqa XHTlar paydo bo'ldi.

Davlatlararo iqtisodiy aloqalar rivoji Xalqaro qishloq xo'jaligi instituti va Xalqaro xususiy huquqni birlashtirish xalqaro instituti kabi davlatlararo birlashmalarning paydo bo'lishiga zamin yaratdi⁸. Ushbu

⁷ Буторина О. Европейская интеграция. – М.: Деловая литература, 2011. – С. 258.

⁸ Коваленко И.И. Международные неправительственные организации. – М.: Международные отношения, 2016. – С. 65.

institutlarning tashkil etilishi davlatlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikning kuchayganligi va boshqa davlatlar bilan bir qator sohalarida o'zaro munosabatlarni amalga oshirish mexanizmlariga ega bo'lish zarurati natijasi bo'ldi. Yangi xalqaro institutlar doirasida ko'plab suveren davlatlarning muayyan meyorlar bilan tartibga solingan munosabatlari o'rnatila boshlandi.

Dastlabki doimiy asosda faoliyat yurituvchi XHTlarning ta'sischi davlatlari tomonidan ularga transport, savdo, aloqa va xalqaro aloqalarning boshqa sohalarida xalqaro huquqning amaliy faoliyatini nazorat qilish vazifasi yuklatildi. Keyinchalik bu kabi funktsiyalar a'zo davlatlari soni 191 taga yetgan Xalqaro fuqaro aviatsiyasi tashkiloti (ICAO) hamda a'zo davlatlari soni 174 nafarni tashkil etgan Xalqaro dengiz tashkiloti (IMO) kabi XHTlarning boshqaruv organlari tomonidan amalga oshirila boshladi.

Ushbu institutlarning zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish samaradorligi to'g'ridan-to'g'ri barcha a'zo davlatlarning o'zaro ishonchlilik asosidagi faoliyati va o'z majburiyatlarini to'laqonli bajarishga bog'liq. Ularni harbiy kuch yordamida xalqaro majburiyatlarni bajarishga majburlash, masalan, transport kommunikatsiyalari sohasida milliy manfaatlarga mos kelmaydigan majburiyatlarni bajarishga majburlash shunchaki imkonsiz edi. Bunda asosiy e'tibor suveren a'zo davlatlarning umumiy manfaatlariga mos keladigan ko'p tomonlama davlatlararo munosabatlarning samarali faoliyat ko'rsatishini ta'minlashga qaratilgan edi.

XHTga a'zo davlatlar tomonidan qabul qilingan majburiyatlarning bajarilishini kafolatlash maqsadida ta'sischi a'zo davlatlarning qonun chiqaruvchi organlari tomonidan xalqaro shartnomalarni ratifikatsiya qilinishini yo'lga qo'ydilar. Unga ko'ra, xalqaro tashkilotni tashkil etish to'g'risidagi suveren a'zo davlatlarning asosiy shartnoma majburiyatlari ularning har biri uchun ichki qonun kuchiga ega bo'ldi. Natijada a'zo davlatlar o'z majburiyatlarini bajarishlari uchun zarur huquqiy kafolatlar ta'minlandi.

Ta'sis etilgan xalqaro tashkilotlar tarkibida xalqaro xodimlardan iborat ijroiya organlari tashkil etilgan bo'lib, ular o'z milliy davlatlari manfaatlarini emas, balki umumiy manfaatlarni himoya qilishlari lozim bo'lgan. Xalqaro tashkilotlarning bu kabi ijro etuvchi organlariga ta'sischi davlatlar tomonidan berilgan vakolatlar doirasida ularga yuklangan funktsiyalarni samarali bajarilishini ta'minlashga

xizmat qiluvchi huquqiy normalarini yaratish imkoni berildi. Xalqaro tashkilotlarning ijro etuvchi organlari tomonidan a'zo davlatlari uchun majburiy bo'lgan qarorlarning qabul qilinishi, ko'p hollarda xalqaro huquq normalari shakllanishiga xizmat qildi.

Ko'p o'tmay, yangi tashkil etilgan xalqaro tashkilotlar umumiy xususiyatlar, xususan, xalqaro shartnoma asosida ta'sis etilib, ustav, doimiy organlar, byudjet, shtab-kvartira va kotibiyatga ega bo'la boshladilar. Ulardagi xizmat turi xalqaro davlat xizmati deb nomlanib, maxsus normalar asosida tartibga solindi. Keyinchalik zamonaviy - xalqaro tashkilotlarni qaror toptirish, ularning tarkibiy tuzilishi va faoliyatini tartibga soluvchi umumiy tamoyil va me'yorlar majmui shakllantirildi.

Shu tariqa, doimiy xalqaro hukumatlararo tashkilotlar va ularni tegishli sohalaridagi faoliyatida yo'naltiruvchi huquqiy me'yorlar xalqaro aloqalarning ajralmas qismlariga aylana boshladi. Suveren davlatlar o'rtasidagi savdo-iqtisodiy, moliyaviy va boshqa iqtisodiy aloqalarning rivoji mazkur aloqalarni tartibga solish zaruratini yuzaga keltirdi, bugungi kunda ham unga bo'lgan ehtiyoj tobora ortmoqda.

So'ngi yillarda xalqaro tashkilotlar sonining ortishi nafaqat globallashuv jarayonlari va davlatlararo bog'liqlikning ortishi, balki kichik va o'rta a'zo davlatlar suverenitetini yanada mustahkamlashning muhim ko'rsatkichi bo'ldi. Xalqaro tashkilotlar doirasida, yirik davlatlar davlatlararo aloqalarning ko'plab sohalarida o'z irodasini boshqalarga singdirish imkonidan mahrum bo'ldilar. Aksincha, yangi tashkil etilgan xalqaro tashkilotlar doirasida kichik va o'rta davlatlar o'zlarining davlat suverenitetini noharbiy vositalar bilan samarali himoya qilish qudratiga ega bo'ldilar. Rus olimi va diplomat V.N. Fedorovning fikricha, "Davlatlarning xalqaro tashkilotlar ishidagi ishtiroki ularga o'z suverenitetini amalga oshirish, xalqaro tashkilotlarning ta'sis hujjatlarida belgilangan maqsadlarga erishishda ularning xalqaro maydondagi harakatlarini boshqa davlatlar bilan muvofiqlashtirish uchun qo'shimcha imkoniyatlar beradi"⁹.

⁹ Кутейников А.Е. Международные межправительственные организации. Теоретико-социологический анализ. - С.-Пб.: Издательство Санкт-Петербургского университета, 2018. - С. 73.

4-§. Dastlabki xalqaro hukumalararo tashkilotlar (XHT)

Zamonaviy xalqaro munosabatlarning tez sur'atlar bilan o'zgarib borishi sharoitida hukumatlararo va nohukumat darajalaridagi ko'p tomonlama diplomatik munosabatlarni chuqur tahlil qilish uchun muhim asos bo'la oladi.

Ko'p tomonlama savdo-iqtisodiy almashinuvdagi ma'muriy va boshqa to'siqlarni olib tashlash, ushbu sohada doimiy va universal qonun-qoidalarini o'rnatish, nizolarni hal qilish mexanizmlarini yaratish, shuningdek, barqaror xalqaro huquqiy, transport, infratuzilmaviy, pochta, kommunikatsion, moliyaviy va boshqa munosabatlarni mustahkamlash maqsadida XIX asrning ikkinchi yarmida xususiy xalqaro huquqning kodifikatsiyasi vujudga kelgan. Bu esa, o'z navbatida dastlabki doimiy hukumatlararo tashkilotlarning paydo bo'lishiga olib keldi¹⁰.

Ular ko'p tomonlama savdo-iqtisodiy munosabatlar sohasida vujudga kelib, davlatlararo savdo-iqtisodiy almashinuvning kelishilgan ma'muriy qoidalarining doimiy va xolis bajarilishini ta'minlashga qaratilgan. Dastlabki doimiy XHTlar "ma'muriy birlashmalar" deb nomlangan.

1831-yilgi Reyn daryosi bo'ylab kemalar qatnovi bo'yicha xalqaro markaziy komissiyasi Reyn daryosi bo'ylab kemalar qatnovi to'g'risidagi konventsiyaga binoan tashkil etilgan. 1856-yilgi Parij Tinchlik Shartnomasi asosida Yevropa Dunyo Komissiyasi (EBC) tuzilgan. XIX asrning ikkinchi yarmida Hukumatlararo xalqaro sanitariya konventsiyasi (1853-yil), Yerni o'lchash bo'yicha xalqaro ittifoq (1864-yil), Xalqaro telegraf ittifoqi (1865-yil), Umumjahon pochta ittifoqi (1874-yil), Xalqaro og'irlik va o'lchovlar byurosi (1875-yil), Adabiy va badiiy mulkni himoya qilish bo'yicha xalqaro ittifoq (1886-yil) hamda Xalqaro transport xalqaro ittifoqi (1890-yil) ta'sis etilgan. M. Uolles va J.Singerning fikricha, XX asr boshlariga kelib, xalqaro maydonda 53 ta ma'muriy birlashma faoliyat ko'rsatgan¹¹.

Doimiy XHTlarning paydo bo'lishi, davlatlararo hamkorlik to'g'risidagi shartnomalarda ko'zda tutilmagan savdo-iqtisodiy

¹⁰ Морозов Г.И. Международные организации. Некоторые вопросы теории. – М.: Мысль, 2017. – С. 10.

¹¹Wallace M., Singer J. D. Intergovernmental Organization in the Global System, 1815-1964: A Quantitative Description / International Organizations. 2019. – № 2. P. 250-251.

munosabatlarning turli sohalarini tartibga solishni o'z zimmasiga olishga kirishgan XNTlarning keng doirasi bilan birgalikga paydo bo'la boshladi. Ular orasida: Xalqaro dengiz sug'urtachilari uyushmasi (1874-yil); Tovar belgilari xalqaro assotsiatsiyasi (1878-yil); Xalqaro yer tuzuvchilari federatsiyasi (1878-yil); Dunyoning geologik xaritasini yaratish bo'yicha komissiya (1881-yil); Xalqaro statistika instituti (1885-yil); Xalqaro jamoat transporti assotsiatsiyasi (1885-yil); Xalqaro bojxona tariflari byurosi (1890-yil); Intellektual mulkni himoya qilish xalqaro assotsiatsiyasi (1897-yil); Xalqaro tibbiy sug'urta qo'mitasi (1901-yil); Xalqaro biznes ta'limi jamiyati (1901-yil); Xalqaro yuk tashish federatsiyasi (1909-yil) va boshqalarni ko'rish mumkin.

Dastlabki XNTlar o'z oldiga davlatlararo savdo-iqtisodiy aloqalarning amaliy ravishda tatbiq etilishi uchun infratuzilmani rivojlantirish va takomillashtirish vazifasi qo'yilgan. Ushbu XNTlarga quyidagilar kiradi: Reklama agentliklarining xalqaro tarmog'i (1936-yil); Yevropa migratsiyasi muammolari bo'yicha o'quv guruhi (1952-yil); Ko'rgazma tashkilotchilari uyushmasi (1964-yil); Savdo siyosatini o'rganish markazi (1968-yil); Davlat iqtisodchilari jamiyati (1970-yil); Shimoliy Amerika iqtisodiyot va moliya uyushmasi (1971-yil); Jahon savdosi bo'yicha Skandinaviya markazi (1973-yil); To'qimachilik sanoatining mintaqaviy axborot markazi (1974-yil); Statistik xizmatlar markazi (1982-yil); Savdoda elektron ma'lumot almashish tizimi (1987-yil); Ishbilarmonlik bo'yicha xalqaro hamkorlik qo'mitasi (1995-yil); Savdo va investitsiya kengashi (1998-yil); Integratsiya masalalari bo'yicha Shimoliy Amerika forumi (2002-yil) va boshqalar.

Kapitalistik munosabatlarning jadal rivojiga sabab bo'lgan sanoat inqilobi milliy va xalqaro nodavlat tashkilotlarning tashkil etilishiga zamin hozirladi. Kapitalizm rivojining "Yovvoyi bosqichi" ishlab chiqarish jarayonlarining jadallashishi, ish kunining uzaytirilishi, ayollar va bolalar mehnatidan keng foydalanish, korxonalaridagi talabga javob bermaydigan sanitariya sharoitlariga hisobiga tejash, fabrika ishchilari orasidagi o'lim darajasining yuqoriligi va ularning og'ir turmush sharoitlariga hamohang tarzda kechdi.

Mavjud ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etish maqsadida jamiyatning yangi ijtimoiy qatlamlari manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan mintaqaviy va xalqaro tashkilotlar paydo bo'ldi. Aholi turli

qatlamlarining ijtimoiy va iqtisodiy manfaatlarini himoya qiluvchi jamoat lobbistiga aylangan siyosiy partiyalarga qo‘shimcha ravishda, ko‘plab nodavlat tashkilotlar ham paydo bo‘la boshladi.

Yollanma ishchilarning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy huquqlarini himoya qilish zaruratidan kelib chiqib, ishlab chiqarish va kasbiy asosda tuzilgan doimiy XNTlarda yaratila boshladi. Quyidagilar tashkil etildi: Xalqaro tamaki ishchilari federatsiyasi (1886-yil); Xalqaro konchilar federatsiyasi (1890-yil); Xalqaro metallurgiya federatsiyasi (1893-yil); Olmos kesuvchi ishchilarining umumiy ittifoqi (1905-yil); Kimyo sanoati va energetika sohasi ishchilari hamda malakasiz ishchilarning xalqaro kasaba uyushmalari federatsiyasi (1907-yil); Xalqaro oziq-ovqat sanoati va ittifoqdosh ishchilar uyushmalari federatsiyasi (1920-yil); Jahon mehnat konfederatsiyasi (1920-yil); Pochta, telegraf va telefon ishchilarining xalqaro uyushmasi (1920-yil); Xalqaro qishloq xo‘jalik sohasi ishchilari kasaba uyushmasi federatsiyasi (1921-yil); Xalqaro o‘qituvchilar kasaba uyushmalari federatsiyasi (1928-yil); Xalqaro huquqshunos ayollar federatsiyasi (1928-yil) va boshqalar¹².

Ayollar huquqlarini himoya qiluvchi ko‘plab xalqaro tashkilotlar ham paydo bo‘ldi: Xalqaro xotin-qizlar tashkilotlari bilan aloqa qo‘mitasi, Ayollarni iqtisodiy jihatdan ozod qilish bo‘yicha “Ochiq eshiklar” xalqaro tashkiloti, xalqaro huquqshunos ayollar federatsiyasi va boshqalar¹³.

Sanoat va qishloq xo‘jaligi sohasidagi yollanma ishchilarni o‘zaro birlashtirgan XNTlar bilan bir qatorda, ish beruvchi va mulkdorlar uyushmalari paydo bo‘ldi: Xalqaro turizm ittifoqi (1898-yil); Xalqaro yer egalari federatsiyasi (1921-yil); Xalqaro mulk egalari ittifoqi (1923-yil); Yevropa iqtisodiy hamjamiyatidagi qog‘oz va karton yetkazib beruvchilar uyushmasi (1957-yil); Yevropa iqtisodiy hamjamiyati hunarmandchilik sanoati va savdo uyushmasi (1959-yil); Yevropa iqtisodiy hamjamiyati kafe egalari va alkogolsiz ichimliklar tarqatuvchilar uyushmasi (1975-yil); Shimoliy Amerika iqtisodiyot va moliya uyushmasi (1971-yil); Ishbilarmonlik bo‘yicha xalqaro hamkorlik qo‘mitasi (1995-yil) va boshqalar.

¹² Морозов Г.И. Актуальные проблемы деятельности международных организаций: Теория и практика. – Москва: Международные отношения, 2012. – С. 85.

¹³ Коваленко И.И. Международные неправительственные организации. – М.: Международные отношения, 2016. – С. 17.

Vijdon va din erkinligiga doir siyosiy talablar bosqichma-bosqich tarzda Yevropa davlatlari hududida konstitutsiyaviy normalarga aylandi. Shu munosabat bilan, Butunjahon Evangeliya Ittifoqi (1846-yil), Xalqaro yosh xristianlarning protestantlik ittifoqi (1855-yil), Butunjahon yosh xristian ayollar uyushmasi (1894-yil), Butunjahon xristian talabalar federatsiyasi (1895-yil) va boshqalar. Keng ommaga o'zining mafkuraviy ta'sirini saqlab qolish va tarqatish maqsadida katolik cherkovi rahbariyati laymanlarning (rus tilida - miryanin) quyidagi dunyoviy tashkilotlarini yaratishga kirishdilar: katolik partiyalari, dunyoviy katolik matbuoti va dunyoviy jamoat tashkilotlari, keyinchalik ularning ko'plari katolik harakatlar nomi bilan birlashdilar¹⁴. 1927-yilda Vatikan katolik tashkilotlarning xalqaro konferentsiyasini, shuningdek, xristian kasaba uyushmalarining xalqaro konfederatsiyasini yaratishga munosib hissa qo'shgan¹⁵.

Sanoat inqilobi fan va texnikaning jadal rivojlanishi, xalqaro ilmiy-texnikaviy hamkorlikning kengayishi va ushbu sohalarda XNTlarning shakllanishiga zamin yaratdi. 1862-yilda Yevropaning geologiya assotsiatsiyasi, keyingi yillarda esa, meteorologiya, kimyo va boshqa sohalardagi xalqaro birlashmalar paydo bo'ldi. 1919-yilda Xalqaro astronomiya ittifoqi paydo bo'ldi. 1882-1883-yillarda 12 mamlakat olimlari Xalqaro qutb yilini o'tkazdilar. Xalqaro tadqiqot dasturlari - Xalqaro geofizika yili, sokin quyosh yili va boshqalar uchun poydevor qo'yilgan¹⁶. XIX asr oxiri - XX asr boshlarida 1895-yilda Xalqaro huquq assotsiatsiyasi nomini olgan Xalqlar huquqini isloh qilish va kodlash assotsiatsiyasi (1873-yil), Xalqaro akademiyalar assotsiatsiyasi (1900-yil), Tinch okeani ilmiy assotsiatsiyasi (1920-yil), Tarix fanlari xalqaro qo'mitasi (1926-yil) va shu kabilarga asos solindi¹⁷. 1920-1930-yillarda tibbiyot sohasida ilk XNTlarga asos solindi. 1921-yilda Xalqaro astronomiya ittifoqi, Xalqaro geodeziya va geofizika uyushmasi, Jismoniy jamiyatlar ittifoqi kabi sohaviy tashkilotlar Xalqaro ilmiy kengashga birlashdi va

¹⁴ Филиппов Б. Папа Франциск и новая модель католической церкви // Эксперт. 2014. – № 42 (919). – С. 62.

¹⁵ Международные неправительственные организации и учреждения. Справочник. – М.: Международные отношения, 2012. – С. 18.

¹⁶ Коваленко И.И. Международные неправительственные организации. - М.: Международные отношения, 2016. – С. 20.

¹⁷ Международные неправительственные организации и учреждения. Справочник. – М.: Международные отношения, 2012. – С. 10.

1931-yilga kelib, u Xalqaro ilmiy uyushmalar kengashi nomini oldi¹⁸.

Ko'plab XHTlar nodavlat notijorat tashkilotlar vakillarini o'zlarining quyidgi faoliyatlarida qatnashishga taklif qila boshladilar: ekspert xulosalari, ilmiy va texnik tavsiyalar tayyorlash va h.k. Masalan, 1927-yilgi davlatlararo iqtisodiy konferentsiya ishida Xalqaro savdo palatasining delegat va ekspertlari ishtirok etdilar. Bu kabi XNTlar ilmiy ramzlar, atama, belgi va standartlarni birlashtirishda, shuningdek, turli sport turlari bo'yicha xalqaro federatsiyalarni yaratishda, ularda yagona xalqaro qoidalarni o'rnatishda va Olimpiya o'yinlarini muntazam o'tkazishda bebaho hissa qo'shdilar. Xalqaro madaniy uyushmalar teatr, kino san'ati, tasviriy san'at va musiqa sohalaridagi hamkorlikni chuqurlashtirishga hissa qo'shdilar.

Tinchlik g'oyasi italiyalik Dante Aligierining kontseptual g'oyalari XIV asr boshlarida eng oliy ne'mat sifatida asoslab berildi. Patsifizm g'oyasi Erazm Rotterdamskiy, Emerik Kruz, Jan-Jak Russo, Anri Klod Sankt-Simon, Avgustin Tierri, Immanuel Kant, Ioxan Xerder, Fridrix fon Gentz va boshqalarning asarlarida yanada rivojlantirildi¹⁹. 1842-yil iyun oyida Londonda birinchi xalqaro tinchlik kongressi bo'lib o'tdi, keyinchalik Bryussel, Parij, Frankfurt va Jenevada shu kabi kongresslar o'tkazildi. 1863-yilda qurolli mojarolar yoki tabiiy ofatlardan aziyat chekkanlarga ko'mak berish maqsadida Xalqaro Qizil Xoch qo'mitasida asos solingan.

1867-yilda Parijda keyinchalik Tinchlik va ozodlik do'stlari jamiyatiga aylantirilgan Xalqaro tinchlik Ligasiga asos solingan. Shuningdek, patsifistik talqinga asoslangan xalqaro nodavlat tashkilotlar paydo bo'ldi: Xalqaro tinchlik byurosi (1892-yil), Parlamentlararo ittifoq (1889-yil), Urushga qarshi ittifoq (1914-yil), Patsifistlarning tinchlik yo'lidagi xalqaro ayollar qo'mitasi (1915-yil). 1919-yilga kelib, u Tinchlik va ozodlik yo'lidagi xalqaro ayollar ligasi nomini oldi²⁰.

¹⁸ Коваленко И.И. Международные неправительственные организации. - М.: Международные отношения, 2016. - С. 17.

¹⁹ Борко Ю.А. От европейской идеи - к единой Европе. - Москва: Деловая литература, 2015. - С. 61.

²⁰ Международные неправительственные организации и учреждения. - М.: Международные отношения, 2012. - С. 71.

zimmasiga yuklatilgan bo'lib, unga o'z harakatlari bilan xavfsizlikka tahdid solishi mumkin bo'lgan davlatlardan tinchlik siyosati yuritishni talab qilish vakolati berildi. BMT tashkil etilishi xalqaro hamkorlikning turli shakllarini rivojlantirish, xalqaro tinchlik va xavfsizlikni mustahkamlash bilan shug'ullanadigan ko'plab XHT va XNTlarni shakllantirishning yangi to'liqini keltirib chiqardi. BMTning qo'llab-quvvatlash sohasidagi milliy va xalqaro nohukumat tashkilotlar faoliyati (BMTni qo'llab-quvvatlash jamg'arnasi, BMT uchun xalqaro yoshlar va talabalar harakati va boshqalar) Butunjahon yordam assotsiatsiyalari federatsiyasi (World Federation of United Nations Associations) tomonidan muvofiqlashtiriladi. 2014-yil 1-sentyabr holatiga ko'ra, 4000 dan ortiq XNTlar BMT Iqtisodiy va Ijtimoiy Kengashida maslahatchi maqomiga ega²¹.

Sovuq urush davrida ikki asosiy dunyo tizimlari – kapitalistik va kommunistik tizimlar o'rtasida xalqaro maydondagi o'zaro qarama-qarshi tomonlarning manfaatlarini va pozitsiyalarini himoya qiluvchi turli xil XHT va XNTlar tuzilgan. Bu davrda shartnomaga asoslangan NATO, Varshava shartnomasi tashkiloti (VSHT), O'zaro iqtisodiy yordam kengashi (O'IYK), Yevropa iqtisodiy hamjamiyati (YIH), Yevropa ko'mir va po'lat hamjamiyati (ECSC), Yeroatom va Yevropa Kengashi kabi xalqaro tashkilotlar paydo bo'ldi. Ushbu XHTlar XNTlarning zich tarmog'iga, jumladan, ommaviy demokratik tashkilotlar deb nomlanuvchi, xalqaro hamjamiyatda a'zo davlatlar orasida ishlashga mafkuraviy yo'naltirilgan XHT faoliyatini to'ldirish vazifasini o'z zimmasiga oldilar. Ushbu XNTlarga Umumjahon tinchlik kengashi (WPC), Xalqaro demokratik ayollar federatsiyasi (WFDW), Umumjahon kasaba uyushmalari federatsiyasi (WFTU), umumjahon demokratik yoshlar federatsiyasi (WFDY), Xalqaro talabalar uyushmasi (ISU), Butunjahon olimlar federatsiyasi (WFNR) va boshqalar kiradi. Sovuq urushdan keying yillarda, ko'plab sotsialistik davlatlarning XHTlari va ular tomonidan homiylik qilingan ommaviy demokratik tashkilotlar va harakatlarning faoliyati to'xtatildi.

Ikkinchi tomondan, Yevro-Atlantika tuzilmalarini, bozor iqtisodiyotining liberal tamoyillarini va inson huquqlari sohasidagi

²¹ List of non-governmental organizations in consultative status with the Economic and Social Council as of 1 September 2014 // URL.: <http://csonet.org/content/documents/E-2014-INF-5%20Issued.pdf>

faoliyatini qo'llab-quvvatlagan ko'plab antikommunistik xalqaro nohukumat tashkilotlar faoliyat yuritmoqda edi. Ular orasida: Xalqaro Amnistiya, Diniy erkinliklar xalqaro assotsiatsiyasi, Xalqaro inson huquqlari ligasi, Afrikadagi demokratiya yo'lidagi xalqaro assotsiatsiya, Xalqaro insoniy qadriyatlar assotsiatsiyasi, Diniy erkinliklarni himoya qilish xalqaro assotsiatsiyasi, Inson huquqlari himoyachilari va boshqalar bor edi.

Keyinchalik Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti (YXHT)ga aylantirilgan Yevropada xavfsizlik va hamkorlik konferentsiyasi (1973-yil) konsensus asosida ishlaydigan davlatlar ishtirokida xalqaro tashkilotlar uchun asos yaratdi.

5-§. Millatlar Ligasi: yaratilish tarixi, qulash sabablari

Faoliyati yo'lga qo'yilgan xalqaro tashkilotlarning javobgarlik sohasi xalqaro hamkorlikning yanada kengroq segmentlarini qamrab ola boshladi. Davlatlarning jahon savdo-iqtisodiy hamkorligi uchun qulay xalqaro shart-sharoitlarni yaratish ehtiyojlari bilan bir qatorda, yangi xalqaro hamkorlik tashkilotlarini barpo etishda siyosiy va gumanitar qarashlar ham muhim rol o'nay boshladi. Insoniyatning doimiy hamrohi bo'lib kelgan cheksiz harbiy mojarolar va urushlar, vayronagarchilik texnologiyalari takomillashib borgani sari ularning qurbonlari sonining ko'payishi, insoniyatni ushbu qadimiy la'natdan xalos bo'lish yo'llarini izlashga undadi. Birinchi jahon urushi va tinch aholining ko'plab talofotlari bizni kelajakda bunday keng ko'lami kataklizmlarning oldini olish uchun xalqaro mexanizmlarni yaratish haqida o'ylashga majbur qildi.

Suveren davlatlar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solishni tor doiradagi ixtisoslashgan sohalarda emas, balki xalqaro tinchlik va xavfsizlikni ta'minlashni o'z oldiga maqsad qilgan birinchi xalqaro hukumatlararo tashkilot - Millatlar Ligasi edi. Bunda, xalqaro miqyosda davlatlararo munosabatlarning iqtisodiy va moliyaviy masalalarini emas, balki ancha jiddiy va murakkab siyosiy muammoni hal etish masalasi ko'rildi. Millatlar Ligasining tashkil etilishi xalqaro hukumatlararo tashkilotlarni tashkil etishning klassik qonuniyatlariga mos kelsada, ammo a'zo davlatlar tomonidan uning ijro etuvchi organlariga berilgan vakolatlar boshqa xalqaro tashkilotlar xususiyati va hajmidan keskin farq qilar edi.

davlatda yuzaga kelgan vaziyat xalqaro tinchlik va xavfsizlikka tahdid deb soluvchi omillardan biri deb topilgan hollarda, suveren davlatlarning ichki ishlariga aralashish vakolatiga ega bo'ldi.

BMT bilan deyarli bir vaqtning o'zida suveren davlatlar o'rtasidagi turli sohalardagi munosabatlarni tartibga soluvchi hamda faoliyati muayyan sohalarga yo'naltirilgan quyidagi bir qator yangi ixtisoslashgan muassasalar paydo bo'ldi: YUNESKO - madaniyat va inson huquqlari sohasida; FAO - qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat xavfsizligi sohasida; XMT - mehnat bozori munosabatlari sohasida va boshqalar. Birlashgan Millatlar Tashkilotining ixtisoslashgan muassasalari "BMT oilasi" ni tashkil etgan bo'lib, uning tarkibi doimiy ravishda to'ldirilib boriladi.

Sovuq urush sharoitida turli xil ijtimoiy tizimlarga ega davlatlar o'rtasidagi ikki tomonlama muloqoti juda qiyin kechgan bir paytda, ko'plab xalqaro tashkilotlar va birinchi navbatda BMT urushayotgan tomonlarning vakillari o'rtasidagi siyosiy aloqala, xususan qurolsizlanish sohasida ular o'rtasidagi xalqaro shartnoma va bitimlarga erishish uchun muhim maydon bo'lib xizmat qildi. Sharq va G'arb o'rtasidagi kuchli harbiy qarama-qarshilik yillarida bunday ko'p tomonlama diplomatiyaning bunday vositalari mavjud bo'lmaganda, turli xil ijtimoiy tizimlarga ega davlatlar o'rtasida siyosiy muloqotlar uchun platformalarni topish amrimahol bo'lar edi. Xalqaro tashkilotlar XX asrning xalqaro aloqalari tizimida o'zlarining yangi, g'oyat noyob rolini namoyish etdilar. Ular ushbu tizimning ajralmas integral elementiga aylandi.

Bugungi kunga kelib, BMT Bosh kotibi tashkilotning bosh ma'muriy xodimi, Kotibiyat a'zolari esa xalqaro vakillar sifatida o'z faoliyatini davom ettirmoqdalar. BMTning muhim qarorlari tashkilotga a'zo suveren davlatlar tomonidan qabul qilinadi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti faoliyatining siyosiy tabiati tufayli uning Kotibiyati ko'plab ixtisoslashgan XHTlar ijroiya organlari kabi vakolatlarga ega emas, shunga ko'ra davlatlararo aloqalarning ayrim sohalarini mustaqil ravishda a'zo davlatlar nomidan tartibga solishga qodir emas.

Universal yoki global darajadan tashqari, mintaqaviy va submintaqaviy tashkilot va tuzilmalar ham mavjud²². Mazkur

²² Международные неправительственные организации и учреждения. Справочник. – М.: Международные отношения, 2012. – С. 95.

tashkilotlar va ularning organlari faoliyati, BMT Nizomining 52-moddasiga muvodiq, BMTning maqsad va tamoyillariga muvofiq bo'lishi lozim. Muayyan sohalariga ixtisoslashgan tashkilotlar bilan bir qatorda, umumiy vakolatlarga ega bo'lgan tashkilotlar safi ham kengayib bordi. Bunda ta'sischi davlatlar o'zlarining umumiy manfaatlari bilan bog'liq sohalarini tartibga solishga doir javobgarlikni ushbu tashkilotlar zimmasiga yuklashni afzal ko'rdilar.

1950–1960-yillarda Yevropa va dunyoning boshqa minyaqalarida integratsion jarayonlar avj ola boshladi. Integratsion aloqalarni rivojlantirish yo'liga qadam qo'ygan davlatlar xalqaro tashkilotlar va ularning ijroiya organlariga o'zlarining iqtisodiy, moliyaviy va siyosiy sohalaridagi faoliyatini muvofiqlashtirish, shuningdek, ko'plab suveren davlatlarning iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va madaniy sohalaridagi birgalikdagi hayotini tashkil etishga doir vazifalarlarni hal etish majburiyatini yuklay boshladilar. Endilikda a'zo davlatlar bu kabi tashkilotlarning ijroiya organlariga umumiy manfaatlarga xizmat qiluvchi xalqaro aloqalarining aniq belgilangan yo'nalishlarini tartibga solish borasidagi o'z vakolatlarini bera boshladilar. Ushbu organlar ixtisoslashtirilgan tashkilotlarning siyosiy muammolarini hal etish va xavfsizlikni ta'minlash borasidagi funktsiyalari va vakolatlarini o'zida mujassamlashtirgan.

Bu esa, XX asrning ikkinchi yarmida XHTlarning sifat jihatidan yangi shakli – integratsion guruhlarining xalqaro hukumatlararo tashkilotlari shakllana boshladi, degan fikrga asos bo'ladi. Yevropa Ittifoqi va uning ijroiya organi - Yevropa Komissiyasining shakllanish va rivojlanish tarixi yuqoridagi jarayonlarning eng yorqin namunisi bo'ldi desak xato bo'lmaydi.

Dastlab, klassik xalqaro tashkilotlarda suveren davlatlar ijroiya organlariga alohida sohalaridagi faoliyatini tartibga solish uchun ma'lum vakolatlarni berganlar. Integratsion birlashmalar misolida esa, nafaqat iqtisodiy va valyuta-moliyaviy sohalar, balki a'zo davlatlar faoliyatiga doir deyarli barcha sohalaridagi faoliyatni muvofiqlashtirish zarurati paydo bo'ldi. Agar iqtisodiy masalalarda, Yevropa Ittifoqida bo'lgani kabi, Integratsion guruhlarining ijroiya organlariga qonunchilik tashabbusi huquqi berilgan bo'lsa, boshqa masalalarda ularga ma'muriy, muvofiqlashtiruvchi va ijro funktsiyalari berilgan.

Ko'p o'tmay, Yevropa Ittifoqida, ko'plab boshqa xalqaro tashkilotlardagi kabi, Yevropa Ittifoqi qonunlari yoki Yevropa

qonunlari deb nomlanuvchi integratsion guruhning huquqiy normalari tizimi shakllana boshladi. Ushbu xalqaro huquqiy tizim Yevropa Ittifoqiga a'zo davlatlar o'rtasidagi munosabatlarda xalqaro huquq vazifasini bajarishi ko'zda tutilgan.

Hozirgi kunda bir qator integratsion nazariyalar ishlab chiqilgan. Yevropa mintaqaviy integratsiyasiga oid nazariyalar (federalizm, funksionalizm va boshqalar) ko'plab mahalliy olimlar orasida keng yoyilgan va tan olingan bo'lsada, Markaziy Osiyo mintaqasida integratsion va desintegratsion jarayonlarni tahlil qilishda foydalanish muayyan qiyinchiliklar uchramoqda. Mazkur hududda integratsion birlashmalarni qaror toptirish va rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, o'zbekistonlik olimlar tomonidan integratsion jarayonlar fanining nazariy asoslarini yaratish zarurati tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Yigirmanchi asrning so'ngi choragi davlatlararo hamkorlikning yangi bosqichini boshlab bergan bo'lib, endilikda ularning nazariy asoslarini yaratish va o'zaro umumlashtirilish zarurati yuzaga keldi. Yevropada xavfsizlik va hamkorlik kengashi (YEXHK) doirasidagi davlatlararo munosabatlar "Sovuq urush"ning "Issiq urush"ga aylanishining oldini olishda muhim rol o'ynadi.

Ma'lumki, YEXHK Sovuq urush xavfini bartaraf etish hamda Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tizimini shakllantirishda muhim rol o'ynagan. YEXHK faoliyati xalqaro shartnomalarga asoslamay, balki ishtirokchi davlatlar o'rtasidagi konsensus muloqoti orqali xavfsizlikning yangi tizimini shakllantirishga hissa qo'shgan. Afsuski, YEXHKning nomi YEXHTga o'zgartirilishi bilan konsensus prinsipi rasmiy ravishda bekor qilinmasada, tashkilot uchun o'z ahamiyatini yo'qotdi.

Shu bilan birga, Yevropada yana bir qancha davlatlararo submintaqaviy uyushmalarga asos solingan bo'lib, ularning hamkorligi xalqaro shartnoma asosida emas, balki a'zo davlatlar o'rtasidagi konsensusga asoslangan edi. Ushbu tashkilotlarga Barents Yevro-Arktika mintaqasi kengashi (BEAC), Boltiq dengizi davlatlari kengashi (CBSS), Arktik kengash (AU) kabilar kiradi. Ular oliy darajadali hukumatlararo forumlar sifatida e'tirof etiladi. Davlatlararo hamkorlikning ushbu shakli tobora keng tan olinmoqda.

Qo'shni davlatlar, shu jumladan chegaradosh mintaq va hududlar hokimliklari o'rtasida o'zaro transchegaraviy hamkorlikni qaror toptirish doirasida turli suveren davlatlar hududlari, shaharlari,

hududlarining xalqaro birlashmalari shakllana boshladi. Ular orasida Shimoliy Kalot qo'mitasi va Barents mintaqaviy kengashi kabilarni ko'rish mumkin. Shunday qilib, nisbatan qisqa tarixiy davrda xalqaro hukumatlararo tashkilotlar (XHT) xalqaro munosabatlarning ajralmas qismiga aylandi. Ular davlatlararo munosabatlarni ko'p tomonlama asosda tartibga solish yuzasidan tobora ko'proq vazifalarni o'z zimmalariga olmoqdalar. XIX asrning so'nggi choragida paydo bo'lgan doimiy xalqaro hukumatlararo tashkilotlar keying yillarda yanada takomillashdi. Agar 1910-1914-yillarda dunyoda jami 20 ta XHT²³ mavjud bo'lgan bo'lsa, XX asrning 30-yillari oxiriga kelib ularning soni 488 taga yetdi, 1978-yilda Xalqaro uyushmalar ittifoqi tomonidan berikgan ma'lumotlarga ko'ra, ularning soni 24209 tani tashkil etgan, XX asr oxirlariga kelib esa, bu ko'rsatkidh 6 mingdan oshgan²⁴.

Shu bilan birga, ular bilan bir qatorda xalqaro nohukumat tashkilotlar (XNT) suveren davlatlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning xalqaro muhitini tartibga solishda muhim vazifalarni bajara boshladilar. Ular o'z xususiyatlaridan kelib chiqib, suveren davlatlar tomonidan tartibga solinadigan faoliyat doirasidan tashqarida bo'lgan ko'plab xalqaro aloqalarni jamoatchilik va nohukumat darajasida boshqara boshladilar. Xalqaro Qizil Xoch va Qizil Yarim oy jamiyati, Yovvoyi tabiatning xalqaro jamg'armasi, Grinpis, Xalqaro Olimpiya qo'mitasi, Xalqaro futbol uyushmalari federatsiyasi va boshqalar xalqaro maydondagi nufuzli nodavlat o'yinchilar sifatida tashkil etildi.

Shuningdek, xalqaro savdo palatalari, sport federatsiyalari, olimlarning xalqaro assotsiatsiyalari, tibbiyot xodimlari, huquqshunoslar, madaniyat namoyandalari, ekologlar, yoshlar va talabalar, xalqaro hamkorlikning ushbu sohalarini egallagan ko'plab sanoatchilar va tadbirkorlar tashkilotlari, kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalar va harakatlarga asos solindi. XXI asr boshlariga kelib, xalqaro hukumatlararo va nohukumat tashkilotlarning umumiy soni 20 mingdan ortiqni tashkil etdi²⁵.

²³ Морозов Г.И. Международные организации. Некоторые вопросы теории. – М.: Мысль, 2017. – С. 25.

²⁴List of non-governmental organizations in consultative status with the Economic and Social Council as of 1 September 2014 // URL.: <http://csonet.org/content/documents/E-2014-INF-5%20Issued.pdf>

²⁵ Yearbook of International Organizations // URL.: <http://www.uia.org/yearbook>

Zamonaviy xalqaro hukumatlararo va xalqaro nohukumat tashkilotlar jamiyat hayotining barcha sohalarini qamrab olgan. Uzoq vaqt davomida ular davlatlararo munosabatlardagi davlatlar monopoliyasini bartaraf etibgina qolmay, balki zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimini tartibga solishda ham jiddiy bosim o'tkaza boshladilar hamda uning nafaqat integratsion, balki muhim va ajralmas qismga aylandilar. Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar zamonaviy dunyodagi xalqaro tashkilotlarning xilma-xilligi to'g'risida to'liq tasavvurni shakllatirib bera olmaydi. Bunda asosiy e'tibor xalqaro hukumatlararo va xalqaro nohukumat tashkilotlarning yangi turlarini paydo bo'lishiga hamda ularning zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimining ajralmas qismiga aylanishi bilan bog'liq masalalarga qaratildi.

6-§ Xalqaro tashkilotlarning zamonaviy rivojlanish xususiyatlari

Sovuq urush yillaridayoq jahon siyosatining "oltin milliard" mamlakatlari va uning atrofidagi "xalqaro xalqa" davlatlari o'rtasidagi munosabatlar majmuidan iborat asosiy qarama-qarshiliklari yuzaga kela boshladi. Mavjud munosabatlar zamonaviy xalqaro munosabatlarning ko'plab qirralariga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatmoqda. Jahon mustamlaka tizimining qulashi natijasida ozod bo'lgan davlatlar o'zlarining manfaatlarini himoya qilish uchun mo'ljallangan o'z XHT va XNTlarini tuza boshladilar. Masalan, Afrika Birligi Tashkiloti (OAU), Arab davlatlari ligasi (LAS), Iqtisodiy hamjamiyatlarni rivojlantirish G'arbiy Afrika Jamg'armasi va boshqa XHT va XNTlar paydo bo'ldi. Sobiq metropoliyalar, o'z navbatida, o'zlarining sobiq mustamlakalari ustidan o'z ta'sirlarini saqlab qolishga harakat qildilar. Masalan, Buyuk Britaniya Britaniya millatlar hamdo'stligini tashkil etish tashabbusi bilan chiqdi.

Sovuq urushning oxiriga kelib, dunyoda "Boy davlatlar klubi" shakllandi. Ularning maqsadi nafaqat jahon iqtisodiyoti va siyosatidagi ustunlik mavqeini ta'minlash, balki ularga yangi mamlakatlar qo'shilishi hisobiga doimiy ravishda dunyo iqtisodiy makonini qurishga asoslangan edi. Ushbu turdagi tashqi iqtisodiy ekspansiya oldingi mustamlaka imperiyalarining siyosatidan o'z oldiga qo'yilgan maqsadlarga erishish usul va vositalariga ko'ra farqlanadi.

Ushbu maqsadlarga erishishning asosiy vositalari quyidagilardan iborat:

- neoliberal prinsiplarga asoslangan bozor iqtisodiyoti;
- Jahon savdo tashkiloti, Xalqaro valuta jamg'armasi, Jahon banki va boshqa xalqaro moliyaviy institutlar, ularning ta'siri ostida xalqaro savdo tizimi va dunyo moliyalari ustidan nazorat o'rnatilishi;
- zamonaviy dunyoning asosiy zahira valyutalariga ega bo'lish;
- ular g'arb demokratik qadriyatlarga global tus bergan holda, boshqa davlatlar tomonidan ularga rioya etilishini baholash borasidagi monopoliyani o'z zimmalarida saqlab qolishga intilmoqdalar.

G'arb davlatlari tomonidan qo'llab-quvvatlangan siyosiy tusga ega bolgan globallashuvning yorqin misoli sifatida Yelning Afrika, Karib va Tinch okeanidagi (AKT) 77 mamlakatga nisbatan siyosati evolyutsiyasini ko'rish mumkin bo'lib, ularning aksariyati Yevropa Ittifoqiga a'zo davlatlarning sobiq mustamlakalari hisoblanadi.

G'arbiy Yevropa kompaniyalarini qiziqtiradigan xususiy tadbirkorlik va tog'-kon sanoatini rivojlantirishga hissa qo'shgan ushbu mamlakatlarga beg'araz yordam, tashqi savdo imtiyozlari va imtiyozli kreditlar berish bilan bir qatorda, 1995-yilga kelib Yel AKT mamlakatlariga siyosiy talablar qo'ya boshladi. 2003-yilning 1-aprelidan kuchga kirgan Cotonou shartnomasi Yevropa Ittifoqiga AKT mamlakatlaridagi "inson huquqlarini hurmat qilish, demokratik tamoyillar, qonun ustuvorligi va oqilona boshqaruv" sohasidagi vaziyatni baholab borish hamda Yel nuqtai nazariga ko'ra, inson huquqlari va demokratik tamoyillar xalqaro huquq normalarini buzgan davlatlarga nisbatan sanksiyalarni qo'llash imkonini berdi²⁶.

Rivojlanishga ko'maklashish dasturlari ko'plab rivojlangan mamlakatlarda mavjud bo'lib, ko'pgina hollarda ular Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) kabi xalqaro miqyosda muvofiqlashtiriladi. "Boy davlatlar klubi" ning ehtiyoj va talablariga "dunyo periferiyasi" mamlakatlarini moslashtirishga bo'lgan urinishlar ushbu mamlakatlarda ishlab chiqarishni rivojlantirish uchun ham, aholining ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish uchun ham yordam bermadi. Ammo ular demografiya, oziq-ovqat xavfsizligi, aholining qashshoqligi, gender tengsizligi, shuningdek atrof-muhit, energetika, migratsiya va boshqa shu kabi muammolar girdobida qolib ketdi. Shu tariqa, G'arb davlatlari siyosati zamonaviy dunyoda global muammolarning paydo bo'lishiga zamin yaratdi.

²⁶ Буторина О. Европейская интеграция. – М.: Деловая литература, 2011. – С. 455.

Hal qilinmagan ijtimoiy-iqtisodiy muammolar turli xil radikal terroristik tashkilotlar (Al-Qoida, Islomiy davlat va boshqalar)ning paydo bo'lishi uchun zamin bo'lib xizmat qildi.

So'nggi yillarda xalqarolashtirish jarayonlarining neoliberal postulatlariga bo'ysunishiga qarshi bo'lgan va aslida "oltin milliard" davlatlarining neomustamlakachilik siyosatiga qarshi bo'lgan turli antiglobalistik harakatlar tobora keng tus olmoqda.

Rivojlanayotgan davlatlar uchun ularning "oltin milliard" davlatlarning keyingi iqtisodiy kengayishiga qarshi turish qobiliyati hal qiluvchi ahamiyat kasb etmoqda. Ular uchun suverenitet va milliy mustaqillikni himoya qilish, G'arb davlatlari boshchiligidagi xalqaro savdo, moliya va iqtisodiy institutlarning tazyiqidan ozod bo'lish, shu jumladan mustaqil tuzilmalarni yaratish va demokratik qadriyatlar, shuningdek ularning milliy-madaniy, ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy hayotini amalga oshirish ustuvor ahamiyatga ega.

O'zlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish modellarini ishlab chiqish, tovarlar va xizmatlarning mahalliy ishlab chiqarishini rivojlantirish ularning yuqoridagi maqsadlarga erishish vositasi bo'ldi desak xato bo'lmaydi. Rivojlanayotgan davlatlar mavjud xalqaro savdo-iqtisodiy va moliyaviy institutlar faoliyatining tabiati va algoritmlarini o'zgartirishga, G'arb davlatlari ta'siridan xoli bo'lgan xalqaro birlashmalar, savdo va moliya institutlarini tashkil etishga va kuchaytirishga, o'z faoliyatini a'zo davlatlarning suveren tengligi asosida qurishga qaratilgan sa'y-harakatlarga qo'shilishdan manfaatdor.

Ularning asosiy manfaatlari milliy valyutalardan foydalangan holda xalqaro savdoni rivojlantirish, jahon savdosiga xizmat qiladigan o'z xazira valyutalarini yaratish, shuningdek, shu jumladan madaniy, ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy ustuvorliklarni hamda o'z milliy an'analarini hisobga olgan holda demokratik qadriyatlarni qo'llab-quvvatlashdan iborat.

Rivojlanayotgan davlatlar o'rtasidagi ikki va ko'p tomonlama munosabatlarni mustahkamlash hamda o'zaro siyosiy va iqtisodiy yordam ko'rsatish katta ahamiyatga ega. Hozirgi vaqtda bunday XHTlar sirasiga Shanxay hamkorlik tashkiloti, BRICS va boshqalarni kiritish mumkin. BRIKS davlatlari maxsus moliyaviy instituti (Contingent Reserve Arrangement)ni tuzish to'g'risidagi bitim, shuningdek, Xitoyning Osiyo infratuzilmaviy investitsiya bankini

tashkil etish to'g'risidagi qarori mavjud yo'nalishdagi muhim qadam bo'ldi. "Observer" tadqiqot jamg'armasining hindistonlik mutaxassisi N. Unnikrishnanning so'zlariga ko'ra, BRICSGa a'zo davlatlar nafaqat mavjud qoidalarni qabul qilishlari, balki barcha mamlakatlar manfaatlarini uyg'unlashtirish uchun yangilarini shakllantirishlari kerak²⁷.

G'arb davlatlari Rossiyani siqib chiqarishni istagan va "Dunyo periferiyasi" "Boy davlatlar klubi" mamlakatlari o'rtasida tobora kuchayib borayotgan manfaatlar to'qhashuvi mavjud XHT va XNTlar faoliyati tabiati va algoritmlarini o'zgartirish uchun kurashning kuchayishiga olib keladi. Shu bilan birga, tenglik, o'zaro hurmat va milliy suverenitetni himoya qilish tamoyillarini o'z faoliyatining asosi sifatida qabul qiladigan yangi XHT va XNTlar safi tobora kengaymoqda.

Ko'rinib turibdiki, jahon siyosatida mavjud jiddiy qarama-qarshiliklar zamonaviy XHT va XNTlar faoliyatiga, shuningdek mintaqaviy integratsion jarayonlarining borishiga tobora kuchli ta'sir ko'rsatishi tabiiy. Ushbu jarayonlar zamirida davlatlarning birgalikdagi sa'y-harakatlari yordamida o'zaro manfaatlarni himoya qilish istagi yotadi. Integratsion vazifalarni amalga oshirishda mintaqaviy XHTlar a'zo davlatlarning savdo, moliyaviy va iqtisodiy siyosatini tartibga solishni va bu borada ichki va xalqaro siyosatning muhim jihatlarini o'zaro muvofiqlashtirishga intilmoqdalar. Shu tariqa, XHTlarning yangi toifasi - integratsion guruhlarning xalqaro hukumatlararo tashkilotlarini rivojlanish jarayoni boshlandi. Bu kabi XHTlar Janubi-Sharqiy Osiyo (ASEAN) mamlakatlari, Lotin Amerikasi va Afrika davlatlari o'rtasida tashkil etilgan.

Postsovet hududida, shu jumladan Yevrosiyo iqtisodiy ittifoqi doirasidagi integratsion jarayonlarning maqsad va mexanizmlarini belgilashda mavjud integratsiya modellari o'rtasidagi keskin farq qiluvchi jihatlarini hisobga olish talab etiladi. Bugungi global muammolarning keskinlashuvi jahon hamjamiyatini tobora ko'proq tashvishga solmoqda. BMT doirasida "dunyo periferiyasi" davlatrining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga hissa qo'shadigan bir qator ixtisoslashgan muassasalar (YuNKTAD, YuNIDO va boshqalar)

²⁷ Палова В., Толорая Г. Страны БРИКС готовы сами начать формировать правила мирового устройства // URL.: <http://www.mgimo.ru/news/experts/document/271694.phtml>.

tashkil etilgan bo'lib, 2000-yildan buyon BMT rahbarligi ostida amalga oshirilayotgan Mingyillik rivojlanish maqsadlari (MRM) ishlab chiqilgan. Ushbu dasturning yangi shakli 2015-yildan isga tushirilgan. Uning paydo bo'lishi turli hukumatlararo va nodavlat xalqaro tuzilmalarning shakllanishiga turtki bo'ldi. Ular orasida: Qashshoqlikka qarshi kurash bo'yicha global harakat, Demografik dasturlarni boshqarish bo'yicha xalqaro kengash, Uchinchi dunyo mamlakatlari atrof-muhiti himoyasi yo'lidagi aksiya, OITSGa qarshi Afrika harakati, Rivojlanish dasturlarida ayollar huquqlari bo'yicha uyushma, Atrof-muhit qonunlari bo'yicha xalqaro kengash, Yashil dunyo, Yovvoyi tabiat fondi, Afrikani rivojlantirish uyushmasi, Xalqaro axborotlashtirish akademiyasi va boshqalarni ko'rish mumkin.

XXI asr boshidagi dunyo taraqqiyotining xususiyatlari ko'p tomonlama hamkorlikning yangi shakllarini izlashga turtki berdi. Davlatlarning xalqaro birlashmalari o'z faoliyatini xalqaro shartnoma asosida emas, balki ishtirokchilarning o'zaro roziligi va kelishilgan qarorlarini ixtiyoriy ravishda amalga oshirishga asoslanishi tobora kengaymoqda (Boltiq dengizi davlatlari kengashi, Barentseva kengashi / Yevro-Arktika mintaqasi, Shimoliy o'lchamdagi sheriklikning Arktik kengashi). Ularning aksariyat qismi xalqaro nodavlat tuzilmalarini o'z tarkibiiga kiritadilar.

Katta Sakkizlik, G20 va Arktika beshligi kabi xalqaro hukumatlararo tuzilmalar paydo bo'lgan bo'lib, ularning a'zolari ishtirokchi davlatlarning joriy faoliyatini avvaldan o'rnatilgan ko'p tomonlama xalqaro forumlar doirasidan tashqarida muvofiqlashtirishga intilmoqda. Bu mavjud forumlar ularga qo'yilgan umidlarni to'liq qoniqtirmasligini ko'rsatib beradi.

Axborot jamiyati rivojlanishi bilan norasmiy ko'p tomonlama hamkorlikning yangi imkoniyatlari ochilmoqda, ularning nodavlat tashkilotlari faoliyatidagi ta'siri esa beqiyosdir.

Davlatlar va xalqlar o'rtasidagi ko'p tomonlama hamkorlik manfaatlariga xizmat qilish vazifasini o'z zimmasiga olgan doimiy xalqaro hukumatlararo va nohukumat tashkilotlarining paydo bo'lishi internatsionalizatsiya jarayonining natijasi bo'ldi, desak xato bo'lmaydi. XHT va XNTlar tarmog'ining keying yillardagi kengayishi xalqaro maydonda yuz bergan muhim sifat o'zgarishlari bilan izohlanadi. Shu bilan birga, xalqaro hayotning muayyan sohalari ko'payib bormoqda, ularni tartidga solish va boshqarishda esa, XHT va XNTlar bevosita ishtirok etmoqda.

Xalqaro tashkilotlarning xalqaro munosabatlarda tutgan o'rnini sifat jihatidan o'zgartirdi. Suveren davlatlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning individual muammolarini hal qilishda yordamchi vositalardan endilikda ular tizimga chuqur singdirilgan xalqaro hayotning muhim segmentiga aylandi. Bugungi kunga kelib, XHT va XNTlar doimiy asosda xalqaro aloqalar va hamkorlikning ko'plab muhim funksiyalarini bajarilishini ta'minlamoqda. Mavjud sharoitda bir qutbli dunyoni barpo etishga bo'lgan har qanday urinish amalga oshirilmaydi, zero jahon siyosatida mavjud kuch markazlarining hech biri o'zining siyosiy rahbariyatiga xalqaro hukumatlararo va nohukumat tashkilotlari tomonidan olib borilayotgan ulkan va tobora kengayib borayotgan xalqaro munosabatlarga bo'ysundira olmaydi.

Nazorat savollari:

1. Xalqaro tashkilotlarning paydo bo'lish asoslari haqida ma'lumot bering.
2. Delos ittifoqi haqida nimalarni bilasiz?
3. Ganzey Ligasiga zamonaviy xalqaro munosabatlarning prototiplari sifatida baho bering.
4. XVII - XVIII asrlarda qanday xalqaro Yevropa konferentsiyalari tashkil etilgan?
5. Qanday dastlabki xalqaro hukumalararo tashkilotlar (XHT)ni bilasiz?
6. Millatlar Ligasining yaratilish tarixi va qulash sabablari?
7. Xalqaro tashkilotlarning zamonaviy rivojlanish xususiyatlari nimalarda namoyon bo'lmoqda?

II BOB. XALQARO TASHKILOTLAR TUSHUNCHASI, TIPOLOGIYASI VA TASNIFI

1-§. Xalqaro tashkilotlar tushunchasi va mohiyati

XIX-XX asrlarda xalqaro aloqalar rivojining muhim natijalaridan biri sifatida, ko'psonli xalqaro tashkilot paydo bo'ldi. Bugungi kunda xalqaro tashkilotlar tomonidan ko'plab siyosiy qarorlar qabul qilinmoqda. Ular standartlar, tariflar, sanitariya qoidalari va ijtimoiy hayotning boshqa muhim normalarini ishlab chiqadilar. Xalqaro tashkilotlar ilmiy-texnikaviy, madaniy va sport sohasidagi hamkorlikni amalga oshiradilar. Ba'zi hollarda, ushbu tashkilotlar kishilar kundalik hayotiga ajralmas qismiga aylanib bormoqda.

Siyosiy fanlarda xalqaro tashkilotlar davlatlar bilan bir qatorda jahon siyosatining muhim subyekti ekani e'tirof etiladi. Ularning faoliyati barqarorlik, tartiblilik va xalqaro munosabatlarning institutsional to'kisligini ta'minlaydi. Bugungi kunda xalqaro tashkilotlar xalqaro institutlarning ko'pchiligini tashkil etgani bois, "xalqaro institut" atamasi ko'pincha "xalqaro tashkilot" atamasining sinonimi sifatida qo'llaniladi va bu bizning fikrimizcha u qadar to'g'ri emas.

Dastlabki xalqaro institutlar bolaligida davlatlarning paydo bo'lishi bilan bir vaqtda shakllangan. Bu qadimgi davlatlar hukmdorlarining urush olib borish qoidalarini ishlab chiqish maqsadidagi uchrashuvlari; cherkov kengashlari ibodatning umumiy qoidalarini kelishib olishlari; urushlarning natijalarini sarhisob qilish, mag'lubiyatga uchraganlarni jazolash va g'oliblarni taqdirlash maqsadida o'tkaziladigan hokimlar qurultoyidir. Ayni shu o'rinda davlatlararo nizolarni hal qiluvchi hakamlik sudlari ham mavjud.

1815-yilda Avstriya, Prussiya va Rossiya monarxlari o'rtasida tuzilgan Muqaddas Ittifoq yangi davrning birinchi siyosiy institutlaridan biri hisoblanadi. Keying yillarda quyidagi institutlar tashkil etildi: Xalqaro huquq assotsiatsiyasi (1873-yil); Xalqaro Qizil Xoch qo'mitasi (1875-yil); Stomatologlarning xalqaro assotsiatsiyasi (1878-yil); Yozuvchilar va rassomlarning xalqaro assotsiatsiyasi (1878-yil); Parlamentlararo ittifoq (1889-yil); Xalqaro sog'liqni saqlash bosh qarorgohi va boshqalar. XX asr boshlarida jahonda 400

dan ortiq bunday tashkilotlar mavjud edi. Keyingi yillarda ularning soni doimiy ravishda oshib bordi.

Siyosiy fikr tarixi va xalqaro munosabatlar nazariyasida xalqaro tashkilotlarning jahon siyosiy jarayonidagi o'rni va roli haqida turli fikrlar yuzaga shakllandi. Realistik yindashuv vakillarining fikricha, xalqaro tashkilotlar jahon siyosiy jarayonida ikkinchi darajali o'rinni egallaydi. Ular xalqaro tashkilotlarga davlatlar o'z milliy manfaatlarini himoya qiluvchi maydon yoki muayyan davlat va davlatlar guruhining tashqi siyosiy vositasi sifatida qaraydilar.

Liberal oqim vakillari mavjud masalaga nisbatan o'zgacha yondashadilar. Ular xalqaro munosabatlarning butun tizimini qayta qurish borasidagi umidlarini xalqaro institutlar faoliyati bilan bog'laydilar. Ularning fikricha, xalqaro tashkilotlar nafaqat davlatlardan farqli ravishda xalqaro siyosatda mustaqil rol o'ynaydilar, balki asta-sekinlik bilan davlatlarni ham mavjud siyosat maydonidan siqib chiqaradilar. So'nggi yillarda neoliberalarning davlatlar rolining keskin pasayishi fonida xalqaro institutlarning ahamiyati o'sib borayotgani hamda va davlat suvereniteti tushunchasining tobora yo'qolib borayotgani haqidagi qarashlari keng tarqalmoqda.

Har ikkala nuqtai nazar ham mavjud bo'lishga haqlidir, zero ular jahon siyosiy jarayonlarini turli tomondan aks ettiradilar. Birinchi holatda uning o'tmishiga, ikkinchisida esa, ehtimoliy kelajagiga yuzlanib fikr yuritiladi.

Bir tomondan, o'tmishda ham, hozirgi paytda ham xalqaro tashkilotlar doirasida davlatlar o'z milliy manfaatlarini ilgari surib kelgan bo'lsa, xalqaro tashkilot haqiqatan ham har qanday davlat siyosatining quroliga aylanishi mumkin, ammo bunda davlat bunday tashkilotning faoliyatini to'liq nazorat qilishi, qarorlarni qabul qilish va amalga oshirishda hal qiluvchi ta'sir ko'rsatishi talab etiladi. Bunga Sovuq urush yillarida AQShning siyosiy vositasi bo'lgan va undan keying davrda ham mavjud mavqeqini saqlib qolgan Shimoliy Atlantika Shartnomasi Tashkiloti (NATO) misol bo'la oladi. Xuddi shuningdek, xuddi shu davrda Varshava shartnomasi tashkiloti Sovet Ittifoqi tashqi siyosatining vositasi hisoblangan.

Xalqaro tashkilotlar bu muayyan maqsadlarga erishish uchun shartnomalar asosida tuzilgan davlatlararo yoki nodavlat xarakteridagi birlashmalardir. Barcha xalqaro tashkilotlar ham o'z nizomiga ega emaslar (masalan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti o'z nizomiga ega,

ammo YXHT o'z faoliyati xususiyatidan kelib chiqib o'z nizomiga ega bo'lmagan). Xalqaro tashkilotlar xalqaro hukumatlararo (davlatlararo) va xalqaro nohukumat (nodavlat, jamoat) tashkilotlariga bo'linadi.

Xalqaro hukumatlararo (davlatlararo) tashkilotlar - bu davlatlar yoki ularning vakolatli institutlari o'rtasida xalqaro shartnoma asosida tuzilgan davlatlar yoki davlat institutlari birlashmalaridir.

Xalqaro hukumatlararo tashkilotlar deganda maxsus xalqaro shartnoma (nizom) asosida tuzilgan, xalqaro huquqiy subyektlikka va aniq belgilangan tashkiliy tuzilishga ega bo'lgan, xalqaro huquq normalariga muvofiq ish olib boradigan xalqaro huquq subhekti tushuniladi.

Xalqaro hukumatlararo tashkilot quyidagi aniq mezonlarga javob berishi kerak:

- ta'sis etuvchi xususiyatga, ya'ni xalqaro tashkilotni tuzadigan va uning yuridik tabiatini belgilaydigan maxsus turdagi xalqaro shartnomaga ega bo'lishi;

- xalqaro huquq subyekti maqomiga ega bo'lishi, ya'ni uni tashkil etgan davlatlardan kelib chiqadigan xalqaro huquq va majburiyatlarga ega ekanligi;

- aniq belgilangan, ya'ni qoida tariqasida quyidagi organlardan iborat tashkiliy tuzilmaga ega bo'lishi: yuqori organlar, ijro etuvchi organlar, tashkilotning eng yuqori ma'muriy mansabdor shaxsi (Bosh kotib) va maxsus qo'mitalar va komissiyalar majmui tomonidan boshqariladigan ma'muriy organlar;

- faoliyatning aniq maqsadlariga ega bo'lishi;

- o'z faoliyati davomida xalqaro huquq normalariga zid kelmasligi.

Xalqaro nohukumat (nodavlat, jamoat) tashkilotlar - a'zolari (birgalikdagi faoliyatining asosi umumiy manfaatlarni himoya qilish hamda fuqarolik, siyosiy, madaniy, ijtimoiy va iqtisodiy sohalarda ustuvor maqsadlarga erishishdan iborat bo'lgan) qonunchiligida xorijiy jismoniy yoki yuridik shaxslarga jamoat tashkilotlarini tuzishga va bunday tashkilotning boshqaruv organiga saylanish imkonini beradigan turli davlat subyektlaridan iborat bo'lgan va davlat ro'yxatidan o'tgan birlashmalardir. XHTning faoliyat doirasi (hududi) tashkilot ustavida belgilanadi. Xalqaro jamoat tashkilotlari xalqaro huquqiy subyektlilik darajasiga ega bo'lib, bunday huquqiy subyektlilik u yoki bu xalqaro shartnoma bilan belgilanadi, masalan, Inson huquqlari

va asosiy erkinliklarini himoya qilish bo'yicha Yevropa Konventsiyasining normalari buzilganligi ustidan shikoyat qilish huquqi yoki, masalan, Yevropa ijtimoiy xartiyasining normalari buzilganligi ustidan shikoyat qilish huquqi. Izoh: barcha davlatlar qonunchiligida ham to'g'ridan-to'g'ri xalqaro tashkilotning mohiyatini anglatadigan xalqaro tashkilotlarning tuzilishiga yo'l qo'yilmaydi. Masalan, Latviyada, "Jamoat tashkilotlari to'g'risida"gi qonunning 5-moddasiga binoan, tashkilot boshqaruv kengashi a'zolarining yarmi faqat Latviya Respublikasi fuqarolaridan iborat bo'lishi kerak, bu xalqaro boshqaruv tarkibini saylash imkoniyatini istisno qiladi va jamoat tashkilotlarining faqat milliy asosda ishlashiga imkon beradi.

Xalqaro tashkilotlar sonining ortishi, ularning dunyo siyosatida tutgan o'rni oshib borayotganini anglatadi. Bundan tashqari, xalqaro munosabatlar amaliyoti shundan dalolat beradiki, dastlab davlatlararo tuzilmalar sifatida tashkil etilgan va faoliyat ko'rsatgan xalqaro institutlar vaqt o'tishi bilan millatlararo xususiyatlar va funktsiyalarga ega bo'lishi mumkin. Bunga misol qilib, Yevropa iqtisodiy hamjamiyatidan (EEC) Yevropa Ittifoqiga (Yel) o'zgartirilgan Yevropa integratsiyasi tajribasini keltirish mumkin. Agar siyosatshunoslik nuqtai nazaridan xalqaro tashkilotlar mohiyati masalasi munozarali bo'lsa, xalqaro huquq nuqtai nazaridan u hal etilgan - hukumatlararo tashkilotlar xalqaro huquq subyekti sifatida tan olingan.

2-§. Xalqaro tashkilotlar tipologiyasi

Xalqaro tashkilotning vakolati bu a'zo davlatlar tomonidan berilgan vakolatlar bilan belgilanadigan uning mohiyatan faoliyat sohasidir. Xalqaro tashkilotlarning funktsiyalari tartibga soluvchi, nazorat qiluvchi, operativ va boshqalardan iborat bo'lishi mumkin. Ularning vakolatlari esa, ishtirokchi davlatlar tomonidan shartnomada ko'rsatilgan shartnomaviy doiralar bilan cheklangan.

Xalqaro hukumatlararo tashkilotlar (XHT) bilan bir qatorda, xalqaro nohukumat tashkilotlar (XNT) ham mavjud. Xalqaro nohukumat tashkilotlarning XHTlardan farqi jihati shundaki, ular rasmiy davlat tuzilmalari vakillari tomonidan emas, balki bir necha davlatlarning alohida shaxslari va jamoat birlashmalari tomonidan tuziladi. XNTlar xalqaro huquq subyekti bo'lmasada, bu ularning

zamonaviy xalqaro munosabatlarda faol rol o'ynashiga to'sqinlik qilmaydi.

Maqsadi, ishtirokchilar tarkibi va faoliyati xususiyatiga ko'ra, XHT va XNTlarning har xil turlari farqlanadi. Masalan, diniy XNTlar (Xalqaro cherkovlar kengashi), sport (Xalqaro futbol federatsiyasi - FIFA), inson huquqlari (Xalqaro Amnistiya), ekologik (Grinpis), siyosiy (Xalqaro Demokratik Ittifoq) va h.k.

XNTlarning global siyosiy jarayonga jalb etilganlik darajasi bir xil emas. Siyosiy tashkilotlar to'g'ridan-to'g'ri jahon siyosatining subyektini sifatida faoliyat yuritadilar. Greenpeace va Xalqaro Amnistiya siyosiy faoliyatda tabiatiga ko'ra emas, balki ularning faoliyat sohasi muqarrar ravishda siyosiy soha bilan kesishganligi sababli qatnashadilar. O'z xohishiga ko'ra siyosatdan yiroq bo'lgan nodavlat tashkilotlar ham mavjud.

Bugungi kunga qadar xalqaro munosabatlar nazariyasi va amaliyoti uchun nodavlat tashkilotlarning faoliyati xalqaro hukumatlararo tashkilotlarning faoliyati kabi muhim ahamiyat kasb etmas edi. Xalqaro tashkilot bir necha davlatlar yoki ularning fuqarolaridan iborat guruhlarini manfaatlariga ta'sir etuvchi xalqaro muammolarni birgalikda hal qilish vositasidir. Shunga ko'ra, ushbu tashkilotlarning subyektlari davlatlar, ularning institutlari yoki fuqarolarning birlashmalaridan iborat bo'ladi. Tashkilotlar ustavlarida ushbu subyektlar a'zolar deb yuritiladi. Rasman xalqaro tashkilot a'zolari o'zaro teng huquqlidirlar. Zero, BMT nizomining 3-moddasiga binoan, ushbu tashkilot faoliyati "uning barcha a'zolarining suveren tengligi prinsipiga asoslanadi". Barcha zamonaviy xalqaro tashkilotlarning ustavlari va ustav maqsadlari BMTning Ustav va maqsadlariga muvofiq bo'lishi hamda ularga a'zolik o'zaro tenglikka asoslanishi kerak.

Dastlab, barcha xalqaro institutlarning qarorlari bir ovozdan qabul qilingan. Ushbu muassasalar faoliyatida konsensus prinsipi 1899-yilgi Gaaga konferentsiyasida namoyish etilgan. Uning barcha qarorlari bir ovozdan, kam sonli betaraflar bo'lgani holda qabul qilingan. Ammo konsensus prinsipi keyinchalik ozini oqlamadi. Bu, ayniqsa, qarorlarni qabul qilishda birdamlik tamoyilini belgilab bergan Millatlar Ligasi faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Shu sababli, 1930-yilgi Gaaga konferentsiyasida qabul qilingan qarorlarning ahamiyatiga qarab oddiy ko'pchilikdan tortib, to'rtinchi uch qismigacha bo'lgan

“ko‘pchilik ovozi” bilan qarorlar qabul qilish tamoyilini o‘rnatildi. Ushbu normalar BMT Ustavida mustahkamlangan va boshqa xalqaro institutlar tomonidan qabul qilingan. Eng muhim qarorlar hanuzgacha biroz boshqacha tarkibga ega bo‘lgan konsensus orqali qabul qilinadi. Jimladan, BMT Xavfsizlik Kengashida qarorlarni qabul qilish uning besh doimiy a‘zolarining murosasi talab qilinadi. Deyarli barcha doimiy komissiyalarda qarorlar barcha a‘zolarining yakdil ovozi asosida qabul qilingan hisoblanadi.

Konsensus tenglik va teng ovoz berishni anglatadi, ammo amalda tenglik deyarli bo‘lmaydi. Agar BMTga a‘zo ba‘zi davlatlar uning barcha boshqaruv organlarida o‘tirib, qabul qilingan barcha qarorlarga ta’sir ko‘rsatish yoki qarorlarni qabul qilish imkoniyatiga ega bo‘lsalar va boshqa ko‘pgina davlatlarning ovozi faqat Bosh Assambleyada tavsiyaviy xarakterga ega bo‘lgan qarorlarni qabul qilishda hisobga olinishi mumkin bo‘lsa, davlatlarning qanday suveren tengligi haqida gapirish mumkin? Xavfsizlik Kengashining doimiy besh a‘zosining har biri, Birlashgan Millatlar Tashkilotiga a‘zo bo‘lgan barcha davlatlarga qaraganda, Kengash tomonidan qarorlar qabul qilishda katta ahamiyatga ega, chunki ular (har biri alohida) BMTga a‘zo davlatlarning aksariyatining xohish-irodasiga veto qo‘yish huquqiga ega.

O‘z a‘zolarining tenglik huquqini e‘lon qilgan ko‘pgina xalqaro tashkilotlarning nizomlari amalda tengsizlikni kuchaytiradi. Xususan, Xalqaro valyuta jamg‘armasi a‘zolarining qaror qabul qilishdagi o‘rni ularning ushbu tashkilotni moliyalashtirishga qo‘shgan hissasi bilan belgilanadi. Ushbu badallar va shunga ko‘ra, tashkilotning eng yaxshi 5 a‘zosining ovozi bir-biridan sezilarli darajada farq qiladi. Shu bilan birga, XVJga a‘zo 43 mamlakat birgalikda 1% ovozga ega.

3-§. Xalqaro tashkilotlar tasnifi

Xalqaro tashkilotlarni turli asoslarga ko‘ra tasniflash mumkin:

1) miqyosiga ko‘ra: universal va mintaqaviy (BMT - Yevropa Ittifoqi);

2) faoliyat maqsadiga ko‘ra: umumiy va maxsus (Arab davlatlari ligasi - Xalqaro mehnat tashkiloti);

3) xalqaro tashkilotda ishtirok etuvchi davlatlarning ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlariga ko‘ra: rivojlanayotgan davlatlar, rivojlangan

davlatlar, aralash turdagi xalqaro tashkilotlar (ASEANning Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlari tashkiloti - Jahon banki - YuNESKO).

Ishtirokchilar doirasiga ko'ra:

- ✓ universal (barcha davlatlar uchun, masalan, BMT)
- ✓ mintaqaviy (a'zolari bir mintaqqa davlatlaridan iborat bo'lishi mumkin; masalan - Afrika birligi tashkiloti, Amerika davlatlari tashkiloti)
- ✓ mintaqalararo

Vakolati doirasiga ko'ra

- ✓ davlatlararo - davlat suverenitetini cheklamaydigan
- ✓ milliy (davlatdan tashqari) - davlat suverenitetini qisman cheklovchi: bunday tashkilotlarga qo'shilish orqali a'zo davlatlar o'z vakolatlarining bir qismini o'z organlari orqali xalqaro tashkilotga topshiradilar.

Funksiyalariga ko'ra:

- ✓ qonun ijodkorligi
- ✓ maslahat
- ✓ vositachilik
- ✓ operatsion
- ✓ informatsion

Yangi a'zolari qabul qilish tartibiga ko'ra:

✓ ochiq (har qanday davlat o'z xohishiga ko'ra a'zo bo'lishi mumkin)

✓ yopiq (dastlabki muassislarning roziligi bilan qabul qilinadi)

Kompetentligi va ishtirokchi davlatlarning tarkibiga ko'ra:

✓ umumiy kompetensiyali davlatlararo xalqaro munosabatlar: bunda barcha faoliyat sohalari (siyosiy, iqtisodiy, madaniy va hokazo) qamrab olinadi (masalan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti);

✓ maxsus kompetensiyali xalqaro hukumatlararo tashkilotlar: faoliyati davlatlararo munosabatlarning alohida yo'nalishlaridan biriga ta'sir ko'rsatadigan davlatlar birlashmalar, masalan, harbiy-siyosiy tashkilotlar, iqtisodiy tashkilotlar (IMF), Birlashgan Millatlar Tashkilotining Madaniyat va ta'lim masalalari bo'yicha tashkiloti (YuNESKO);

✓ ochiq xalqaro hukumatlararo tashkilotlar – a’zolik talablariga javob beradigan har qanday davlat qabul qilinishi mumkim bo’lgan (masalan, Jahon sog’liqni saqlash tashkiloti va boshqalar) davlatlar birlashmalari;

✓ yopiq xalqaro hukumatlararo tashkilotlar - yangi a’zolar faqat dastlabki ta’rischilarning roziligi bilan qabul qilinishi mumkin bo’lgan davlat birlashmalari (NATO);

✓ mintaqaviy mansubligidan qat’iy nazar, barcha davlatlar uchun a’zo bo’lish imkonini beradigan umumjahon xalqaro tashkilotlar (Millatlar Ligasi birinchi universal tashkilot edi, bugungi kunda Birlashgan Millatlar Tashkiloti bunday tashkilot maqomiga ega, shuningdek uning tizimiga kiruvchi ixtisoslashtirilgan tashkilotlar va muassasalar);

✓ mintaqaviy xalqaro hukumatlararo tashkilotlar – bir mintaqa doirasida joylashgan davlatlar birlashmalari (masalan, Amerika davlatlari tashkiloti, Arab davlatlari ligasi).

4-§. Xalqaro tashkilotlar faoliyatining huquqiy asoslari

Xalqaro tashkilotlarning huquqiy asoslari ta’rischi davlatlar tomonidan u tashkil etilishidan oldin belgilanadi. Biroq, doimo o’zgarib turadigan hayot tarzi uni bugungi kunga muvofiqlashtirishni talab qiladi. Bu xalqaro institutlar nizomlarini qayta ko’rib chiqish yoki ularga o’zgartirish kiritish orqali amalga oshiriladi. Tuzatish kiritish g’oyasi kim tomonidan kiritilishidan qat’iy nazar, ushbu masala barcha a’zo davlat vakillarining ishtirokidagi maxsus konferentsiyasi tomonidan hal qilinishi mumkin. Mazkur norma BMT nizomining 109-moddasida mustahkamlab qo’yilgan. BMT Nizomiga muvofiq, unga kiritilgan o’zgartishlar Bosh Assambleya a’zolarining uchdan ikki qismi tomonidan qabul qilinib, BMT a’zolarining, jumladan Xavfsizlik Kengashining doimiy a’zolarining uchdan ikki qismi tomonidan ratifikatsiya qilinganidan keyin kuchga kiradi. Bu qonunchilik prinsipi yoki konstitutsiyaviy ko’pchilik prinsipidir.

Xalqaro tashkilotlarga a’zo davlatlar ayrim tuzatishlarning qabul qilinishiga qarshi chiqish va qabul qilingan tuzatishlarni ratifikatsiya qilishdan bosh tortish holatlari ham kuzatiladi. Aslida har bir davlat bunday masalalarni hal qilishda mustaqildir. Ammo, boshqa tomondan, bir yoki bir nechta davlatlar xalqaro muammolarni hal

qilishda mutlaq ko'pchilikning fikriga qarshi chiqib, atrofda qilarga o'z irodasini singdirishga bo'lgan urinishlarini oqilona va normal yo'l deb bo'lmaydi. Shu sababli, xalqaro tashkilotlar amaliyotida bunday vaziyatlardan chiqishning turli xil variantlari ishlab chiqilgan.

Birinchidan, qarshilar muayyan muammolarni xalqaro tashkilot yordami bilan ko'pchilik davlatlar bilan birgalikda hal etishi yoki undan ixtiyoriy ravishda chiqib ketishlari mumkin.

Ikkinchidan, tashkilotga a'zo davlatlar yangi majburiyatlarni o'z zimmlariga olmaganliklari, lekin shu bilan birga boshqa davlatlarning o'z xohish-irodalarini amalga oshirishlariga to'sqinlik qilmasliklari haqida ogohlantiradilar.

Uchinchidan, davlatlar o'zlarining ustav majburiyatlarini muntazam ravishda bajarmaganliklari uchun xalqaro tashkilotdan chiqarilishi mumkin.

Har qanday tashkilotning faoliyati ma'lum xarajatlarni, xalqaro tashkilotlarning faoliyati esa katta xarajatlarni talab qiladi. Tashkilotning byudjeti boshqaruv organlari tomonidan belgilanadi va a'zo davlatlar konferentsiyasi yoki assambleyasi tomonidan tasdiqlanadi. Xarajatlar badallar ko'rinishida xalqaro tashkilotning barcha a'zolari o'rtasida taqsimlanadi. Davlatlarning moliyaviy imkoniyatlari bir xil emasligi sababli, ular to'lov qobiliyatiga qarab tasniflanadi. Har bir sinf uchun o'z badali miqdori belgilanadi, bunda davlat tomonidan qaysi sinfga qo'shilishga tayyor ekanligi to'g'risida tashkilotni xabardor qiladi. Ko'pgina tashkilotlar mamlakatning rivojlanish darajasi va uning moddiy imkoniyatlariga qarab doimiy badallarni belgilaydilar.

BMT protsedura qoidalarining 161-bandiga binoan, Bosh Assambleyada har bir davlat uchun yillik badallar belgilanadi. To'lov badallari yuzasidan qarzdorlik belgilangan BMT a'zosi Bosh Assambleyada ovoz berish huquqiga ega bo'lmaydi. Biroq, Bosh Assambleya to'lov uzrli sabablarga ko'ra kechiktirganligini tan olgan taqdirda, a'zo davlatning ovoz berishiga ruxsat berishi mumkin.

Shunday qilib, xalqaro tashkilotlar hayotining huquqiy me'yorlari shakllangan bo'lsada, ularni demokratik va adolatli deb hisoblashga hali erta.

Xalqaro hukumatlararo tashkilotlar (XHT) bu xalqaro ko'p tomonlama shartnomalar asosida tuzilgan davlatlar vakillarining doimiy konferentsiyalaridir. 1950-yil 27-fevralda qabul qilingan BMT

iqtisodiy va ijtimoiy Kengashining rezolyutsiyasida XHT tushunchasiga quyidagicha qisqa ta'rif berilgan: "Bu davlatlar o'rtasida kelishuv asosida tuzilgan tashkilotlar bo'lib, ularning a'zolari ham davlatlarning o'zlaridir"²⁸. XHTlarga BMT, Amerika Davlatlari Tashkiloti, Yevratom, NATO, Afrika Birligi Tashkiloti va Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi kabilar misol bo'la oladi. XHT belgilari deganda, faoliyatning xalqaro-huquqiy asoslari (xalqaro shartnoma yoki nizom), doimiy faoliyat yurituvchi maxsus organlar, xodimlar, moliyaviy resurslarning mavjudligi, qarorlarni bajarish yuzasidan davlat majburiyatlarining mavjudligi kabilar tushuniladi.

Xalqaro nohukumat tashkilotlar (XNT) - bir necha davlat fuqarolari yoki tashkilotlarning ixtiyoriy asosdagi, moddiy manfaat olishni ko'zlamaydigan birlashmalaridir. Bu kabi tashkilotlarga Xalqaro huquq assotsiatsiyasi, Fazoviy tadqiqotlar bo'yicha qo'mita, Xalqaro velosipedchilar uyushmasi, Xalqaro optika jamiyati kabilar misol bo'la oladi.

XHT va XNTlar bilan bir qarotda, xalqaro tashkilotlarning boshqa turlari ham mavjud bo'lib, bunda davlat va nodavlat institutlari ham a'zo sifatida ishtirok etishi mumkin. So'ngi yillarda jahon siyosatida davlatlar bilan teng huquqlarda qatnasha oladigan xalqaro tashkilotlar paydo bo'ldi. Bundan tashqari, kvazixalqaro nomi bilan yuritiluvchi yana bir turdagi tashkilot ham mavjud. Ular bir mamlakat hududida tashkil etilgani holda, mazkur davlat chegaralaridan tashqarida faol ishlaydilar. Bunga Germaniyada tashkil etilgan Konrad Adenauer jamg'armasi va dunyoning 120 mamlakatida vakolatxonalari mavjud bo'lgan hamda xalqaro hamjamiyat tomonidan insonparvarlik tadbirlarini o'tkazish uchun maxsus vakolatlariga ega (xalqaro mandat) bo'lgan Xalqaro Qizil Xoch qo'mitasi misol bo'la oladi.

Ushbu paragrafda biz xalqaro hukumatlararo va xalqaro nohukumat tashkilotlarga alohida e'tibor qaratamiz. *Birinchidan*, XHT va XNTlar o'rtasida juda katta farq mavjud. *Ikkinchidan*, xalqaro nohukumat tashkilotlar boshqa nodavlat tashkilotlaridan deyarli farq qilmaydi, ular milliy qonunchilik asosida ixtiyoriy birlashmalar sifatida tashkil etiladi. *Uchinchidan*, xalqaro va nohukumat nodavlat tashkilotlarini farqlash uchun yagona mezon mavjud emas. BMTning Iqtisodiy va ijtimoiy kengashi rezolyutsiyalariga binoan, xalqaro

²⁸ Les Organisations internationales entre l'innovation et la stagnation. Lausanne, 2015. - P. 21.

nohukumat tashkilot - bu kamida uch a'zodan iborat bo'lgan, hukumatlararo bitimga asoslanmagan va kamida uchta davlatdan tashkil topgan har qanday xalqaro tashkilot²⁹. Bundan tashqari, nohukumat tashkilotning minimal a'zolari sonini aniqlash va shu asosda unga xalqaro tashkilot maqomini beruvchi boshqa ta'riflar ham mavjud. "Xalqaro nodavlat tashkilotlari to'g'risidagi Yevropa konventsiyasi" ga muvofiq, ikki mamlakatning ikki a'zosidan iborat bo'lgan tashkilotlar XNT hisoblanadi. Xalqaro assotsiatsiyalar ittifoqi tomonidan nashr etilgan "Xalqaro tashkilotlar yilnomasi" XNTlar ro'yxatiga o'zlarini shunday deb e'lon qilgan barcha tashkilotlar, hatto nomlari "xalqaro" so'zini o'z ichiga olgan tashkilotlar, masalan, Moskva davlat xalqaro munosabatlar institutini ham kiritilgan.

Shu o'rinda, shuni yodda tutish kerakki, XHTlarda davlat tashqi siyosiy institutlarining tarkibiga kiruvchi va tegishli vakolatlarga ega bo'lgan shaxslar davlat nomidan ish yuritadilar. Davlat haqiqatan ham bir qator ijtimoiy jarayonlarda yaxlit bir tizim sifatida harakat qiladi hamda o'z fuqarolari va tashqi kuzatuvchilar tomonidan mazkur maqomda tan olinadi.

Xalqaro tashkilotlar sonining rivojlanish boqichlarini o'rganish asnosida qiziqarli natijalar qo'lga kiritildi. Ularning jadal o'sish sur'atlari Ikkinchi jahon urushidan keyin kuzatila boshladi. 1945-yildan 1982-yilgacha bolgan davrda tashkilotlar soni 50 tadan 300 tagacha ko'paydi. O'sishning quyidagi ikki yuqori cho'qqisi kuzatilgan: 1960-1965 va 1970-1975-yillar. Yigirmanchi asrda tashkil etilgan tashkilotlarning taxminan 20 foizi o'z faoliyatini to'xtatgan. J. Blan XHT rivojida aksariyat tashkilotlarni qamrab olgan ko'plab parametrlarni uchta bosqichi xususida to'xtaladi:

1. Asosan oltmishinchi yillarning o'rtalariga kelib tugaydigan rivojlanish davri.
2. Yetmishinchi yillarning o'rtalarigacha yoki oxiriga qadar keskin o'sish bosqichi.
3. Deyarli barcha tashkilotlar saksoninchi yillarning boshlarida erishgan barqarorlashuv davri.

So'ngi bosqichda tashkilotlar sonining o'sishi, ularning byudjeti, kadrlar soni deyarli to'xtadi, ko'plab tashkilotlar rivojlanishining

²⁹ The Yearbook of International Organisations 2017-2018. - Vol. 1. Brussels, 2019. - P. 56-58.

nazariy chegaralariga yetdilar³⁰. Afsuski, shveysariyalik olimning tadqiqotlari saksoninchi yillarning birinchi yarmida tugagani bois, to'qsoninchi yillarda yuz bergan jarayonlar: bir qator tashkilotlarning inqirozi, xodimlar sonining qisqarishi, ularga ajratilgan mablag'larning kamayishi va Sobiq Ittifoq o'rnida yangi davlatlarning paydo bo'lishi munosabati bilan universal va Yevropa mintaqaviy tashkilotlari sonining o'sishi, sobiq sotsialistik davlatlarning ilgari siyosiy sabablarga ko'ra a'zo bo'lmagan tashkilotlarga kirishi kabilar uning nazaridan chetda qolib ketdi.

5-§. XHTlarning asosiy xususiyatlari

Tashkilotlarni o'rganishning umumiy tamoyillari xalqaro tashkilotlarga nisbatan qo'llanilishi mumkin. Ushbu sohaning klassik olimlaridan biri A. Etzioning fikricha, birinchidan, tashkilot mehnat taqsimoti, hokimiyat va kommunikatsion javobgarlik kabilar bilan tavsiflanib, u aniq maqsadga erishish yo'lida uzoq o'ylandan strategiya natijasidir. Ikkinchidan, tashkilotda bir yoki bir nechta qaror qabul qilish markazlari xosdir. Uchinchidan, tashkilotda xodimlarni vazifalarni boshqa shaxslar o'rtasida taqsimlash yo'li bilan almashtirish imkoni mavjud³¹. A. Etzioni o'zining "Zamonaviy tashkilotlar" asarida uchta asosiy muammoni ko'rib chiqadi: tashkilotning maqsadi, tuzilishi va ijtimoiy muhit bilan o'zaro aloqasi. A.I. Prigojin o'zining bir qator asarlarida tashkilotlarni o'rganish mavzusini rivojlantirgan, xususan, "Zamonaviy tashkilotlar sotsiologiyasi" asarida nisbiy mustaqillikka ega bo'lgan uch tomonni ajratib ko'rsatgan: tashkilot vosita sifatida, tashkilot hamjamiyat sifatida, tashkilot o'zaro bog'liqlik va normalarning nomoddiy tuzilmasi sifatida³².

XHTlar tarkibi

Umumiy qoidaga muvofiq, XHT a'zolari o'zlarining vakillari tomonidan ko'rsatilgan davlatlardir. XHTga a'zo bo'lgan davlatlar turli xil maqomga ega bo'lib, ular ikki asosiy guruhga bo'linadi:

³⁰ Дыганков П. А. Политическая социология международных отношений. М., 2014. – С. 22.

³¹ Дыганков П. А. Политическая социология международных отношений. М., 2014. – С. 31.

³² Пригожин А.И. Современная социология организаций. – Москва: Наука, 2016. – С. 18.

ta'sischi va ta'sis shartnomasiga qo'shilgan davlatlar. Qoida tariqasida, ta'sischi va keyinchalik qo'shilgan davlatlar o'rtasida huquq va majburiyatlarda farq yo'q.

Tashkilotga yangi davlatlar a'zolarining ko'pchilik ovozi bilan yoki bir ovozdan qabul qilingan qaroriga binoan qabul qilinadi. Ba'zi xalqaro tashkilotlar, o'z ustavlarini tan olgan va tashkilot oldidagi majburiyatlarini bajaradigan (masalan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti) dunyoning barcha mamlakatlari uchun ochiqdir. Aksariyat tashkilotlar esa cheklangan a'zolikka ega. Ularga qo'shilishning sharti - bu faoliyatning ma'lum bir sohasi va manfaatlarining mavjudligi (masalan, neftni eksport qiluvchi davlatlar tashkiloti), muayyan mintaqaga mansubligi (Afrika birligi tashkiloti, MDH), iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari, muayyan siyosiy talablarni bajarish (Yevropa Kengashi) kabilarda ifodalanadi. Kirish shartlari bitta yoki yuqorida keltirilgan bir nechta mezonlardan iborat bo'lishi mumkin.

Aksariyat hollarda tashkilotga kirishdan oldin "neofit" holatini sezilarli darajada tayyorlash kerak. Tashkilot undan qonunlarni, iqtisodiy yoki harbiy siyosatni o'zgartirish bilan bog'liq bo'lgan muayyan harakatlarni amalga oshirishni talab qiladi. Masalan, Yevropa Kengashiga a'zo bo'lish bir necha asosiy shartlarning bajarilishi bilan bog'liq: hokimiyat institutlarining demokratiyaning asosiy prinsiplariga muvofiqligi, erkin, teng, umumbashariy saylovlar orqali xalq vakillarini saylash, inson huquqlariga rioya qilish, inson huquqlari bo'yicha Yevropa konventsiyasi prinsiplarini qabul qilish majburiyati va uni boshqarish mexanizmlarini tan olish kabilar shular jumlasidandir. Yangi a'zolarini qabul qilish amaliyoti "ikki tomonlama standartlar"ning mavjudligidan dalolat beradi. Masalan, Portugaliya 1976-yilda va 1977-yilda Ispaniya Yevropa Kengashiga qabul qilingan, garchi o'sha paytda bu mamlakatlarda demokratik hokimiyat institutlari hali tashkil etilmagan bo'lsa ham³³. Rossiya Federatsiyasi qonun hujjatlariga va davlat idoralari isloh qilishga qaratilgan qator tavsiyalarni bajarishga rozi bo'lishi kerak edi. "Ittifoqqa qo'shilish istagini bildirgan" Markaziy va Sharqiy Yevropa mamlakatlari uchun NATO uchta yo'nalishni qamrab olgan talablarni ilgari surgan: siyosiy - barqaror rivojlangan demokratik institutlar, iqtisodiy - bozor

³³Айдиция Р. М. Введение в теорию социальной организации. - СПб, 2015. - С. 291.

iqtisodiyoti va harbiy - zamonaviy armiya. Ushbu talablar aniq mezonlarga ega emas, ammo NATOning sobiq a'zolarining ba'zilar ushbu mezonlarga to'liq javob bermasligi aniq³⁴. Nomzodlarga qo'yiladigan talablar davlatlar va tashkilot doirasidagi siyosiy elitalar tomonidan muhokama etiladi va har bir holatda alohida qoidalar o'rnatiladi. Shuni ta'kidlash kerakki, ijtimoiylashuv jarayonini biroz eslatuvchi yangi a'zolari tayyorlash prinsipi mavjud. Tashkilotga a'zo bo'lishga intilayotgan yoki unga qo'shilgan davlat ushbu tashkilotda mavjud bo'lgan norma va qoidalarga moslashish orqali o'z xatti-harakatlarini o'zgartiradilar.

Tashkilotga a'zo bo'lish juda murakkab va ko'p vaqt talab qiladigan jarayon bo'lib, u talabnoma yoki taklifnoma berish, nomzodni o'rganish, uning a'zosi bo'lish to'g'risida qaror qabul qilish kabilarni o'z ichiga oladi. Ba'zi bosqichlar tantanavor marosimlar bilan o'tkaziladi. Ko'pincha yangi a'zoni qabul qilish to'g'risidagi qaror xalqaro tashkilotning bir nechta idoralari orqali qabul qilinadi. Ba'zi hollarda, kirish ko'p bosqichli marosimga o'xshaydi. Masalan, Yevropa Kengashida nomzod davlat arizani kotibiyatga topshiradi, u esa o'z navbatida uni o'rganish uchun Parlament Assambleyasi bilan maslahatlashadigan vazirlar qo'mitasiga topshiradi. Mamlakat qabul talablariga javob beradimi yoki yo'qligini aniqlash uchun komissiyalar yuborilib, ishlarning holati bilan tanishadilar. Komissiyalarning hisobotlari xalqaro tashkilot organlari tomonidan o'rganib chiqiladi.

Tashkilotga yangi a'zolari qabul qilish masalasi ko'pincha keskin kurash mavzusiga aylanadi. 1945-yilda tashkil etilgan Birlashgan Millatlar Tashkiloti uzoq vaqt davomida uning a'zolari sonini ko'paytirmadi. Buning sababi shundaki, u tashkil qilingan vaqtdan boshlab tashkilotda Amerika bilan aloqa qiladigan harbiy kuchlar bloki shakllantirilgan bo'lib, ular Bosh Assambleyada juda ko'p ovozga ega bo'lgan va SSSR ittifoqchilarini va betaraf pozitsiyani egallagan davlatlarni qabul qilishni istamagan. SSSR, Xavfsizlik Kengashida veto huquqi bilan, Amerikaning ta'siri ostidagi davlatlarning kirishiga to'sqinlik qilgan. 1955-yilda Sovet Ittifoqi bir vaqtning o'zida sotsialistik va neytralist davlatlarni, shuningdek, G'arb kuchlarining homiyligidan foydalangan mamlakatlarga Birlashgan Millatlar

³⁴ Чернышев А.А. Международные организации и военно-политический аспект европейской интеграции // Теория и практика деятельности международных организаций. – СПб., 2017. – СС. 36-41.

Tashkilotiga a'zo bo'lish to'g'risida taklif kiritgandan so'ng, murosaga erishilgan. Ushbu taklif Xavfsizlik Kengashi, so'ngra Bosh assambleya tomonidan 16 davlatni bir vaqtning o'zida BMTga qabul qilish to'g'risidagi qaror qabul qilinishi natijasida qabul qilindi³⁵. AQShning ustunligini ta'minlagan Lotin Amerikasi blokining hukmronligi shu tariqa yakun topdi.

Davlatlar uchun tashkilotning to'laqonli a'zosi bo'lmay turib, qatnashish uchun bir nechta variantlar mavjud: assotsiatsiyaviy a'zolik, kuzatuvchi maqomi va boshqalar. Masalan, Shveytsariya va Vatikan BMTda kuzatuvchi hisoblanadi. Hozirgi kunda o'n davlat G'arbiy Yevropa Ittifoqining (WEU), Yevropaning kollektiv mudofaa tashkilotiga to'laqonli a'zo hisoblanadi. Uch mamlakat sherik maqomiga ega. Bundan tashqari, yana to'qqiz mamlakat WEUning sheriklari sifatida a'zo. NATO kabi bir tashkilot ham sherikdir.

XHT organlari

Ierarxiya nuqtai nazaridan XNT organlari asosiy va yordamchi organlarga bo'linadi. Asosiy organlar ustav asosida tuziladi, qarorlar qabul qilishda ishtirok etadi hamda tashkilotning ayrim faoliyat turlarini boshqaradilar. Yordamchi organlar doimiy yoki vaqtincha xarakterga ega bo'lgan aniq vazifalarni bajaradilar hamda zaruratga qarab tashkil etiladi va tugatiladi.

Bajarilgan vazifalarga muvofiq, XHTlarning asosiy organlari maslahat, ijro, ma'muriy, sud va maslahat bo'limlariga bo'linishi mumkin.

Odatda maslahat organlari muntazam ravishda, nisbatan kamdan-kam hollarda va qisqa vaqt davomida yalpi konferentsiyalar sifatida faoliyat yuritadi. Bunday konferentsiyalarda tashkilot vakolatiga tegishli barcha masalalar muhokama qilinadi. A'zo davlatlar odatda bitta ovozga ega bo'ladi. Bunday organlarning a'zo davlatlarga nisbatan qabul qilgan qarorlari tavsiyaviy xarakterga ega bo'ladi. Davlatlar ushbu tavsiyalarga amal qilishadi yoki muayyan vaziyatga, davlatning kuchi va obro'siga va tashkilotning ta'sir doirasiga qarab ularni e'tiborsiz qoldiradilar. Bunday organlarga misollar sifatida BMT Bosh assambleyasi, UNIDO Bosh konferentsiyasi (Birlashgan Millatlar Tashkilotining Sanoatni rivojlantirish tashkiloti), Butunjahon

³⁵ Моравецкий В. Функции международной организации. – Москва, 2016. – С. 31

meteorologik tashkilotining butunjahon meteorologik kongressini keltirish mumkin.

Ijroiya organlari XHTning joriy faoliyatini ta'minlaydi, yordamchi organlarni tashkil etadi. Ko'pincha ular favqulodda choralarni ko'rish vakolatiga ega. Davlatlar o'rtasida jadal hamkorlikni amalga oshiradigan tashkilotlarda ijroiya hokimiyati doimiy vakillar darajasida uzluksiz ishlaydi. Nisbatan kamroq faol bo'lgan tashkilotlarda ular vazirlar yoki boshqa yuqori martabali amaldorlar darajasidagi hukumat vakillaridan iborat bo'ladi. Ba'zi hollarda, masalan, Jahon sog'liqni saqlash tashkilotida, YuNESKOda, ijroiya organining a'zolari ma'lum bir sohaning mutaxassislaridan iborat bo'ladi. Ijroiya organlariga quyidagilar misol bo'la oladi: Umumjahon pochta ittifoqining Ijroiya kengashi, WEUning doimiy kengashi, Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki boshqaruvchilar kengashi. A'zolari ko'p bo'lgan tashkilotlarda ijroiya organlari rotatsiya asosida o'zgaradigan tor tarkibda tuziladi. XNTlarning asosiy ishtirokchilari ko'pincha doimiy asosda faoliyat yuritadilar. Masalan, Xalqaro mehnat tashkilotining Boshqaruv Kengashida eng rivojlangan 10 mamlakat hukumatlari vakili bo'lishi kerak. Qolgan ishtirokchilar ma'lum muddatga saylanadilar, bunda adolatli jug'rofiy vakillik yoki ma'lum manfaatlarining adolatli ifodalanishi tamoyillariga rioya qilinadi. Masalan, Xalqaro dengiz tashkiloti Kengashining a'zolari davlatlarning uch guruhidan saylanadilar: xalqaro dengiz transportidan eng ko'p manfaatdor bo'lgan davlatlar, xalqaro dengiz savdosidan eng ko'p manfaatdor bo'lgan davlatlar, shuningdek, dengiz sayohati sohasida alohida manfaatlarga ega bo'lgan davlatlar, Kengashda dunyoning barcha jug'rofiy mintaqalari uchun vakillikni ta'minlash uchun bir vaqtda saylanishi kerak.

Ma'muriy organlar boshqa organlarning ishlashini ta'minlaydigan, konferentsiyalar, ma'ruzalar va tashkilot materiallarini nashr etadigan kotibiyatlardir. Kotibiyat mudiri mablag'larni boshqaradi. Kotibiyatlarda xalqaro xodimlar, ma'muriy, texnik va yordamchi xodimlar faoliyat yuritadilar. Xalqaro mansabdor shaxslar (xalqaro davlat xizmati) – a'zo davlatlardan yollangan mansabdor shaxslardir iborat bo'ladi. Ularning xalqaro huquqiy maqomi xalqaro tashkilot tashqarisidagi har qanday hokimiyatdan rasmiy mustaqillikni talab qiladi. Ularning ishlashi uchun eng maqbul sharoitlarni ta'minlash maqsadida ularga diplomatlarda bo'lgani kabi imtiyozlar va

immunitetlar beriladi va yuqori mukofotlar belgilanadi. Xalqaro davlat xizmatining mansabdor shaxslari tashkilotdagi faoliyati tugatilgandan keyin ham unga tegishli sirlarni oshkor etmaslikka hamda o'z faoliyati davomida hech kimning ko'rsatmasi va buyrug'iga amal qilmasligi (tashkilotning buyruqlari bundan mustasno) haqida qasamiyod qiladi yoki tantanali ravishda va'da beradilar. Tashkilotda ishlash xodimlarning siyosiy va jamoat faoliyatiga jiddiy cheklovlar qo'yadi, aksariyat hollarda ular ommaviy chiqish, u yoli bu narsani nashr qilish huquqidan mahrum qilinadilar.

Kam sonli XHTlar o'zlarining xalqaro tashkilotlar vakolatiga taalluqli nizolar yuzaga kelgan taqdirda hakamlilik funksiyasini bajaradigan hamda XHT me'yoriy hujjatlarini sharhlash funksiyasini bajaradigan sud organlariga ega. Ishni ko'rib chiqish har ikkala tomonning XHTning tegishli sud organida ko'rib chiqilishiga roziligi asosida amalga oshiriladi. Sud qarorlari tavsiyaviy xarakterga ega bo'lib, sud qarori ijrosini ta'minlash uchun deyarli hech qanday mexanizm mavjud emas. Bu kabi organlarga quyidagilarni misol qilish mumkin: BMT Xalqaro Sudi, Reyn daryosi bo'ylab kemalarning harakatlanishi Markaziy komissiyasi. Xalqaro sudlarning faoliyati hozirda keng e'tirof etilmagan.

Yaqin vaqt oralig'ida XHTda paydo bo'lgan parlamentlararo organlar maslahat organlari hisoblanadi. Ular tegishli xalqaro tashkilotlar faoliyatining deyarli barcha sohalarini qamrab oluvchi keng ko'lamli masalalarni hal etadilar. Milliy parlament vakili sifatida ular tashkilot faoliyati ustidan siyosiy nazorat funksiyalarini ham amalga oshiradilar. Parlamentlararo organlar, odatda, a'zo davlatlar parlamentlari vakillaridan iborat bo'lib, ular milliy parlamentlar tomonidan, ayrim hollarda esa, federal birliklarning qonunchilik assambleyalari tomonidan tayinlanadi yoki saylanadilar. Parlament a'zolari doimiy asosda faoliyat yuritadigan o'z o'rinbosarlariga ega bo'lishlari ham mumkin.

Hozirda bir nechta yirik xalqaro xalqaro tashkilotlarda parlamentlararo idoralar faoliyat ko'rsatmoqda. Masalan, Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkilotining Parlament assambleyasi, Benilyuks parlamentlararo maslahat kengashi, G'arbiy Yevropa Ittifoqi (WEU) assambleyasi va MDH Parlamentlararo assambleyasi.

6-§. Xalqaro hukumatlararo tashkilotlarning funksiyalari

Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkilotining maslahatchisi B. Kolas xalqaro tashkilotlar vakolatlarining ikkita katta sohasini (bu holda vakolat funktsiyaning sinonimi) belgilab bergan: me'yoriy va operatsion³⁶. Polshalik tadqiqotchi V. Moravetskiy esa, XHTlarning to'rtta funktsiyasini ajratib ko'rsatadi, bular: qonun ijodkorligi, boshqaruv, tartibga solish va operatsion funksiyalardir³⁷. Ayrim mualliflar XHTlarning ijtimoiy funktsiyasi haqida ham so'z yuritadilar³⁸. Bizning fikrimizcha, XHTlarning quyidagi funksiyalarni ajratish maqsadga muvofiq: qonun ijodkorligi, nazorat, vositachilik, maslahat, operativlik, axborot funktsiyalari.

Qonun ijodkorligi funktsiyasi xalqaro munosabatlar ishtirokchilari uchun xulq-atvor qoidalarini ishlab chiqishdan iborat. Bunda avvalo, biz huquqiy normalar haqida so'z yuritamiz. Ta'kidlash joizki, xalqaro huquqning ko'plab normalari XHT faoliyati natijasidir. XHTlarning ba'zi qarorlari xalqaro huquq normasi xarakterini olgani holda, davlatlarga nisbatan tegishli xalqaro majburiyatlarni yuklaydi. Bundan tashqari, XHT doirasida xalqaro konvensiyalar, shartnomalar va boshqalar ishlab chiqilmoqda. Xalqaro tashkilot (XT) xalqaro shartnoma tuzish tashabbusi bilan chiqishi, shartnoma matnini ishlab chiqishi, shartnoma matnini kelishib olish uchun diplomatik konferensiyani chaqirishi, depozitariy vazifasini bajarishi, shartnomani sharhlash yoki qayta ko'rib chiqish sohasida muayyan vakolatlarga ega bo'lishi va uning bajarilishi ustidan nazorat o'rnatishi mumkin.

Nazorat funktsiyasi. Nazorat deganda amaldagi holatni aniqlashga va uni muayyan huquqiy normaga muvofiqligi nuqtai nazaridan baholashga qaratilgan har qanday xatti-harakatlar tushuniladi va boshqarish funktsiyasi xalqaro majburiyatlarning bajarilishi yoki bajarilmasligi to'g'risidagi bayonot bilan yakunlanadi. Institutsionalizatsiya qilingan barcha nazorat funksiyalari xalqaro tashkilot organlari tomonidan amalga oshiriladi. Ushbu organlar

³⁶ Les Organisations internationales entre l'innovation et la stagnation. Lausanne, 2015. – P. 14.

³⁷ Моравецкий В. Функции международной организации. – Москва, 2016. – С. 268.

³⁸ Айдинян Р. М. Введение в теорию социальной организации. - СПб, 2015. – С. 163.

o'zlarining davlat manfaatlarini hisobga olgan holda munosabatlari va baholari nuqtai nazaridan ochiq-oydin boshqaruv siyosatini olib boradigan a'zolaridan iborat. Amalda, xalqaro tashkilotlar nazorati jismoniy va yuridik shaxslar faoliyatini o'rganish bilan bog'liq bo'lib, ayrim davlatlarning ichki huquqiy tartibi bilan bog'liq muammolarga kirishishni nazarda tutadi. Xalqaro tashkilotlarning nazorat funksiyalari quyidagilardan iborat: tergov, tekshirish, kuzatish.

Vositachilik funksiyasi. Analiyotda mediatsiya missiyalari ko'pincha xalqaro tashkilotlar kotibiyati xodimlari, eng muhimi masalalar esa, bosh kotiblar yoki ularning yordamchilari tomonidan amalga oshiriladi.

Maslahat funksiyasi. Manfaatdor davlatlar, muassasalar uchun konsalting ishlarini tayyorlash va amalga oshirish. Maslahatlar xalqaro tashkilotlar a'zolari o'rtasidagi hamkorlikning o'ziga xos shakllaridan biridir. Maslahat - bu o'zaro ma'lumot almashinuvidir. Ular bir necha bosqichlardan iborat: taqqoslash fazasi, bunda konsultatsiya ishtirokchilari o'z qiziqishlari, pozitsiyalari, fikrlari to'g'risida ma'lumot beradilar; muzokaralar bosqichi; tashkilot tomonidan tavsiyalarni qabul qilishi bosqichi³⁹. Xalqaro tashkilotlarning qarorlarining aksariyati tavsiyaviy xarakterga ega. Ushbu tavsiyalarni tashkilot a'zolari tomonidan qabul qilinishi ko'p jihatdan ularning xalqaro tashkilot maqsadlariga muvofiqligini tomonlarga uqdira olinganiga bog'liq.

Operatsion funksiya boshqa funksiyalardan farqli jihati shundaki, xalqaro tashkilot o'z vazifalarini amalga oshirish jarayonida inson va moddiy resurslarga tayanadi. Qoida tariqasida, tashkilot qarorlari yoki uning oldiga qo'yilgan vazifalarning bajarilishi tashkilot emas, balki uning a'zolari faoliyati natijasidir. Xalqaro tashkilot shoshilinch yordam ko'rsatishda operatsion funksiyalarni bajaradi. Odatda, operatsion funksiyalardan xavfsizlikni ta'minlashda BMTning tinchlikparvar operatsiyalarida, harbiy xarakterga ega bo'lgan xalqaro tashkilotlarda foydalaniladi.

Axborot funksiyasi XHTning eng yirik axborot qabul qiluvchi, ma'lumot uzatuvchi va tarqatuvchi kanallar rolini o'ynashida foydalanadi. Ularning axborot imkoniyatlari ularga davlatlarni jalb qila olishda ifodalanadi, ularning ba'zilar tashkilotning to'laqonli a'zolari,

³⁹ Делгачков П. А. Политическая социология международных отношений. М., 2014. - С. 113.

boshqalari kuzatuvchilar, shuningdek boshqa xalqaro tashkilotlar, TMKlar va xalqaro bosim guruhlaridan iborat bo'ldi. Birgalikda olib borilgan holda, ushbu komponentlar maxsus axborot zonasini tashkil etadi, bu yerda ma'lumot tarqalishining o'ziga xos xususiyatlari juda kam o'rganilgan. Shunga qaramay, tadqiqotchilar ularning axborot jarayonlaridagi alohida rolini ta'kidlaydilar. Masalan, frantsuz yozuvchisi M.Gunelning ta'kidlashicha, xalqaro tashkilotlar "axborot rolini o'ynaydi, zero ular davlatlar vakillari o'rtasidagi norasmiy muloqotni qo'llab-quvvatlaydigan keng tarqalgan forumlardir. Tadqiqotlar, turli darajadagi uchrashuvlar, keng tarqalgan muammolardan xabardor qilish, global va quyi darajalarda ularni aniqlashga yordam beradi. Bu esa ratsional qaror qabul qilishga xizmat qiladi.

Xalqaro tashkilotlarning axborot funksiyalarini bajarish bo'yicha faoliyati xilma-xil bo'lib, u quyidagi turlarni o'z ichiga oladi: tashkilot vakolatiga taalluqli ma'lumotlarni to'plash, qayta ishlash va tarqatish; tashkilotning o'z faoliyati to'g'risida ma'lumot tayyorlash va tarqatish. Bundan tashqari, aloqa faoliyatini tartibga solish va aloqa vositalariga ega bo'lish ham shular jumlasdandir. XIX asrda paydo bo'lgan dastlabki xalqaro tashkilotlar ichida aloqa sohasidagi tashkilotlar: Butunjahon Telegraf Ittifoqi (hozirgi Xalqaro elektraloqa ittifoqi) va Xalqaro pochta ittifoqi kabilar shular jumlasidandir. Bugungi kunda axborot tarqatish sohasida faoliyat yuritayotgan tashkilotlar soni sezilarli darajada oshdi. Bunda geostatsionar aloqa yo'ldoshlariga ega bo'lgan va butun dunyo miqyosida tijorat faoliyatini boshlagan Intelsat tashkiloti alohida ajralib turadi.

7-§. Xalqaro nohukumat tashkilotlar: ularning turlari, kategoriyalari va xarakteristikalari

Ma'lumki, nafaqat davlatlar, balki hukumatlararo va nohukumat tashkilotlar ham zamonaviy xalqaro munosabatlarda faol ishtirok etadilar. Xalqaro nohukumat tashkilotlar (XNT) - siyosiy, iqtisodiy, madaniy, ilmiy, texnikaviy va inson faoliyatining boshqa sohaslarida xalqaro hamkorlikni rivojlantirish maqsadida tashkil etilgan turli davlatlarning milliy jamoat tashkilotlari, birlashmalari, guruhleri va shaxslar assotsiatsiyalaridir; ushbu tashkilotlar hukumatlararo bitim asosida tashkil etilmaydi va tijoratdan foyda olishni ko'zlamaydi.

Xalqaro huquqiy hujjatlarda “xalqaro nohukumat tashkilotlar” atamasi milliy, submintaqaviy, mintaqaviy yoki xalqaro darajada faoliyat yuritadigan tashkilotlarga nisbatan qoʻllaniladi. Shu bilan birga, ushbu atamadagi aniqlovchi “hukumat” tashkiloti tushunchasiga alternativa boʻlgan “nodavlat” soʻzi boʻlib qolmoqda. Bu ushbu tashkilotlarning hukumatlardan mustaqilligini, shuningdek, ularning keng omma, xalq hokimiyati kabi toifalar bilan yaqin aloqa oʻrnatish imkonini beradi.

Dastlabki xalqaro nodavlat tashkilotlar XIX asr boshlarida paydo boʻlgan boʻlsada, ularning soni XX asrning ikkinchi yarmiga kelib sezilarli darajada oshdi. Xalqaro uyushmalar ittifoqi bergan maʼlumotlarga koʻra, 1875-yildan 1975- yilgacha boʻlgan davrda jahonda 35 mingdan ziyod XNTlar - uyushmalar, jamiyatlar, fondlar, qoʻmitalar, klublar, ligalar, konferentsiyalar, federatsiyalar, guruhlar va boshqalar tashkil etilgan.

Hukumatlararo va nohukumat tashkilotlar oʻrtasidagi farqli jihatlar ularning huquqiy asoslari va davlatlar suvereniteti bilan bogʻliq: hukumatlararo tashkilotlar xalqaro huquq subyektlari - suveren davlatlar tomonidan tashkil etiladi, nohukumat tashkilotlar esa, davlatlardan tashqari har qanday boshqa tuzilmalar tomonidan tuziladi. Taʼkidlash joizki, BMT nizomida nodavlat tashkilotlari qaysi darajada faoliyat yuritishi musyakkamlab qoʻyilgan: milliy, submintaqaviy, mintaqaviy yoki xalqaro. U BMTning Iqtisodiy va ijtimoiy kengashining (ECOSOC) vakolati doirasida nodavlat tashkilotlar bilan maslahatlashish vakolatiga taalluqlidir (71-modda).

EKOSOSning 1950-yilda qabul qilingan № 288B (X) sonli rezolyutsiyasiga binoan “nodavlat” atamasi “hukumatlararo bitim asosida taʼsis etilmagan har qanday xalqaro tashkilot” degan maʼnoni anglatadi⁴⁰. Ushbu muammoning tadqiqotchilari xalqaro tashkilotlarni tasniflash mumkin boʻlgan mezonlarni ishlab chiqishga harakat qilmoqdalar. Xususan, E. Kuznetsovaning fikricha, XNTlar javob berishi lozin boʻlgan bir qator mezonlar mavjud⁴¹. *Birinchi*dan, tashkilot notijorat

⁴⁰ Абашидзе А.Х., Урсин Д.А. Неправительственные организации: международно-правовые аспекты. – М. Международные отношения, 2017. – С. 21.
⁴¹ Кузнецова Е.В. Эволюция консультативного статуса международных неправительственных организаций при Экономическом и социальном совете ООН // Белорусский журнал международного права и международных отношений. – 2004. – № 3. – СС. 34-39.

xarakterga ega bo'lgani holda, a'zolarining o'zlari yoki ixtiyoriy badallar hisobidan moliyalashtirilishi kerak.

Hatto tijoriy manfaatlarni himoya qiluvchi biznes vakillarini o'zaro birlashtirgan tashkilotlar ham Yevropa Kengashi va BMT tomonidan XNT sifatida tan olingan. Shunday qilib, Xalqaro neft qazib oluvchi kompaniyalarning dengiz forumi BMT va Xalqaro dengiz tashkiloti bilan XNT sifatida faol hamkorlik qilmoqda.

Ikkinchidan, tashkilot zo'ravonlik usullaridan foydalanmasligi yoki targ'ib qilmasligi kerak. Shunga ko'ra, ozodlik harakatlari, o'zaro nizolashuvchi taraflar va boshqa qurolli guruhlar, hattoki ularning xatti-harakatlari xalqaro huquq nuqtai nazaridan qonuniy hisoblansada, masalan, Falastin Ozodlik Tashkiloti (PLO) yoki Janubi-G'arbiy Afrika Xalq Tashkiloti (SWAPO) kabilar XNT sifatida tan olinmaydi.

Uchinchidan, tashkilot hokimiyat uchun siyosiy kurashda ishtirok etmasligi kerak. Ushbu mezon nodavlat nohukumat tashkilotlar doirasidan har qanday siyosiy partiyalar va siyosiy partiyalarning oppozitsion birlashmalarini, masalan Liberal International, Sotsialistik International, Demokratlarning xalqaro ittifoqi va boshqalarni istisno etadi.

K. Kolyarning fikricha, XNTlar o'ziga xos xususiy tashkilotlardir, chunki u alohida shaxslar, ba'zidan hatto davlat arboblari birlashtiradi (ammo davlatlarni emas)⁴². Professor A.I. Kamininning fikricha, XNT - bu doimiy asosda jamoatchilikning turli sohalarida faoliyat yurituvchi ko'p tomonlama xalqaro hamkorlik shaklidir.

Xalqaro huquq doktrinasida aniq a'zolariga ega bo'lgan nohukumat tashkilotlar va a'zoligi mavhum bo'lgan noaniq tashkilotlar o'rtasida farqli jihatlar ochib berilgan. Aksariyat nohukumat tashkilotlar tarkibiy jihatdan o'zaro o'xshash: ularning a'zolari milliy tashkilotlar yoki alohida shaxslardan iborat bo'lishi mumkin (jumladan, kollektiv va individual a'zolik ham).

Bularning barchasini inobatga olgan holda, XNTlar shartli ravishda ikki turga bo'linadi: shaxslarni birlashtiruvchi va milliy nodavlat tashkilotlarni o'zaro birlashtiruvchi tashkilotlar. Shu bilan birga, a'zolikning boshqa turlari ham mavjud. Masalan, Parlamentlararo ittifoqqa a'zolik shunchalik g'ayrioddiyki, shunga ko'ra u yarim rasmiy xarakterga ega xalqaro birlashma hisoblanadi.

Ushbu tashkilot a'zolari ushbu davlatlar parlamentlarining

⁴² Кольяр К. Международные организации. – М.: Наука, 2018. – С.472.

ixtiyoriy ravishda birlashtirilgan a'zolaridan iborat milliy parlament guruhlaridir. Kasaba uyushma ishida ishtirok etadigan parlament guruhlari vakillari milliy guruh yoki parlament nomidan emas, balki o'z nomidan ishtirok etadilar.

Ba'zi nodavlat tashkilotlar doimiy a'zolikka ega emas, ushbu tashkilotlarning turli davlatlardagi ro'yxatga olish markazlarigina mavjud. Ayni bir nohukumat tashkilot doirasida a'zolikning bir nechta toifalari uchraydi.

Masalan, Xalqaro ijtimoiy xavfsizlik uyushmasining to'laqonli (to'liq) va assotsiatsiyaviy (maslahatchi) a'zolari mavjud. Nohukumat tashkilotlarning byudjeti, odatda milliy tashkilotlar, alohida shaxslar, xususiy xayr-ehsonlar, jamg'armalar va ba'zan hukumat ulushi (masalan, Butunjahon karlar federatsiyasi, Xalqaro ko'ngilli xizmat)dan iborat bo'ladi.

XNTlar faoliyatini tartibga soluvchi maxsus xalqaro huquqiy hujjatlar yo'q. XNTlarning ba'zi huquqiy munosabatlari alohida mamlakatlarning ichki qonunchiligi va ko'plab hollarda milliy nodavlat tashkilotlarining huquqiy maqomi bilan tartibga solinadi.

XNTlarning huquqiy mohiyatini tavsiflab, shuni ta'kidlash joizki, Rossiya xalqaro huquq doktrinasida ularning xalqaro huquq subyekti emasligi, ammo shunga qaramay, ular xalqaro huquqiy munosabatlarning subyekti sifatida harakat qilishlari mumkinligi ta'kidlangan⁴³. Nohukumat tashkilotlarning zamonaviy xalqaro munosabatlar rivojidadagi amaliy ahamiyatini hisobga olgan holda, ba'zi olimlar ularni xalqaro huquqning to'laqonli subyekti sifatida tan oladilar.

Xalqaro nohukumat tashkilotlarning asosiy vazifasi davlatlar va nodavlat segmentlari o'rtasidagi munosabatlarni o'rnatishdan iborat. Bunda, nohukumat tashkilotlar siyosiy xaraktarga ega bo'lmagan subyekt sifatida faoliyat yuritgani holda, milliy va xalqaro darajada harakat qilishlari mumkin. Mavjud imkoniyat o'zaro ishonchning tobora ortib borayotgani bilan bog'liq. Hukumat va nodavlat tashkilotlar o'rtasida ishonchni qaror toptiruvchi omillaridan biri, ko'plab nodavlat tashkilotlarning o'z maqsad va vazifalarini belgilab beruvchi ta'sis hujjatlarini milliy ro'yxatidan o'tkazilishlari bilan bog'liq. XNTlarning hukumatlararo tashkilotlar faoliyatiga ta'siri,

⁴³ Николаева Э.Н. Международно-правовые проблемы международных неправительственных организаций. – М.: Международные отношения, 2015. – С. 120.

ularning xalqaro munosabatlardagi o'zni turli shakllarda namoyon bo'ladi. Mana, ulardan ba'zilari:

- *Information.* XNTlar muntazam ravishda o'zlarining faoliyat sohalarida davlatlar va hukumatlararo tashkilotlarga va ularning organlariga umumiy va xususiy ma'lumotlarni yuboradilar. Shuningdek, ular hukumatlararo tashkilotlardan olingan ma'lumotlarni tarqatadilar. XNTlar inson huquqlari borasidagi bilimlarni oshirishda ayniqsa muhim rol o'ynaydilar.

- *Maslahat.* XNTlar tashkilotlarga, shaxslarga, shaxslardan iborat guruhlarga ularning iltimosiga binoan maslahat va tavsiyalar beradilar.

- *Qonun ijodkorligi.* XNTlar an'anaviy tarzda davlat siyosatiga ta'sir ko'rsatgan holda, qonun ijodkorligi jarayonida qatnashadilar va shartnomalar loyihalarini ishlab chiqadilar. Bunday loyihalar ko'pincha davlatlar va hukumatlararo tashkilotlarga ko'rib chiqish maqsadida yuboriladi. Ba'zi XNTlar xalqaro huquqning norasmiy kodifikatsiyasi bilan shug'ullanadilar.

- *Nazorat.* Xalqaro huquq normalariga va tegishli nazoratga rioya qilishni ta'minlashda XNTlarning roli tobora ortib bormoqda.

- *Tergov.* XNTlar bir necha bor maxsus tekshirish komissiyalarini tuzganlar. Jumladan, Xalqaro huquqshunos-demokratlar uyushmasi tashabbusi bilan Isroilning bosib olingan arab hududlarida sodir etilgan jinoyatlarini tergov qilish bo'yicha xalqaro komissiya tuzilgan. So'ngi yillarda bir qator XNTlar, masalan Xalqaro amnistiya tomonidan Chili, Ruanda va Gaitida inson huquqlari bilan bog'liq vaziyatni tekshirish uchun maxsus tergov komissiyalari tuzilgan.

XNTning o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat: foyda olish maqsadlarining mavjud emasligi; kamida bir davlat tomonidan tan olinishi yoki xalqaro hukumatlararo tashkilotlar huzuridagi maslahat maqomining mavjudligi; bir nechta davlatdan pul mablag'larini qabul qilish kabilar shular jumlasidandir. XNTlar mehnat shartnomalari tuzishi, ko'char va ko'chmas mulkka ega bo'lishi hamda sudlar va hakamlilik sudlariga chiqishi mumkin.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, xalqaro tashkilotlar xalqaro munosabatlar tizimida alohida o'rin tutadi va kelgusida uning mavqei tobora ortishi kuzatilmog'da. XHT davlatlararo munosabatlar jarayonida vujudga keladigan ehtiyojlarni qondirish uchun, doimiy hamkorlik mexanizmini yaratishni talab qiluvchi davlatlar tomonidan yaratiladi. XHTlar o'z vazifalarini bajarish maqsadida ko'pincha juda

murakkab shakldagi organlar tizimini yaratilmoqdalar. A'zo davlatlar o'rtasidagi hamkorlikning muhim "vositasi" sifatida XHTlar bir qator muhim funksiyalarni bajaradilar, ularga qonun ijodkorligi, nazorat, tartibga solish, operativlik va axborot yetkazish kabilar kiradi.

Xalqaro tashkilotga a'zo davlatlarning shunchaki yig'indisi yoki hatto kollektiv jamoa sifatida qaralishi mumkin emas. Uning organlarining qarorlarida o'z ifodasini topgan iroda, uning barcha a'zolari va ularning har birining xohish-irodasi bilan bir xil emas. XHTlar o'z a'zolariga nisbatan muayyan avtonomiyaga ega.

XHTlar subyektivligining alohida turi, manfaatlari va pozitsiyalari tashkilotning manfaatlariga yoki pozitsiyalariga mos kelmasligi mumkin bo'lgan a'zo davlatlar uchun ma'lum bir xavf tug'diradi. Hozirgi kunda ko'plab XHTlar a'zo davlatlar va tashkilot ichidagi guruhlariga, shuningdek davlatlar ichidagi ayrim siyosiy kuchlar va ijtimoiy qatlamlarga siyosiy bosim o'tkazishga qodir.

Xalqaro tashkilotlar faoliyatini tadqiq etuvchi olimlar ko'plab jiddiy to'siqlarga duch kelmoqdalar. Birinchidan, xalqaro tashkilotlar tarkibining murakkabligi. Ikkinchidan, ularning yopiqligi. Uchinchidan, ularning turli davlatlar hududida faolyat yuritishi kabilar shular jumlasidandir. Har qanday ijtimoiy hodisalarni, shu qatorda xalqaro tashkilotlarni o'rganishda fanlararo yondashuvning samaradorligi va zarurligini tan olgan holda, mazkur sohadagi tadqiqotlarni rivojlantirish lozim.

Nazorat savollari:

1. Xalqaro tashkilotlarga ta'rif bering.
2. Xalqaro tashkilotlarning belgilarini sanab bering.
3. Xalqaro tashkilotlar tipologiyasi deganda nimani tushunasiz?
4. Xalqaro tashkilotlarni tasniflang.
5. Xalqaro tashkilotlar faoliyatining huquqiy asoslari nimalardan iborat?
6. XHTlarning asosiy xususiyatlarini sanab bering.
7. Xalqaro hukumatlararo tashkilotlarning funksiyalari haqida ma'lumot bering.
8. Xalqaro nohukumat tashkilotlarning turlari, kategoriyalari va xarakteristikasi.

III BOB. XALQARO TASHKILOTLAR ORGANLARI

1-§. Xalqaro tashkilotlarning organlari tushunchasi va turlari

Tashkilotlar o'z funksiyalarini samarali bajarishlari uchun tegishli mexanizmga tayanadi. Uning asosini tashkilot organlari tashkil etadi. Tashkilotlar barcha a'zolarining vakillaridan tashkil topgan oliy organga ega.

U turli nomlar bilan yuritiladi: assambleya, konferentsiya, kongress va boshqalar. Bosh assambleya so'zi "umumiy yig'ilish" ma'nosini anglatadi. Universal xarakterdagi tashkilotlarda mazkur organlar ko'pchilikni tashkil etib, ular muhim masalalar yuzasidangina qaror qabul qiladilar. Ular muayyan davriylik asosida yig'iladilar. BMT Bosh assambleyasi har yili (sentyabr-dekabr oylarida) ishlaydi, ammo favqulodda sessiyalarga chaqirishi ham mumkin. Boshqa tashkilotlarda yalpi majlis ikki yilda bir marotaba (YuNESKO) va hatto har besh yilda bir marotaba (Xalqaro elektroaloqa ittifoqi) chaqiriladi.

Yalpi organing qarorlarini tayyorlash maqsadida oliy organ sessiyalari davrida faoliyat yuritadigan umumiy tarkibli komissiya va qo'mitalar tuziladi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi tashkilotning olti nafar qo'mitasi tomonidan tayyorlangan rezolyutsiyalarni qabul qiladi hamda yordamchi organlar faoliyatini tashkil etadi.

Yalpi organ asosiy ijro etuvchi va tashkilotning asosiy faoliyat yo'nalishlari asosidagi organlardan iborat bo'lgan cheklangan tarkibli organlarni tashkil etadi. Bu kabi organlarni shakllantirishda muhim mintaqalar va davlatlar guruhi vakillarining ishtiroki bilan bog'liq mezonlar hisobga olinadi. Shuningdek, boshqa mezonlar ham mavjud. XMT boshqaruv organiga tegishli bo'lgan o'rinlarning o'n nafariga yirik sanoatlashgan davlatlar egalik qiladi. ICAO Kengashi fuqaro aviatsiyasining navigatsiya xizmatlariga katta miqdorda o'ziga xos hissa qo'shadigan davlatlarning munosib vakilligi ta'minlanadi.

Aksariyat tashkilotlarda organlar davlat vakillaridan iborat. Ba'zi hollarda, xolislikni ta'minlash maqsadida, a'zolar davlatlar emas, balki individual xususiyatlaridan kelib chiqib, saylanadigan mutaxassislardan iborat tarkibda tuziladi. Odatda bu kabi holat sud

organlari misolida kuzatiladi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining xalqaro huquq komissiyasi ham ayni shu tarzda tashkil etiladi.

Ba'zi tashkilotlar parlament organlariga ega. Davlatlar o'z vakolatlarining bir qismini xalqaro tashkilotlarga topshirgan hollarda, milliy parlamentlar ushbu funktsiyalar ustidan nazoratni yo'qotadilar. Parlament organlari ham aynan kompensatsiya, shuningdek demokratik vakillikni ta'minlash maqsadida tuziladi. Ular to'g'ridan-to'g'ri a'zo davlatlardagi (YeI) saylovlar jarayonida saylanadi yoki milliy parlamentlar tomonidan tayinlanadi (Yevropa Kengashi). Aksariyat hollarda, mazkur organlar tavsiyalarni muhokama qilish va qabul qilish bilangina cheklanadi. Faqat Yevropa Ittifoqi tarkibidagi Yevropa Parlamentigina bu borada jiddiy huquqlarga ega. U ijroiya organi - Komissiyani tarqatib yuborishi hamda byudjetni qabul qilish jarayonida ishtirok etishi mumkin.

Sud organlari alohida o'rin egallaydi. Turli xildagi sudlar davlatlararo nizolarni hal qilishi, tashkilot qarorlarining qonuniyligini aniqlashi va xodimlar ustidan ma'muriy yurisdiksiyani amalga oshirishi mumkin. Ko'plab tashkilotlar o'z sud organlarini tashkil etmaydilar hamda qarorlarning qonuniyligini belgilovchi sud nazoratini joriy etish zaruratini yoqlamaydilar. Universal tashkilotlar kadrlar bilan bog'liq masalalar yuzasidan BMTning Ma'muriy sudiga murojaat etadilar. Organlari yuridik kuchga ega bo'lgan qarorlarni qabul qiladigan Yevropa Ittifoqida, Sud ularning qonuniyligi ustidan nazorat o'rnatishda muhim rol o'ynaydi.

Tashkilotlarda kotibiyat faolyat yuritib, u tashkilot faolyatini muvofiqlashtirish bilan bog'liq bo'lgan muhim vazifani amalga oshiradi. U oliy organ tomonidan ma'lum muddatga saylanuvchi, alohida mavqega ega bo'lgan ma'muriy shaxs (bosh kotib yoki bosh direktor) tomonidan boshqiladi.

Asosiy mas'uliyat doimiy asosda faolyat yurituvchi kotibiyat xodimlari zimmasiga yuklatiladi. Mavjud tashkilotlarda xizmat ko'rsatuvchi xodimlarning umumiy soni 80 mingdan oshadi. Ushbu xodimlar turli mintaqalardagi vakillikni hisobga olgan holda tanlanadi. Ularning mustaqilligini ta'minlash maqsadida ijtimoiy himoya va pensiya tizimi joriy etilgan. Ularga soliq solinishi va mahalliy yurisdiksiyaga nisbatan immunitet belgilab berilgan. Ammo zarurat yuzasidan tashkilot o'z xodimining immunitetidan voz kechishi mumkin.

Tashkilotlarni moliyalashtirish jarayoni, ularning a'zolari tomonidan mavjud imkoniyatlari asosida amalga oshiriladi. Qoidaga ko'ra, bitta davlatning hissasi byudjetning 25 foizidan oshmasligi va 0,01 foizdan kam bo'lmashligi lozim. Ko'plab moliya tashkilotlari byudjeti o'z daromadlari hisobidan shakllantiriladi. Doimiy byudjet muntazam xarajatlarni qoplaydi. Tinchlikparvarlik operatsiyalari yoki iqtisodiy yordam kabi qo'shimcha xarajatlar ixtiyoriy badallar hisobidan qoplanadi.

Xalqaro tashkilot organi - bu tashkilot qoidalariga muvofiq tarzda bunday maqomga ega bo'lgan har qanday shaxs yoki tashkilotdir.

Xalqaro tashkilotlar, xalqaro yuridik shaxslar singari, o'z funksiyalarini o'zlariga tegishli organlar yordamida amalga oshiradilar. Ular qoida tariqasida, ta'sis hujjati yoki alohida xalqaro shartnoma asosida yohud tashkilotning boshqa organlari (yordamchi tashkilotlar deb ataladigan) qarori bilan tashkil etiladi.

Xalqaro tashkilotlarning organlari o'ziga xos turli vakolatlar va imtiyozlarga ega, masalan:

- qonun chiqaruvchi, ma'muriy yoki sud organlari;
- ular turli a'zolardan iborat bo'lishi mumkin (masalan, davlat rahbarlari, diplomatlar yoki alohida shaxs sifatida saylangan mutaxassislar).
- ularning faoliyati va qarorlari tegishli tashkilotning faoliyati va qarorlari hisoblanadi.

Institutsional tuzilmaning tavsifi xalqaro tashkilotlarning ta'sis shartnomalarining muhim qismi hisoblanadi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Nizomi bo'limlari va moddalarining salkam yarmi BMTning olti nafar organiga bag'ishlangan (III-V, X, XIII-XV boblar). Xuddi shunday, Yevropa Ittifoqi to'g'risidagi Shartnomaning 13-19-moddolari Yevropa Ittifoqi institutlari faoliyatiga, shuningdek, uning katta qismi tashkiliy xarakterdagi masalalarga bag'ishlangan. Shunga qaramay, ta'sis shartnomalarining aksariyat qismida institutsional tuzilmalar muhim o'rin egallashiga qaramay, xalqaro tashkilotlar o'z organlarining tarkibi va tuzilishida ko'ra o'zaro farqlanadi.

Yuridik shaxslar singari, xalqaro tashkilotlar ham o'z funksiyalarini maxsus tuzilgan organlar orqali amalga oshiradilar.

Xalqaro tashkilot organlari tushunchasi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- organlar xalqaro tashkilotning ajralmas tarkibiy qismi;
- organlar xalqaro tashkilotning ta'sis aktlari yoki boshqa hujjatlari asosida tuziladi;
- tashkilot organlariga ma'lum imtiyoz, vakolat va funksiyalarga ega;
- tashkilot organlari o'z tarkibi va tuzilmasiga ega;
- belgilangan qaror qabul qilish tartibi mavjud;
- ta'sis yoki boshqa hujjatlarda uning huquqiy maqomi belgilanadi.

Organlarning vakolatlari xalqaro tashkilotning ta'sis hujjatida belgilab qo'yilgan. Shunga ko'ra, ular o'z vakolatlari doirasida ishtirokchi davlatlar uchun majburiy bo'lgan qarorlar qabul qilish huquqiga ega.

Umuman olganda, xalqaro tashkilot vakolatlariga tegishli qoidalar uning organlari vakolatlari bilan chambarchas bog'liq. Xalqaro tashkilot organining vakolatlari ta'sis akti va boshqa xalqaro shartnomalar asosida belgilanib, shartnomaviy xarakteriga ega bo'ladi. Mavjud vakolatlar xalqaro tashkilotga a'zo davlatlarning roziligisiz o'zboshimchalik bilan o'zgartirilishi mumkin emas.

Xalqaro tashkilotning organlari turli mezonlarga ko'ra tasniflanishi mumkin. A'zolikning xususiyatidan kelib chiqib, ularni turli xil ijtimoiy guruhlarining vakillari ishtirokida (masalan, kasaba uyushmalari va tadbirkorlarning Xalqaro mehnat tashkilotidagi vakillari) hamda shaxsiy tarkibidagi shaxslardan iborat hukumatlararo, parlamentlararo, ma'muriy organlarga ajratish mumkin.

Xalqaro tashkilotlar organlari xalqaro tashkilotning ajralmas qismi hisoblanib, ular ta'sis shartnomasi yoki boshqa hujjatlar asosida tuziladi, shuningdek, u muayyan vakolat va boshqa funksiyalarga hamda o'zining ichki tuzilmasiga ega bo'ladi.

Organlarning quyidagi turlari mavjud:

1. A'zolikning xususiyatiga ko'ra:

- hukumatlararo organlar (bunda a'zo davlatlar tegishli vakolatlariga ega bo'lgan va hukumatlar nomidan ish yuritadigan vakillarini yuboradilar);

- parlamentlararo organlar (mavjud holat Yevropa Ittifoqiga xos bo'lib, u aholi soniga mutanosib ravishda tanlangan parlament delegatlaridan iborat bo'ladi. 1976-yildan e'tiboran Yevropa

Parlamenti deputatlari a'zo davlatlar aholisi tomonidan to'g'ridan-to'g'ri umumiy saylovlar orqali saylanadi. Parlament Assambleyasi Yevropa Kengashi organlaridan biri hisoblanadi);

- ma'muriy organlar (xalqaro tashkilotda xizmat qiladigan mansabdor shaxslardan iborat tarkibda tuzilib, bunda ular faqat tashkilot oldida javobgar hisoblanadilar. Odatda, ular kotibiyat va ijroiya qo'mitasi nomi bilan yuritiladi);

- Shaxsiy tarkibdagi shaxslardan iborat organlar (masalan, hakamlik va sud organlari, ekspertlar qo'mitasi).

Bunda hukumatlararo organlar nisbatan muhim mavqega ega bo'lib, a'zo davlatlar ularga o'zlarining tegishli vakolatlarga ega bo'lgan va hukumatlar nomidan ish yurita oladigan vakillarni yuboradilar.

Vakillar aynan diplomatlardan iborat bo'lishi shart emas. Aksariyat tashkilotlarda vakil sifatida tegishli mutaxassislar (masalan, Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti uchun tibbiy ma'lumotga ega bo'lgan yoki YUNESKO uchun madaniyat sohasidagi mutaxassis) ning ishtiroki talab etiladi.

Parlamentlararo organlar asosan mintaqaviy tashkilotlarga xos. Ularning a'zolari a'zo davlatlar aholisi tomonidan to'g'ridan-to'g'ri umumiy saylovlar (Yevropa parlamenti) orqali saylanadi yoki milliy parlamentlar tomonidan tayinlanadi (Yevropa Kengashi Parlament Assambleyasi). Aksariyat hollarda parlament organlari tavsiyalar ishlab chiqish bilan cheklanadilar.

Ma'muriy organlar xalqaro tashkilotlarning muhim tarkibiy bo'g'ini hisoblanadi. Ular xalqaro tashkilotda faoliyat yurituvchi va faqat uning oldida javobgar sanalgan xalqaro mansabdor shaxslardan iborat. Bunday shaxslar shartnoma asosida a'zo davlatlar uchun belgilangan kvotalarga muvofiq holda jalb etiladi.

Xalqaro tashkilotlar faoliyatida shaxslardan iborat organlar (masalan, hakamlik va sud organlari, ekspert qo'mitalari) muhim rol o'ynaydi.

2. A'zolar soniga ko'ra:

- umumiy (barcha a'zo davlatlardan iborat);
- cheklangan tarkibli organlar.

Odatda, tashkilotlarning nisbatan demokratik tuzilishga ega bo'lgan yalpi organi tashkilot siyosatini belgilaydi. Zero, uning doirasida eng fundamental masalalar yuzasidan qarorlar qabul qilinadi, xususan:

- tashkilotning umumiy siyosati va uning prinsiplari belgilanadi;
- konvensiyalar va tavsiyalar loyihalari qabul qilinadi;
- byudjet va moliyaviy masalalar hal etiladi;
- ustavni qayta ko'rib chiqish va unga o'zgartirishlar kiritiladi;
- tashkilotga a'zolik bilan bog'liq muammolar (qabul qilish, chiqarib yuborish, huquq va imtiyozlarni to'xtatib qo'yish va boshqalar) hal etiladi.

Shu bilan birga, bir qator xalqaro tashkilotlar, xususan BMTning ixtisoslashgan muassasalarini boshqarishda cheklangan a'zolik organlari (masalan, XMT, IMO⁴⁴, ICAO)ning rolini oshirish tendensiyasi kuzatilmoqda.

A'zoligi cheklangan organlar uchun ularning tarkibi masalasi katta ahamiyatga ega. Ushbu organlar shunday tarkibiy tuzilishga ega bo'lishi kerakki, ular chiqaradigan qarorlar bir yoki ikki guruhning emas, balki barcha davlatlar manfaatlarini aks ettirishi lozim. Cheklangan tarkibiy organlarni shakllantirish bo'yicha xalqaro tashkilotlar faoliyatida ko'pincha quyidagi prinsiplar amal qiladi:

- teng huquqli jug'rofiy vakillik;
- o'ziga xos manfaatlar;
- o'zaro manfaatlarga ega bo'lgan davlatlar guruhlarining teng vakilligi;
- eng katta moliyaviy hissasi;
- siyosiy vakillik (Xavfsizlik Kengashi doimiy a'zolarining doimiy a'zoligi bo'lmagan organlardagi vakilligini belgilash).

Xavfsizlik Kengashining doimiy bo'lmagan a'zo davlatlariga saylovlarni tashkil etishda, avvalo, BMT a'zolarining xalqaro tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash, tashkilotning boshqa maqsadlariga erishishda ishtirok etish darajasi, shuningdek, adolatli jug'rofiy vakillik masalasi hisobga olinadi.

2-§. Xalqaro tashkilotlarning yalpi organlari

Qoida tariqasida, har qanday xalqaro tashkilotda barcha doimiy a'zolar, shuningdek to'laqonli a'zoligi bo'lmagan davlatlar va xalqaro tashkilotlar vakillarining kuzatuvchilaridan iborat tarkibdagi yalpi organlar faoliyat yuritadi. U turli nomlarda yuritiladi: assambleya.

⁴⁴ Xalqaro dengiz tashkiloti

konferentsiya, kongress va boshqalar. Bunda yalpi organ tashkilotning maqsad va vazifalari bilan bog'liq barcha masalalarni muhokama qiladi hamda muhim masalalar yuzasidan qaror qabul qiladi:

- tashkilotning umumiy siyosatini, uning tamoyillarini belgilash;
- konvensiyalar va tavsiyalar loyihalarini qabul qilish;
- byudjet va moliyaviy masalalar;
- ustavni qayta ko'rib chiqish va unga o'zgartirishlar kiritish;
- tashkilotga a'zolik bilan bog'liq masalalar - kirish, chiqarib

yuborish, huquq va intiyozlarning to'xtatib qo'yilishi va hokazolar.

Xalqaro tashkilotlarning yalpi organlari ishtirokchi davlatlarning suvereniteti tamoyiliga asoslanadi. Shuning uchun, ushbu organlar tarkibida tashkilotning barcha a'zolari o'z hukumatlarining ko'rsatmalariga muvofiq ishlaydigan vakillariga ega bo'lishlari kerak. Xalqaro tashkilotlarda nodavlat ishtirokchilarining ahamiyati oshib borayotganiga qaramay, BMTning Bosh assambleyasi yoki Yel Vazirlar Kengashi kabi ko'plab yalpi organlarida yolg'iz hukumatlarga vakillikni amalga oshirmoqdalar.

Yalpi organlarda qarorlar qabul qilish tartibi o'zaro farqlanadi. Zero, ba'zi xalqaro tashkilotlarda qarorlarni qabul qilish konsensus (NATO kengashi) orqali amalga oshirilsa, tashkilotlarning aksariyat qismida ovoz berish yo'li bilan amalga oshiriladi (masalan, BMT Bosh assambleyasi).

Shunga qaramay, ovoz berish haqida gap ketganda shuni ta'kidlash joizki, yalpi organlar orasida qaror qabul qilish uchun zarur bo'lgan ovozlarning soni hamda a'zolarining ovozlari nisbati bo'yicha ham xilma-xillik mavjud. Agar Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasida har bir davlat bitta ovozga ega bo'lsa, Yel, XVJ va Jahon bankining yalpi organlarida har bir a'zoning ovozlari solishtirma og'irligi davlat aholisi yoki iqtisodiy qudratiga ko'ra o'zgaradi.

3-§. Xalqaro tashkilotlarning ijroiya organlari

Tashkilot tizimida muntazam ravishda ish olib borish maqsadida turli nomlar bilan yuritiluvchi tor doiradagi tezkor boshqaruv organlari tuziladi, bular: kengash, qo'mita, prezidium va boshqalardir. Ularning asosiy vazifasi tashkilotning doimiy kotibiyati ishini nazorat qilish hamda yalpi organ tomonidan belgilab berilgan dastur va boshqaruv siyosatini amalga oshirishdan iborat.

Yalpi va ijro etuvchi organlar o'rtasida vakolatlarining bo'linishi xalqaro tashkilotlar tomonidan qarorlar qabul qilishda katta ahamiyatga ega. Ba'zida ijroiya organiga alohida vakolatlar beriladi. Ishtirokchilar soni cheklanganligi bois, qaror qabul qilish jarayonini tezroq va samarali amalga oshirish imkoni beriladi. Shu bilan birga, ushbu organda taqdim etilmagan tashkilot a'zolari tomonidan uning qarorlariga rioya qilmaslik xavfi ortadi.

Shu o'rinda, ijroiya organlari uchun tarkibiy tuzilish masalasi muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu organlar tarkibiy tuzilishiga ko'ra, ular tomonidan chiqaradigan qarorlarning muayyan guruh emas, balki barcha davlatlarning manfaatlarini aks ettira olishi lozim.

Xalqaro tashkilotlarning ijro etuvchi organlari quyidagi tamoyillar asosida tuzilishi mumkin:

- adolatli geografik vakillik;
- muayyan manfaatlar;
- turli manfaatlarga ega davlatlar guruhlarining o'zaro teng vakilligi;
- nisbatan katta moliyaviy hissa qo'shish kabilar shular jumlasidandir.

Masalan, BMT Xavfsizlik Kengashi 15 a'zo davlatdan iborat - 5 nafari doimiy (Rossiya, AQSh, Xitoy, Buyuk Britaniya va Fransiya) hamda 10 nafari BMT Bosh assambleyasi tomonidan jug'rofiy asosda (beshta Afrika va Osiyo davlatlaridan, bittasi Sharqiy Yevropa davlatlaridan, ikkitasi - Lotin Amerikasidan, ikkitasi - G'arbiy Yevropa va boshqa davlatlardan, shu jumladan Kanada va Avstraliyadan) 5 nafardan ikki yillik muddatga saylanuvchi doimiy bo'lmagan a'zolaridir.

Xalqaro valyuta jamg'armasi Ijroiya kengashi 24 ijrochi direktordan iborat. Ijrochi direktorlarning besh nafari beshta eng yirik kvotaga ega bo'lgan a'zo davlatlar tomonidan tayinlanadi (hozirda AQSh, Yaponiya, Germaniya, Fransiya va Buyuk Britaniya), qolgan 19 nafari esa a'zo davlatlar tomonidan saylanadi.

4-§. Xalqaro tashkilotlarning ma'muriy organlari

Doimiy asosda faoliyat yurituvchi ma'muriy-ijroiya organi har qanday xalqaro tashkilotning muhim tashkiliy tuzilmasi hisoblanadi.

Yalpi majlislar yoki ijroiya kengash a'zolaridan farqli o'laroq, kotibiyat xodimlari odatda a'zo davlatlarning vakillaridan iborat

bo'lmay, yagona tashkilot oldida mas'ul hisoblanadilar. Mazkur xodimlar a'zo davlatlar tomonidan belgilangan kvotalarga ko'ra shartnoma asosida qabul qilinadi.

Ma'muriy organ, qoida tariqasida, quyidagilardan iborat texnik xarakterdagi funktsiyalarnigina amalga oshiradi:

➤ yalpi va ijroiya organlari tomonidan qabul qilingan siyosiy ko'rsatma va dasturlar ijrosini ta'minlaydi;

➤ tashkilotning doimiy asosda faoliyat yuritadigan organlari ishini muvofiqlashtiradi;

➤ turli muammolar yuzasidan ma'lumotlar bazasini shakllantiradi va qayta ishlaydi;

➤ rasmiy nutqlar va hujjatlarning tarjima ishlarini amalga oshiradi;

➤ konferentsiyalarni tashkil etadi;

➤ xalqaro miqyosda tashkilot nomidan ish yuritadi.

Ammo bu bilan kotibiyat, xususan, bosh kotiblar qat'iy o'rnatilgan ma'muriy vazifalarni bajaruvchi passiv kuzatuvchilar degan xulasaga kelmaslik darkor. Masalan, BMT nizomining 99-moddasiga muvofiq, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibi Xavfsizlik Kengashiga xalqaro tinchlik va xavfsizlikka tahdid soluvchi har qanday masalalarni yetkazish vakolatiga ega. Bundan tashqari, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibi ko'pincha a'zo davlatlar o'rtasidagi kelishmovchiliklarda "hakamlik qiluvchi" rolini bajaradi va xalqaro nizolarni hal qilish uchun o'zining "beg'araz xizmatlarini" taklif qiladi.

5-§. Xalqaro tashkilotlarning sud, arbitraj organlari

Ba'zi hollarda xalqaro tashkilotlarning institutsional tuzilmalarida maxsus sud yoki arbitraj organi faoliyat yuritadi. Uning vazifasi tashkilot a'zolari, tashkilotlar yoki tashkilot organlari o'rtasidagi nizolarni hal qilishdan iborat. Ba'zan bunday organlar tashkilot va uning xodimlari (ma'muriy sudlar) o'rtasidagi nizolarni hal qilish uchun tuziladi.

Amaliyotda, BMT Xavfsizlik Kengashining doimiy besh a'zosi Xalqaro Sudda doimiy sudyalariga ega bo'lib, nizoli vaziyatlarda har ikkala tomonning vakilligini ta'minlash maqsadida maxsus sudyalar tayinlanishi mumkin.

Xalqaro Sudning o'n besh a'zosi Xavfsizlik Kengashi va Bosh Assambleyaning ko'pchilik ovozi bilan saylanadi. Bunda bir vaqtning o'zida, bir-biridan mustaqil ravishda ovoz beriladi. Shu bilan birga, Yevropa Ittifoqi a'zolari o'rtasidagi nizolarni hal qiluvchi Yevropa sudining sudyalari va umumiy himoyachilari Yevropa Ittifoqiga a'zo davlatlar tomonidan bir ovozdan tayinlanadi. Har ikkala sudda ham sudyalarning siyosiy mustaqilligi kafolatlangan.

Biroq, Xalqaro Sudning davlatlar o'rtasidagi nizolarni hal qilish jarayonida qaror qabul qilish borasidagi qobiliyati cheklangan, zero sud majburiy yurisdiksiyaga ega emas. Yevropa sudi esa, aksincha, majburiy yurisdiksiyaga ega bo'lishi mumkin. Shunday qilib, Yevropa Ittifoqi qonunchiligiga binoan majburiyatlarni buzganlikda ayblangan biron bir a'zo davlat uning qaroriga to'sqinlik qila olmaydi.

Yevropa sudi o'zining majburiy qarorlar bilan Yevropa Ittifoqi qonunlarining milliy qonunga nisbatan ustuvorligini tasdiqlaydi va uni a'zo davlatlar sudlari bilan birgalikda amalga oshiradilar. Shunday qilib, Sud milliy ma'muriy va konstitutsiyaviy sudlar bilan tenglashtiriladigan yurisdiksiyaga ega.

6-§. Xalqaro tashkilotlarning parlament organlari

Yevropa Ittifoqi, Afrika Ittifoqi, Yevropa Kengashi, Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkiloti hamda NATO kabi alohida xalqaro tashkilotlar parlament assambleyalarini o'tkazadilar. Ularning vazifasi hukumatlararo tashkilotning qarorlar qabul qilish jarayonining qonuniyligini ta'minlashdan iborat.

Biroq, ushbu uchrashuvlarda vakolat va vakollik sezilarli darajada o'zaro farqlanadi. Yevropa Parlamenti a'zolari 1979-yildan buyon to'g'ridan-to'g'ri saylansa-da, boshqa parlament assambleyalari a'zolarining aksariyati davlatlarning milliy parlamentlari tomonidan jalb qilinadi.

Nafaqar a'zo davlatlar hukumatlarini, balki Yevropa xalqlari uchun vakillik vazifasini bajaruvchi Yevropa Parlamenti real vakolatlarga ega. Ayni paytda u Yevropa Ittifoqi siyosatining ko'pgina sohalarida qonun chiqarishda faollik ko'rsatib, Yevropa Komissarlarini tayinlash va ishdan bo'shatish huquqiga ega hisoblanadi. Ammo, aksariyat hollarda, xalqaro tashkilotlarning parlament organlari, odatda, faqat maslahat funksiyalari bilangina cheklanib qolmoqdalar.

7-§. Qaror qabul qilishda tashkilot organlarining tutgan o'рни va roli

Xalqaro tashkilotning qarorini tashkilot ustavining qoidalari va mazkur jarayonga tegishli tartib-qoidalarga muvofiq holda a'zo davlatlarning vakolatli organlar doirasida bayon etilgan xohish-istaklari sifatida bayon etish mumkin.

Qarorlarni qabul qilish jarayoni ko'plab omillarga bog'liq:

- ta'sis aktining qoidalari;
- qaror qabul qilish jarayoniga oid qoidalar;
- tashkilot organi tarkibi;
- tashkilot tarkibidagi siyosiy kuchlar muvozanati kabilar shular jumlasidandir.

Qaror qabul qilish jarayoni muayyan davlat yoki davlatlar guruhi, xalqaro tashkilot organlari yoki mansabdor shaxslari tomonidan tashabbusning ilgari surilishi bilan boshlanadi. Odatda, tashabbuskor tomonidan muayyan muammoni o'rganib chiqish bilan bog'liq taklif ilgari suriladi. Ammo ba'zi holatlarda, tashabbuskor tomonidan qaror loyihasi muhokamaga qo'yilishi mumkin. Qaror loyihasi boshqa davlatlar yoki davlatlar guruhi tomonidan ham taqdim etishlari mumkin.

Xalqaro tashkilotlarda hammualliflarni loyihalarga jalb qilish amaliyoti keng qo'llaniladi. Shuni yodda tutish kerakki, ko'psonli davlatlar ishtirokida taklif qilinayotgan loyihaning har bir bandi yuzasidan kelishishuvga erishishda muayyan qiyinchiliklar yuzaga keladi. Bunda har bir holatda muvozanatlashgan yondashuv talab etiladi.

Ushbu masala kun tartibiga qo'yilgandan so'ng, u to'g'ridan-to'g'ri organning o'zida muhokama qilinadi yoki maxsus tuzilgan komissiyalar yoki qo'mitalarga yuboriladi. Shundan so'ng, u qayta vakolatli organga topshiriladi. Masalan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi tomonidan qarorqabul qilishga oid qoidalar majmuining 65-moddasiga muvofiq, agar u boshqacha qaror qilmasa, tegishli qo'mitadan hisobot olingunga qadar, kun tartibidagi biron-bir masala bo'yicha yakuniy qaror qabul qilmaydi.

Aksariyat xalqaro tashkilotlarda qarorlar yalpi majlis muhokamasiga qo'yilgunga qadar, yordamchi organlarga yuboriladi. Yordamchi organlar tomonidan qaror loyihasi ishlab chiqiladi hamda uning tarafdor va muxoliflari aniqlanadi. Shu boisdan, yordamchi organlar faoliyatiga alohida e'tibor qaratiladi.

Muhokama bosqichi xalqaro tashkilotlarning qarorlarini shakllantirish jarayonida muhim o'rin egallaydi. Asosiy yoki yordamchi organlar doirasida bo'lishidan qat'iy nazar, ushbu munozara bevosita siyosiy ahamiyat kasb etgani holda, muayyan huquqiy natijaga ega hisoblanadi.

Ovoz berish jarayoni qaror qabul qilishning hal qiluvchi bosqichi hisoblanadi. Xalqaro tashkilotlar organlarining aksariyat qismida har bir delegatsiya bitta ovozga ega bo'ladi. Qaror qabul qilishning muvozanatli tizimiga ega bo'lgan organlarda davlatlar tomonidan berilgan ovozlar soni tashkilot tomonidan qabul qilingan mezonlarga muvofiq holda o'zgaradi. Masalan, BMT tizimidagi moliyaviy tashkilotlarda har bir davlat tashkilot faoliyatiga qo'shgan o'z hisssasi (to'lov badali)ga mutanosib tarzda bir qancha ovozga ega bo'ladi.

Har bir organning o'rnatilgan qoidalariga muvofiq, qaror qabul qilishda zarur bo'lgan kворum belgilanadi. Aksariyat hollarda bu organ a'zolarining oddiy ko'pchiligini tashkil qiladi.

Qarorlar oddiy yoki mutlaq ko'pchilik tomonidan bir ovozdan qabul qilinishi mumkin. XIX asrda xalqaro tashkilotlarda qarorlar ko'p hollarda mutloq bir ovozdan qabul qilingan. Biroq, amaliyot bunday qarorlarni qabul qilishning noqulayligini ko'rsatdi. Zero, bir davlatning e'tirozi sabab, ko'pchilikning ovozi e'tibordan chetda qolishi mumkin. Yuqoridagilarni hisobga olgan holda, asta-sekinlik bilan xalqaro tashkilotlar doirasida oddiy va mutlaq ko'pchilik tomonidan qaror qabul qilishga o'tildi.

Nisbiy yakkilik tamoyiliga asoslangan qaror qabul qilish jarayonida organ a'zolarining (mazkur jarayonda ishtirok etmagan yoki betaraf bo'lgan a'zolari hisobga olmagan holda) ijobiy ovoz berishi talab etiladi. Bu kabi holat, Millatlar Ligasi Kengashi va Assambleyasida ovoz berish amaliyotida kuzatilgan edi.

Oddiy va mutlaq ko'pchilik ovozi mutlaq va nisbiy bo'lishi mumkin. Mutlaq ko'pchilikda tashkilot a'zolarining umumiy soni, nisbiy ko'pchilikda esa, ovoz berish jarayonida hozir bo'lgan hamda "yoqlab" yoki "qarshi" ovoz berganlar hisobga olinadi.

Ba'zi hollarda xalqaro tashkilot organlarida qarorlar ovoz berishsiz, akklamatsiya⁴⁵ yo'li bilan yoki e'tirozlarsiz qabul qilinishi

⁴⁵ Akklamatsiya - (lot. acclamatio) qarorni qarsaklar, mulohazalar va h.k. orqali tasdiqlashga asoslangan xalqaro tashkilotlarda va konferentsiyalarda ovoz berishsiz qarorlar qabul qilish usuli.

mumkin. Qaror qabul qilishning bunday usullari ko'pincha protsessual masalalarga qo'llaniladi.

Xalqaro tashkilotlar amaliyotida konsensus⁴⁶ asosida qarorlar qabul qilish jarayoni tobora kengaymoqda. Konsensusda tomonlardan har birining fikri va manfaatlari hisobga olinib, umumiy kelishuv asosida organga a'zo davlatlarning yondashuvlari o'zaro muvofiqlashtiriladi. Kelishilgan qaror matni organ raisi tomonidan (ovoz bermasdan va e'tirozlarsiz) e'lon qilinadi.

Organlarni shakllantirishda ko'plab prinsiplardan biriga amal qilinadi. Masalan, Xalqaro pochta ittifoqi Konventsiyasining 3-bandi 15-moddasida mustahkamlab qo'yilganidek: "Aloqa masalalari bo'yicha Ijroiya komissiyasi a'zolari hisoblangan davlatlar Kongress tomonidan adolatli jug'rofiy asoslarga ko'ra tayinlanadi". Xalqaro dengiz tashkilotida Assambleya Kengash a'zolarini xalqaro manfaatlar prinsipi asosida, xalqaro yuk tashish va xalqaro dengiz savdosiga nisbatan ko'proq qiziqish bildirgan davlatlar guruhlarini hisobga olgan holda saylaydi.

Xalqaro tashkilotlar organlarini tavsiflashda boshqa mezonlardan ham foydalaniladi. Masalan, idoralararo ierarxiya (asosiy va yordamchi), yig'ilishlar tashkil etishning davriyligi (doimiy va sessiyaviy) va hokazolar.

Muayyan maqsad va vazifalarni amalga oshirish maqsadida davlatlar tomonidan tuziluvchi xalqaro tashkilotlarning ta'sis aktida uning muayyan vakolatlarga ega ekanligi belgilab qo'yiladi. Xalqaro tashkilotning vakolati va huquqiy maqomi shartnomaviy asosga ega bo'lib, uning doirasi ham shartnomaning mazmunidan kelib chiqib belgilanadi.

Nazorat savollari:

1. Xalqaro tashkilotlarning organlari tushunchasi va turlari.
2. Xalqaro tashkilotlarning yalpi organlari.
3. Xalqaro tashkilotlarning ijroiya organlari.
4. Xalqaro tashkilotlarning ma'muriy organlari.
5. Xalqaro tashkilotlarning sud, arbitraj organlari.
6. Xalqaro tashkilotlarning parlament organlari.
7. Qaror qabul qilishda tashkilot organlarining tutgan o'rni va roli.

⁴⁶ Konsensus - (lot. consensus - rozilik, hamfikrlilik) qaror yoki bitim matni xalqaro konferentsiyalarda va xalqaro tashkilotlarda rasmiy ovoz bermasdan ishtirokchilarning umumiy roziligi asosida qabul qilinishi.

IV BOB. XALQARO TASHKILOTLARGA A'ZOLIK

1-§. Xalqaro tashkilotlarga a'zolik tushunchasi va mohiyati

Xalqaro tashkilotlarga a'zo bo'lish davlatning suverenitetidan kelib chiqadigan ajralmas huquqidir. Davlatlararo tashkilotlarda a'zolarning ikki toifasi ajratilgan – to'liq va cheklangan huquqlarga ega bo'lgan a'zolik. Bu kabi tashkilotlarga faqat davlatlarga to'laqonli a'zo bo'lishlari mumkin. Ushbu kategoriyani biz o'z navbatida, asosiy (boshlang'ich) va qo'shimcha a'zolarga bo'lib o'rganamiz.

Xalqaro tashkilotlarning ta'sis hujjatlarida boshlang'ich a'zolarga doir turli qoidalar mustahkamlab qo'yiladi. Quyidagilar boshlang'ich a'zolar sifatida e'tirof etilishlari mumkin:

1) ta'sis konferensiyasida ishtirok etgan davlatlar (Xalqaro valyuta jamg'armasi -XVJ);

2) ta'sis konferensiyasida qatnashgan davlatlar, shuningdek unga taklif etilgani holda, qatnashmagan davlatlar (Xalqaro dengiz tashkiloti - IMO);

3) ta'sis konferensiyasida qatnashgan yoki konferensiyaning tashkiliy hujjatlarini imzolagan hamda keyinchalik ta'sis aktini imzolagan va ratifikatsiya qilgan davlatlar (BMT).

Xalqaro tashkilotlardagi a'zolik quyidagi turlarga ajratiladi:

– boshlang'ich a'zolar (ta'sisshilar) - tashkilotning ta'sis aktini (ustavini) ishlab chiqishda qatnashgan davlatlar;

– qo'shimcha a'zolar – tashkilot o'z faoliyatini boshlaganidan keyin uning ta'sis aktiga qo'shilish orqali a'zo bo'lgan davlatlar. Huquqiy nuqtai nazardan, ular boshlang'ich a'zolar farq qilmaydilar (yopiq turdagi xalqaro tashkilotlar bundan mustasno);

– qisman a'zo bo'lgan davlatlar - umuman olganda, aynan xalqaro tashkilot a'zosi bo'lmasada, lekin uning alohida organlarining a'zosi hisoblangan davlatlar (bu kabi amaliyotni FAO, IMO hamda BMT boshqa ayrim ixtisoslashgan organlari misolida ko'rish mumkin);

– assotsiatsiyalashgan a'zolar (a'zo-xodimlar) - ilgari ba'zi xalqaro tashkilotlar (YuNESKO, Xalqaro meteorologiya tashkiloti, Xalqaro pochta ittifoqi) tarkibiga kirgan o'zini-o'zi boshqarmaydigan hududlarga berilgan maxsus maqom. Ular ovoz berishda qatnashmaydilar, xalqaro tashkilot organlariga ovoz bermaydilar va saylanmaydilar.

Albatta, boshlang'ich a'zolikka doir bir qator boshqa ta'riflar mavjud. Ba'zi xalqaro tashkilotlar ta'xis aktining ilova qismida ushbu a'zolarining nomlari sanab o'tilgan (Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti FAO).

Boshlang'ich a'zolarining huquqiy holati qo'shilgan a'zolarining xalqaro tashkilotga a'zolikdan kelib chiqadigan huquq va majburiyatlarga nisbatan huquqiy holatidan farq qilmaydi. Ularning orasidagi farq boshlang'ich a'zolarining o'z xohishlariga ko'ra xalqaro huquqiy tashkilot tuzib, unga yuridik shaxs maqomini bergani va xalqaro tashkilot maqomini tan olgani bilan belgilanadi.

O'rnatilgan tartibga ko'ra, tashkilot o'z faoliyatini boshlaganidan so'ng unga qo'shilgan davlatlar xalqaro tashkilotning qo'shimcha a'zosi hisoblanadi. Tashkilot a'zoligiga qabul qilinish jarayoni muayyan shartlar va o'rnatilgan tartib asosida amalga oshiriladi.

Assotsiatsiyalangan a'zo maqomiga xalqaro tashkilotga to'liq a'zo bo'lish uchun zarur bo'lgan ovozlarni to'play olmagan davlat ega bo'lishi ham mumkin. Hozirgi kunda Britaniyaning Virjiniya orollari, Terke va Kaykos orollari Karib dengizi hamjamiyati va Karib dengizi umumiy bozori a'zolaridir. Avtonom yoki qaram hududlar ham xalqaro tashkilotlarning a'zolari bo'lishi mumkin - Grenlandiya va Aland orollari Nordik Kengashga o'z deputatlarini yuboradilar. Grenlandiya deputatlari Daniya delegatsiyasining a'zolari, Aland orollari deputatlari Finlyandiya delegatsiyasining a'zolari hisoblanadilar;

Davlatlar, fuqarolik jamiyati tashkilotlari, mustaqillik uchun kurashayotgan davlatlar va boshqa xalqaro tashkilotlar har qanday xalqaro tashkilot ishida uning a'zosi emas, balki kuzatuvchi maqomiga ega bo'lgani holda ishtirok etishi mumkin, - masalan, BMT doirasida Lixtenshteyn, Monako, Vatikan, Falastin ozodlik tashkiloti (FOT), Islom hamkorlik tashkiloti (IHT) va Yevropa Ittifoqi kabilar mazkur maqomga egadirlar. Ular Iqtisodiy Hamkorlik va Rivojlanish Tashkiloti hamda Oziq-ovqat va Qishloq xo'jaligi Tashkilotining (FAO) a'zosi hisoblanadilar.

2-§. A'zolikka qabul qilish

Aksariyat xalqaro tashkilotlar o'zlarining ta'xis hujjatlarida a'zolikka qabul qilishga doir mezonlarni belgilab qo'yadilar. Shunga ko'ra, umumiy va maxsus mezonlar ajratiladi.

Umumiy mezonlarga nomzod tomonidan xalqaro tashkilotning maqsadlari va tamoyillarini tan olish, ta'sis aktidan kelib chiqadigan majburiyatlarni qabul qilish va ushbu majburiyatlarni bajarish qobiliyatiga kiradi. Ushbu mezonlar, qoida tariqasida, barcha xalqaro tashkilotlar, shu jumladan ta'sis hujjatlarida a'zolikka nomzodlarga rasmiy talablar aniq ko'rsatilmaydigan (Xalqaro mehnat tashkiloti – XMT, Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti - JSST, Xalqaro pochta ittifoqi – XPI va boshqalar) tashkilotlarda qo'llaniladi.

Ba'zi ta'sis hujjatlarida a'zolik uchun maxsus talablar ilgari suriladi. Jumladan, Birlashgan Millatlar Tashkilotiga a'zo bo'lish uchun davlat tinchlikparvar bo'lishi, Jahon meteorologiya tashkiloti - JMTga a'zo bo'lish uchun meteorologik xizmat ko'rsatishi, Islom hamkorligi tashkiloti - IHTga a'zo bo'lish uchun esa, musulmon davlati bo'lish talab etiladi. Moliyaviy institutlar har bir nomzodni qabul qilish uchun o'z shartlarini ilgari suradilar (Xalqaro valyuta fondi - XVF va boshqalar).

Qabul qilish tartibiga kelsak, uni ovoz berish orqali belgilangan tartib asosida soddalashtirish mumkin. Soddalashtirilgan tartibda ta'sis aktiga qo'shilish va qo'shilish to'g'risidagi hujjatni depozitariyga topshirish (Intersputnik) yoki tashkilotning (XMT) rasmiy vakiliga xabar berish orqali qonuniy aktdan kelib chiqadigan majburiyatlarni rasman tan olish kifoyadir. Birlashgan Millatlar Tashkilotiga a'zo davlatlar uchun BMTning ixtisoslashgan muassasalariga qabul qilishda soddalashtirilgan tartib o'rnatilgan.

Qabul qilish tartibi ta'sis hujjatlarida belgilanadi. Xususan, BMT a'zoligiga qabul qilishda doimiy a'zolarining yakdillik tamoyilini hisobga olgan holda Xavfsizlik Kengashining qarori va Bosh Assambleyaning ovoz berishda qatnashgan a'zolarining 2/3 tomonidan qabul qilingan qarori talab qilinadi. Boshqa aksariyat xalqaro tashkilotlarda vakolatli (Amerika davlatlari tashkiloti - ADT) yoki oddiy ko'pchilikdan iborat (JSST, Afrika birligi tashkiloti - ABT) yalpi organ qarori kifoya qiladi.

Yopiq turdagi xalqaro tashkilotlarga kirish jarayoni nisbatan murakkab sanaladi. Jumladan. Shimoliy Atlantika Shartnomasi Tashkiloti (NATO)ga qabul qilishda barcha a'zo davlatlar tomonidan bir ovozdan taklifning ilgari surilishi hamda tashkilotning barcha a'zolari tomonidan ratifikatsiya qilingan qarorning qabul qilinishi talab etiladi.

Xalqaro tashkilotga a'zo bo'lmagan davlat uning ishida kuzatuvchi sifatida ishtirok etishi mumkin. So'nggi yillarda a'zo bo'lmagan davlatlarni xalqaro tashkilot faoliyatida jalb qilishning boshqa shakllari paydo bo'ldi, masalan, maxsus taklif etilgan davlat maqomi (Yevropa Kengashi), muloqot bo'yicha to'laqonli hamkor maqomi (ASEAN).

Ba'zi xalqaro tashkilotlarda (masalan, JSST, IMO (Xalqaro dengiz tashkiloti), FAO (Xalqaro oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti), YuNESKO) cheklangan huquqli a'zolikning o'ziga xos maxsus shakli (uyushma a'zosi, a'zo-xodim, qo'shma a'zo) mavjud. Bunday a'zolik tashqi aloqalarni amalga oshirganlik uchun javobgar bo'lmagan hududlar yoki hududlar guruhiga beriladi. Cheklangan huquqlarga ega bo'lgan a'zolar yig'ilishlarda qatnashish, hujjatlar olish huquqiga ega bo'ladilar, ammo ular ovoz bera olmaydilar va tashkilot organlariga saylana olmaydilar.

Barcha xalqaro tashkilotlarning ustavlarida tashkilotga a'zo bo'lish tartibi o'rnatilgan. Qoida tariqasida, qabul qilish xalqaro tashkilot vakillik organining yig'ilishida tashkilotning belgilangan miqdordagi a'zolari ishtirokida tegishli rezolyutsiyani qabul qilish (asosan, malakali yoki yuqori malakali ko'pchilik ovoz to'plash yo'li) bilan amalga oshiriladi. 1949-yilda Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro Sudi tomonidan yangi a'zolari qabul qilishda BMT Bosh assambleyasi va BMT Xavfsizlik Kengashining ishtiroki to'g'risidagi konsultativ xulosa qabul qilingan.

Muayyan davlatni Birlashgan Millatlar Tashkilotining a'ziligiga qabul qilish to'g'risidagi qaror, BMT Xavfsizlik Kengashining tavsiyasi mavjud bo'lgan taqdirda (unda kamida to'qqiz a'zo ovoz berishi kerak, shu bilan birga buyuk davlatlar bir ovozdan ovoz berishi kerak), BMT Bosh assambleyasining sessiyasida qabul qilinadi.

Ba'zi xalqaro tashkilotlarda yangi a'zolari qabulda qo'shimcha shartlar ilgari suriladi: masalan, katta miqdordagi xom neft eksport qiluvchi davlatlarga OPEK ga a'zo bo'lishlari mumkin; Qora dengiz hududiga mansub bo'lmagan davlatlar Qora dengiz iqtisodiy hamkorligi tashkilotiga tashkilotga a'zo davlatlarning roziligi bilangina qo'shilishlari mumkin; Xalqaro valuta jamg'armasi, Xalqaro rivojlanish uyushmasi va Xalqaro moliya korporatsiyasiga Xalqaro tiklanish va taraqqiyot bankiga a'zo davlatlarga kirishlari mumkin.

Deyarli barcha tashkilotlarning ta'sis hujjatlari, tashkilot a'zoliciga qabul qilish ushbu tashkilot prinsiplariga qo'shilgan barcha davlatlar uchun ochiqligini ko'rsatadi. Qoidaga ko'ra, tashkilot a'zolari ikki toifaga ajratiladi: boshlang'ich va boshqa a'zolar.

Tashkilotning ta'sis hujjatlarini ishlab chiqish va qabul qilishda ishtirok etgan davlatlar boshlang'ich (dastlabki) a'zolardir. Ularga a'zolikka kirishda biroz qulayroq sharoitlar yaratilgan. Xususan, har qanday boshlang'ich a'zo yuqori turuvchi mansabdor shaxsni mazkur tashkilotning ta'sis aktidan kelib chiqadigan majburiyatlarni rasmiy qabul qilganligi to'g'risida xabardor qilib, tashkilotga a'zo bo'lishi mumkin. Boshqa davlatlar uchdan ikki qismdan iborat ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinishi mumkin.

Tashkilotlar a'zolari davlatlar, boshqa xalqaro tashkilotlar, avtonom hududlar va qaram hududlardan iborat bo'lishi mumkin.

Xalqaro huquqning suveren tenglik to'g'risidagi umume'tirof etilgan prinsipiga muvofiq, har qanday davlat xalqaro tashkilotlarga a'zo bo'lish yoki unga a'zo bo'lmaslik huquqiga ega. Shu munosabat bilan, davlatlarning har qanday tashkilotga kirishini cheklash xalqaro huquqning buzilishi hisoblanadi.

Boshqa xalqaro tashkilotlar ushbu tashkilotga a'zo bo'lishi mumkin. Masalan, Yevropa Ittifoqi Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkilotining (OECD), Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkilotining (FAO) va boshqalarning a'zosi hisoblanadi.

Tashkilotlarning a'zolari avtonom yoki qaram (mustamlaka) hududlar bo'lishi mumkin. Xususan, Farer orollari, Grenlandiya va Aland orollari Shimoliy kengashga o'z deputatlarini yuboradilar. Farer va Grenlandiya deputatlari Daniya delegatsiyasiga, Aland orollari deputatlari esa, Finlyandiya delegatsiyasi tarkibiga kiradilar.

Uyushgan a'zolar, qoida tariqasida, qaram hududlardan iborat bo'ladi. Masalan, Britaniyaning Virjiniya orollari, Terke va Kaykos orollari, uyushgan a'zolar sifatida Karib dengizi hamjamiyati va Karib dengizi Umumiy bozori a'zolari hisoblanadilar.

Bir qator tashkilotlar ta'sis hujjatining qoidalariga nomzodlar uchun umumiy talablar bilan birga, qat'iy rioya qilinishi lozin bo'lgan qo'shimcha talablarni ilgari suradilar. Jumladan, muayyan miqdordagi xom neftni eksport qiluvchi davlatlarga Neftni eksport qiluvchi davlatlar tashkilotiga (OPEK) a'zo bo'lishlari mumkin. Uyushgan a'zo maqomi to'liq a'zolik maqomini olish uchun zarur bo'lgan ko'pchilik

ovozga ega bo'lgan davlatlarga berilishi mumkin (Nizomning 7-moddasi). Qora dengiz hududiga kirmaydigan davlatlar Qora dengiz iqtisodiy hamkorligiga a'zo davlatlarning roziligi bilangina kirishlari mumkin.

Xalqaro tiklanish va taraqqiyot bankiga Xalqaro moliya korporatsiyasi, Xalqaro valyuta jamg'armasi va Xalqaro taraqqiyot assotsiatsiyasining a'zolarigina a'zo bo'lishlari mumkin.

3-§. A'zolikning to'xtatilishi

A'zolikning to'xtatilishi ikki xil tarzda amalga oshiriladi: chiqib ketish va chiqarib yuborilish yo'li bilan. Aksariyat xalqaro tashkilotlarning ta'sis hujjatlarida muayyan shartlarning bajarilishi asosida tashkilotdan chiqish to'g'risidagi qoidalar ko'zda tutilgan: chiqish to'g'risidagi yozma arizaning mavjudligi, moliyaviy majburiyatlarning bajarilishi, arizaning kuchga kirishi uchun muayyan muddatning o'rnatilganligi va boshqalar. Ta'sis hujjatlarida tashkilotdan chiqishga oid qoidalar o'rnatilmaganligi, uning tashkilot a'zolidan chiqishini istisno eta olmaydi. O'z suvereniteti nuqtai nazaridan u bunga haqli. Xalqaro tashkilotlar amaliyotida bu kabi chiqishlar ko'p marotaba kuzatilgan (masalan, 1965-yilda Indoneziya BMTdagi hamda AQSh, Buyuk Britaniya va Singapur 1984-1985-yillarda YuNESKOdagi a'ziligini to'xtatgan). Davlat chiqib ketish sabablarini asoslab berishi mumkin, ammo bu uning majburiyatiga kirmaydi. Shu bilan birga, davlat xalqaro tashkilotga a'zolikdan chiqib ketish vaji bilan bosim o'tkazmasligi lozim.

Davlatlar tashkilot a'zolidan Ustav majburiyatlarini muntazam ravishda buzganligi uchun chiqarib yuboriladi. Mazkur qoida aksariyat ta'sis hujjatlarida, tashkilotning yuqori organining qarori bilan intizomiy jazo chorasi sifatida ko'zda tutilgan. BMTda bu kabi qaror Xavfsizlik Kengashining tavsiyasiga binoan Bosh Assambleya tomonidan qabul qilinadi.

Bir qator ixtisoslashgan muassasalar, agar davlat BMTdan chiqarilsa, a'zolikni avtomatik ravishda bekor qilishni ta'minlaydi. A'zolikning to'xtatilishi boshqa sabablarga ko'ra ham sodir bo'lishi mumkin, bular: xalqaro tashkilotning tugatilishi, davlatning xalqaro huquq subyekti sifatida tugatilishi, a'zo davlatning ta'sis aktiga kiritilgan tuzatishlarni qabul qilmasligi kabilar shular jumlasidandir.

A'zolikni to'xtatishni a'zolikning tugatilishidan farqlay bilish lozim. Xalqaro tashkilotlarning nizomlariga muvofiq, u shuningdek ustav majburiyatlarini buzishda ham qo'llaniladi, ammo ma'lum muddatga. Ko'pgina hollarda xalqaro tashkilot organlarida ovoz berish huquqidan mahrum bo'lish yoki yuqori organda vakillik huquqining to'xtatilishi mumkin. Jumladan, Haiti va Dominikan Respublikasi a'zolik badallari bo'yicha moliyaviy qarzlari uchun 1968-yilda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasida ovoz berish huquqidan mahrum qilingan edi. 1970-yilda esa, aparteid siyosatini yuritganligi munosabati bilan Janubiy Afrika Respublikasining Bosh assambleyadagi vakilligi to'xtatib qo'yilgan edi.

4-§. Xalqaro tashkilotlarda a'zolikning tugatilishi

Tashkilotdan ixtiyoriy chiqib ketish. Har bir suveren davlat istalgan vaqtda, o'z xohishiga ko'ra, hatto ustavida uni chiqib ketish to'g'risidagi qoidalar mavjud bo'lmasa ham, xalqaro tashkilotdan chiqish huquqiga ega. Tashkilotni tark etishni istagan davlat tashkilot oldida moliyaviy qarzdor bo'lmasligi lozim.

Avtomatik chiqish - bu ixtiyoriylikning bir turidir. Vaziyat taqozosi bilan davlat ushbu tashkilotdagi a'ziligini to'xtatishga majbur bo'ladi: masalan, davlatning XVJdaga a'zoligi to'xtatilgach, uch oydan so'ng u avtomatik ravishda Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki va Jahon banki guruhining boshqa tashkilotlaridan avtomatik ravishda chiqib ketadi.

Tashkilotdan chiqarib yuborish - xalqaro sanksiyaning turlaridan biridir. Odatda, bu xalqaro tashkilot ustavini muntazam ravishda buzish natijasida yuzaga keladi. Masalan, Yevropa Kengashi Ustavining 8-moddasiga muvofiq, inson huquqlarining jiddiy buzilishida aybdor bo'lgan davlat ushbu tashkilotdan chiqarilishi kerak. Muayyan a'zo davlat faoliyati sun'iy yo'ldosh aloqasi xalqaro kompaniyasi (INMARSAT) faoliyatiga zararli ta'sir ko'rsatishi asoslab berilgan hollarda, uni a'zolikdan chiqarish to'g'risida qaror qabul qilinishi mumkin (INMARSAT to'g'risidagi Konventsiyasining 30-moddasi). Davlatning xalqaro huquqning asosiy prinsiplari va normalarini buzuvchi siyosati ham tashkilotdan chiqarish uchun asos bo'lishi mumkin. Masalan, 1979-yilda Janubiy Afrika aparteid siyosati uchun Xalqaro pochta ittifoqidan chiqarib yuborilgan edi.

Davlatning subyekt sifatida tugatilishi munosabati bilan - bunda, qoida tariqasida, vorislik muammosi yuzaga keladi. Yangi paydo bo'lgan davlat xalqaro tashkilotga a'zo bo'lib qolish yoki ushbu tashkilotdan chiqish to'g'risida mustaqil qaror qabul qilishi mumkin. Davlatlarning o'zaro birlashishi yoki bo'linishi bilan bog'liq hollarda huquqiy vorislikni belgilash masalasi xalqaro tashkilotning bevosita ishtirokida hal etiladi.

Xalqaro tashkilot faoliyatining tugatilishi avtomatik ravishda ishtirokchi davlatlar a'zolicigining to'xtatilishiga sabab bo'ladi. Aksariyat xalqaro tashkilotlarning nizomlarida tashkilot faoliyati uchun muhim bo'lgan a'zolar miqdori belgilab berilgan. Muayyan miqdordagi davlatlarning xalqaro tashkilot a'zolicigidan chiqishi, uning tugatilishi uchun asos bo'lishi mumkin (CENTO, SEATO). Xalqaro tashkilotlar, shuningdek, a'zo davlatlarning o'zaro kelishuvi asosida ham tugatilishi mumkin (O'zaro iqtisodiy yordam kengashi, Varshava shartnomasi tashkiloti). Tugatilgan xalqaro tashkilot o'rniga yangisi tashkil qilingan hollarda esa, xalqaro tashkilotning vorisligi bilan bog'liq muammo yuzaga keladi (Millatlar Ligasi - BMT).

Xalqaro tashkilotga a'zolicikning to'xtatib turilishi - bu tashkilot faoliyatida ishtirok etishning muayyan muddatga to'xtatib turilishidir. Bu muayyan majburiyatlarni (moliyaviy, mulkiy) bajarmaslik yoki nizomni muntazam ravishda buzganlik (a'zolicikni majburan to'xtatib turish) uchun jazo chorasi bo'lishi mumkin. Masalan, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (YTTB) tashkilot oldidagi majburiyatlarini bajarmagan har qanday davlatning a'zolicigini to'xtatib qo'yishi mumkin. A'zolicikni to'xtatib turish davrida davlat tashkilotdan chiqish huquqidan tashqari barcha huquqlarni yo'qotadi, ammo uning barcha majburiyatlari saqlanib qoladi. A'zolicikni majburiy to'xtatib qo'yish to'liq yoki qisman bo'lishi mumkin. To'liq to'xtatib qo'yilganda - davlat tashkilotning barcha organlari faoliyatida ishtirok etish huquqidan mahrum bo'ladi. Qisman to'xtatib qo'yilganda esa - davlat tashkilotda ishlashga ruxsat berilgan, ammo ovoz berish huquqidan mahrum etiladi.

1968-yilda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasida Dominikan Respublikasi va Gaitida a'zolicik badallari bo'yicha qarzdorlik bo'lgani uchun qisman a'zolicik to'xtatib qo'yilgan edi (ovoz berish huquqidan mahrum qilingan). Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh Assambleyasiga a'zolicikni butunlay to'xtatib

qo'yish holati Janubiy Afrikaga nisbatan aparteid siyosatini amalga oshirganlik uchun amalga oshirilgan (1970-1995). 2011-yilda BMT Xavfsizlik Kengashi qarori bilan Liviyaning Falastin ozodlik tashkiloti (FOT)ga a'zoligi to'xtatilgan.

A'zolikning ixtiyoriy tartibda to'xtatib qo'yilishi - bu davlatning xohishi bilan bog'liq jarayondir. Har qanday davlat xalqaro tashkilotga a'zolikni nomuayyan muddatga to'xtatib qo'yish huquqiga ega (masalan, tashkilot tomonidan mazkur davlat huquqlarini poymol etadigan qaror qabul qilingan yoki davlatda uning ishiga xalaqit beradigan vaziyat yuzaga kelgan holatlarda). A'zolikni to'xtatib qo'yish uchun boshqa davlatlarning roziligi talab qilinmaydi (1965-1966-yillarda - Indoneziya BMTga a'zoligini ixtiyoriy ravishda to'xtatib qo'ygan edi).

5-§. A'zolik toifalari

Qoidaga ko'ra, tashkilotlarning ta'sis hujjatlarida a'zolar toifalari hamda ushbu tashkilotlarga kirish va chiqish mezonlari to'g'risida quyidagi qoidalar keltirilgan:

1. Xalqaro tashkilotlardagi a'zolar toifasi.

G'arb ta'limotiga ko'ra, xalqaro tashkilotlar a'zolari ikki toifaga ajratiladi: to'laqonli va to'liq bo'lmagan a'zolar. Ularning fikricha, to'laqonli a'zolar davlatlar kiradi.

Xalqaro tashkilotlarning to'laqonli va to'liq bo'lmagan a'zolari metropoliya davlatlarining koloniyalardan qonuniy ustunligini tasdiqlaydi. Xalqaro hukumatlararo tashkilotlar bir xil tartibda bo'lgan a'zolarini birlashtiradilar va ular o'zaro tengdirlar. Shu sababli, hukumatlararo tashkilotlar a'zolarining to'laqonli va to'liq emas deb tasniflanishi zamonaviy xalqaro huquqqa zid bo'lib, G'arb davlatlari kichik guruhining o'zboshimchaliklari uchun huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Xalqaro tashkilotlar a'zolarini dastlaki va keyinchalik qo'shilgan tashkilotlarga tasniflanishini muvaffaqiyatli deb bo'lmaydi.

Odatda, tashkilotning ta'sis aktini ishlab chiqish bo'yicha konferensiyada qatnashgan hamda belgilangan muddatda uni imzolagan va ratifikatsiya qilgan davlatlar boshlang'ich a'zolar sifatida e'tirof etiladi. Ingliz tilida bu kabi davlatlar "original members" deb yuritiladi. Agar biz "original members" ni "asl a'zolar" sifatida

tarjima qilsak, u holda “boshlang‘ich” atamasining sinonimlari “asosiy”, “muhim”, “birlamchi” ma‘nolarni anglatadi. Bundan kelib chiqadiki, asl a‘zo asosiy, hal qiluvchi degan ma‘noni anglatadi va boshqa barcha a‘zolar ularning bevosita rahbarligi yoki ta‘siri ostida harakat qiladilar. Albatta, xalqaro tashkilotlar a‘zolarining birlamchi va ikkilamchi sifatida tasniflanishi davlatlar suveren tengligi va har qanday hukumatlararo tashkilot prinsipiga ziddir. A‘zolikning boshqa toifasi huquqlar, majburiyatlar va vakolatlar sohasidagi huquqiy oqibatlarga olib kelmasligi tasodif emas.

Shu o‘rinda, xalqaro tashkilotning ta‘sischilari bo‘lgan a‘zolarini qanday nomlash kerak degan savol tug‘iladi. Fikrimizcha, eng muvaffaqiyatli tarjima fransuz tilidan bo‘lishi mumkin. Fransuz tilida “origine” atamasi ushbu guruh a‘zolariga tegishli bo‘lib, “boshlanish”, “vujudga kelish” ma‘nosini anglatadi. Shunday qilib, tashkilotning ta‘sis aktini qabul qilishda qatnashgan va uni belgilangan tartibda ratifikatsiya qilgan davlatlar guruhini “ta‘sis a‘zolari” (ya‘ni tashkilotning tamal toshini qo‘yganlar) deb atash maqsadga muvofiq.

Huddi shuningdek, tashkilotning boshqa a‘zolariga nisbatan “qo‘shilganlar” ta‘rifining qo‘llanilishini o‘rinli deb bo‘lmaydi. Rus tili nuqtai nazaridan siz shartnoma yoki har qanday taklifga qo‘shilishingiz mumkin, ammo siz xalqaro tashkilotga a‘zo bo‘lolmaysiz. “Birlashish” so‘zi tomonlardan birining tarafini olish, qarashlarini bo‘lishishni anglatadi.

Xalqaro tashkilotga qo‘shilib bo‘lmaydi, unga shunchaki suveren tenglik asosida a‘zo bo‘lish mumkin. Shu sababli, xalqaro tashkilotlarning ta‘sis hujjatlarida mazkur toifadagi a‘zolar “joining member” emas, balki “additional member” (ingliz tilida) yoki “cote membre” emas, balki “addientinnal member” (fransuz tilida) sifatida yuritiladi.

Bizning fikrimizcha, ta‘sischi davlat bo‘lmagan xalqaro tashkilotlarning a‘zolarini shunchaki “tashkilot a‘zolari” deb atash lozim. Aynan shu kontekstda “additional member” atamasidan foydalanish mumkin.

Xalqaro tashkilotlar a‘zolarining qisman a‘zolar deb nomlanadigan boshqa toifasini ham ko‘rib chiqamiz. Ushbu a‘zolik kategoriyasining mohiyati shundaki, davlatlar (yoki tegishli xalqaro tashkilotlar) qoida tariqasida tashkilot a‘zosi bo‘lmagani holda hukumatlararo tashkilotning muayyan organi ishida qatnashadilar.

Bunda tashkilotlar a'zolikni rasmiylashtirish jarayonini chetlab o'tgan holda, hayotiy muhim bo'lgan muammolarni muayyan muammolarni hal qilishdan manfaatdor bo'lgan davlatlarni jalb qilish imkoniga ega bo'ladilar. Shu sababli, ko'plab tashkilotlar qisman a'zolik institutini tashkil etish to'g'risidagi tegishli qoidalarni tasdiqlaganlar.

Masalan, FAO⁴⁷ konferentsiyasining 1970-yildagi XVII sessiyasi Ustav va Umumiy tartib qoidalariga a'zo bo'lmagan davlatlarga FAO organlari ishlarida va tadbirlarida ishtirok etishlariga imkon beruvchi o'zgartirishlar kiritish to'g'risida qaror qabul qildi⁴⁸. Ushbu a'zolik shakli XTD (IMO)⁴⁹da keng qo'llaniladi. Masalan, tashkilotga a'zo bo'lmagan davlatlar Dengiz xavfsizligi qo'mitasining texnik masalalar bo'yicha dengiz konventsiyalariga kiritilgan o'zgartirishlarni muhokama qilishda (xususan, MPPSS-72, MARPOL-73/78, SOLAS-74 kabi konventsiyalarga) qatnashish huquqiga ega.

6-§. Tashkilot a'zolarining huquq va majburiyatlari

Ta'sis hujjatlari va xalqaro tashkilotlar faoliyati tahlil, a'zo davlatlarning huquq va majburiyatlari ikki toifa: individual va jamoaviy toifalarga ajratish mumkinligini ko'rsatadi.

Tashkilotning har qanday a'zosi mazkur tashkilotning hamkori (masalan, qarorgoh to'g'risidagi yoki hamkorlik to'g'risidagi shartnoma tomonlaridan biri sifatida) sifatida individual huquq va majburiyatlarga ega bo'lishi mumkin. Schemers va Blokerlarning fikricha, xalqaro tashkilotga a'zolik ikki tomonlama xususiyatga ega: bir tomondan davlatlar tashkilot mexanizmining alohida qismlari sifatida faoliyat yuritsalar, boshqa tomondan ular uning muhim hamkorlari hisoblanadilar. Shunday qilib, tashkilot o'z a'zolari uchun va a'zolari bilan birgalikda ishlaydilar⁵⁰.

Qoidaga ko'ra, individual huquq va majburiyatlar xalqaro tashkilotning ta'sis hujjatlari yoki qarorlarida belgilanadi. Masalan, ko'p hollarda tashkilot shartnomaning depozitariysi hisoblanadi. Bunday majburiyatlarga har bir a'zoning muntazam ravishda a'zolik

⁴⁷ Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti

⁴⁸ Schemers G. International institutional law. - London, 2005. - P. 158.

⁴⁹ Xalqaro dengiz tashkiloti

⁵⁰ Schemers G. International institutional law. - London, 2005. - P. 65.

badallarini to'lash, konvetsiyalar yoki ta'sis aktining ijrosi yuzasidan hisobot taqdim etish kabi majburiyatlari kiradi.

A'zo davlatlarning kollektiv huquq va majburiyatlari xalqaro tashkilotlarning ta'sis hujjati yoki qarorlarida mustahkamlab qo'yilgan. Bunday huquq va majburiyatlar umumiy adresatlar, ya'ni tashkilotning barcha a'zolariga yoki ikki va undan ortiq a'zolariga tegishli bo'lib, unga ko'ra tashkilotning barcha a'zolarining manfaatlariga ta'sir ko'rsatadigan qo'shma harakatlarni bajarish ko'zda tutilgan.

A'zo davlatlarning huquq va majburiyatlarini uch guruhga bo'lish mumkin:

- a) xalqaro huquqning umume'tirof etilgan prinsiplari va normalaridan kelib chiqadigan huquq va majburiyatlar;
- b) davlatlarning tashkilot faoliyatida ishtiroki bilan bevosita bog'liq bo'lgan huquq va majburiyatlar;
- c) tashkilot ta'sis aktining asosiy qoidalariga rioya qilish bilan bog'liq huquq va majburiyatlar.

4. A'zolikni tugatilishi. Xalqaro tashkilotdan chiqish muammosi to'g'ridan-to'g'ri ko'proq umumiy masalaga - institutsional hujjat deb ataladigan xalqaro shartnomani denonsatsiya qilish tartibiga (ya'ni uning asosida tashkilot tuziladi) bog'liqdir.

Tashkilotlarning ta'sis hujjatlarida a'zolikni bekor qilishning besh usuli belgilangan:

- a) o'z ixtiyori bilan chiqish;
- b) avtomatik chiqish;
- c) a'zolikdan mahrum qilish;
- d) davlat tugatilishi;
- e) tashkilotning tugatilishi.

Deyarli barcha tashkilotlarning ustavlarida a'zolikni ixtiyoriy ravishda bekor qilish imkoniyati ko'zda tutilgan. Biroq, huquqiy nuqtai nazardan, xalqaro tashkilotlarning ustavlarida ixtiyoriy ravishda chiqib ketish to'g'risidagi aniq qoidalarning mavjudligi muhim emas. Nizomda a'zolikdan chiqish to'g'risidagi bandlarning yo'qligi a'zolikni ixtiyoriy ravishda bekor qilishga to'sinlik qila olmaydi. Tashkilotdan bir tomonlama chiqish uchun asos davlatlarning suveren tengligi prinsipidir, unga muvofiq har qanday davlat muayyan tashkilotga a'zo bo'lishning maqsadga muvofiqligini erkin belgilash huquqiga ega.

Tashkilotdan chiqish jarayoni bir qator majburiy shartlarni bajarishni o'z ichiga oladi: ta'sis aktining denonsatsiyasi to'g'risidagi yozma ariza; tashkilotdan chiqish to'g'risidagi arizaning kuchga kirish muddatining belgilanishi; ta'sis hujjati kuchga kirgan kundan boshlab, muddat tugagandan so'ng, a'zo davlat tashkilotdan chiqish to'g'risidagi iltimosni qo'zg'ashi mumkin bo'lgan muddatning belgilanishi; chiqishdan avval bir qator majburiyatlarning bajarilishi; umumiy vakolatlarga ega tashkilotlar bilan chiqish shartlarining muvofiqlashtirilishi kabilar shular jumlasidandir.

Avtomatik chiqish - bu ixtiyoriy chiqishning bir turidir. Uning mohiyati shundaki, davlat "ipso-fakto", sharoitlar tufayli tashkilotga a'zolikni to'xtatishga majbur. Masalan, Xalqaro valyuta jamg'armasi a'ziligini to'xtatgan har qanday davlat uch oydan so'ng avtomatik tarzda Xalqaro tiklanish va taraqqiyot bankining a'zolidan chiqadi.

A'zolikdan mahrum qilish shakli sifatida chiqarib yuborish sanksiya sifatida va tashkilot manfaatlarini himoya qilish maqsadida qo'llaniladi. Tashkilot ustavini muntazam ravishda buzadigan davlat, tashkilotning ustavida bunday holat ko'zda tutilmagan bo'lsa ham, tashkilotdan chiqarilishi mumkin. Masalan, Yevropa Kengashi nizomning 8-moddasiga binoan, inson huquqlari standartlarini jiddiy ravishda buzadigan har qanday a'zo Kengashni tark etishga taklif qilinishi mumkin. INMARSAT⁵¹ Assambleyasi, agar majburiyatni bajarmaganlik tashkilotning samarali faoliyatiga zarar yetkazgan deb topsa, davlat a'ziligini bekor qilish to'g'risida qaror qabul qilishi mumkin (INMARSAT Konventsiyasining 30-moddasi).

A'zo davlatni tugatish deganda davlatlar almashinuvi, ya'ni bir davlatning boshqasiga almashtirilishi tushuniladi. Tashkilotda vorislik muammosi yangi mustaqil davlat paydo bo'lganda, birlashganda yoki parchalanishi natijasida undan davlat hududi ajralib chiqqan taqdirda paydo bo'lishi mumkin. Xalqaro huquqqa muvofiq, yangi mustaqil davlat tugatilgan davlatning merosxo'ri sifatida ta'sis akti bilan vorislik predmeti bo'lgan hududni qamrab olganligi sababli, avtomatik ravishda tashkilotga a'zo bo'lishi shart emas. Yangi mustaqil davlat vorislik to'g'risida xabar berish orqali har qanday tashkilotga nisbatan o'z maqomini (ya'ni to'laqonli a'zosi yoki kuzatuvchi sifatida) belgilash huquqiga ega. Ikki yoki undan ortiq davlatlarning birlashishi natijasida, qoida tariqasida, voris davlat qaysi davlat tashkilotni tark

⁵¹ Xalqaro sun'iy yo'ldoshli aloqa kompaniyasi

etishi kerakligi va tashkilotda bunday jamoaning vakili kim bo'lishi lozimligini hal qiladi.

Tashkilotni tugatish "ipso-fakto", ya'ni a'zolikni bekor qilishni anglatadi; hozirgi vaqtda faoliyat yuritayotgan tashkilotlar turli xil usullar bilan tugatilishi mumkin. Eng real holat ma'lum miqdordagi davlatlarning tashkilotdan chiqib ketishi bilan ro'y beradi. Masalan, O'rtayer dengizdagi Baliqchilik bo'yicha Bosh Kengashning nizomida, tashkilot tarkibida qolgan a'zo davlatlarning umumiy soni beshtadan kam bo'lsa, ushbu tashkilot o'z faoliyatini to'xtatishi belgilab qo'yilgan.

A'zolikni to'xtatib turish va a'zolikni tugatish garchi bir qator umumiy xususiyatlarga ega bo'lsada, ularni o'zaro farqlay olish lozim. Birinchidan, ham ikkisi ixtiyoriy harakatlar natijasidir. Ikkinchidan, ushbu xatti-harakatlarni amalga oshirayotgan davlat tashkilot ishida qatnashmaydi. Uchinchidan, a'zolikni tugatish va to'xtatib turishni noqonuniy xatti-harakatlar uchun sanksiya sifatida baholash mumkin. Biroq, shu o'rinda ular o'ziga xos xususiyatlarga ham egadirlar. A'zolikni tugatish jarayoni tugallangan, to'xtatib turish esa davom etayotgan jarayondir. A'zolik tugatilganidan so'ng, davlat tashkilotdagi doimiy a'ziligini tashkilotga a'zo bo'lish bilan bog'liq barcha talablarni bajargach, qayta tiklashi mumkin. To'xtatib turish muhim protsessual tadbirlarni amalga oshirishni talab qilmaydi. A'zolikning tugatilishi, a'zo davlat tashkilot oldidagi majburiyatlarini (masalan, moliyaviy, mulkiy) bajarganidan keyingina kuchga kiradi. A'zolik to'xtatilgan taqdirda, ushbu majburiyatlar belgilangan muddatga muzlatiladi.

A'zolikni to'xtatib turish ikki usulda amalga oshiriladi: ixtiyoriy va majburiy. Har qanday davlat tashkilotga a'zolikni ma'lum muddatga to'xtatib qo'yish huquqiga ega. Bunday qadamni, masalan, tashkilot tomonidan muayyan a'zolarning huquqlarini poymol qiladigan qarorlarni qabul qilishi; tashkilot ishida to'laqonli ishtirok etishga to'zqinlik qiluvchi mamlakatdagi mavjud vaziyat va boshqalar bilan bog'liq ravishda amalga oshirish mumkin. A'zolikni to'xtatib turishni, bu haqda tashkilotning ijrochi kotibiga (bir qator tashkilotlarda raisga) xabar berish orqali amalga oshirish mumkin. Bundan tashqari, a'zolikni to'xtatib turishda boshqa davlatlarning roziligi talab etilmaydi.

A'zolik davlat tomonidan majburiyatlarni bajarmaganlik yoki

ta'sis aktida ko'rsatilgan asosiy tamoyillarni buzganlik uchun sanksiya sifatida majburiy ravishda to'xtatilishi mumkin. Jumladan, agar a'zo davlat Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (EBRD) oldidagi majburiyatlarini bajarmasa, unda Bank kamida uchdan ikki rahbarning ko'pchilik ovozi qarori bilan a'zolikni to'xtatib qo'yishi mumkin. To'xtatish muddati davomida a'zo chiqish huquqidan tashqari barcha huquqlarini yo'qotadi, ammo uning barcha majburiyatlari saqlanib qoladi (ETTBni ta'sis etish to'g'risidagi shartnomaning 38-moddasi).

A'zolikni to'xtatib turish to'liq yoki qisman amalga oshirilishi mumkin. To'liq to'xtatib qo'yilganda, davlat asosiy yoki yordamchi organlarning ishida ishtirok etish, tashkilotning rasmiy va boshqa hujjatlarini olish huquqidan mahrum etiladi. A'zolikning qisman to'xtatib qo'yilishi nisbatan yengilroqdir. Masalan, davlat asosiy organlarning yig'ilishlarida qatnashish imkoniga ega bo'lsada, ovoz berish huquqidan mahrum etiladi.

Nazorat savollari:

1. Xalqaro tashkilotlarga a'zolik tushunchasi va mohiyati.
2. A'zolikka qabul qilish mezonlari.
3. A'zolikni to'xtatish asoslari.
4. Xalqaro tashkilotlarda a'zolikning tugatilishi.
5. A'zolik toifalari haqida ma'lumot bering.
6. Tashkilot a'zolarining huquq va majburiyatlari nimalardan iborat?

V BOB. UNIVERSAL XALQARO TASHKILOTLAR TIZIMI

1-§. Universal xarakterdagi xalqaro tashkilotlar tushunchasi va mohiyati

Globalashuv sharoitida davlatlarning milliy va xalqaro manfaatlari doimiy ravishda faol hamkorlikni talab qiladi. Shu maqsadda davlatlar xalqaro tashkilotlar tuzadilar va ularga bir qator funksiyalarni bajarish uchun zarur bo'lgan xalqaro-huquqiy subyektivlikni taqdim etadilar.

Doktrinaning universal xalqaro tashkilotlar to'g'risidagi qarashlari turlicha. Jumladan, G.I. Tunkinning fikricha, *xalqaro universal tashkilotlar* sifatida BMT kabi maqsadlari va faoliyat turi dunyoning barcha davlatlari uchun manfaatli bo'lgan tashkilotlar e'tirof etilishi mumkin⁵². Ayon bo'lganidek, BMTning xalqaro tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash borasidagi maqsad va vazifalari umumiy manfaatlarni o'zaro uyg'unlashtiradi. Shu boisdan, BMT o'z Ustavini tan olgan barcha davlatlar uchun ochiq bo'lishi lozim. Faoliyati umumiy manfaatlarga xizmat qiluvchi tashkilotlar qatoriga JSST, JST, XEI va UPU ixtisoslashgan tashkilotlar kiradi.

O'z navbatida, L. Oppenxaym xalqaro tashkilotning universal xususiyati uning xalqaro huquqning yuqori organi sifatida oldiga qo'ygan maqsadlarining mohiyatidan, shuningdek, barcha davlatlar manfaatlarining to'la birdamligini ta'minlash zaruratidan kelib chiqadi, deb hisoblaydi. Bu xalqaro tashkilotning nafaqat jahon hamjamiyatining barcha a'zolari uchun ochiq bo'lishi kerakligini, balki unga a'zolik barcha davlatlar uchun majburiy bo'lishi hamda tashkilotdan chiqish yoki chiqarib yuborishning qonuniy asoslari bo'lmashligi lozimligini anglatadi.

Xalqaro huquq nuqtai nazaridan, *universal xarakterdagi xalqaro tashkilotlarga* o'zgacha ta'rif berilgan. Xususan, 1975-yilgi "Davlatlarning universal xarakteridagi xalqaro tashkilotlar bilan munosabatlarda vakilligi to'g'risida"gi Vena konventsiyasining 2-moddasiga muvofiq, universal xarakterdagi xalqaro tashkilot sifatida a'zoligi va javobgarligi keng ko'lamli xalqaro xarakterga ega bo'lgan

⁵² Wallace M., Singer J. D. Intergovernmental Organization in the Global System. 1815-1964: A Quantitative Description / International Organizations. 2019. – № 2. P. 239-267.

BMT va uning ixtisoslashgan organlari, MAGATE va shunga o'xshash boshqa tashkilotlar belgilab berilgan.

Ushbu ta'rif, BMT nizomining 57 va 63-moddalari mazmunidan kelib chiqqan holda berilgan. Shunga ko'ra, BMT universal tashkilotning klassik namunasidir. Ammo ba'zi olimlarning fikricha, universal xalqaro tashkilotlarning mavjudligini faqat BMT tizimi doirasida ko'rib chiqish noto'g'ridir. Ularning fikricha, JST ham universal hisoblanadi, u BMT tizimiga kirmaydi, ammo Yer yuzining deyarli barcha davlatlarini o'z ichiga qamrab oladi. Uning vazifalari xalqaro savdo bilan bog'liq ko'plab masalalarni, shu jumladan nizolarni hal qilishni ham o'z ichiga oladi. BMT tizimiga kirmaydigan xalqaro universal tashkilotning yana bir misoli IRENA hisoblanadi. IRENA qayta tiklanadigan energiya manbalari bo'yicha xalqaro agentlik bo'lib, uning vazifasi muqobil energiyani rivojlantirish va undan foydalanishni jadallashtirishdan iborat. Shu sababli, tashkilotni universal deb tasniflashning asosiy mezonini xalqaro munosabatlarning turli sohalaridagi vazifalarning ko'pligi emas, balki dunyoning ko'plab davlatlarining miqdoriy qamrab olinishi bo'lishi kerak.

Shunday qilib, tashkilotlarning huquqiy subyektligi davlatlar huquqiy subyektligidan kelib chiqadi. Xalqaro hukumatlararo tashkilot, xalqaro huquq subyekti sifatida davlatlar birligi va xalqaro shartnomalar asosida umumiy maqsadlarga erishish maqsadida tuzilgan, shuningdek, a'zo davlatlarning umumiy manfaatlarida xizmat qiluvchi doimiy organlariga ega bo'lgan tuzilmadir.

Xalqaro tashkilotning maqsadi – a'zo davlatlar tomonidan berilgan vakolatlar bilan belgilanadigan muhim faoliyat obyekti yoki sohasidir.

Tashkilotlar o'z vakolatlari va a'zo davlatlar tarkibiga ko'ra, quyidagi turlarga bo'linadi:

- umumiy vakolatlarga ega davlatlararo xalqaro tashkilotlar - faoliyati davlatlararo munosabatlarning barcha sohaları (siyosiy, iqtisodiy, madaniy va boshqalar)ga ta'sir ko'rsatadigan davlatlar birlashmasi;

- maxsus vakolatlarga ega bo'lgan xalqaro hukumatlararo tashkilotlar - faoliyati davlatlararo munosabatlarning alohida yo'nalishlaridan biriga ta'sir etuvchi davlatlar birlashmasi;

- universal (ochiq) xalqaro hukumatlararo tashkilotlar, ya'ni dunyoning barcha davlatlari uchun ochiq bo'lgan davlat birlashmalari;
- yopiq xalqaro hukumatlararo tashkilotlar - yangi a'zolar ta'sischilarning roziligi bilangina qabul qilinishi mumkin bo'lgan davlatlar birlashmalari, bir hududda joylashgan davlatlar birlashmalari.

Xalqaro tashkilotlarning huquqiy tabiati umumiy maqsad va manfaatlar mavmuiga asoslanadi.

Ushbu tizimning markazida BMT joylashgan. Xalqaro tashkilotlar quyidagicha tasnifladi:

1. A'zolik va ishtirokchilarning yuridik tabiatiga ko'ra xalqaro tashkilotlar *davlatlararo (hukumatlararo)* va *nohukumat* tashkilotlarga bo'linadi. Davlatlarning a'zoligi, ta'sis etilgan xalqaro shartnoma va doimiy organlarning mavjudligi hukumatlararo tashkilotlarga xosdir. U a'zo davlatlar suverenitetini hurmat qilgan holda, ularning manfaatlariga muvofiq faoliyat yuritadi va xalqaro huquqning subyekti hisoblanadi.

Xalqaro hukumatlararo tashkilot - umumiy maqsadlarga erishish uchun xalqaro shartnoma asosida tuzilgan davlatlar birlashmasi.

Xalqaro hukumatlararo tashkilotlar - jismoniy yoki yuridik shaxslardan iborat uyushma va federatsiyalar shaklidagi birlashma bo'lib, u a'zolar manfaatidan kelib chiqib, aniq maqsad yo'lida faoliyat yuritadi.

2. Ishtirokchilar doirasiga ko'ra xalqaro tashkilotlar *universal*, ya'ni barcha davlatlar uchun ochiq bo'lgan (BMT va uning ixtisoslashgan muassasalari) va a'zolari yagona mintaqa davlatlaridan iborat bo'lgan *mintaqaviy* tashkilotlarga bo'linadi.

3. Davlatlararo tashkilotlar o'z vakolatlari doirasiga ko'ra, *umumiy vakolatli* va *maxsus vakolatli* tashkilotlarga bo'linadi. Umumiy vakolatli tashkilotlar faoliyati a'zo davlatlar o'rtasidagi munosabatlarning barcha sohalarini qamrab oladi: siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va boshqalar (BMT, Yevropa Kengashi, Arab davlatlari ligasi). Maxsus vakolatli tashkilotlar muayyan sohadagi (Xalqaro pochta ittifoqi, Xalqaro mehnat tashkiloti, Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti va boshqalar) hamkorlikni amalga oshiradilar hamda

faoliyat yo'nalishlariga ko'ra - siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ilmiy, diniy tashkilotlarga bo'linadilar.

4. Xalqaro tashkilotlar o'z vakolatlari xususiyatiga ko'ra davlatlararo va milliy darajadagi tashkilotlarga bo'linadi. Birinchi guruhga davlatlararo hamkorlikni amalga oshirish maqsadini ko'zlaydigan va qarorlari bevosita a'zo davlatlarga dahldor bo'lgan xalqaro tashkilotlar kiradi.

5. A'zolik shartlariga ko'ra, xalqaro tashkilotlar istalgan davlat o'z xohishiga ko'ra a'zo bo'lishi mumkin bo'lgan *ochiq* hamda a'zolik dastlabki muassislarning (NATO) taklifiga binoan amalga oshiriladigan *yopiq* xalqaro tashkilotlarga bo'linadi.

2-§. BMT: tarixi, maqsadi va faoliyat prinsiplari

Birinchi universal xalqaro tashkilot - Millatlar Ligasi faoliyatining yakuniy natijalari qoniqarsiz yakun topgan bo'lsada, o'tgan davr mobaynida xalqaro hamkorlikning ijobiy tajribasi to'plangan. Ikkinchi jahon urushining boshlanishi va butun jarayoni davomida davlatlararo munosabatlar sohasida keng ko'lamlil hal tilmagan muammolar mavjudligini ko'rsatdi. Asosiysi, ishonchli global xavfsizlik tizimini yaratishdan iborat edi. Shunday qilib, 20-asrning o'rtalarida dunyoning yetakchi kuchlari urushdan keyingi dunyo tartibotini o'rnatishda xalqaro tashkilotni yaratish zaruratiga duch keldilar.

"Birlashgan millatlar" atamasi birinchi marta 1942-yil Vashington konferentsiyasining rasmiy hujjatlarida ishlatilgan. Uning muallifi AQSh Prezidenti Franklin Ruzvelt bo'lib, u fashistlar Germaniyasi, fashistik Italiya va Yaponiyaga qarshi kurashgan davlatlar ittifoqini nazarda tutgan. Bunda Gitlarga qarshi va Yaponiyaga qarshi koalitsiyadagi ittifoqchilar (dunyoning 26 davlati) Millatlar Ligasi o'rnini bosadigan yangi xalqaro tuzilmani yaratishga qaror qilgan edilar. BMTni tashkil etish bo'yicha so'ngi qaror 1944-yilda qabul qilingan. Bunda AQSh Davlat departamenti maxsus maxfiy Ultra dasturini yaratdi, uning zimmasiga Qo'shma Shtatlar maksimal ta'sir ko'rsatadigan yangi xalqaro tashkilotni tashkil etish vazifasi yuklangan edi. Ruzvelt va uning hamkasabalari Millatlar Ligasining vorisi bo'lgan tashkilot buyuk davlatlarning fikrini hisobga olishlari lozimligini e'tirof etganlar. Ruzvelt mazkur davlatlarni "to'rt politsiyachi" deb nomlagan (AQSh, SSSR, Buyuk Britaniya va Xitoy).

1944-yilda Vashingtonning chekka hududi Dumbarton Oaks muzokaralarida ittifoqdosh davlatlar vakillari BMTning yangi Nizomi ustida ish boshladilar. Birlashgan Millatlar Tashkiloti ikki asosiy organdan iborat bo'lishi lozimligi to'g'risida kelishib olindi: birinchidan, munozaralar uchun platforma bo'lib xizmat qiladigan **Bosh Assambleya**; ikkinchidan, tashkilot qarorlari ijrosini ta'minlaydigan kichik **Xavfsizlik Kengashi** ("to'rt politsiyachi" g'oyasining timsoli). Xavfsizlik Kengashi Millatlar Ligasi Kengashining tinchlikka tahdid soluvchi masalalarni hal qilishdagi analogi hisoblanadi. Uning qoidalari dunyo mamlakatlari uchun majburiy bo'lishi lozim.

Bosh Assambleya va Xavfsizlik Kengashi - BMTning asosiy organlaridir.

BMT o'z tuzilishiga ko'ra, sobiq Millatlar Ligasini eslatar edi, zero u ham Bosh Assambleya va Xavfsizlik Kengashidan iborat edi. Ammo ular orasida bitta muhim farq bor edi. Xavfsizlik Kengashiga kiritilgan masalalar bo'yicha AQSh, Buyuk Britaniya, Sovet Ittifoqi va Xitoy kabi faqat yetakchi ittifoqchi davlatlar mutlaq "veto" huquqini oldilar. Millatlar Ligasida barcha davlatlar ijro qarorlariga "veto" qo'yish huquqiga ega edilar. Amerikalik tarixchi olim Stiven Shlesingerning fikricha, hozirda BMT Xavfsizlik Kengashiga doimiy a'zo bo'lgan beshta davlatning veto huquqi Ruzvelt tomonidan AQSh Kongressiga BMTning AQSh nazoratida saqlanib qolishiga kafolat sifatida taklif qilingan. Rasman "veto" barcha davlatlarning manfaatlarini maksimal darajada hisobga olish va shu asosda ehtimoliy to'qnashuvlarning oldini olish maqsadida qilingan.

Mutlaq veto prinsipiga ko'ra, veto huquqiga ega bo'lgan davlat qarshi chiqishi mumkin bo'lgan har qanday masala qabul qilinmaydi. Bu ba'zi bir buyuk davlatlarning qarorlarini boshqalarga yuklash imkonsizligini, ya'ni bunday sharoitda keng koalitsiyani yaratish murosasiz bo'lib chiqdi. E'tiborli jihati shundaki, Sobiq Ittifoq ushbu huquqning joriy qilinishiga qarshi chiqqan bo'lsada, bugungi kunga kelib, BMT Xavfsizlik Kengashida "veto" huquqiga ega bo'lgan Rossiya dunyo siyosatiga ta'sir ko'rsatish vositalaridan biriga ega bo'lib qolmoqda.

Birlashgan Millatlar Tashkilotiga a'zo bo'lish huquqi barcha mamlakatlarga berilgan bo'lib, fashistik kuchlar va ularga xayrixoh davlatlar bundan mustasno. BMTning harbiy va politsiya kuchlarini yaratish bo'yicha takliflar rad etilib, endilikda BMT o'z a'zolarining qurolli kuchlariga tayanishi yuzasidan qaror qabul qilindi.

Tashkilot a'zolarining ro'yxatini tuzishda SSSR 15 ta sovet respublikalarining har biri BMTga qabul qilinishini talab qildi. Tomonlar o'zaro kelishuvga erishdilar va faqat uchta Sovet respublikalarini (Rossiya Federatsiyasi, Ukraina va Belorusiya) BMTga qabul qilindi.

Ruzvelt ham mustamlaka Yevropa davlatlariga yon bosdi. Dastlab, Birlashgan Millatlar Tashkilotini Millatlar Ligasi tomonidan chiqarilgan koloniyalarni ma'murlashtirish uchun mandatlar tizimi bilan bog'lash mo'ljallanmagan, ammo BMTning asosiy organi sifatida BMTning Vasiylik Kengashini tuzishga qaror qilingan edi. Kengash eski liganing ko'pgina vakolatlari yuzasidan javobgarlikni o'z zimmasiga oldi (Buyuk Britaniya bosh vaziri Uinston Cherchill bu rejani Britaniya koloniyalari Vasiylik kengashidan chiqarilgunga qadar qo'llab-quvvatladi). Yana bir murosa Fransiya bilan bo'ldi. Ruzvelt Ozod Fransiya yetakchisi general Sharl de Gollga nisbatan ishonchsizlik bildirgan, ammo sobiq Sovet Ittifoqi va Angliyaning bosimi ostida natsistlar ustidan g'alaba qozongan Fransiyani BMT Xavfsizlik Kengashining doimiy a'zoligiga kiritishga rozi bo'lgan.

1945-yilning aprel-iyun oylarida San-Frantsiskoda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Nizomi loyihasini yakuniga yetkazish maqsadida 50 mamlakat delegatlari to'plangan vaqtda dunyo sahnasida juda ko'plab o'zgarishlar sodir bo'lgan edi. Ruzvelt vafot etdi, Germaniya va Yaponiya mag'lub bo'lish arafasida edi. Kolumbiya universiteti qoshidagi Xalqaro tashkilot markazining direktori, BMT tarixini o'rganuvchi yetakchi ekspertlardan biri Edvard Lakning fikricha, San-Frantsiskoda yig'ilgan delegatlar va Parijda 25 yil avval Millatlar Ligasini ta'sis etish to'g'risidagi shartnomani ishlab chiqish maqsadida uchrashganlar o'rtasida bitta muhim farq bor edi. 1919-yilda ko'pchilik xalqlarning yaxshi irodasi bilan erishish mumkin bo'lgan urushsiz dunyo yaratish mumkinligiga ishonishgan. San-Frantsiskoda esa, turli xil qarashlar ustun keldi: BMT tomonidan boshqariladigan iqtisodiy va harbiy kuch tinchlik garovi sifatida e'tirof etildi.

1946-yilda Millatlar Ligasi o'zini o'zi tugatish tartibini amalga oshirdi va uning mulki BMTga topshirildi. Ammo, tarix Millatlar

Ligasi duch kelgan ko'plab muammolar uning vorisiga meros bo'lib o'tganini ko'rsatadi.

Shunday qilib, bugungi kunda **Birlashgan Millatlar Tashkiloti** eng muhim xalqaro tashkilot bo'lib, u tinchlikni va xalqaro xavfsizlikni ta'minlash hamda davlatlararo hamkorlikni rivojlantirish maqsadida tashkil etilgan. BMT Nizomi universal xalqaro shartnomalar bo'lib, u zamonaviy xalqaro huquq asoslarini o'rnatishga xizmat qiladi. Nizom konstitutsiyaviy hujjat sifatida Birlashgan Millatlar Tashkilotining xalqaro tashkilot sifatidagi faoliyatini tartibga soladi.

BMT nizomi barcha davlatlar uchun majburiydir. Ushbu hujjat xalqaro huquqning maqsad va tamoyillarini belgilaydi, iqtisodiy, harbiy, siyosiy, ekologik va gumanitar sohalarida davlatlar uchun xavfsizlikning keng qamrovli tizimi va axloq kodeksining asosini tashkil etadi. BMT Nizomi qoidalari boshqa xalqaro shartnomalardan ustundir.

BMT Nizomining 1-moddasiga ko'ra tashkilot quyidagi maqsadlar uchun yaratilgan:

- xalqaro tinchlik, xavfsizlikni saqlash va huquqbuzarlarga qarshi kompleks choralar ko'rish;
- millatlar o'rtasida tenglik va o'z taqdirini o'zi belgilash prinsipini hurmat qilishga asoslangan do'stona munosabatlarni rivojlantirish;
- iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va gumanitar xarakterdagi xalqaro muammolarni hal etishda xalqaro hamkorlikni amalga oshirish;
- ushbu maqsadlarga erishish yo'lidagi davlatlar faoliyatini muvofiqlashtirish.

3-§. BMTning tarkibiy tuzilishi

BMT *ochiq tashkilot* bo'lib, Nizomda belgilangan majburiyatlarni qabul qilgan har bir davlat unga a'zo bo'lishi mumkin. Birlashgan Millatlar Tashkilotining boshqaruv organlari:

- Bosh assambleya;
- Xavfsizlik Kengashi;
- Iqtisodiy va Ijtimoiy Kengash (ECOSOC);
- Xalqaro sud;
- Kotibiyat;
- Vasiylik Kengashi.

Bosh kotib

Kotibiya: r.isi. BMT yetakchisi.
Tashkilot nomidan ish yuritadi. 5 yil
muddatga saylanadi.

Kotibiyat

BMT faoliyatini mur. oshirishini
BMT organlarining ismini muvofiqlashtiradi, faoliyatga
dior materiallarni nashr. qilib va tarqatadi. a'zo
davlatlarning xalqaro shartnomalarini to'yxatadi
o'tkazadi va nashr. etadi.

Xavfsizlik kengashi

Xalqaro tinchlik va xavfsizlikni saqlashda
asosiy javobgarlikni o'z zimmasiga oladi:
- xavfsizlik kengashi;
- BMT to'rtliklar va boshqalar; boshqaradi
- harbiy operatsiyalarni tashkil. qilib
- Davlatlar to'rti: "umid bozori" ?

Domiy bo'lmagan a'zolar: 10
(2 yilga saylanadi)

BMT Bosh Assambleyasi

192 davlat

Asosiy maslahat, siyosiy va vakillik
organi.

1 mamlakat: 1 ovoz
Yillik sessiyalar: sentyabr, dekabr

BMT Xalqaro sudi

Nazo. va xalqaro qonunlar haqida,
Hududiy va chegaralar bilan bog'liq
masalalar qonunga asoslangan ravishda kish
mudohira ko'rib chiqilganligida, NK
HA va BMTning boshqa organlariga
tavsiyalar beradi.

Ixtisoslashgan organlar

BMT tomonidan muayyan vazifalarga javab etish
maqsadida tashkil. etilgan mas'uliyatli xalqaro
tashkilotlar.

YUNESKO, ILO, FAO, XMT, MAGATE, IKT

Boshqalar va boshqalar

UNCTAD - BMTning savdo va rivojlanish bo'yicha
kayfiyatidagi
UNICEF - BMTning bolalar jamoasini
UNEP - BMTning muhit bo'yicha dasturlari bo'lgan.

Vasiylik kengashi

Vas. yillik etadagi hududlarni boshqarish
va nazorat qilish
1994 yilning 1 dekabrindan o'z faoliyatini
tugatgan

Iqtisodiy va ijtimoiy kengash

BMT va uning ixtisoslashgan organlarining
ijtimoiy va ijtimoiy xalqlarining hamkorligini
muvofiqlashtiradi.

4-§. Bosh assambleya va Xavfsizlik Kengashining maqsadlari, tarkibi, funktsiyalari va vakolatlari

BMT Bosh Assambleyasi tashkilotning barcha a'zolaridan iborat. Birlashgan Millatlar Tashkilotining har bir a'zosi Bosh Assambleyaning sessiyalariga besh nafardan ko'p bo'lmagan vakilini yuborish huquqiga ega. Har bir davlat Bosh Assambleyada bitta ovozga ega. Bosh Assambleyaning navbatdagi sessiyalari har yili o'tkaziladi. Maxsus sessiyalar Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibi tomonidan BMT Xavfsizlik Kengashining yoki tashkilot a'zolarining ko'pchiligining iltimosiga binoan alohida holatlarda chaqiriladi.

BMT Bosh assambleyasi, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Nizomining 9-moddasiga binoan, BMT ustavida nazarda tutilgan yoki

BMT Ustavida ko'zda tutilgan organlarning vakolatlari va funksiyalari bilan bog'liq har qanday masalalarni muhokama qilish, BMT a'zolari yoki Xavfsizlik Kengashiga tavsiyalar berish vakolatiga ega. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi (11-modda) tinchlik va xavfsizlikni ta'minlashda davlatlar o'rtasidagi hamkorlikning umumiy tamoyillarini ko'rib chiqish va Birlashgan Millatlar Tashkiloti yoki Xavfsizlik Kengashining har qanday a'zosi qo'ygan tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash bilan bog'liq barcha masalalarni muhokama qilish vakolatiga ega.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh Assambleyasi navbatdagi yillik sessiyalarda hamda vaziyat yuzasidan maxsus sessiyalarda yig'iladi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh assambleyasi BMTning byudjetini ko'rib chiqadi va tasdiqlaydi.

BMT Xavfsizlik Kengashi BMTning doimiy va doimiy bo'lmagan a'zolari maqomiga ega bo'lgan 15 ta davlatdan iborat. XXR, Fransiya, Rossiya (1991- yildan buyon Sobiq Sovet Ittifoqi o'rniga), Buyuk Britaniya va AQSh BMT Ustavida Xavfsizlik Kengashining *doimiy a'zolari* sifatida belgilangan. Boshqa o'nta (doimiy bo'lmagan) a'zo BMT Bosh assambleyasi tomonidan saylanadi. Shu bilan birga, birinchi navbatda, tashkilot a'zolarining xalqaro tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash hamda Birlashgan Millatlar Tashkilotining boshqa maqsadlariga erishishdagi ishtiroki, shuningdek, adolatli jug'rofiy taqsimotiga alohida e'tibor qaratiladi. Xavfsizlik Kengashining *doimiy bo'lmagan* a'zolari ikki yillik muddatga saylanadilar. Doimiy bo'lmagan a'zolarining birinchi saylovida Xavfsizlik Kengashi a'zolari soni 11 dan 15 gacha oshganidan so'ng, qo'shimcha to'rt nafardan ikkitasi bir yil muddatga saylanadi. Xavfsizlik Kengashining amaldagi a'zosi darhol qayta saylanishi mumkin emas.

Xavfsizlik Kengashining har bir a'zosi bitta vakil va bitta ovozga ega. Xavfsizlik Kengashining qarorlari, agar ular uchun Kengashning to'qqiz a'zosining ovozlari, shu jumladan *Kengashning doimiy a'zolarining o'zaro mos keluvchi ovozlari* berilgan bo'lsa, bunda nizolashuvchi tarflar qarorda ovoz berishdan tiyilishlari lozim. Ushbu formula "*doimiy a'zolarining bir ovozdan qabul qilish prinsipi*" deb nomlanadi. Agar kamida bitta doimiy a'zo qarshi ovoz bergan bo'lsa, Kengash qarori rad etilgan hisoblanadi ("veto" qo'llaniladi).

BMT Xavfsizlik Kengashi, BMT Nizomning 24-moddasiga ko'ra, xalqaro tinchlik va xavfsizlikni ta'minlashda asosiy javobgarlikni o'z

zimmasiga oladi hamda tashkilot maqsadlari va prinsiplariga muvofiq ushbu majburiyatlarni bajarishda rahbarlik qiladi. BMT a'zolari Xavfsizlik Kengashining qarorlariga bo'ysunishga rozilik beradilar.

BMTning Iqtisodiy va Ijtimoiy Kengashi (ECOSOC), Birlashgan Millatlar Tashkiloti Ustavining 61-moddasiga ko'ra, BMT Bosh Assambleyasi tomonidan saylanadigan 54 a'zodan iborat.

BMT Nizomiga muvofiq (62-modda), ECOSOC vakolatiga iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy hamkorlik, madaniyat, ta'lim, sog'liqni saqlash masalalari kiradi. ECOSOS shuningdek, davlatlar o'rtasidagi inson huquqlarini ulug'lash rioya qilish va ularga rioya qilish sohasidagi hamkorlikni rivojlantirish hamda mavjud ishlarni tashkil qilish uchun zarur komissiyalar faoliyatini yuritish bilan shug'ullanadi (masalan, Inson huquqlari bo'yicha komissiya). ECOSOS vakolatiga kiruvchi xalqaro hamkorlikning barcha sohalarida Kengash tadqiqot o'tkazish, hisobot tayyorlash va BMT Bosh Assambleyasiga, tashkilot a'zolari va manfaatdor ixtisoslashgan muassasalarga tavsiyalar berish vakolatiga ega.

ECOSOSning funksiyalari o'z vakolatiga kiradigan masalalar bo'yicha BMT Bosh Assambleyasiga konvensiyalar loyihalarini tayyorlash, xalqaro konferentsiyalarni chaqirish kabilarni o'z ichiga oladi.

Xalqaro Sud Birlashgan Millatlar Tashkiloti Nizomining 92-moddasiga binoan, tashkilotning asosiy sud organi hisoblanadi. U BMT nizomining ajralmas qismi bo'lgan BMT nizomiga ilova qilingan Statutga muvofiq ishlaydi. Xalqaro Sudning Statuti tomonlari Birlashgan Millatlar Tashkilotining barcha a'zolaridan iborat bo'lib, ular Xalqaro Sudning o'zlari tomonlardan biri sifatida qatnashgan qarorlarini bajarishga majburdirlar. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi yoki BMT Xavfsizlik Kengashi, shuningdek, BMTning boshqa organlari va ixtisoslashgan muassasalari (Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining ruxsati bilan) huquqiy masalalar bo'yicha BMTning Xalqaro Sudidan maslahat xulosalarini talab qilishlari mumkin.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Kotibiyati BMT Bosh kotibidan iborat bo'lib, u BMT Xavfsizlik Kengashining tavsiyasi bilan Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi tomonidan tayinlanadi va Tashkilotning asosiy ma'muriy shaxsi hisoblanadi, shuningdek, keng ko'lami jug'rofiy taqsimotga ko'ra, BMT Bosh

Assambleyasi tomonidan belgilangan qoidalarga muvofiq BMT Bosh kotibi tomonidan tayinlanadigan BMT xodimlaridan iborat. BMT nizomiga binoan, o'z vazifalarini bajarishda Bosh kotib va BMT xodimlari tashkilotdan tashqarisidagi biron bir hukumat yoki hokimiyatdan ko'rsatma olishlari yoki qabul qilishlari mumkin emas. Ular o'zlarining majburiyatlarining qat'iy xalqaro xususiyatini hisobga olgan holda, faqat tashkilot oldida javobgar bo'lgan xalqaro mansabdor shaxslarning mavqeiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan har qanday harakatlardan tiyilishlari kerak.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Kotibiyati BMTning asosiy ma'muriy va texnik organi bo'lib, uning faoliyatini muvofiqlashtiradi. Kotibiyatni BMT Bosh kotibi - Bosh assambleya tomonidan tayinlanadigan bosh ma'mur boshqaradi.

№	F.I.Sh.	Hayot yillari	Foto	Mamlakat	Vakolatga kirishgan	Vakolati tugagan
-	Gladwin Jebb (vazifasini bajaruvchi)	1900-yil 25-aprel - 1996-yil 24-oktyabr		Buyuk Britaniya	1945-yil 24-oktyabr	1946-yil 1-fevral
1	Trygve Li	1896-yil 16-iyul - 1968-yil 30-dekabr		Norvegiya	1946-yil 2-fevral	1952-yil 10-noyabr
2	Dag Hammarsjold	1905-yil 29-iyul - 1961-yil 18-sentyabr		Shvetsiya	1953-yil 10-aprel	1961-yil 18-sentyabr
3	U Thant	1909-yil 22-yanvar - 1974-yil 25-noyabr		Birma	1961-yil 30-noyabr	1972-yil 1-yanvar

4	Kurt Waldheim	1918-yil 21-dekabr – 2007-yil 14-iyun		Avstriya	1972-yil 1-yanvar	1982-yil 1-yanvar
5	Javier Perez de Cuellar	1920-yil 19-yanvar – 2020-yil 4-mart		Peru	1982-yil 1-yanvar	1992-yil 1-yanvar
6	Boutros Boutros-Ghali	1922-yil 14-noyabr – 2016-yil 16-fevral		Misr	1992-yil 1-yanvar	1997-yil 1-yanvar
7	Kofi Annan	1938-yil 8-aprel – 2018-yil 18-avgust		Gana	1997-yil 1-yanvar	2007-yil 1-yanvar
8	Pan Gi Mun	1944-yil 13-iyun		Koreya Respublikasi	2007-yil 1-yanvar	2017-yil 1-yanvar
9	Antonio Guterres	1949-yil 30-aprel		Portugaliya	2017-yil 1-yanvar	Hozirgi vaqtgacha

Vasiylik Kengashi Birlashgan Millatlar Tashkilotining asosiy organlaridan biri bo'lib, u xalqaro vasiylik tizimiga kiradigan vasiylik hududlarini boshqarishni nazorat qilish maqsadida tashkil etilgan. Vasiylik Kengashi 1994-yil 1-noyabrda barcha 11 Vasiylik hududlari mustaqillikka erishgach, o'z faoliyatini to'xtatdi. AQSh nazorati ostida bo'lgan va BMTning 185-a'zo davlatiga aylangan Tinch okean orollari (Palau) oxirgi bo'lib o'zini-o'zi boshqarishga o'tgan vasiylik hududi

hisoblanadi. Hozirgi vaqtda Vasiylik Kengashi BMT Xavfsizlik Kengashining doimiy besh a'zosidan iborat, zero amalda Vasiylik Kengashining ishi tugagan. Natijada, Vasiylik Kengashining ish yuritish tartib-qoidalari o'zgartirildi, unga ko'ra, yig'ilishlar faqat zarur yuzasidagina chaqirilishi mumkin.

5-§. BMTning ixtisoslashgan muassasalari

Birlashgan Millatlar Tashkiloti doirasida ixtisoslashgan organlar doimiy asosda faoliyat yuritib, ular BMTning ta'sis hujjatlari va kelishuvlariga muvofiq ishlaydigan hamda ixtiyoriy ravishda ixtisoslashgan muassasalar maqomini olgan mustaqil tashkilotlardir. Birlashgan Millatlar Tashkilotining ixtisoslashgan muassasalari - bu hukumatlararo bitimlar asosida tashkil etiladigan va xalqaro miqyosda o'zlarining ta'sis hujjatlarida belgilangan, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ta'lim, sog'liqni saqlash va boshqa sohalaridagi xalqaro tashkilotlardir.

BMTning ixtisoslashgan organlari – bu universal xarakterdagi hukumatlararo tashkilotlar bo'lib, ular iqtisodiy, ijtimoiy, gumanitar, ta'lim, sog'liqni saqlash kabi maxsus sohalarda hamkorlik qiladilar.

O'zining Nizomi doirasida Birlashgan Millatlar Tashkiloti o'z faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqadi. Hozirgi kunda BMT doirasida quyidagi tashkilotlar faoliyat yuritadi: Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT), Birlashgan Millatlar Tashkilotining Ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha tashkiloti (YuNESKO), Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JST), Butunjahon intellektual mulk tashkiloti (BIMT), Birlashgan Millatlar Tashkilotining sanoatni rivojlantirish tashkilotlari (UPIDO), Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki (XBR), Xalqaro valyuta fondi (XVF), Xalqaro taraqqiyot uyushmasi (MAP), Xalqaro moliya korporatsiyasi (IFC), Birlashgan Millatlar Tashkilotining Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO), Qishloq xo'jaligini rivojlantirish xalqaro jamg'armasi (IFAD), Xalqaro pochta ittifoqi (UPU), Xalqaro fuqaro aviatsiyasi tashkiloti (ICAO), Xalqaro dengiz tashkiloti (IMO), Xalqaro telekommunikatsiya ittifoqi (XEI), Butunjahon Meteorologik Tashkiloti (JST), Birlashgan Millatlar Tashkilotining Savdo va Taraqqiyot bo'yicha konferentsiyasi (YuNKTAD), Birlashgan

Millatlar Tashkilotining Taraqqiyot dasturi (BMTRD), Birlashgan Millatlar Tashkilotining Atrof-muhit bo'yicha dasturi (YuNEP).

1950-yilda tashkil etilgan **Butunjahon Meteorologik Tashkiloti** (WMO - *World Meteorological Organization*) vakolatli organ hisoblanadi. Yer atmosferasining holatini va uning okeanlar bilan o'zaro munosabatlarini kuzatish bo'yicha WMOning bosh qarorgohi Jenevada (Shveysariya) joylashgan.

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (WHO - *World Health Organization*) 1948-yilda tashkil etilgan. JSSTning asosiy vazifasi dunyo aholisi sog'lig'ini saqlash muammolarini hal etishdan iborat. Tashkilotning bosh qarorgohi Jenevada (Shveysariya) joylashgan.

Butunjahon intellektual mulk tashkiloti (*World Intellectual Property Organization*) intellektual mulk sohasidagi bir qator muhim xalqaro konventsiyalarni boshqaruvchi xalqaro tashkilotdir. Darhaqiqat, tashkilot 1893- yilda diplomatik konferentsiyada sanoat mulki va adabiy va badiiy asarlarni himoya qilish bo'yicha ma'muriy funksiyalarni bajaruvchi ikkita byuro BIRPI (Intellektual mulkni himoya qilish bo'yicha xalqaro qo'shma byuro) nomi ostida bitta tashkilotga birlashgan vaqtda tashkil topgan.

BIMT o'z faoliyatida asosan 1886-yil 9-sentyabrdagi adabiy va badiiy asarlarni himoya qilish to'g'risidagi Bern konventsiyasi (1896-yil 4-mayda Parijda qo'shimcha kiritilgan, 1908-yil 13-noyabrda Berlinda qayta ko'rib chiqilgan, 1914- yil 20-martda Bernda qo'shimcha kiritilgan, 1928-yil 2-iyunda Rimda, 1948-yil 26-iyunda Bryusselda, 1967-yil 14-iyulda Stokgolmda va 1971-yil 24-iyulda Parijda qayta ko'rib chiqilgan hamda 1979-yil 28-sentyabrda o'zgartirilgan), shuningdek 1883-yil 20-martdagi sanoat mulkini himoya qilish bo'yicha Parij konventsiyasi (1900-yil 14-dekabrda Bryusselda, 1911-yil 2-iyunda Vashingtonda, 1925-yil 6-noyabrda Gaagada, 1934-yil 2-iyunda Londonda, 1958-yil 31-oktyabrda Lissabonda va 1967-yil 14-oktyabrda Stokgolmda qayta ko'rib chiqilgan va 1979- yil 2-oktyabrda o'zgartirilgan). konventsiyasiga amal qiladi. BIMTning bosh qarorgohi Jenevada (Shveysariya) joylashgan.

Xalqaro pochta ittifoqi (UPU-*Universal Postal Union*) 1874-yilda tashkil etilgan. Xalqaro pochta ittifoqi pochta aloqalarini ta'minlash va takomillashtirish maqsadida *yagona pochta hududida* tashkil etilgan hukumatlararo tashkilotdir. XPIning bosh qarorgohi Bernda (Shveysariya) joylashgan.

Jahon sayyohlik tashkiloti (Jahon turistik tashkiloti - International Tourist Organization) Xalqaro rasmiy sayyohlik tashkilotlari ittifoqining (IUOTO) qayta tashkil etilishi natijasida tashkil topgan nodavlat tashkilotdir. Tashkilotning Ustaviga muvofiq, JSTning asosiy maqsadi iqtisodiy taraqqiyot, xalqaro munosabatlar, barqarorlik, farovonlik, o'zaro hurmat, inson huquqlari va erkinliklariga hissa qo'shish maqsadida Yer yuzadagi insonlar o'rtasida irqi, jinsi, tili va dinidan qat'iy nazar turizmni rivojlantirishdan iborat. Shu bilan birga, rivojlanayotgan mamlakatlarning turizm sohasidagi manfaatlariga alohida e'tibor qaratish ko'zda tutilgan. JST turizm sohasida kasbiy tayyorgarlik sohasida texnik hamkorlik masalalarini, xususan, huquqiy (jumladan, Turizm xartiyasi va Turistik kodeks ishlab chiqilgan va qabul qilingan; tashkilot bilan bog'liq JSTga a'zo davlatlar bilan muzokaralar o'tkazish uchun tavsiya etilgan ko'rsatmalar ro'yxati) va boshqa masalalarni ko'rib chiqadi. JSTning bosh qarorgohi Madridda (Ispaniya) joylashgan.

Xalqaro taraqqiyot assotsiatsiyasi (IDA - International Development Association) - Jahon banki guruhining tarkibiga kiruvchi kredit tashkiloti 1960-yilda tashkil etilgan. Tashkilotning maqsadi - a'zo mamlakatlarning ixtiyoriy xayriyalari orqali qashshoq mamlakatlarga yordam berishdan iborat. Aholi jon boshiga YaIM 1,165 AQSh dollaridan kam bo'lgan davlatlar Xalqaro taraqqiyot assotsiatsiyasidan kredit olish huquqiga egadirlar. XTA bosh qarorgohi Vashingtonda (AQSh) joylashgan.

Xalqaro dengiz tashkiloti (IMO - International Maritime Organization) xalqaro kemasozlikka asoslangan savdo bilan bog'liq texnik masalalar bo'yicha hamkorlik va ma'lumot almashish maqsadida tashkil etilgan xalqaro hukumatlararo tashkilotdir. U 1948-yilda Jenevada hukumatlararo dengiz konsultatsiyasi tashkiloti (IMCO-Inter-Governmental Maritime Consultative Organization) to'g'risidagi konventsiyaga binoan tashkil etilgan. Tashkilotning bosh qarorgohi Londonda (Angliya) joylashgan.

Xalqaro fuqaro aviatsiyasi tashkiloti (ICAO - International Civil Aviation Organization) - BMTning ixtisoslashgan agentligi bo'lib, u fuqaro aviatsiyasining xalqaro standartlarini belgilaydi hamda xavfsizlik va samaradorlikni oshirish maqsadida uning faoliyatini muvofiqlashtiradi. ICAO 1944-yilda Chikago konventsiyasi asosida tashkil etilgan. Uning bosh qarorgohi Monrealda (Kanada) joylashgan.

Xalqaro moliya korporatsiyasi (IFC - *International Finance Corporation*) Jahon bankining tarkibiga kiradigan xalqaro moliya institutidir. 1956-yilda rivojlanayotgan mamlakatlarda xususiy investitsiyalarning barqaror oqimini ta'minlash maqsadida tashkil etilgan. Xalqaro moliya korporatsiyasi rivojlanayotgan mamlakatlarda xususiy sektor o'sishini qo'llab-quvvatlash uchun kreditlar, aksiyadorlarga investitsiyalar, tarkibiy moliya va tavakkalchiliklarni boshqarish bo'yicha mahsulotlar va maslahat xizmatlarini taqdim etadi. IBRDdan farqli o'laroq, IFC taqdim etilgan mablag'lar uchun davlat kafolatlarini talab qilmaydi. IFC bosh qarorgohi Vashingtonda (AQSh) joylashgan.

Atom energiyasi bo'yicha xalqaro agentlik (MAGATE - *International Atomic Energy Agency*) - atom energiyasidan tinch maqsadlarda foydalanish sohasidagi hamkorlikni rivojlantirish bo'yicha xalqaro tashkilot. 1957-yilda tashkil etilgan. Agentlikning vazifalari quyidagilardan iborat: atom energiyasidan tinch maqsadlarda foydalanish bo'yicha tadqiqot va ishlanmalarni rag'batlantirish; ilmiy yutuqlar va usullar almashinuvini rag'batlantirish; fuqaro yadro dasturlari va ishlanmalarining harbiy maqsadlarda ishlatilmasligi kafolatlari tizimini shakllantirish va qo'llash; sog'liqni saqlash va xavfsizlik standartlarini ishlab chiqish, o'rnatish va moslashtirish. MAGATE faoliyatining muhim yo'nalishi yadro qurolini tarqatmaslikdir. Tashkilotning bosh qarorgohi Vena shahrida (Avstriya) joylashgan.

Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki (*International Bank for Reconstruction and Development*). Jahon bankining asosiy qarz beruvchi muassasasi bo'lib, 1944-yilda Bretton-Vudsdagi o'tkazilgan Xalqaro valyuta va moliyaviy konferentsiyaning qaroriga muvofiq XVF bilan bir vaqtda tashkil etilgan davlatlararo investitsiya institutidir. Bir vaqtning o'zida tashkilot Ustavi bo'lgan XTTB shartnomasi 1945-yilda rasman kuchga kirgan bo'lsada, 1946-yildan o'z faoliyatini boshlagan. XTTB qarorgohi Vashingtonda (AQSh) joylashgan.

Xalqaro valyuta jamg'armasi (IMF - *International Monetary Fund*) 1944-yilda BMTning Bretton-Vudsdagi pul-moliya masalalari bo'yicha konferentsiyada kelishuv asosida (XVJ nizomi) tuzilgan. XVJ Bretton-Vuds tizimining bir qismi sifatida 1947-yil 1-martdan o'z faoliyatini boshlagan. XVJning bosh qarorgohi Vashingtonda (AQSh) joylashgan.

Xalqaro mehnat tashkiloti (ILO - *International Labor Organization*) mehnat munosabatlarini tartibga solish bilan shug'ullanadi. Tashkilot Millatlar Ligasining tarkibiy qismi sifatida Versal tinchlik shartnomasi asosida 1919-yilda tashkil etilgan. XMT Ustavi Tinchlik konferentsiyasi mehnat komissiyasi tomonidan ishlab chiqilgan va XIII Versal shartnomasiga kiritilgan. XMT faoliyati ishchilar, ish beruvchilar va hukumatlarning uch tomonlama vakilligi - *tripartizmga* asoslangan. Bosh qarorgohi 1920-yildan buyon Jenevada (Shveysariya) joylashgan.

Xalqaro elektraloqa ittifoqi (ITU - *International Telecommunication Union*) - telekommunikatsiya va radio sohasidagi tavsiyalarni belgilaydigan, shuningdek radiochastotalarning xalqaro miqyosda foydalanilishini (radio chastotalarini maqsadli va mamlakatlar bo'yicha taqsimlash) tartibga soluvchi xalqaro tashkilot. 1865-yilda Xalqaro Telegraf Ittifoqi sifatida tashkil etilgan. 1947-yildan Birlashgan Millatlar Tashkilotining ixtisoslashgan muassasasi hisoblanadi. XEIning bosh qarorgohi Jenevada (Shveysariya) joylashgan.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha tashkiloti (YuNESKO - *United Nations Educational, Scientific and Cultural Organization*) 1945-yil 16-noyabrda tashkil etilgan. YuNESKOning Nizomiga binoan ushbu tashkilotning asosiy vazifalari davlatlar va xalqlar o'rtasida ta'lim, fan va madaniyat sohasidagi hamkorlikni kengaytirish orqali tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash, irqi, jinsi, tili va dinidan qat'iy nazar, BMT nizomida barcha xalqlar uchun e'lon qilingan, adolat va qonun ustuvorligi, inson huquqlari va asosiy erkinliklariga erishishdan iborat. Tashkilot qamrab oladigan masalalar orasida: ta'lim sohasidagi kamsitish muammolari va savodsizlik; milliy qadriyatlarni o'rganish va milliy kadrlarni tayyorlash; ijtimoiy fanlar, geologiya, okeanografiya va biosfera muammolarini tadqiq etish kabilar muhim o'rin egallaydi. YuNESKOning bosh qarorgohi Parijda (Fransiya) joylashgan.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Sanoatni Rivojlantirish Tashkiloti (YuNIDO - *United Nations Industrial Development Organization*) rivojlanayotgan davlatlar va o'tish davri iqtisodiyotiga ega mamlakatlarga zamonaviy globallashuv sharoitida marginallashishga qarshi kurashishda yordam beradi, bilim, tajriba,

axborot va texnologiyalarni jalb qiladi va shu orqali samarali bandlikka ko'maklashadi. raqobatdosh iqtisodiyotni rivojlantirish va ekologik barqarorlikni ta'minlash kabi maqsadlarni ko'zlaydi. UNIDO bosh qarorgohi Vena shahrida (Avstriya) joylashgan.

Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO - Food and Agriculture Organization) 1945-yilda Kvebekdagi konferentsiyada tashkil etilgan. FAO qishloq joylarini va qishloq xo'jaligini mahsulotlari ishlab chiqarilishini rivojlantirish bo'yicha yetakchi agentlik vazifasini bajaradi. Tashkilot shiori – "Ocharchiliksiz dunyoni qurishga yordam beramiz". Tashkilotning bosh qarorgohi Rimda (Italiya) joylashgan.

Nazorat savollari:

1. Birlashgan Millatlar Tashkiloti tashkil etilishining asosiy sabablari nimalardan iborat?
2. Birlashgan Millatlar Tashkiloti va undan oldingi Millatlar Ligasi o'rtasidagi farqli jihatlar nimalardan iborat?
3. Birlashgan Millatlar Tashkilotining tuzilishi va prinsiplari qanday?
4. BMT Xavfsizlik Kengashini tuzishdan ko'zlangan maqsad?
5. Veto huquqining mohiyati nimadan iborat?
6. Amaldagi BMT Bosh kotibi?
7. Birlashgan Millatlar Tashkilotining ixtisoslashgan muassasalari faoliyatining yo'nalishlarini sanab bering. Misollar keltiring.

VI BOB. MINTAQAVIY XALQARO TASHKILOTLAR TIZIMI

1-§. Mintaqaviy xalqaro tashkilotlar tizimi tushunchasi va asosiy belgilari

So'nggi o'n yilliklarda mintaqaviy tashkilotlar soni keskin o'sib borishi bilan ularning faoliyati natijalarining turli-tumanligi kuzatilmoqda. Ayni paytda asosiy e'tibor hukumatlararo tashkilotlarga qaratilgan. Bunda barchaning diqqat markazi iqtisodiy yo'nalishga ega bo'lgan mintaqaviy tashkilotlarga qaratilgan. Bu iqtisodiy integratsiya mintaqaviy tashkilotlar uchun yagona muhim yo'nalish bo'lishi kerak degani emas (masalan, ko'plab mintaqaviy tashkilotlar iqtisodiy sohaga yo'naltirilmagan), shunday bo'lsada iqtisodiy masalalar mintaqaviy tashkilotlar faoliyatining rasmiy dasturida muhim rol o'ynashi kerak.

Mintaqaviy tashkilotlar haqida so'z borar ekan, biz avvalo mintaqaviy tashkilotlar va mintaqaviy iqtisodiy bitimlarning kengroq toifasini farqlab olishimiz kerak bo'ladi. Zero, mintaqaviy iqtisodiy bitimlarga rasmiy tuzilmalarga ega bo'lmagan (kotibiyatlar va boshqalar) davlatlar tomonidan imzolangan shartnomalar kiradi. "Mintaqaviy tashabbuslar" (xo'jalik birlashmalari) atamasi amalda tuzilgan va qisman bajarilgan shartnomalar va tashkilotlarni, shuningdek taklif qilingan va hatto imzolangan, ammo amalga oshirilmagan kelishuvlarni o'z ichiga oladi. Yuqorida ta'kidlanganidek, iqtisodiy mintaqaviy tashkilotlar, Ikkinchi Jahon urushidan keyin mintaqaviy tashkilotlarning eng keng tarqalgan guruhlaridan birini namoyish etdi va regionalizmning qiyosiy tadqiqotlarida alohida o'rin egalladi⁵³.

Mintaqaviy tashkilotlarning tipologiyasi iqtisodiy mintaqaviy tashkilotlarning muvaffaqiyatini baholash uchun odatda 13 mezonan foydalaniladi. Bir tomondan, ko'plab tadqiqotlar tashkilotning "institutsionallashuv"⁵⁴, "vakolatni berish"⁵⁵ yoki "mustaqillik"⁵⁶

⁵³ Börzel T. Regionalism: The EU as a Model of Regional Integration. – Oxford: Oxford University Press, 2016. – P. 41.

⁵⁴ Hafel Y.Z. Commerce and Institutions: Trade, Scope and the Design of Regional Economic Organizations. // Review of International Organizations. 2018. – № 8. – PP. 389-414.

⁵⁵ Hooghe L. Delegating and Pooling in International Organizations // Review of International Organizations. // 2015. – № 3. – PP. 305–328.

⁵⁶ Hafel Y.Z. The Independence of International Organizations: Concept and Applications // Journal of Conflict Resolution. 2006. – № 2. – PP. 253–275.

konsepsiyalaridan foydalangan holda, qaror qabul qilish jarayonini o'rganishga yo'naltirilgan. Mintaqaviy tashkilotlarning sof byurokratik apparat sifatida milliy hokimiyat idoralaridan mustaqil ravishda ishlashi va uning qarorlari barcha a'zolar uchun majburiy ahamiyat kasb etishi lozim. Agar ushbu mustaqillik darajasiga erishilmagan bo'lsa ham, qoida tariqasida, mintaqaviy tashkilotlarda qaror qabul qilishning o'ziga xos tartibi mavjud bo'lib, unga a'zo davlatlar o'zaro munosabatlarda amal qilishlari kerak.

Boshqa tomondan, mintaqaviy tashkilotlarning muvaffaqiyati ularning siyosati natijalariga qarab baholanishi mumkin. Iqtisodiyotda mintaqaviy tashkilotlarning asosiy "muvaffaqiyat ko'rsatkichi" an'anaviy ravishda savdo munosabatlarini rivojlantirish darajasi bilan bog'liq (savdoni "tashkil etish" yoki "bekor qilish" tushunchalari asosida baholanadi)⁵⁷. Boshqa ehtimoliy mezonlar sirasiga: makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning konvergentsiyasi, narxlarning konvergentsiyasi yoki umumiy infratuzilma loyihalarini amalga oshirish kabilar kiradi. Mintaqaviy tashkilotlarning faoliyati natijasida iqtisodiy integratsiya tushunchasi har ikkala maqsadni tavsiflash maqsadida ishlatiladi: iqtisodiy o'zaro bog'liqlikni (bozor integratsiyasi) ta'minlash hamda mintaqaviy tashkilotlar va ularning tuzilmalarining qaror qabul qilish jarayoniga bo'lgan ta'sirini oshirishdan iborat⁵⁸.

Xalqaro munosabatlarning integratsion jarayonlari ikki muhim darajada amalga oshiriladi: - *mikro* - transmilliy korporatsiyalarni yaratish orqali; - *makro* davlatlararo iqtisodiy siyosatni muvofiqlashtirish orqali. Bugungi kunga kelib, 30 dan ortiq xalqaro iqtisodiy uyushmalar mavjud bo'lib, jahon YaIMning 2/3 qismi hamda savdo va investitsiyalarning asosiy qismi ularning hissasiga to'g'ri keladi.

Odatda uchta asosiy integratsiya markazlari mavjud: G'arbiy Yevropa, Shimoliy Amerika hamda Osiyo va Tinch okeani mintaqasi (OTOM).

⁵⁷ Venables A.J. Regional Integration Agreements: Winners and Losers from Regional Integration Agreements. // Economic Journal. 2008. - № 1. - PP. 747-761.

⁵⁸ Adabiyotda ba'zan "integratsiya" va "hamkorlik" atamallari o'zaro ajratiladi. Hamkorlik hukumatlar o'rtasidagi nisbatan "kichik" doiradagi hamkorlikni anglatadi, masalan, qo'shma loyihalarning amalga oshirilishi. Integratsiya esa, bozorlar o'rtasidagi to'siqlarni olib tashlashga qaratilgan umumiy normativ bazani yaratishni o'z ichiga oladi.

Yevropa markazi uchun integratsiyalashuv jarayonlarining jadal rivoji xos bo'lib, bu Yevropa Ittifoqining (YeI) doimiy ravishda kengayishida namoyon bo'ladi. Integratsiyalashuv darajasiga ko'ra, ikkinchi o'rinni Shimoliy Amerika mintaqasi egallaydi. Bunda Shimoliy Amerika erkin savdo uyushmasi (NAFTA) alohida o'rin egallaydi.

Yuqoridagi markazlarning uchinchisi, ya'ni Osiyo va Tinch okeani mintaqasidagi integratsion jarayonlar o'ziga xos kechmoqda. Mazkur mintaqada 90-yillarning oxiridan boshlab APEC formatidagi Osiyo va Tinch okeani mintaqaviylashuvining ochiq shakli hamda ASEAN Plus uch formatidagi Sharqiy Osiyo regionalizmining raqobatlashuvi kuzitilmoqda. Har uchala markaz xususida quyida batafsil to'xtalamiz. Integratsion birlashma tarkibiga kiradigan davlatning iqtisodiyotiga o'zaro ta'sir ko'rsatuvchi hamkor davlatlarga xos bo'lgan umumiy jarayonlar ta'sir ko'rsatadi.

Milliy iqtisodiyot uchun integratsiyaning asosiy afzalliklari quyidagilardan iborat:

- bozor miqyosining kengayishi;
- ishtirokchi davlatlarning ishlab chiqarish va ishlab chiqarishga ixtisoslashmagan infratuzilmasini rivojlantirish;
- integratsion blok a'zosining obro'si va nufuzini oshirish;
- axborot texnologiyalari almashinuvi sur'atlarining faollashuvi;
- davlatlar o'rtasidagi migratsiya aylanmasining o'sishi.

Integratsiyaning eng muhim salbiy oqibatlari quyidagilardan iborat:

- iqtisodiyoti zaif mamlakatlardan resurslarning oqib chiqishi;
- "sog'lom" bozor raqobatini cheklaydigan TMK va milliy monopoliyalar rolining o'sib borishi;
- Yevropa Ittifoqi tajribasida tasdiqlangani kabi, integratsion blokining byurokratik institutlari faoliyati bilan bog'liq katta xarajatlarning shakllanishi.

2-§. Yevropa mintaqaviy tashkilotlari - Yevropa Ittifoqi

Yevropa integratsiyasi tarixi va institutlari. Yevropaning uzoq yillik tarixi davomida ilgari surilgan pan-yevropizm g'oyalari Ikkinchi Jahon urushidan keying yillarda yanada jadallashdi. Urushdan keyingi yillarda qit'ada bir qator tashkilotlar paydo bo'ldi: Yevropa Kengashi, NATO, G'arbiy Yevropa Ittifoqi va boshqalar.

Zamonaviy Yevropa Ittifoqini tashkil etish yo'lidagi birinchi qadam 1951- yilda amalga oshirildi: Germaniya, Belgiya, Niderlandiya, Lyuksemburg, Fransiya, Italiya Yevropa ko'mir va po'lat hamjamiyatini (ECSC - *European Coal and Steel Community*) tashkil etish bo'yicha Parij shartnomasini imzoladilar, mazkur shartnoma 1952-yil iyul oyida kuchga kirgan. Uning maqsadi po'lat va ko'mir ishlab chiqarish bo'yicha Yevropa resurslari ittifoqini tashkil etishdan iborat edi.

Iqtisodiy integratsiyani chuqurlashtirish maqsadida 1957-yilda ayni shu olti davlat Rim shartnomasini imzolab, Yevropa iqtisodiy hamjamiyati (EEC, Umumiy bozor) (EEC - *European Economic Community*) hamda Yevropaning atom energiyalari hamjamiyatiga (Euratom, Euratom - *European Atomic Energy Community*) asos soldilar. Yevropa hamjamiyatining vakolatlari nuqtai nazaridan ular orasida EEC eng muhim va nisbatan keng vakolatli bo'gani bo'is, 1993-yilda rasmiy ravishda unga Yevropa hamjamiyati (EC - *European Community*) nomi berildi. Mazkur Yevropa hamjamiyatlarining bugungi Yevropa Ittifoqiga aylanish va rivojlanish jarayoni, birinchidan, boshqaruvning ko'plab funksiyalarini milliy darajaga o'tkazilishi, ikkinchidan esa, integratsion jarayonlar ishtirokchilari sonining ortishi hisobiga sodir bo'ldi.

Yevropa Ittifoqi (Yel) - bu 27 nafar Yevropa davlatlarining iqtisodiy va siyosiy birlashmasidir Yevropa Ittifoqi 1992-yil Yevropa iqtisodiy hamjamiyati asosidagi Maastrixt shartnomasi (1993-yil 1-noyabrda kuchga kirgan) natijasida tuzilgan bo'lib, bunda mintaqaviy integratsiyani rivojlantirish maqsadi ko'zlangan. Yevropa Ittifoqi - xalqaro tashkilot (davlatlararo) va davlatning (milliy) xususiyatlarini o'zida mujassamlashtirgan bo'lsada, amalda ularning har ikkisiga ham tegishli emas⁵⁹.

Ittifoqning barcha mamlakatlarida amalda bo'lgan standartlashtirilgan qonunlar tizimi asosida fuqarolar, tovarlar, kapital va xizmatlarning erkin harakatlanishin, shu jumladan tarkibiga a'zo davlatlar va boshqa Yevropa davlatlari kirgan Shengen hududida pasport nazorati bekor qilinishini kafolatlaydigan umumiy bozor yaratildi.

⁵⁹ Anneli A. Implications of the European constitution // EU enlargement and the constitutions of Central and Eastern Europe. - Cambridge, UK: Cambridge University Press, 2008. - P. 204. - ISBN 9067042854.

Ommaviy xalqaro huquqning subyekti sifatida Yevropa Ittifoqi xalqaro munosabatlarda ishtirok etish va xalqaro shartnomalar tuzish huquqiga ega⁶⁰. Umumiy tashqi va xavfsizlik siyosati shakllantirilgan bo'lib, unga ko'ra, muvofiqlashtirilgan tashqi va mudofaa siyosatini yuritish ko'zda tutilgan. Hozirda dunyo bo'ylab Yevropa Ittifoqining doimiy diplomatik vakolatxonalarini tashkil etilgan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti, JST, G7 va G20 da vakolatxonalar faoliyat yuritmoqdalar. Yel delegatsiyalariga Yel elchilari rahbarlik qilmoqdalar.

Yevropa Ittifoqi institutlari tarkibiga Yevropa Kengashi, Yevropa Komissiyasi (hukumat), Yevropa Ittifoqi Kengashi (rasmiy ravishda Kengash, shuningdek Vazirlar Kengashi deb yuritiladi), Yevropa Ittifoqi sudi, Yevropa hisob palatasi, Yevropa markaziy banki va Yevropa parlamenti kiradi. Yevropa Parlamenti a'zolari har besh yilda Yel fuqarolari tomonidan saylanadi

Ittifoq qonunchilik va ichki ishlar sohasidagi qonun hujjatlarini (ko'rsatmalar, qonunlar va nizomlar) qabul qiladi, shuningdek savdo, qishloq xo'jaligi, baliqchilik va mintaqaviy taraqqiyot masalalariga doir umumiy siyosat yuritadi. Yevropa Ittifoqi davlatlarida istiqomat qiluvchi 453 million aholiga ega bo'lgan Yevropa Ittifoqining 2018-yilgi global yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 23% (21,6 trln. AQSh dollari) ni, xarid qobiliyati pariteti esa 19% ni tashkil etdi (16, 1 trillion dollar) - nominal qiymati bo'yicha.

Yevropa Ittifoqining o'n to'qqiz davlati yagona valyuta - yevroni muomalaga kiritish yo'li bilan, Yevropa iqtisodiy ittifoqi - yevro hududga asos soldilar. 2012-yilda Yevropa Ittifoqi Tinchlik uchun Nobel mukofotiga, 2017-yilda esa, Asturias malikasi mukofotiga sazovor bo'lgan. 2020-yil 31-yanvardan 1- fevralga o'tar kechasi, 47 yillik a'zolidan so'ng, Buyuk Britaniya rasmiy ravishda Yelni tark etdi.

Ayni paytda, Yevropa Ittifoqi a'zolari soni 27 davlatdan iborat:

Tartib raqami	Davlat	Kirgan yili
1.	Avstriya	1995
2.	Belgiya	1957
3.	Bolgariya	2007
4.	Vengriya	2004

⁶⁰ Sari A. The Conclusion of International Agreements by the European Union in the Context of the ESDP // International and Comparative Law Quarterly. – Social Science Electronic Publishing, 2015. – Vol. 57. – P. 53-86.

5.	Gretsiya	1981
6.	Germaniya	1957
7.	Daniya	1973
8.	Italiya	1957
9.	Irlandiya	1973
10.	Ispaniya	1986
11.	Kipr	2004
12.	Lyuksemburg	1957
13.	Latviya	2004
14.	Litva	2004
15.	Malta	2004
16.	Gollandiya	1957
17.	Portugaliya	1986
18.	Polsha	2004
19.	Ruminiya	2007
20.	Sloveniya	2004
21.	Slovakiya	2004
22.	Fransiya	1957
23.	Finlyandiya	1995
24.	Xorvatiya	2013
25.	Chexiya Respublikasi	2004
26.	Shvetsiya	1995
27.	Estoniya	2004

Ittifoqqa a'zo davlatlar soni dastlabki oltita (Belgiya, G'arbiy Germaniya, Italiya, Lyuksemburg, Niderlandiya va Fransiya)dan bugungi kunga qadar 27 ga oshdi: shartnomalarga qo'shilish orqali davlatlar o'zlarining suverenitetlarini umumiy manfaatlariga xizmat qiluvchi ittifoq institutlaridagi vakilligi evaziga chekladilar⁶¹.

Yevropa Ittifoqiga kirish uchun nomzod mamlakat Yevropa Kengashining 1993-yil iyun oyida o'tkazilgan Kopengagendagi yig'ilishida qabul qilingan hamda 1995-yil dekabr oyida Yevropa Kengashining Madridda bo'lib o'tgan yig'ilishida qabul qilingan Kopengagen talablariga javob berishi kerak. Mezonlar davlatdan demokratik tamoyillar, shaxslarning huquq va erkinliklarini hurmat qilish tamoyillariga, shuningdek, qonun ustuvorligi prinsiplariga rioya

⁶¹ Кашкин С.Ю. Введение в право Европейского Союза: Учебник. – М.: Эксмо, 2016. – С. 22.

qilishni talab qiladi. Shuningdek, mamlakat raqobatbardosh bozor iqtisodiyotiga ega bo'lishi hamda Yevropa Ittifoqining umumiy qoidalari va standartlari, shu jumladan siyosiy, iqtisodiy va pul birlashmasining maqsadlariga sodiqligini tan olishi kerak.

Grenlandiya, Daniyaning avtonom hududi, 1985-yilda Yevropa hamjamiyatidan ajralib chiqdi. Lissabon shartnomasida davlatning ittifoqdan chiqishi shartlari va tartibi ko'rsatilgan. Ushbu amaliyot 2020-yilning 31-yanvar kuni ittifoqni tark etgan Buyuk Britaniyaga tomonidan qo'llanilgan.

Bugungi kunda 5 mamlakat nomzodlik maqomiga ega:

Tartib raqami	Davlat	Nomzodlik maqomiga ega bo'lgan yili
1.	Albaniya	2009
2.	Shimoliy Makedoniya	2005
3.	Serbiya	2012
4.	Turkiya	2000
5.	Chernogoriya	2010

Bosniya va Gertsegovina rasman kengayish dasturiga kiritilgan (2016-yil fevral oyida davlat Yelga kirish uchun ariza bergan). Kosovo ham ushbu dasturga kiritilgan, ammo Yevropa Komissiyasi uni mustaqil davlat sifatida e'tirof etmaydi, zero uning Serbiyadan mustaqilligi ittifoqqa a'zo bo'lgan barcha davlatlar tomonidan tan olinmagan.

Yevropa Ittifoqi tarixiy xronologiyasi

1951-yilda Yevropa ko'mir va po'lat hamjamiyatini ta'xis etish bo'yicha Parij shartnomasi imzolangan.

1957-yilda Yevropa iqtisodiy hamjamiyati va Yevratomni tashkil etish to'g'risidagi Rim shartnomasi imzolangan.

1965-Yevropa birlashish to'g'risidagi bitim imzolangan. Natijada ECSC, EEC va Euratom kabi uch tomonlama Yevropa hamjamiyati uchun yagona Kengash va yagona Komissiya tashkil etilgan. U 1967-yil 1-iyulda kuchga kirgan.

1973-yilda Yevropa iqtisodiy hamjamiyatining ilk bor kengayishi (Daniya, Irlandiya, Buyuk Britaniya qo'shilgan edi).

1978-yilda Yevropa valyuta tizimi joriy qilingan.

1979-yilda Yevropa Parlamentiga ilk bor UmumYevropa saylovlari o'tkazilgan.

1981-yilda Yevropa iqtisodiy hamjamiyatining ikkinchi marotaba kengayishi (Gretsiya hisobiga).

1985-yilda Shengen shartnomasi imzolangan.

1986-yilda Yevropa iqtisodiy hamjamiyatining uchinchi marotaba kengayishi (Ispaniya va Portugaliya hisobiga).

1986-yilda Yagona Yevropa qonuni - Yevropa Ittifoqining ta'sis shartnomalariga birinchi muhim o'zgarish kiritilgan.

1992-yilda Yevropa iqtisodiy hamjamiyati negizida Yevropa Ittifoqini ta'sis etish bo'yicha Maastrixt shartnomasi imzolangan.

1995-yilda to'rtinchi marotaba kengayish (Avstriya, Finlyandiya va Shvetsiya hisobiga).

1999-yilda yagona Yevropa pul birligi - yevro muomalaga kiritilgan (2002-yildan buyon naqd aylanmada).

2004-yilda beshinchi marotaba kengayish (Chexiya, Vengriya, Polsha, Slovakiya, Sloveniya, Estoniya, Latviya, Litva, Kipr, Malta hisobiga).

2007-yilda Lissabon islohoti to'g'risidagi shartnoma imzolangan.

2007-yilda beshinchi kengayishning ikkinchi to'liqini (Bolgariya va Ruminiya hisobiga). Yevropa iqtisodiy hamjamiyati tashkil etilganligining 50 yilligi nishonlangan.

2013-yilda oltinchi marotaba kengayish (Xorvatiya hisobiga).

2020 - Buyuk Britaniyaning ittifoqdan chiqishi.

Hozirgi vaqtda Yevropa Ittifoqi hududida turli darajadagi integratsiyani nazarda tutuvchi uchta kelishuv amal qilmoqda: Yevropa Ittifoqiga a'zo bo'lish, Yevro hududiga a'zolik va Shengen kelishuvida qatnashish. Yevropa Ittifoqiga a'zo bo'lish Shengen kelishuvida qatnashish majburiyatini yuklamaydi. Yelga a'zo barcha davlatlar ham yevro hududiga a'zo emas. Turli darajadagi integratsiyaga misollar:

- Buyuk Britaniya va Irlandiya cheklangan a'zolik asosidagi Shengen bitimini imzoladilar. Buyuk Britaniya ham yevro hududiga qo'shilishni zarur deb hisoblamadi.

- Daniya va Shvetsiya ham referendum davomida milliy valyutalarini saqlashga qaror qildilar.

- Norvegiya, Islandiya, Shveysariya va Lixtenshteyn Yevropa Ittifoqiga a'zo emas, lekin Shengen hududiga tegishli.

2012-yil 19-sentyabr kuni Yevropa Ittifoqining o'sha paytdagi 27 a'zo davlatining 11 nafari tashqi ishlar vazirliklari rahbarlari Yevropa Ittifoqining kelajagi yuzasidan o'tkazilgan yig'ilishidan so'ng, qabul qilingan islohot loyahasini taklif qildilar. Avstriya, Belgiya, Germaniya, Daniya, Ispaniya, Italiya, Lyuksemburg, Niderlandiya, Polsha, Portugaliya va Fransiya tashqi ishlar vazirlaridan iborat tarkibdagi Yevropa Ittifoqining kelajagi yuzasidan ish yuritgan guruh, umumiy saylov huquqi asosida saylanadigan Yevropa Ittifoqi prezidenti lavozimini ta'sis etish, Ittifoqning tashqi ishlar vazirligini tashkil etish, Yevropaga yagona kirish vizasini joriy etish va, ehtimol, birlashgan armiya tuzish taklifini ilgari surdi. Ushbu guruhda Yevropa Ittifoqining eng yirik va eng nufuzli davlatlari hisoblangan Germaniya va Fransiya asosiy rol o'naganlar. 2013-yil ma'lumotlariga ko'ra, Yevropa Ittifoqi fuqarolarining 44 foizi kelajakda Yevropa davlatlari federatsiyasini tashkil etish g'oyasini qo'llab-quvvatlaganlar, 35 foizi esa qarshilik qilgan.

Quyida YeIning asosiy organlari yoki muassasalari tavsifi keltirilgan. Davlatlar uchun odatiy bo'lgan qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud organlariga bo'linish YeI uchun xos emas. Agar Yevropa Ittifoqi sudini ishonchli tarzda sud organi sifatida ko'rib chiqilishi mumkin bo'lsa, u holda qonunchilik funksiyalari bir vaqtning o'zida YeI Kengashi, Yevropa Komissiyasi va Yevropa Parlamentiga, ijro etuvchi funksiyalar esa Komissiya va Kengashga tegishli.

Yevropa Kengashi YeIning oliy siyosiy organi bo'lib, u a'zo davlatlarlarning davlat va hukumat rahbarlari, ularning o'rinbosarlari hamda tashqi ishlar vazirlarlaridan iborat. Yevropa Kengashi a'zolari Yevropa Kengashi raisi va Yevropa Komissiyasi raisidan iborat. Yevropa Kengashini tashkil etish Fransiya Prezidenti Sharl de Gollning Yevropa Ittifoqi davlatlari rahbarlarining norasmiy sammitlarini o'tkazish g'oyasiga asoslandi, bu integratsion birlashma doirasida milliy davlatlar rolining pasayishini oldini olishga qaratilgan edi. Norasmiy sammitlar 1961-yildan buyon o'tkazib kelinadi, 1974-yilda Parij sammitida ushbu amaliyot o'sha paytda Fransiya prezidenti bo'lgan Valeri Jiskar d'Estenning taklifiga binoan rasmiylashtirildi.

Kengash YIni rivojlantirishning asosiy strategik yo'nalishlarini belgilaydi. Siyosiy integratsiyaning umumiy yo'nalishlarini rivojlantirish - Yevropa Kengashining asosiy vazifasidir. Vazirlar

Kengashi bilan bir qatorda, Yevropa Kengashi Yevropa integratsiyasining asosiy shartnomalariga o'zgartirishlar kiritishga doir siyosiy vakolatga ega. U yiliga kamida ikki marta, Bryusselda yoki hozirda Yevropa Ittifoqi Kengashiga raislik qilayotgan a'zo davlat vakilining raisligida o'tkaziladi. Uchrashuvlar ikki kun davom etadi. Kengash qarorlari ularni qo'llab-quvvatlovchi davlatlar uchun majburiydir.

Yevropa Kengashi doirasida "tantanali" rahbarlik amalga oshiriladi, bunda yuqori darajadagi siyosatchilarning ishtiroki qabul qilingan qarorning ahamiyatini va qonuniyligini ta'minlab beradi. 2009-yil dekabr oyida Lissabon shartnomasi kuchga kirganidan buyon Yevropa Kengashi rasman YI institutlari tarkibiga kirdi. Shartnoma mazmunidan kelib chiqib, yangi Yevropa Ittifoqi raisi lavozimi ta'sis etilib, endilikda u Yevropa Ittifoqiga a'zo davlatlarning davlat va hukumat rahbarlari ishtirokidagi barcha uchrashuvlarda qatnashadigan bo'ldi.

Yevropa Komissiyasi. Yevropa Komissiyasi Yevropa Ittifoqining oliy ijro etuvchi organidir. Har bir a'zo davlatdan bittadan, ya'ni 27 a'zodan iborat. O'z vakolatlarini amalga oshirishda ular mustaqil bo'lib, Yevropa Ittifoqi manfaatlariga muvofiq holda harakat qiladilar va boshqa har qanday faoliyat bilan shug'ullanish huquqiga ega emaslar. A'zo davlatlar Yevropa Komissiyasi a'zolariga ta'sir ko'rsatishga haqli emas.

Yevropa Komissiyasi quyidagi tartibda har 5 yilda bir marta tuziladi. Yevropa Kengashi Yevropa Komissiyasi raisi nomzodini taklif qiladi va u Yevropa Parlamenti tomonidan ma'qullanadi. Bundan tashqari, YI Kengashi, Komissiya raisligiga nomzod bilan birgalikda, a'zo davlatlarning xohish-istaklarini inobatga olgan holda, Yevropa Komissiyasining taklif etilgan tarkibini tuzadi. "Mahkama" tarkibi Yevropa Parlamenti tomonidan tasdiqlanishi va Yevropa Kengashi tomonidan yakuniy xulosa chiqarilishi lozim. Komissiyaning har bir a'zosi YI siyosatining ma'lum bir sohasi uchun javobgar sanalib, tegishli bo'limni (Bosh Direktor lavozimida) boshqaradi.

Komissiya Yevropa Ittifoqining asosiy shartnomalarning ijrosi bilan bog'liq faoliyatini amalga oshirishda markaziy o'rin egallaydi. U qonunchilik tashabbuslarini ilgari suradi va ma'qullanganidan so'ng ularning ijrosini nazorat qiladi. Yevropa Ittifoqi qonunchilikni buzgan taqdirda, Komissiya sanksiyalarga, shu jumladan Yevropa sudiga

inurojaat qilishga haqlidir. Komissiya turli xil siyosiy sohalarda, jumladan agrar, savdo, raqobat, transport, mintaqaviy va boshqa sohalarda muhim avtonom vakolatlarga ega. Komissiya ijroiya apparati ega bo'lib, Yevropa Ittifoqining byudjeti, turli fondlari va dasturlarini boshqaradi (TASIS kabi dasturlar). Komissiyaning asosiy ishchi tillari: ingliz, fransuz va nemis tillaridir. Yevropa Komissiyasining bosh qarorgohi Bryusselda joylashgan.

Kengash. Yevropa Ittifoqi Kengashi (rasmiy nomi – *Kengash*, odatda norasmiy tarzda *Vazirlar Kengashi* deb yuritiladi) Yevropa Parlamenti bilan bir qatorda Ittifoqning ikki qonunchilik organidan biri va uning yettita institutidan biri sanaladi. Kengash, muhokama qilina yotgan masalalar doirasiga qarab, a'zo davlatlar hukumatlarining 27 vaziridan iborat tarkibda shakllantiriladi. Shu bilan birga, turli xil tarkiblarga qaramay, Kengash yagona organ hisoblanadi. Kengash qonunchilik vakolatidan tashqari, umumiy tashqi siyosat va xavfsizlik siyosati sohasida ham bir qator vazifalarni bajaradi.

Yevropa Parlamenti. Buyuk Britaniya Ittifoqni tark etguniga qadar, Yevropa Parlamenti 751 (chiqib ketganidan so'ng 705) a'zodan iborat tarkibda besh yil muddatga YIga a'zo davlatlar fuqarolari tomonidan to'g'ridan-to'g'ri saylanadi. Yevropa Parlamenti raisi ikki yarim yilga saylanadi. Yevropa Parlamenti a'zolari millatiga ko'ra emas, balki siyosiy yo'nalishiga ko'ra birlashadilar.

Yevropa parlamentining asosiy roli qonunchilik faoliyati hisoblanadi. Bundan tashqari, YI Kengashining deyarli har qanday qarori parlament tomonidan ma'qullanishini yoki hech bo'lmaganda uning fikri yuzasidan so'rov talab qilinishi lozim. Parlament Komissiya ishini nazorat qilish va uni tarqatib yuborish huquqiga ega. Ittifoqqa yangi a'zolarni qabul qilish, shuningdek, uchinchi davlatlar bilan assotsiatsiya va savdo shartnomalari tuzishda ham parlamentning roziligi talab qilinadi. Yevropa parlamentiga so'nggi saylovlar 2019-yilda bo'lib o'tgan. Yevropa Parlamenti Strasburg va Bryusselda yalpi majlislar o'tkazadi.

Yevropa Ittifoqi sudi. Yevropa Ittifoqi sudi YIning oliy instansiya sudi hisoblanadi va u Lyuksemburgda yig'iladi.

Sud a'zo davlatlar, shuningdek, a'zo davlatlar va Yevropa Ittifoqining o'zi o'rtasidagi, Yevropa Ittifoqi institutlari o'rtasidagi; Yevropa Ittifoqi va jismoniy yoki yuridik shaxslar, shu jumladan uning organlari xodimlari o'rtasidagi kelishmovchiliklarni tartibga solidi.

Sud xalqaro shartnomalar bo'yicha xulosalar beradi, shuningdek, milliy sudlarning talabiga binoan ta'sis shartnomalari va Yevropa Ittifoqi qoidalarini sharhlash bo'yicha dastlabki (sudgacha) qarorlar qabul qiladi. Yevropa Ittifoqi sudining qarorlari YI hududida majburiydir. Umumiy qoida tariqasida, Sud mahkamasi vakolati YI vakolat doiralarga tegishlidir.

Maastrix shartnomasiga binoan, Sud uning qarorlariga rioya etmaydigan a'zo davlatlarga jarimalar to'lash majburiyatini yuklash huquqiga ega. Sud tarkibiga 27 sudya (har bir a'zo davlatdan bittadan) va sakkizta bosh advokat kiradi. Ular yanada uzaytirilishi mumkin bo'lgan olti yillik muddatga tayinlanadi. Sudyalarning yarmi har uch yilda yangilanadi.

Sud Yevropa Ittifoqi huquqining shakllanishi va rivojlanishida katta rol o'ynadi. Ittifoq huquqiy tartibining asosiy prinsiplarining katta qismi xalqaro shartnomalar emas, balki Sud qarorlariga ham asoslangan.

Yevropa Ittifoqi sudini inson huquqlari bo'yicha Yevropa sudidan ajrata bilish lozim.

Yevropa Ittifoqining asosiy *maqsadlari* quyidagilardan iborat: Yevropa xalqlarining yaqin ittifoqini shakllantirish va ichki chegaralarsiz umumiy makonni yaratish orqali muvozanatli, barqaror iqtisodiy taraqqiyotga erishish, ijtimoiy sohada o'zaro munosabatlarni kuchaytirish. Yevropa Ittifoqining eng muhim *prinsiplari* quyidagilardan iborat: - a'zo davlatlarning milliy xususiyatlari va inson huquqlarini hurmat qilish; - fuqarolarga eng yaqin darajalarda qarorlar qabul qilinadigan shartlarga bo'ysunish; - qabul qilingan normativ hujjatlarning qat'iy ierarxiyasini nazarda tutadigan qonun ustuvorligi; - yakuniy qaror qabul qilishdan oldin barcha manfaatdor tomonlar bilan maslahatlashishni anglatadigan muloqotni olib borish kabilar shular jumlasidandir.

3-§. NAFTA va uning tashkilot sifatida shakllanishiga xizmat qilgan omillar

Kanada, AQSh va Meksika o'rtasidagi Shimoliy Amerika erkin savdo shartnomasi (NAFTA - *North American Free Trade Agreement*). NAFTA shartnomasi 1992-yil 17-dekabrda imzolangan bo'lib, u 1994-yil 1-yanvarda kuchga kirgan. U Kanada-Amerika erkin savdo bitimining o'rnini egalladi.

NAFTAni tashkil etish yo'lidagi ilk qadam 1947-yilda qabul qilingan "Ebbott rejasi" bilan bog'liq bo'lib, u Kanada iqtisodiyotining yetakchi tarmoqlariga AQSh sarmoyasini jalb qilishni maqsad qilgan edi. 1959-yilda AQSh va Kanada qo'shma harbiy ishlab chiqarish sohasidagi shartnomani imzoladilar, bu esa Kanada harbiy texnikalarini ishlab chiqarishda Amerika standartlarini qo'llash imkonini berdi.

Keyingi qadam 1965-yilda tuzilgan avtomobilsozlik mahsulotlari savdosini liberallashtirish to'g'risidagi bitim bilan bog'liq bo'lib, u ko'plab boshqa tarmoqlarning integratsiyalashuviga xizmat qildi. AQSh, Kanada va Meksikani savdo va siyosiy birlashtirish g'oyasi XX asrning 70-yillarda amalga tatbiq etila boshladi. Dastlab, energetika sohasidagi ittifoqni tuzish haqida so'z brogan bo'lib, u 1980-yillarda Prezidentlar R.Reygan va J. Bush tomonidan qo'llab-quvvatlagan.

1988-yil sentyabr oyida, uch yillik qizg'in muzokaralardan so'ng, Erkin savdo to'g'risidagi Kanada-Amerika bitimi (CUSFTA) imzolandi. Unga ko'ra o'n yil ichida AQSh va Kanada erkin savdo zonasini tashkil qilishlari kerak edi. 80-yillarda Yevropa va Osiyoda ro'y berayotgan integratsion jarayonlar fonida NAFTAni tashkil qilishning ahamiyati yanada ortdi, zero Yevropaning birlashuviga javoban, Amerikani va uning bir qismi sifatida Shimoliy Amerikani birlashtirish zarurati yuzaga kelayotgan edi. Ammo, avval boshidanoq, Meksika, Kanada va AQSh NAFTAning roli va imkoniyatlarini turlicha baholayotgan edilar.

NAFTAning tashkil topishi va rivojlanishi.

Shimoliy Amerika erkin savdo uyushmasi (NAFTA) to'g'risidagi bitim 1994-yilning 1-yanvarida kuchga kirdi va 1988-yil Kanada-Amerika erkin savdo to'g'risidagi bitimni (CUSFTA) saqlab qoldi va tasdiqladi.

Agar Yelda integratsion jarayonlar yuqoridan pastga (hukumatlar va davlat organlaridan) tomon davom etgan bo'lsa, Shimoliy Amerikada bu jarayon pastdan yuqoriga, ya'ni mikro darajadagi (Amerika va Kanada korporatsiyalari o'rtasida) hamkorlik qilish istagidan makro darajadagi hamkorlikka qadar daovm etdi.

Yevropa integratsion jarayonlarining asosini tashkil etuvchi kelishuvlardan farqli o'laroq, NAFTA shartnomasi bandlik, ta'lim va madaniyat kabi ijtimoiy sohalar bilan bog'liq masalalarni qamrab olgan.

NAFTA doirasida erkin savdoga o'tish jarayoni hanuzgacha o'ta murakkab vaziyatlarda davom etmoqda. Savdo yig'imlarini bekor qilish uchun taxminan 14 yil kerak bo'ldi. 2008-yil 1-yanvardan e'tiboran Meksika va AQSh hamda Meksika va Kanada o'rtasidagi savdo bojlari nihoyat bekor qilindi⁶². Shunga qaramay, qishloq xo'jaligidagi sohasidagi yig'imlarning bir qismi (un, shakar, tuxum va sut mahsulotlari) hanuzgacha saqlanib qolmoqda. 2018-yilning 1-iyunidan AQSh po'lat va alyuminiyga nisbatan soliq to'lovlarini joriy qildi.

Tashkilot faoliyatidan ko'zlangan maqsad

NAFTAning asosiy maqsadi AQSh, Kanada va Meksika o'rtasidagi savdo va investitsiyaviy to'siqlarni olib tashlashda iborat.

Yevropa Ittifoqi federal siyosat kontseptsiyasiga asoslanib, bir tomondan Kengash, Komissiya, Parlament va Sud kabi organlar va boshqa tomondan a'zo davlatlar o'rtasida hokiyat yaqsimotini amalga oshirgan bir vaqtda, NAFTA mustaqil suveren davlatlar o'rtasidagi konfederativ aloqalar asosida integratsiyani ilgari surishga intilmoqda. Ushbu davlatlarning har birida savdo aylanmasi sohasidagi hamkorlik NAFTA tomonidan belgilangan doirada qarorlar qabul qilishning avtonom organlari tomonidan amalga oshiriladi.

NAFTAning maqsadlari quyidagilardan iborat:

– bojxona va pasport to'siqlarini bartaraf etish hamda shartnomada ishtirok etuvchi davlatlar o'rtasida tovarlar va xizmatlar harakatini muvofiqlashtirish;

– erkin savdo zonasida sog'lom raqobat uchun shart-sharoitlarni yaratish va uni qo'llab-quvvatlash;

– bitimga a'zo davlatlarga investitsiyalarni jalb qilish;

– intellektual mulk huquqlarining to'g'ri va samarali himoya qilinishini ta'minlash;

– bitimni amalga oshirish va undan foydalanish, nizolarni birgalikda hal etish va boshqaruvning samarali mexanizmlarini yaratish;

– kelishuvni kengaytirish va takomillashtirish maqsadida kelgusida uch tomonlama, mintaqaviy va xalqaro hamkorlik uchun zamin yaratish;

– yagona qit'a bozorini yaratish.

⁶² Коспоница Г. М. Североамериканская интеграция: 20 лет спустя // Вестник МГИМО Университета. – 2015. – № 2 (41). – С. 232-238.

NAFTA va intellektual mulk masalalari. Amerika Qo'shma Shtatlari mualliflik huquqi bilan himoyalangan asarlar uchun ma'naviy huquqlarni tan olmaydigan va sud tomonidan mavjud huquqlar himoyalanamaydigan yagona davlatdir. Meksika va Kanadaning huquqiy tizimlarida bunday yondashuv mavjud emas. Shu sababli, ko'psonli munozaralardan so'ng NAFTAning me'yoriy hujjatlari asosida AQShning NAFTAga qo'shilishi uning intellektual mulk to'g'risidagi qonunchiligiga ta'sir qilmasligi lozimligi aniq belgilab qo'yildi.

NAFTA tashkil etilishining oqibatlarini. NAFTA alternativ globalistik harakatning tanqidi ostiga olingan obyektlardan biridir. Meksikaning Chiapas shtatida Zapatista qo'zg'olonining boshlanishi Erkin savdo to'g'risidagi Shimoliy Atlantika bitimi kuchga kirgan paytga to'g'ri keldi.

NAFTA tashkil etilganidan keyin o'zaro savdo hajmining sezilarli darajada o'sganiga qaramay, NAFTAga a'zo davlatlarning tashqi savdo aylanmasidagi ulushi deyarli o'zgarmadi. NAFTA mamlakatlari o'rtasidagi o'zaro eksport hajmi 1994-2013-yillarda 297 milliard dollardan 1189 milliard dollarga oshdi. O'sha davrda o'zaro eksport ulushi 41,4% dan 49,2% gacha o'sdi. 1999-yil aprel oyida Shimoliy Amerikadagi Erkin Savdo hududlari shartnomasi Komissiyasi (NAFTA) tomonidan 5 yillik faoliyati davomida eksport hisobiga hamkor-mamlakatlarda AQSh 14,8 million, Meksika 2,2 million, Kanada esa 1,3 million yangi ish o'rinlarini qo'lga kiritgani to'g'risidagi ma'lumotlarni e'lon qildi.

NAFTAning 20 yillik faoliyati natijalariga ko'ra, barcha davlatlarda (birinchi navbatda Kanada va Meksikada) ish o'rinlari sonining sezilarli darajada o'sishi kuzatildi. 1993-2013-yillarda Meksikadagi ish o'rinlari soni 31,3 milliondan 51,5 milliongacha, Kanadada 12,8 milliondan 19,1 milliongacha, AQShda esa atigi 120,0 milliondan 155,4 milliongacha o'sgani kuzatildi.

AQShdagi turli xil ekologik harakatlar va kasaba uyushmalari guruhlari, Amerika Kongressining ko'plab a'zolari kabi, ish kuchi va ekologik me'yorlari past bo'lgan Meksikaga ishbilarmonlik faoliyati ko'chirilishidan qo'rqishda davom etmoqdalar; bundan tashqari, Meksikadan kelgan muhojirlar oqimi yiliga 300 ming kishiga yetadi. Savdo muammolari va global iqtisodiy o'zaro bog'liqlik bosimi yirik siyosiy munozaralarni keltirib chiqarmoqda: AQShda yangi ish joylari yaratiladimi yoki aksincha, ular sezilarli darajada qisqaradimi,

amerikalik ishchilarning ish haqi kamaydimi yoki federal byudjet taqchilligi oshadimi va hokazolar. Ammo shartnomani amalga oshirish jarayoni iqtisodiy tiklanish sharoitida ancha tinch o'tmoqda. Erkin savdo Kanada va Meksika iqtisodiyotining AQSh iqtisodiyoti bilan o'zaro o'sib borayotgan tengsizligi, shuningdek, ushbu mamlakatlarda ijtimoiy yordam dasturlarining qisqarishi, soliq yukining korporatsiyalardan fuqarolarga uzluksiz o'zgarishi, ishsizlikning yuqori darajasi va eng qashshoq viloyatlar va shtatlarning yanada qashshoqlashuviga sabab sifatida qaralmoqda. Biroq, 1999-yilda AQShda ishsizlik darajasi 1992-yildagi 7,5 foizga nisbatan 4 foizni tashkil etdi, 1994-yildan buyon besh yil ichida 15 million yangi ish o'rinlari yaratildi.

Amerika Qo'shma Shtatlari, Kanada va Meksika o'rtasidagi savdo aylanmasining kengayishi, xususan, NAFTA mamlakatlaridan AQSh importining o'sishi, AQShning savdo defitsiti o'sishiga olib keldi. 2005-yilda bu ko'rsatkich 720 milliard dollardan oshdi. Kanada va Meksika Qo'shma Shtatlari bilan eng katta savdo defitsitiga ega bo'lgan davlatlar orasida (Yaponiya, Xitoy va Germaniyadan keyin) to'rtinchi va beshinchi o'rinlarni egallaydi.

Tadqiqotchilar ta'kidlaganidek, NAFTA 20 yillik faoliyatining natijalariga ko'ra erkin savdo zonasi Meksikada, ikkinchi tomondan AQSh va Kanadada ish haqi tafovutining sezilarli darajada pasayishiga olib kelmadi.

2016-yil oxirida Amerika Qo'shma Shtatlarining 45-prezidenti etib saylangan Donald Trump, NAFTA ni dunyoda mavjud bo'lgan eng yomon kelishuv deb atab, kelishuvga kirish shartlarini qayta ko'rib chiqish zarurligini ta'kidladi. Yangi USMCA (davlatlar nomidagi birinchi harflar bilan ifodalangan) kelishuvi 2018-yil 30-noyabrda imzolandi. Trump, yangi kelishuv imzolanganidan so'ng, Meksika va Kanada AQSh uchun ajoyib savdo hamkorlariga aylanishini ma'lum qildi.

4-§. ASEANning mintaqaviy tashkilot sifatidagi o'rni va roli

Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlari uyushmasi (ASEAN - *Association of South East Asian Nations*) Janubi-Sharqiy Osiyoda joylashgan 10 davlatning siyosiy, iqtisodiy va madaniy mintaqaviy hukumatlararo tashkilotidir. ASEAN ga 1967-yil 8-avgustda Bangkokda "Bangkok

deklaratsiyasi” nomi bilan mashhur “ASEAN Deklaratsiyasi” imzolangan vaqtda asos solingan. Ammo ASEANni rasmiylashtirish 1976-yilda imzolangan Janubi-Sharqiy Osiyodagi do‘stlik va hamkorlik shartnomasi hamda Bali orolida imzolangan ASEANning rozilik deklaratsiyasi doirasida amalga oshirilgan.

A’zo davlatlar

ASEAN 10 ta davlatdan iborat. Tashkilot 1967-yil 8-avgust kuni to‘g‘ridan-to‘g‘ri Indoneziya, Malayziya, Singapur, Tailand va Filippin tomonidan ta’sis etilgan Keyinchalik Bruney Darussalam (1984-yil 7-yanvar, mustaqillikka erishgandan 6 kundan so‘ng), Vetnam (1995-yil 28-iyul), Laos va Myanma (1997-yil 23-iyul), Kambodja (1999-yil 30-aprel) qo‘shildi. 2002-yilda Sharqiy Timor kuzatuvchi maqomini olish uchun murojaat qildi. Hozirda Papua-Yangi Gvineya va Sharqiy Timor kuzatuvchi maqomiga ega. ASEANga a’zo davlatlarning aholisi qariyb 650 million kishini, umumiy maydoni 4,5 million km² ni, yalpi ichki mahsuloti esa 737 milliard AQSh dollarini tashkil etadi.

Tarkibiy tuzilishi

ASEANning oliy organi a’zo davlatlar rahbarlari (davlat va hukumat rahbarlari) sammiti bo‘lib, u har yili ikki martotaba o‘tkaziladi. Sammit odatda 3 kun davom etadi va tashkilotning mintaqadagi hamkorlari bilan uchrashuvlari doirasida tashkil etiladi. Yiliga bir necha marotaba o‘tkaziladigan tashqi ishlar vazirlarining (CFM) yig‘ilishlari tashkilotning yetakchi va muvofiqlashtiruvchi organi hisoblanadi. Shuningdek, har yili moliya vazirlari va vaqti-vaqti bilan iqtisodiyot va qishloq xo‘jaligi vazirlarining uchrashuvlari o‘tkaziladi, ammo ularning eng muhim qarorlari tashqi ishlar vazirlari tomonidan tasdiqlanadi. Kundalik boshqaruvni raislik qiluvchi davlatning tashqi ishlar vaziri va qolgan a’zo davlatlarning elchilari tarkibidagi doimiy komissiya amalga oshiradi. Doimiy Kotibiyat Jakartada joylashgan bo‘lib, u Bosh kotib tomonidan boshqariladi (vakolat muddati 5 yil). Shuningdek, 29 ta qo‘mitada, 122 ishchi guruhda ish olib borilib, buning hatijasida har yili ASEAN doirasida 300 dan ortiq tadbirlarni o‘tkazish imkoni tug‘iladi.

Tashkilotga raislik ingliz tilidagi alfavit tartibiga muvofiq, bir yil davomida belgilangan tartibda amalga oshiriladi. Shunga ko‘ra, Singapur 2007-yilda, Tailand 2008-yilda raislik qilgan. tashqi ishlar

vazirlarining yig'ilishiga o'tgan yili ushbu tashkilotga rahbarlik qilgan davlatning tashqi ishlar vaziri rahbarlik qilmoqda.

Bangkok Deklaratsiyasiga muvofiq tashkilotning maqsadlari quyidagilardan iborat:

– BMT nizomining tamoyillariga amal qilgan holda mintaqada tinchlik va barqarorlikni o'rnatish;

– Hamkorlik va o'zaro yordam asosida a'zo davlatlarning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojini jadallashtirish;

– Umumiy va mintaqaviy xalqaro tashkilotlar bilan o'zaro manfaatli hamkorlikni qo'llab-quvvatlash.

Tashkilot tarkibi

ASEANga qadar 1961-yilda Filippin, Malayziya va Tailanddan iborat tarkibda tashkil topgan Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlari uyushmasi - ASA faoliyat yuritgan bo'lib, mavjud tashkilot uning asosida tashkil etilgan. Ammo blokning o'zi 1967-yilning 8-avgustida, besh mamlakat - Indoneziya, Malayziya, Filippin, Singapur va Tailand tashqi ishlar vazirlarining ASEAN deklaratsiyasini imzolash maqsadida tashkil eilgan (Bangkok deklaratsiyasi deb ham yuritiladi) Bangkokdagi uchrashuvda ta'sis etilgan. Beshta tashqi ishlar vazirlari - Adam Malik (Indoneziya), Narciso Ramos (Filippin), Abdul Razak (Malayziya), S. Rajaratnam (Singapur) va Tanat Xoman (Tailand) tashkilotning asoschilari hisoblanadilar⁶³.

ASEANni tashkil etish sabablari sifatida: hukmron elitaning davlat qurishga, kommunizmdan umumiy qo'rquvga, 60-yillardagi yetakchi xorijiy kuchlarga ishonmaslik va iqtisodiy rivojlanishga intilishi keltiriladi.

1984-yil 7-yanvar kuni 1-yanvar kuni mustaqillikka erishgan Bruney Darussalam (6 kundan so'ng) blokning oltinchi a'zosiga aylandi.

1995-yil 28-iyulda Vetnam yettinchi a'zoga aylandi. Oradan Ikki yil o'tgach, ya'ni 1997-yil 23-iyulida Laos va Myanma (Birma) ham qo'shildi. Kambodja Laos va Birma bilan bir vaqtda tashkilotga a'zo bo'lishi lozim edi, ammo a'zolik mamlakatdagi ichki siyosiy kurash tufayli qoldirildi. Kambodja keyinchalik barqarorlikka erishganidan so'ng, ya'ni 1999-yilning 30-aprelida qo'shildi⁶⁴

⁶³ Bernard E. The Asia-Pacific Profile. – UK.: Routledge, 2016. – P. 74.

⁶⁴ Carolyn L. ASEAN Enlargement: impacts and implications. // Institute of Southeast Asian Studies. 2011. – PP. 24-31.

90-yillarda blokda a'zo davlatlar soni o'sib bordi va a'zolarining birlashishga bo'lgan kuchli intilishi kuzatildi. 1990-yilda Malayziya ASEANning o'sha paytdagi a'zolari, shuningdek, Xitoy Xalq Respublikasi, Yaponiya va Janubiy Koreyadan iborat tarkibda Sharqiy Osiyo Iqtisodiy Kengashini tashkil etish va shu yo'l bilan Osiyo va Tinch okeani iqtisodiy hamkorligi (APEC) va umuman Osiyo mintaqasida AQShning o'sib borayotgan ta'siriga qarshi turish taklifini ilgari surgan edi. Ammo bu taklif AQSh va Yaponiyaning kuchli qarshiligi tufayli amalga oshmay qoldi. Mavjud muvaffaqiyatsizlikka qaramay, a'zo davlatlar integratsiyalashuv yo'lida itilishda davom etib, 1997-yilda ASEAN plyus uchta deb nomlangan yangi birlashmaga asos soldilar.

1992-yilda mintaqaning "Jahon bozori uchun ishlab chiqarish bazasi sifatida raqobatdosh ustunlik"ni oshirish maqsadida oziq-ovqat mahsulotlarini yetkazib berish tariflarini bosqichma-bosqich joriy etish shaklida Yagona samarali imtiyozli tariflar to'g'risidagi bitim imzolandi. Ushbu qonun ASEAN erkin savdo hududi uchun asos bo'lishi kerak. Sharqiy Osiyoning 1997-yilgi moliyaviy inqirozidan so'ng, Malayziyaning uzoq vaqt davomida ilgari surgan taklifi Chiang Mayda tirildi va ASEAN mamlakatlari, shuningdek ASEAN plyus uchta mamlakat (Xitoy, Yaponiya va Janubiy Koreya) iqtisodiyotlari o'rtasida u yaqinroq integratsiyani ko'zlaydigan Chiang May tashabbusi sifatida tanildi.

Har bir a'zo davlatning iqtisodiyotini yaxshilashdan tashqari, blok mintaqadagi tinchlik va barqarorlik masalalariga ham alohida e'tibor qaratadi. 1995-yil 15-dekabrda Janubi-Sharqiy Osiyoni yadro qurolidan xoli zonaga aylantirish maqsadida Janubi-Sharqiy Osiyoda yadro qurolidan xoli hudud to'g'risidagi shartnoma imzolangan. Shartnoma unga a'zo davlatlarning barchasi (bir davlatdan tashqari) tomonidan ratifikatsiya qilinganidan so'ng, ya'ni 1997- yil 28-martda kuchga kirdi. 2001-yil 21-iyunda Filippin tomonidan ratifikatsiya qilinganidan so'ng shartnoma to'laqonli yuridik kuchga ega bo'ldi va mintaqada yadro qurolidan foydalanishni cheklab qo'ydi.

Sharqiy Timor va Papua-Yangi Gvineya

2011-yil mart oyida Jakarta sammitida Sharqiy Timor ASEANning o'n birinchi a'zosi bo'lish uchun ariza taqdim etdi. Indoneziya Sharqiy Timorni samimiy kutib oldi.

1976-yilda Papua-Yangi Gvineya kuzatuvchi va 1981-yilda maxsus kuzatuvchi maqomini oldi. Papua-Yangi Gvineya - Melaniya

mamlakatidir. 1976 -yilda Bali sammitidan so'ng ASEAN iqtisodiy hamkorlik dasturiga kirishdi. Ushbu dastur 1980-yillarning o'rtalarida muammolarga duch keldi va Tailandning mintaqaviy erkin savdo hududini tashkil etish to'g'risidagi taklifi munosabati bilan 1991-yilda qayta tiklandi.

Atrof muhit

XXI asr oxirlarida atrof-muhitga doir mintaqaviy yondashuvda tub burilish kuzatildi. Tashkilot atrof-muhit bo'yicha kelishuvlarni muhokama qilishni boshladi. Shulardan biri – 2002-yilda ASEANning Janubi-Sharqiy Osiyoda havoning tutundan ifloslanishini nazorat qilishga mo'ljallangan transchegaraviy Bitimning imzolanishi edi. Afsuski, 2005-yilda Malayziyada hamda 2006-yilda havoning Janubi-Sharqiy Osiyoda tutundan ifloslanish holatlari bunda muvaffaqiyatsiz bo'ldi. Tashkilot tomonidan qabul qilingan boshqa atrof-muhit shartnomalari orasida 2005-yilgi Sharqiy Osiyo uchun energiya xavfsizligi to'g'risidagi Sebuon deklaratsiyasi hamda Yovvoyi tabiatini saqlash bo'yicha ASEAN tarmog'i kabilar mavjud. Iqlim o'zgarishi - ASEAN uchun dolzarb masala hisoblanadi.

Mintaqada ocharchilikka qarshi kurash

ASEANning eng muhim vazifalardan biria]zo davlatlar aholisi orasida ocharchilikka qarshi kurashdan iborat. Ayrim mamlakatlarda iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish maqsadida bir qator dasturlarni ishlab chiqish bilan bir qatorda, muammoni hal qilishning “qog'ozsiz” usullariga murijaat qilinmoqda. Jumladan, Singapurning QI Ingredient kompaniyasi tomonidan ehtiyojmand qo'shnilarini arzon oziq-ovqat xomashyosi bilan ta'minlash uchun baliq oqsilining arzonroq analogini izlashda faol qatnashmoqda. Dunyoning iqtisodiy ittifoqlari bilan faol iqtisodiy hamkorlik ASEANga rivojlanayotgan davlatlar uchun AQSh, Avstraliya, Kanada, Germaniya va Fransiya kabi davlatlardan katta miqdordagi gumanitar yordam olish imkonini beradi.

2003-yilda Bali kelishuvida (Bali Concord II) ASEAN tomonidan “demokratik tinchlik” tushunchasi qo'llanilgan, bu esa barcha a'zo davlatlar demokratik jarayonlar mintaqaviy tinchlik va barqarorlikni ta'minlashga yordam beradi deb ishonishlarini anglatadi. Bundan tashqari, nodemokratik a'zolar ham barcha a'zo davlatlar bunga intilishlari kerakligini e'tirof etdilar.

ASEAN plyus uch

Barcha davlat rahbarlari, xususan, Malayziya davlati yetakchisi Mahathir Mohamad kelgusida mintaqani integratsiyalashtirish

zaruratini his qildilar. 1997- yildan e'tiboran blok ushbu maqsadga erishish yo'lida o'z doirasida tashkilotlarni tuzishni boshladi. ASEAN plyus uch ularning birinchisi edi. U Xitoy Xalq Respublikasi, Yaponiya va Janubiy Koreya bilan mavjud aloqalarni yaxshilash maqsadida tuzilgan edi. Keyinchalik Sharqiy Osiyo davlatlarining yanada kattaroq sammiti bo'lib o'tdi, unda ushbu mamlakatlardan tashqari Hindiston, Avstraliya va Yangi Zelandiya ham ishtirok etdi. Ushbu yangi guruh hozirda faoliyati tugatilgan Yevropa hamjamiyatiga taqlid qilinishi kerak bo'lgan Sharqiy Osiyo hamjamiyatini tuzishga xizmat qilishi lozim edi. Ushbu siyosatning ehtimoliy muvaffaqiyat va kamchiliklarini, shuningdek ASEAN Nizomini ishlab chiqish imkoniyatlarini o'rganish maqsadida "ASEANning taniqli shaxslar guruhi" tuzildi⁶⁵.

2006-yilda ASEANga Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh assambleyasida kuzatuvchi maqomi berilgan. Bunga javoban tashkilot Birlashgan Millatlar Tashkilotiga "Muloqot bo'yicha sherik" maqomini berdi.

Erkin savdo. 2017-yilda ASEAN tashkil etilganining 50 yilligi va AQSh bilan diplomatik aloqalar o'rnatilganligining 40 yilligini nishonladi. ASEAN 2007- yil 26-avgustda ASEAN Iqtisodiy hamjamiyatini tuzish borasidagi 2015-yilga mo'ljallanhan rejasiga muvofiq, 2013-yilgacha Xitoy, Yaponiya, Janubiy Koreya, Hindiston, Avstraliya va Yangi Zelandiya bilan barcha erkin savdo bitimlarini yakunlashni rejalashtirayotganini ma'lum qildi. 2007-yil noyabr oyida ASEAN davlatlari ASEAN a'zolarining o'zaro munosabatlarini belgilaydigan va ASEANga xalqaro huquq subyekti maqomini beradigan ASEAN Xartiyasini imzoladilar. O'sha yili, ya'ni 2007-yilning 15-yanvarida Sebu shahrida "Sharqiy Osiyo energetic xavfsizligi to'g'risida"gi Sebu deklaratsiyasi imzolandi. U ASEAN va boshqa EAS a'zolari (Avstraliya, Xitoy Xalq Respublikasi, Hindiston, Yaponiya, Yangi Zelandiya, Janubiy Koreya) tomonidan imzolangan. Deklaratsiya an'anaviy yoqilg'iga muqobil energiya manbalarini izlash orqali energiya xavfsizligini ta'minlashga da'vat etadi.

Mintaqaviy tashkilotlarga, shuningdek, Afrika Ittifoqi (AU)ni ham kiritish mumkin. Mazkur davlatlararo siyosiy mintaqaviy tashkilot

⁶⁵ Погадаев В.А. Роль Асановского регионального форума в обеспечении безопасности в АТР // Восток и Россия: взгляд из Сибири. Материалы и тезисы докладов к научно-практической конференции. Иркутск, 2017. – С. 113-118.

1963-yil may oyida tashkil etilgan. Afrika Ittifoqi a'zolari Afrika davlatlaridan iborat. Afrika Ittifoqining maqsadi Afrika davlatlarining birligini mustahkamlash, har tomonlama hamkorlikni muvofiqlashtirish va rivojlantirish, qit'a mamlakatlari suvereniteti, hududiy yaxlitligi va mustaqilligini himoya qilishdan iborat. Afrika Ittifoqi faoliyatining asosiy prinsiplari tenglik, ichki ishlarga aralashmaslik, davlatlarning hududiy yaxlitligi va mustaqilligini hurmat qilish, davlatlar o'rtasidagi nizolarni tinch yo'l bilan hal etish kabilardan iborat.

Afrika Ittifoqining asosiy organlari quyidagilardan iborat: Davlat va hukumat rahbarlari assambleyasi (yilda bir marotaba yig'iladi); Afrika Ittifoqi Vazirlar Kengashi (yilda ikki marotaba yig'iladi); Bosh kotibiyat doimiy ishlaydigan ma'muriy organdir. Afrika Ittifoqi, shuningdek iqtisodiy va ijtimoiy masalalar, ta'lim, fan, madaniyat va sog'liqni saqlash masalalari bo'yicha komissiyalarga ega.

5-§. Arab davlatlari ligasi faoliyati istiqbollari

Arab davlatlari ligasi (ADL) - mustaqil arab davlatlarining mintaqaviy tashkiloti bo'lib, unga 1945-yilning 22-martida asos solingan.

ADLning maqsadi a'zo davlatlar o'rtasidagi munosabatlarni mustahkamlash, ularning siyosiy faoliyatini muvofiqlashtirish, iqtisodiyot, madaniyat, transport, fuqarolik masalalarida har tomonlama hamkorlikni amalga oshirish, ishtirokchi davlatlarning mustaqilligi va suverenitetini himoya qilishdan iborat.

ADLning oliy organi - davlat va hukumat rahbarlaridan tashkil topgan Liga Kengashi (konferentsiyasi) bo'lib, u yiliga ikki marotaba yig'iladi. Sessiyalar oralig'ida ADL faoliyati besh yilga saylanadigan Bosh kotib boshchiligidagi Bosh kotibiyat tomonidan olib boriladi.

Amerika davlatlari tashkiloti (ADT) 1947-yilgi o'zaro yordam to'g'risidagi Amerikalalararo shartnomaga muvofiq tuzilgan. ADT Nizomi 1948-yil 30-aprelda qabul qilinib, 1951-yil 13-dekabrda kuchga kirgan. ADT a'zolari 30 dan ortiq Amerika va Karib dengizi davlatlaridan iborat.

Nizomga muvofiq, ADTning maqsadi G'arbiy yarimsharda tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash, a'zo davlatlar o'rtasidagi nizolarni hal qilish, iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, ilmiy, texnikaviy va madaniy

sohalardagi hamkorlikni rivojlantirish, tajovuzga qarshi birgalikda harakatlarni tashkil etish va jinoyatchilikka qarshi kurashishdan iborat. ADT suveren tenglik, ichki ishlarga aralashmaslik, nizolarni tinch yo'l bilan hal etish, hududiy yaxlitlik va mavjud chegaralarni hurmat qilish tamoyillari asosida ishlaydi.

ADTning oliy organi Bosh assambleyadir (Vashington), unda barcha a'zo davlatlar vakillik qiladilar. Navbatdagi sessiyalar yiliga bir marotaba o'tkaziladi. Unda tashkilot faoliyatining muhim masalalari ko'rib chiqiladi.

6-§. Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH)

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) - davlatlararo tashkilot. 1991-yil 8- dekabrda Minskda Belorussiya, Rossiya, Ukraina tomonidan tuzilgan. Ana shu davlat rahbarlari imzo chekkan Bitimda SSSR chuqur tanazzulga uchrab parchalanib ketish natijasida yo'q bo'lganligi qayd qilindi, uchala davlat siyosiy, iqtisodiy, gumanitar, madaniy va boshqa sohalarda hamkorlikni rivojlantirishga intilishini bayon etdi. 1991-yil 21-dekabrda Bitimga Ozarbayjon, Armaniston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Moldaviya, Tojikiston, Turkmaniston, O'zbekiston qo'shildi, ular Belorussiya, Rossiya va Ukraina bilan birga MDHning maqsad va qoidalari to'g'risidagi Deklaratsiyaga Olma-ota shahrida imzo chekdilar. 1993-yil MDHga Gruziya qo'shildi. 1993-yil MDH Ustavi qabul qilindi, u davlatlarning inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlash, tashqi siyosiy faoliyatini muvofiqlashtirish, umumiy iqtisodiy makonni vujudga keltirish, transport va aloqa tizimlarini rivojlantirish, aholi sog'lig'i va atrof muhitni muhofaza qilish, ijtimoiy masalalar va immigratsiya siyosati, uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash, mudofaa siyosatida hamkorlik qilish va tashqi chegaralarni qo'riqlashda birgalikda faoliyat yuritishni nazarda tutadi.

A'zo davlatlar: Armaniston, Belarus, Moldova, Ozarbayjon, Rossiya, Tojikiston, Turkmaniston, Ukraina⁶⁶, O'zbekiston, Qirg'iziston va Qozog'iston.

⁶⁶ Ukraina MDHda qarama-qarshi maqomga ega davlatlardan biri hisoblanadi. MDHni ta'sis etish to'g'risidagi bitim ratifikatsiya qilinganidan keyin Ukraina MDH Xartiyasini imzolamgan. 2018-yil 19-may kuni Poroshenko Ukraina vakillarini MDHning barcha qonuniy organlaridan chaqirib olish to'g'risida farmon imzolagan. Biroq, Ukraina MDH organlariga chiqib ketganligini tasdiqlovchi rasmiy hujjatlarni taqdim etmagan hamda kuzatuvchi maqomida MDH bilan hamkorlikni davom ettirgan.

MDH haqiqiy a'zolari bilan birga MDH faoliyatining ayrim turlarida qatnashuvchi a'zolar bo'lishi mumkin. MDHning quyidagi organlari tashkil qilingan: Davlat rahbarlari kengashi, Hukumat boshliqlari kengashi, Tashki ishlar vazirlari kengashi, Davlatlararo iqtisodiy qo'mita, markazi Sankt Peterburgda joylashgan Parlamentlararo assambleya va boshqa MDHning doimiy ishlovchi organi Minsk shahrida joylashgan bo'lib, u muvofiqlashtiruvchi maslahat qo'mita hisoblanadi. Uning qoshida doimiy kotibiyat ishlaydi. Davlat boshliqlari kengashi 1 yilda kamida 2-marta o'tkaziladi. MDH organlarining faoliyati MDH Nizomi bilan tartibga solinadi.

MDH sobiq SSSR hududida fuqarolik urushi kelib chiqishining oldini oldi, mamlakatlarni bosqichma-bosqich xalqaro munosabatlar tizimiga kirib, mustaqilligi, suverenitetini mustahkamlashga ko'mak berdi. MDH o'z faoliyati davomida haddan ziyod ko'p qarorlar qabul qildi, lekin aksariyat hollarda ularning ijrosi ta'minlanmadi. Hozir MDHga kiruvchi davlatlarning aholisi 283 mln. kishini tashkil etadi. Bu aholining 120,5 mln. iqtisodiyotda mashg'uldir. Ularning 29,4 foizi sanoat va qurilishda, 21,5 foizi qishloq xo'jaligi, o'rmon va baliqchilik sohasida ishlaydi.

O'zbekiston o'z milliy manfaatlaridan kelib chiqqan holda MDHda ishtirok etmoqda. U MDHga davlatlar ustidan tuzilgan tashkilot sifatida emas, balki mustaqil davlatlarning harakatlarini muvofiqlashtiruvchi organ sifatida qaraydi. MDH hududida davlatlarning teng huquqligi asosida yagona iqtisodiy makonni yaratish, tashkilotda umuman iqtisodiy munosabatlarning ustuvorligiga erishish, davlatlar o'rtasida savdo-iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish uchun harakat qiladi.

Shartnomaga muvofiq Hamdo'stlikning umumiy muvofiqlashtiruvchi institutlari orqali teng asosda amalga oshiriladigan a'zo davlatlarning qo'shma faoliyati sohasiga quyidagilar kiradi: tashqi siyosiy faoliyatni muvofiqlashtirish; yagona iqtisodiy makonni, yagona Yevropa va Yevrosiyo bozorlarini shakllantirish va rivojlantirish, bojxona siyosati sohasida hamkorlik qilish; transport va aloqa tizimini rivojlantirishda hamkorlik; atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi hamkorlik, ekologik xavfsizlikning keng qamrovli xalqaro tizimini yaratishda ishtirok etish; migratsiya siyosati masalalari va uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash shular jumlasidandir.

7-§. Yevropa xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti (YXHT)

Yevropa xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti (YXHT) - davlatlar o'rtasida xavfsizlik va hamkorlikni ta'minlashga qaratilgan harakatlarni muvofiqlashtiruvchi va ularning rivojlanish tamoyillarini belgilab beruvchi, shuningdek, ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni demokratlashtirishga ko'maklashuvchi xalqaro tashkilot. Dastlab UmumYevropa kengashi (AQSh va Kanada ishtirokida) sifatida faoliyat ko'rsatib Yevropada xavfsizlik va hamkorlik bo'yicha kengash nomi bilan atalgan (1973-1991). 1973-yil 3-7-iyulda Helsinki shahrida kengashning 1-bosqichi (Yevropadagi 33 davlat tashki ishlar vazirlari ishtirokida), 1973-yil 18- sentabrdan 1975-yil 21-iyuligacha Jeneva shahrida, 2-bosqich (35 davlat vakillari ishtirokida) va 1975-yil 30-iyuldan 1-avgustgacha Helsinki shahrida, 3-bosqich (35 mamlakat siyosiy va davlat rahbarlari ishtirokida) uchrashuvlari bo'lib o'tgan. Pirovardida Yakunlovchi hujjat qabul qilinib, u Yevropada tinchlikni ta'minlashning muhim omiliga aylangan.

Kengashning Madrid konferensiyasi (1991-yil aprel)da Yevropa xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti Parlament assambleyasini tashkil etishga qaror qilindi (1991-yil iyulda ta'sis etilgan). Yevropada yuz bergan jarayonlar, „sovuq urush“ning tugashi natijasida vujudga kelgan o'zgarishlar kengashning tashkilot sifatida to'liq shakllanishiga olib keldi. Yevropa xavfsizlik va hamkorliktashkilotiga 54 davlat a'zo (2002-yil yanvar). Tashkilotga a'zo davlatlar rahbarlari 2 yilda bir marta oliy darajada uchrashuv o'tkazadilar. Yevropa xavfsizlik va hamkorlik tashkilotining Istanbul shahrida bo'lgan sammitida (1999-yil 18-19-noyabr) Yevropada xavfsizlik va hamkorlikni mustahkamlashning XXI asrdagi yangi tamoyillari belgilandi. Tashkilotga a'zo davlatlar tashqi ishlar vazirlari har yili uchrashib turadilar (Vazirlar kengashi). Tashkilotning yana bir organi - Boshqaruvchi kengash har yili 3-marta Praga shahrida yig'iladi, bir marta iqtisodiy forum o'tkazadi. Muntazam ishlovchi doimiy kengashning majlislari haftada 1-marta bo'ladi. Xavfsizlik va ishonchni mustahkamlash, qurollanish ustidan nazorat masalalarini muhokama qiluvchi Xavfsizlik bo'yicha hamkorlik forumi mavjud. Uning majlislari ham har qaftada o'tadi. Yevropa xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti qarorgohi Vena shahrida joylasgan.

O'zbekiston 1992-yil 30-yanvarda Yevropa xavfsizlik va

hamkorlik tashkilotiga qabul qilindi. Bu bilan O'zbekistonning Yevropa davlatlari, shuningdek, AQSh, Kanada bilan har tomonlama hamkorlik qilishiga yangi yo'l ochildi. Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkilotining ko'plab tadbirlari orqali O'zbekiston rahbariyati xalqaro miqyosdagi tashabbuslarni, dunyoning dolzarb masalalariga munosabatini jahon hamjamiyati e'tiboriga havola qiladi. O'zbekiston Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti rahnamoligidagi ko'plab anjumanlarga mezbonlik qilib keladi. Toshkentda Yevropa xavfsizlik va hamkorlik tashkilotining Markaziy Osiyo davlatlari bilan aloqalar bo'yicha byurosi ish olib boradi.

8-§. Kollektiv Xavfsizlik Shartnomasi Tashkiloti (KXShT)

Kollektiv Xavfsizlik Shartnomasi Tashkiloti (KXShT), ba'zi hollarda Toshkent shartnomasi. Toshkent shartnomasi - mintaqaviy xalqaro tashkilot bo'lib, uning maqsadlari "barqarorlikni, xalqaro va mintaqaviy xavfsizlik va hamkorlikni mustahkamlash, mintaqaviy xavfsizlik va barqarorlik, a'zo davlatlarning mustaqilligi, hududiy yaxlitligi va suverenitetini kollektiv asosda himoya qilish"dan iborat bo'lib, bunga erishish uchun a'zo davlatlar siyosiy vositalarga ustuvor ahamiyat berishlari lozim. KXShTga 1992-yil 15-mayda Toshkentda Kollektiv Xavfsizlik Shartnomasi imzolangan paytga asos solingan. Tashkilotning oliy organi - tashkilotning Bosh kotibini tayinlaydigan Kollektiv Xavfsizlik Kengashidir.

A'zolar. Bugungi kunda tashkilotga a'zo bo'lgan davlatlar soni olti nafarni tashkil etadi, bular: Armaniston, Belarusiya, Rossiya, Tojikiston, Qozog'iston va Qirg'iziston davlatlaridir.

Parlament Assambleyasida kuzatuvchi davlatlar: Serbiya va Afg'oniston.

Sobiq a'zo davlatlar: Ozarbayjon, Gruziya va O'zbekiston.

Tarkibiy tuzilishi

Tashkilotning oliy organi *Kollektiv Xavfsizlik Kengashi* hisoblanadi. Kengash a'zo davlatlar rahbarlaridan iborat. Kengash tashkilot faoliyatining muhim masalalarini ko'rib chiqadi hamda uning maqsad va vazifalarini amalga oshirishga qaratilgan qarorlar qabul qiladi, shuningdek, ushbu maqsadlarga erishish uchun a'zo davlatlarning birgalikdagi faoliyatini ta'minlaydi.

Tashqi ishlar vazirlari kengashi tashkilotning tashqi siyosat sohasidagi hamkorligini muvofiqlashtirish bo'yicha maslahat va ijro etuvchi organdir.

Mudofaa vazirlari kengashi tashkilotning harbiy siyosat, harbiy tashkiliy rivojlanish va harbiy-texnik hamkorlik sohasidagi hamkorligini muvofiqlashtirish bo'yicha maslahat va ijro etuvchi organdir.

Xavfsizlik kengashlari kotiblari qo'mitasi tashkilotga a'zo davlatlar o'rtasida ularning milliy xavfsizligini ta'minlash sohasida o'zaro munosabatlarni muvofiqlashtirish bo'yicha maslahat va ijro organidir.

KXShT Doimiy kengashi - Kengash sessiyalari orasidagi davrda tashkilot organlari tomonidan qabul qilingan qarorlarni amalga oshirishda a'zo davlatlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni muvofiqlashtirish bilan shug'ullanadigan organ. Doimiy Kengash a'zo davlatlar tomonidan ularning ichki tartib-qoidalariga muvofiq tayinlanadigan doimiy va vakolatli vakillardan iborat bo'lib, Kengash tomonidan tasdiqlangan Reglamentga muvofiq ishlaydi.

Tashkilot Bosh kotibi tashkilotning oliy ma'muriy xodimi bo'lib, tashkilot kotibiyatini boshqaradi. *KXX* qarori bilan a'zo davlatlar fuqarolari orasidan tayinlanadi va Kengash oldida hisobot beradi.

Tashkilot Kotibiyati - tashkilot organlari faoliyatini tashkiliy, axborot, tahliliy va maslahat ta'minotini amalga oshirish bo'yicha doimiy ishlaydigan organdir.

KXShTning qo'shma shtabi - tashkilotning doimiy ishlaydigan organi bo'lib, u *KXShTning* harbiy tuzilishiga oid takliflarni tayyorlash, *KXShT* organlarining harbiy hamkorlik to'g'risidagi qarorlarining amaliy ijrosini tashkil etish va muvofiqlashtirish uchun javobgardir.

KXShTning vazifasi shartnomada ishtirok etayotgan davlatlarning hududiy va iqtisodiy makonini qo'shinlar va yordamchi bo'linmalarning birgalikdagi sa'y-harakatlari bilan har qanday tashqi harbiy-siyosiy tajovuzkorlardan, xalqaro terrorchilardan, shuningdek keng ko'lamlı tabiiy ofatlardan himoya qilishdan iborat. *KXShT* yagona harbiy-siyosiy ittifoq sifatida hech qachon harbiy operatsiyalarda qatnashmagan.

9-§. Shanxay hamkorlik tashkiloti (ShHT)

Shanxay hamkorlik tashkiloti (ShHT) - mintaqaviy xavfsizlik va iqtisodiy hamkorlik tashkiloti. Shanxay hamkorlik tashkiloti (ShHT) 2001-yil 15-iyunda Xitoy, Rossiya, Qozog'iston, Tojikiston, Qirg'iziston va O'zbekiston rahbarlari tomonidan ta'sis etilgan. ShHTning vujudga kelish tarixi „Shanxay beshligi“ deb atalgan uyushma faoliyati bilan bog'liq. Qozog'iston, Xitoy, Qirg'iziston, Rossiya va Tojikiston davlatlari raqbarlarining dastlabki uchrashuvi („Shanxay beshligi“) bo'lib o'tgan. Unda chegaradosh davlatlar o'rtasidagi ishonchni mustahkamlash (1996) va qo'shma chegarada qurolli kuchlar va qurol-yarog'larni qisqartirish (1997) to'g'risida 2 ta bitim imzolangan. 1998-yildan „beshlik“ mamlakatlarining o'zaro hamkorligi sobiq Sovet Ittifoqi - Xitoy chegarasi bo'ylab harbiy-siyosiy vaziyatni barqarorlashtirish masalalaridan mintaqaviy xavfsizlik va ko'p tomonlama iqtisodiy hamkorlikni ta'minlashga qaratilgan. ShHTning Dushanbe (2000) sammitida O'zbekiston Respublikasi birinchi marta kuzatuvchi sifatida qatnashgan. Sammitda „beshlik“ negizida ko'p tarmoqli tashkilot tuzish taklifi ilgari surilgan. Shanxay sammitida (2001-yil iyun) yangi tashkilotning maqsad va prinsiplarini e'lon qilingan.

2015-yil 10-iyulda Hindiston va Pokiston Shanxay hamkorlik tashkilotiga kirish tartibini boshlaganlari ma'lum bo'ldi. 2017-yil 9-iyun kuni Hindiston va Pokiston Shanxay Hamkorlik Tashkilotining to'laqonli a'zozligiga qabul qilindi. 1996-1997-yillarda Qozog'iston, Qirg'iziston, Xitoy, Rossiya va Tojikiston o'rtasida harbiy sohada ishonchni kuchaytirish va chegara hududlarida qurolli kuchlarni o'zaro kamaytirish to'g'risida tuzilgan shartnomalar asosida tuzilgan Shanxay beshligining barcha a'zolari ShHTga a'zo bo'lganlar. Shanxay hamkorlik tashkilotiga a'zo davlatlarning umumiy hududi 34 million km² dan ortiq bo'lib, Yevroosiyo hududining 60%ni tashkil qiladi.

Tarkibiy tuzilishi

ShHT ning oliy organi *Davlat boshliqlari kengashidir*. Tashkilot strukturasi hukumat boshliqlari (bosh vazirlar) kengashi, Tashki ishlar vazirlari kengashi, Tarmoq vazirliklari va idoralari rahbarlari kengashi, Milliy muvofiqlashtiruvchilar kengashi va doimiy ishlovchi Kotibiyat (Pekin shahrida joylashgan) hamda Mintaqaviy aksilterror tuzilmasi (MATT; Toshkent shahrida joylashgan)dan iborat. Mintaqaviy

aksilterror tuzilmasi 1-yanvar 2004-yildan faoliyat ko'rsatadi. Mazkur tuzilma zimmasiga axborot almashish, chegara va bojxona qo'mitalarining, maxsus xizmatlarning hamkorligini muvofiqlashtirish, shu orqali terrorchilikning oldini olish vazifasi yuklangan. Shu maqsadda tuzilma tarkibida kengash va ijroqo'm faoliyati yo'lga qo'yilgan. Kengashga 6 davlat maxsus xizmatlari rahbarlarining vakillari kiritilgan. Ijroqo'mda esa o'zaro tasdiqlangan lavozim o'rinlariga muvofiq ShHTga a'zo davlatlardan iborat vakillar ishlaydi. ShHTga a'zo davlatlar rahbarlari kengashining 2004-yil 17-iyunda Toshkentda bo'lib o'tgan majlisida Tashkilotning shakllanish davri yakunlanganligi qayd etilgan. Majlis yakunlari bo'yicha Toshkent deklaratsiyasi, ShHTning vakolatlari va immunitetlari to'g'risidagi konvensiya, Narkotik vositalar va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanmasiga qarshi kurash bo'yicha hamkorlik to'g'risidagi bitim, tashkilot va uning organlari faoliyatiga doir hujjatlar imzolandi. O'zbekiston Respublikasining Tashkilotga a'zo davlatlar Xavfsizlik kengashlari kotiblarining tegishli milliy mahkamalarning yangi tahdid va hurujlarga qarshi hamkorligini mustahkamlashga qaratilgan doimiy uchrashuvlarini o'tkazib turish haqidagi tashabbusi qo'llab-quvvatlandi.

ShHT harbiy blok emas (masalan, NATO kabi). Tashkilotning asosiy vazifalari ishtirokchi davlatlarni birlashtirgan keng hududda barqarorlik va xavfsizlikni mustahkamlash, terrorizm, separatizm, ekstremizm va giyohvand moddalar savdosiga qarshi kurash, hamda iqtisodiy hamkorlik, energetik sheriklik, ilmiy va madaniy hamkorlikni rivojlantirishdan iborat.

ShHT a'zo davlatlarni xavfsizlik orqali hamkorlik sari boshlaydigan tashkilotdir. Iqtisodiy hamkorlik borasida oldinda transport infratuzilmasini rivojlantirish, tabiiy, mineral xom-ashyo zahiralari o'zlashtirish, suv-energetika zahiralari unumli foydalanish, ekologiyaga oid va boshqa masalalar dolzarb ahamiyat kasb etadi.

10-§. MERCOSUR faoliyati va istiqbollari

MERCOSUR yoki Mercosul (ispan. Mercado Común del Sur, port. Mercado Comum do Sul, ingliz. Southern Common Market) Janubiy Amerika mamlakatlarining umumiy bozori, Argentina,

Braziliya, Urugvay, Paragvay] va Venesuela (a'zoli gi 2017-yil 5-avgustda to'xtatilgan) o'rtasidagi iqtisodiy va siyosiy kelishuv. 1991-yilda Asuncion shartnomasi asosida tuzilgan, keyinchalik 1994-yilda Ouro Pretoda tuzilgan va yangilangan shartnoma o'z navbatida MERCOSUR tarkibini belgilab bergan.

MERCOSUR 1985-yilda Argentina va Braziliya prezidentlari Raul Alfonsin va Xose Sarney Argentina-Braziliya iqtisodiy integratsiya va hamkorlik dasturiga yoki PICE (port. Programa de Integração e Cooperação Econômica Argentina-Brasil, isp. Programa de Integración y Cooperación Económica Argentina-Brasil)ga imzo chekkan paytdan boshlangan. Dastur asosida, shuningdek, Gauchoni mintaqaviy savdoning pul birligi sifatida taklif qilingan⁶⁷.

MERCOSUR Lotin Amerikasi va Karib dengizi aholisining 55,3%ni (300 milliondan ortiq), to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning 40 %ni, mintaqa mamlakatlari tashqi savdosining 33 %ni o'z ichiga oladi. Uyushma a'zolarining yalpi ichki mahsuloti 3,3 trillion dollarga yetadi. Uyushma hajmi va iqtisodiy salohiyati jihatidan Yevropa Ittifoqidan keyin ikkinchi bo'xona ittifoqi hamda YeEI va NAFTA dan keyingi uchinchi o'ringa ega bo'lgan erkin savdo zonasi hisoblanadi. 2004-yil dekabr oyida MERCOSUR davlat rahbarlarining yig'ilishida parlament tuzish to'g'risidagi akt qabul qilindi. Ushbu bitim shartlariga ko'ra, aholi sonidan qat'iy nazar, har bir davlatdan 18 vakildan iborat tarkibda bo'lishi ko'zda tutilgan. Hozirda Chili, Kolumbiya, Ekvador, Peru, Gayana va Surinam birlashgan a'zolar maqomiga ega. Meksika va Yangi Zelandiya rasmiy kuzatuvchilar sifatida qatnashadilar.

Shartnomaning maqsadi assotsiatsiyada ishtirok etayotgan davlatlarning erkin savdosi, tovarlar, aholi va valyutalarning moslashuvchan harakatini rivojlantirishdan iborat. Guarani, portugal va ispan tillari rasmiy til sifatida tan olingan. MERCOSUR va And millatlar jamiyati ayni paytda Janubiy Amerikadagi iqtisodiy integratsiya jarayonlariga xizmat qiluvchi xalqlar ittifoqi bilan bog'liq bo'lgan asosiy bo'xona ittifoqlari hisoblanadi.

⁶⁷ Соловаров В.В. Меркосур на пути к соглашению с Таможенным союзом России, Белоруссии и Казахстана: опыт сотрудничества с ЕС и Китаем // Управленец. – 2013. – № 2. – СС. 33-37.

Nazorat savollari:

1. Integratsion jarayonlarning mohiyati va darajalarini aytib bering.
2. Jahon integratsion jarayonlarining asosiy markazlarini sanab bering.
3. Integratsion birlashmalar shakllarining tipologiyasini ko'rsating.
4. Umumiy bozor va iqtisodiy birlikni tavsiflang.
5. Davlatlarning millatlararo ittifoqi nima?
6. Yevropa Ittifoqining rivojlanishidagi asosiy bosqichlar nimalardan iborat?
7. Yel asoslari, tamoyillari va maqsadlari nimalardan iborat?
8. Yevropa Ittifoqining tuzilishini aytib bering.
9. Yel muammolari va rivojlanish istiqbollari qanday?
10. MDH formatida eng faol hamkorlik qilayotgan davlatlarni aytib bering.
11. YevrAzES o'z oldiga qanday vazifalarni qo'ygan?
12. Rossiya Federatsiyasi ishtirokida bojxona ittifoqini yaratish rejaları qanday?
13. KXShT faoliyati istiqbollarini qanday tasavvur qilasiz?
14. Shanxay hamkorlik tashkilotining asosiy funksional yo'nalishlari nimalardan iborat?
15. NAFTA tashkil etilishidan qaysi mamlakat eng ko'p foyda ko'rgan?
16. MERCOSUR nima va uning ishtirokchilarining maqsadlari nimalardan iborat?
17. OTOMning mintaqa sifatida asosiy xususiyatlarini aytib bering.
18. OTOMda mintaqaviy integratsiyaning nechta darajasini aniqlash mumkin?
19. Ochiq va yopiq regionalizm nima?
20. OTOMdagi asosiy mintaqaviy, mintaqaviy va submintaqaviy XHTlar?
21. Osiyo va Tinch okeani mintaqasidagi xavfsizlikning asosiy ikki tomonlama shartnomalari qanday? Ularning mintaqadagi rolini aytib bering.
22. ASEANning shakllanishi va rivojlanishining asosiy bosqichlari?

23. ASEAN faoliyatining asosiy tamoyillari?

24. "ASEAN yo'li" iborasi nimani anglatadi?

25. ASEAN davlatlari o'rtasidagi hamkorlikning asosiy funksional yo'nalishlari?

26. "Bambuk pardasi" iborasi nimani anglatadi? U kim uchun va qachon ochilgan?

27. ASEAN 2021-yilga kelib jamiyat sifatida qanday muhim maqsadlarga erishishni rejalashtirmoqda?

VII BOB. HARBIY-SIYOSIY XALQARO TASHKILOTLAR VA BLOKLAR TIZIMI

1-§. Xalqaro harbiy-siyosiy tashkilotlar tizimi

Ajablanarlisi shundaki, ijtimoiy taraqqiyot, xalqlarning ongi va madaniy darajasi va dunyo tsivilizatsiyasi darajasining sezilarli darajada oshishi, odamlar o'rtasidagi hamkorlikning kengayishiga va ular o'rtasidagi muayyan qarama-qarshiliklarni yumshatishga yordam berishi mumkin edi, amalda esa, aksiyat hollarda u butunlay boshqacha natijalarga olib keldi. Bunga ijtimoiy-siyosiy, ilmiy-texnik, madaniy, axborot va boshqa sohalarda kuzatilgan global inqiloblarga boy bo'lgan XX asr misol bo'la oladi. U bir vaqtning o'zida eng shafqatsiz va qonli davlardan biri bo'ldi, desak xato bo'lmaydi. Ikki jahon urushi va yuzlab mahalliy va mintaqaviy urushlar, 200 milliondan ortiq qurbonlar, yaralangan va mayib bo'lganlar - bu taraqqiyotning teskari tomoni, murosasizlik. Bu ba'zi davlatlar tomonidan boshqalarga nisbatan hukmronlik qilishga bo'lgan urinishlar natijasidir.

Afsuski, urush tarixning doimiy hamrohidir. Ular aksariyat hollarda ko'plab davlatlar va xalqlar ishtirokida sodir bo'lgan. Ko'plab vaziyatlarda ba'zi davlatlarning boshqalariga qarshi ittifoqlari tuzildi. Ammo urushlarni tayyorlash va olib borish, xalqlar o'rtasida adovat va ishonchsizlik kayfiyatini shakllantirish maqsadida maxsus xalqaro institutlarning tashkil etilishi - faqat XX asrgagina xos bo'lgan hodisalardir.

Barcha davlatlar va xalqlar himoyalaniş huquqiga ega. Shu boisdan. katta va qudratli davlatlarning ehtimoliy tahdidiga qarshi turish maqsadida bir nechta kichik davlatlarning o'zaro birlashishini to'g'ri tushunish mumkin. Ammo dunyoning eng qudratli davlatlari o'z kuchlarini birlashtirganlarida, tabiiy ravishda savol tug'iladi: "Nima uchun va kimga qarshi?". Dunyoning deyarli barcha davlatlari Birlashgan Millatlar Tashkilotining Nizomini imzolab, urush va urush tahdidini xalqaro nizolarni hal qilish maqsadida vositalar arsenalidan chiqarib tashlashni va'da qilgan hamda xalqaro hamjamiyat harbiy tahdidlarni bartaraf etish va barqarorlikni ta'minlash vazifasini ishonib topshirgan davlatlarning tashabbusi bilan bunday hodisalarning sodir bo'layotgani ayniqsa achinarli holatdir.

G'arbiy Yevropa Ittifoqi. Shimoliy atlantika shartnomasi tashkiloti (NATO), Bog'dod pakti (CENTO), SEATO va Varshava shartnomasi

tashkiloti yangi tipdagi birinchi harbiy-siyosiy institutlar sifatida shakllangan.

Shunday qilib, harbiy-siyosiy birlashmalar sifatida quyidagilarga to'xtalish maqsadga muvofiq:

- Shimoliy Atlantika Shartnomasi Tashkiloti (NATO).
- Tinch okean xavfsizligi to'g'risidagi shartnoma (ANZUS)
- Mintaqaviy mudofaa tizimi (RSS)
- Kollektiv xavfsizlik shartnomasi tashkiloti (ODKB)
- O'zaro yordam to'g'risidagi Amerikalararo shartnoma (TIAR)
- Besh qudratli davlatning mudofaa shartnomasi (FPDA).

2-§. Shimoliy Atlantika shartnomasi tashkiloti

1947-yilda AQSh tashabbusi bilan G'arbiy yarim shar davlatlarining o'zaro xavfsizligi to'g'risida shartnoma ("Rio-de-Janeyro shartnomasi") imzolangan. Buyuk Britaniya tashqi ishlar vaziri E. Bevin AQSh va Yevropa davlatlari o'rtasida shunga o'xshash bitim tuzilishini yoqlab chiqdi, ammo Amerika Kongressi hanuz Monro doktrinasi g'oyalari sodiq qolayotgan edi. shundan so'ng, Bevingning tashabbusi bilan Buyuk Britaniya, Fransiya, Belgiya, Niderlandiya, Lyuksemburg va Irlandiya 1948-yil 17-martda Bryusselda "Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy hamkorlik va kollektiv mudofaa to'g'risida shartnoma" imzoladilar. Ushbu Shartnomaning IV moddasi, agar ushbu davlatlardan biri Yevropada qurolli hujumning obyektiga aylangan hollarda, shartnomaning boshqa tomonlari jabrlanuvchiga zaruriy (harbiy va boshqa) yordam ko'rsatishga majburdirlar. Ayni shu modda mazmunidan kelib chiqib, tarafdardan hech biri Shartnoma qatnashchilariga qarshi qaratilgan biron-bir ittifoq tuzmaslik va koalitsiyada qatnashmaslik majburiyatini olgan. Shartnomada belgilangan maqsadlarni muvofiqlashtirish uchun Maslahat kengashini tuzish rejalashtirilgan edi. Ishtirokchi davlatlar unga va uning shartlarini qabul qilgan boshqa davlatlarga qo'shilishni taklif qilishlari mumkin. Shartnoma muddati 50 yil qilib belgilangan.

Bir haftadan so'ng, ya'ni 1948-yilning 24-martida AQSh hukumati Atlantika birdamligi to'g'risidagi memorandumni e'lon qildi. Unda aytilishicha, AQSh hukumati Bryussel shartnomasining har qanday davlatiga qarshi qaratilgan hujumni AQShga hujum qilingan sifatida baholaydi va tajovuzkor davlat AQSh bilan BMT

Nizomining har bir davlatga kollektiv mudofaa huquqini beradigan 51-moddasi asosida ish tutishi ko'zda tutilgan. Ba'zi Yevropa davlatlari (Fransiya) AQShni Bryussel shartnomasiga qo'shilishga undadi, ammo AQSh hukumati Kongressning urush e'lon qilish uchun qonuniy huquqini saqlab qolishi maqsadida yangi shartnoma tuzishni taklif qildi.

Ko'p o'tmay, Bryussel kelishuvining ishtirokchilari, AQSh va Kanada ishtirokchi davlatlarni Sharqiy Yevropada joylashgan Sovet Armiyasining potentsial tahdididan kollektiv himoya qilish maqsadida sof harbiy tashkilot tuzish bo'yicha muzokaralarni boshladilar. Muzokaralar 1949-yil 4-aprelda Vashingtonda Shimoliy Atlantika shartnomasini imzolash bilan yakunlandi.

Vashington kelishuvining kirish qismida davlatlarning o'z xavfsizligini yakka tartibda yoki kollektiv tarzda ta'minlash huquqini beradigan hamda Shartnoma tomonlarining barcha xalqaro nizolarni tinch yo'llar bilan hal etishga, kuch ishlatish yoki BMTning maqsadlariga zid bo'lmagan har qanday shaklda kuch ishlatishga tayyorligini bildiruvchi BMT nizomining 51-moddasidai ixtobos keltirilgan.

Kuchli keskinlashgan Sovuq urush sharoitida bunga ishonish mumkin edi. Ammo XXI asrning boshlarida, dunyoda eng kuchli armiyaga ega bo'lgan SSSR endi mavjud bo'lmagan sharoitda, NATO nafaqat mavjud bo'lishda davom etib, balki sobiq SSSR hududing bir qismiga, ya'ni Sharqqa tomon yoyilganida, Shartnoma tashabbuskorlarining nechog'li samimiy emasligi ayon bo'ladi. G'arb davlatlarining xalqaro munosabatlar sohasidagi olimlari ham Sovuq Urushdan keyin NATOning saqlanishini anomaliya deb hisoblashadilar. "Sovet tahdididan qo'rqqan va Amerika rahbarligi ostida o'z a'zolarining mudofaa qobiliyatini birlashtirish yo'li bilan Sovet Ittifoqiga qarshi xavfsizligini kuchaytirishga mo'ljallangan "NATO yo'qulishi yoki yo'q bo'lib ketishi lozim edi". Hatto har qanday holatda ham o'z davlatlarining tor xudbin maqsadlariga erishish, shu jumladan axloq va xalqaro huquq me'yorlarini buzgan holda erishish siyosatini yoqlaydigan siyosiy realizm nazariyasi tarafdorlari ham, agar "kunlar" ichida bo'lmasa, "yillar" ichida NATOning yo'q bo'lishini taxmin qilgan edilar⁶⁸.

Dastavval, NATO a'zo davlatlarning ulkan geosiyosiy

⁶⁸ Погодин С.Н. Философия международных отношений: от теории к практике. – СПб.: Изд-во Политехнического университета, 2016. – С. 34.

maqsadlarini amalga oshirish, shu jumladan dushmanlardan himoya qilish bo'yicha birgalikdagi harakatlar uchun tashkilot sifatida yaratilgan. Agar siz XX asr o'rtalarida dunyoning siyosiy va iqtisodiy xaritasi qanday ko'rinishga ega bo'lganini eslasangiz, unda bu maqsadlar ko'lami aniq bo'ladi. O'sha paytdagi vaziyat Afrika, Osiyo, Okeaniya va Karib dengizining aksariyat qismi NATOga a'zo davlatlarning mustamlaka va yarim mustamlakalaridan iboratligi bilan belgilangan edi. Qaram va yarim qaram davlatlarning xalqlari o'zlarining siyosiy va iqtisodiy mustaqilligi uchun kurash olib bordilar. Shu sababli, dunyoning har bir mintaqasida, AQSh va Buyuk Britaniya uchun ehtimoliy tahdidlarga qarshi "zarba kuchlari" tashkil etildi.

Vashington shartnomasining matni⁶⁹ yuqorida tilga olingan "Rio-de-Janeyro shartnomasi" ning moddalariga o'xshash bo'lib, AQSh rahnamoligida ishlab chiqilgan. Xususan, Shartnomaning maqsadlariga yanada samarali erishish uchun uni imzolagan davlatlar tashqi tomondan qurolli hujumga qarshi turish uchun individual va jamoaviy qobiliyatini rivojlantirishlari va qo'llab-quvvatlashlari lozimligi aytiladi. Hududiy yaxlitlik, siyosiy mustaqillik yoki xavfsizlikka tahdid bo'lganda, ular birgalikdagi maslahatlashuvlarni o'tkazishlari kerak. 2-moddada aytilishicha, a'zo davlatlar "... xalqaro iqtisodiy siyosatidagi ziddiyatni bartaraf etish va o'zaro iqtisodiy hamkorlikni rag'batlantirishga harakat qiladilar".

NATO shartnomasi 1949-yil 24-avgustda kuchga kirdi. Qisqa vaqt ichida ma'muriy tuzilmalar, harbiy qo'mondonlik va uning bo'linmalari tashkil etildi. NATOga a'zo davlatlar soni dastlabki 12 nafardan 16 tagacha ko'paydi. Yangi davlatlar NATOga (1951-yilda Gretsiya va Turkiya, 1955-yilda Germaniya Federativ Respublikasi va 1982-yilda Ispaniya) qoshilishi hisobiga, NATO kuchlarining qamrovi kengaydi.


Boshqaruv organlari. Shimoliy Atlantika shartnomasiga muvofiq, alyansning asosiy boshqaruv organi barcha a'zo davlatlarning doimiy vakillaridan (elchilar darajasida) iborat bo'lgan *NATO Kengashi* hisoblanadi. Ushbu tarkibda u *Doimiy Kengash* deb yuritiladi va haftasiga kamida bir marta yig'iladi. Kengash, shuningdek, tashqi ishlar vazirlari (yiliga kamida ikki marta), mudofaa vazirlari (zarurat yuzasidan) hamda davlat va hukumat rahbarlari darajasida yig'iladi.

Kengashning oliy darajadagi yig'ilishlarida alyans strategiyasi va

⁶⁹ Treaty of Vashington // URL.: <http://www.nato.int/docu/basic/txt/treaty.htm>.

taktikasini belgilanadi yoki qayta ko'rib chiqiladi. Barcha darajalarda u qarorlar qabul qilish, NATO tomonidan amalga oshirilgan tadbirlar yuzasidan kommyunike va deklaratsiyalar qabul qilish huquqiga ega.

NATOga a'zo barcha davlatlar teng huquqli hisoblanadi, Kengash va qo'mitalarning yig'ilishlari davra suhbatlari tarzida o'tkaziladi hamda qarorlar bir ovozdan (konsensus) qabul qilinadi. Doimiy Kengash NATO Bosh kotibi va yoshi jihatidan eng keksa bo'lgan elchi yordami bilan boshqariladi. Tashqi ishlar vazirlari darajasidagi Kengash raisi har yili alifbo tartibida saylanadi. Kengash tashkilotning muvaffaqiyatli faoliyati uchun zarur bo'lgan barcha tuzilmalarni (yordamchi organlar, qo'mitalar, ishchi guruhlar va boshqalar) shakllantirish vakolatiga ega⁷⁰. NATO tarkibi va faoliyat doirasi kengayishi bilan boshqaruv organlari tuzilmasi shakllantirildi va o'zgartirildi.



NATOning oliy boshqaruv organlarining tarkibi MRQ qarorlari NATOning strategik boshqaruvi jarayonida amal

⁷⁰ Siyosiy qo'mita (turli darajalarda), Siyosatni muvofiqlashtirish guruhi, mintaqaviy ekspertlar guruhi, maxsus siyosiy ishchi guruhlar, Atlantika siyosati bo'yicha maslahatchilar guruhi va boshqalar tashkil etilgan va faol ishlamoqda. Shu bilan bir qatorda harbiy qo'mitalar va guruhlar tizimi mavjud. 90-yillarda. NATO, Rossiya va NATOning Doimiy Kengashi bilan alohida davlatlar bilan ikki tomonlama hamkorlik bo'yicha qo'mitalar, komissiyalar va guruhlar tashkil etildi.

qilgani bois, ularning vakillari ham MRQ va Harbiy qo'mita ishida ishtirok etadilar. Ishlash, tayyorlash va qarorlarni qabul qilish tartibi NATO Kengashidagi kabi bir xil, ammo MRQ qarorlar boshqa qo'mita va ishchi guruhlar tomonidan tayyorlanadi.

NATO Kengashining siyosiy maslahat organi Siyosiy qo'mita bo'lib, unda alyansga a'zo barcha davlatlar Bosh kotibning siyosiy masalalar bo'yicha yordamchisining rahbarligi ostida ishtirok etadilar.

Mudofaani rejalashtirish qo'mitasi (MRQ) o'z vakolati doirasida Kengash bilan teng huquqlarga ega. Bu alyansning oliy harbiy vakolati organi bo'lib, u a'zo davlatlarning doimiy vakillaridan iborat tuzilma hisoblanadi⁷¹. MRQ, Kengash singari, mudofaa vazirlari darajasida yiliga kamida ikki marta harbiy xavfsizlik bilan bog'liq masalalarni muhokama qilish maqsadida yig'iladi. Qo'mita NATOning siyosiy organlariga tavsiyalar beradi va NATOga a'zo davlatlarning umumiy xavfsizligini ta'minlash uchun zarur bo'lgan choralarini belgilaydi. MRQ strategik kontseptsiyalarni ishlab chiqishda yordam beradi va har yili NATO uchun xavf tug'ilishi mumkin bo'lgan davlat va mintaqalarning kuch va imkoniyatlarini baholashga imkon beradi. Inqiroz va urushlar davrida, MRQ harbiy vaziyatni baholashni Kengashga topshiradi, harbiy kuchdan foydalanish, yangi qoidalarni ishlab chiqish va h.k. bo'yicha tavsiyalar beradi.

MRQ faoliyatida ishtirok etuvchi NATO mudofaa vazirlari Yadroni rejalashtirish guruhi doirasida ham muntazam ravishda yig'ilish o'tkazadilar, u yerda yadro siyosatining keng ko'lamli masalalari (xavfsizlik, mudofaa, yashab qolish, aloqa va axborot tizimlari, shuningdek, yadro qurolini tarqatish, boshqarish, tarqatmaslik va boshqalar) muhokama etiladi. Ushbu guruh qoshida *Oliy darajadagi guruh* yadro siyosati va rejalashtirish bo'yicha katta maslahat organi vazifasini bajaradi

NATOning *Harbiy qo'mitasi* a'zo davlatlarning shtab rahbarlaridan iborat. Uning qoshida uchta yuqori boshqaruv organi mavjud, xususan:

1) Yevropadagi oliy boshqaruv ittifoqi rasman ittifoqchi davlatlarning shtab boshliqlari tomonidan shakllantiriladi hamda ittifoqchi kuchlarning Oliy Bosh qo'mondoni tomonidan boshqariladigan *Yevropadagi oliy ittifoq qo'mondonligi*;

⁷¹ Погодин С.Н. Философия международных отношений: от теории к практике. – СПб.: Изд-во Политехнического университета, 2016. – С. 36.

2) Atlantikadagi Oliy ittifoq qo'mondoni boshchiligidagi *Atlantika okeani qo'mondonligi*;

3) Kanal qo'mondoni tomonidan boshqariladigan Kanal qo'mondonligi.

Qo'mondonlikning vazifasi tinchlik davrida tegishli zonalarini himoya qilish bo'yicha chora-tadbirlarni rejalashtirish (bazalar va aerodromlar yaratish, quvurlarni yotqizish, omborlar qurish, aloqa tizimlarini yaratish) va ushbu choralarni urush davrida amalda qo'llashdan iborat.

Oliy qo'mondon tegishli hududda barcha harbiy tadbirlarni amalga oshirish uchun javobgardir. U NATOning siyosiy va harbiy ma'muriyatiga o'ziga yuklangan vazifalarni bajarish vakolatiga dahldor bo'lgan har qanday harbiy masalalar bo'yicha tavsiyalar berishga haqlidir. Shuningdek, u o'z hududida joylashgan NATOga a'zo davlatlar Bosh shtab boshliqlari bilan bevosita uchrashadilar va uning vazifalariga tegishli barcha masalalar bo'yicha tegishli milliy ma'murlar bilan aloqada bo'ladi. NATO harbiy qo'mitasi raisi Oliy qo'mondonlar bilan birgalikda Ittifoqning harbiy kuchlari *Bosh shtabida* eng nufuzli harbiy vakillar sifatida qatnashadi.

Yevropada ittifoqchi qo'mondonlik doirasida ikki nafar mintaqaviy jamoa faoliyat yuritadi:

Shimoliy Yevropaning ittifoqchi kuchlari: Belgiya, Buyuk Britaniya, Germaniya, Daniya, Lyuksemburg, Gollandiya, Norvegiya, Polsha va Chexiya; qarorgohi Brunsam shahrida (Niderlandiya) joylashgan;

Janubiy Yevropaning ittifoqchi kuchlari: Vengriya, Gretsiya, Italiya, Ispaniya va Turkiya; bosh qarorgohi – Neapol shahrida (Italiya) joylashgan.

Atlantika oliy qo'mondonligi besh shtabdan iborat: Sharqiy Atlantika, G'arbiy Atlantika, Janubiy Atlantika, Urush floti va suvosti kemalarini boshqaruvchi ittifoqdosh qo'mondonlik.

NATO qarorogohida faoliyat yuritish maqsadida yuborilgan harbiy xodimlardan iborat tarkibdagi *Xalqaro harbiy shtab* Harbiy qo'mitaga yordam beradi. U qarorlar tayyorlaydi va amalga oshiradi, shuningdek a'zo davlatlar va uchinchi davlatlar o'rtasida harbiy hamkorlik o'rnatadi. 2002-yilda shtatda 16 mingga yaqin xodim faoliyat yuritgan. Uning qo'l ostida bo'sinuvdagi besh nafar vitse-

direktorlar faoliyati yo'lga qo'yilgan bo'lib, ulardan har biri tegishli shtablar (rejalar va siyosatlar, operatsiyalar, razvedka, hamkorlik va mintaqaviy xavfsizlik, logistika, qurol va manbalar).ga rahbarlik qiladi. Shuningdek, shtablar maslahatchi va nazoratchilardan guruhidan iborat.

Iqtisodiy hamkorlik masalalarini muhokama qilish o'ziga xos ahamiyatga ega, zero bunda iqtisodiyot mudofaa qobiliyatining asosi sifatida (byudjetda harbiy xarajatlar ulushi, mudofaa sanoati kompleksini rivojlantirish, mudofaa rejalarini amalga oshirish uchun resurslar bilan ta'minlash va boshqalar) tanlangan. Ushbu doiradan tashqaridagi masalalar har yili NATO homiyligidagi iqtisodiy masalalarga bag'ishlangan davra suhbatlari doirasida muhokama qilinadi va nashr etiladi. *Iqtisodiyot direktorat* mazkur tadbirlarni tashkil etish va amalga oshirishga rahbarlik qiladi.

NATO doimiy kengayib borayotgan (1949-yilgi 19 davlatdan 2018-yilgi 29 davlatga) harbiy-siyosiy blok bo'lib, uni boshqarish uchun barcha zarur infratuzilma va boshqaruv organi tizimi mavjud. Bu yuzlab qo'mitalar, guruhlar, xizmatlar, bo'limlar yoki rejalashtirish bo'linmalari, harbiy va fuqarolik (transport, tibbiy va boshqalar) va hatto mutaxassislarni tayyorlash va qayta tayyorlash bo'yicha o'quv markazlaridir.

NAToning barcha tuzilmalarining kundalik faoliyati a'zo davlatlar tomonidan tayinlanadigan Bosh kotib boshchiligidagi *Xalqaro kotibiyat* tomonidan olib boriladi. Bosh kotib bir vaqtning o'zida NATO Kengashi, Mudofaani rejalashtirish qo'mitasi, Yadroni rejalashtirish guruhining raisi hisoblanadi, shuningdek, NAToning boshqa barcha asosiy qo'mitalarining nominal raisi, NATO Doimiy Kengashi-Rossiya va NATO-Ukraina Komissiyasining hamraisi hisoblanadi. U muhokamalar, qarorlarni qabul qilish va ularni amalga oshirish jarayonlarini tashkil qilish va ilgari surish kabilarni amalga oshiradi.

Bosh kotib muhokama va qarorlar qabul qilish uchun muammolarni taklif qilish, NATOga a'zo davlatlar o'rtasidagi ehtimoliy nizolar va ziddiyatlarni hal qilishda o'z vakolatidan foydalanish huquqiga ega. U NAToning tashqi aloqalar bo'yicha asosiy vakili hamda hukumatlar va jamoatchilik bilan muloqotlar jarayonida ma'ruzachisi hamdir. Bosh kotib yo'qligida mazkur vazifalarni barcha qo'mita va o'rta darajadagi guruhlariga raislik

qiluvchi uning o'rinbosari bajaradi.

Bosh kotibning qo'l ostida yetarlicha miqdordagi xalqaro xodimlar shtatii mavjud bo'lib, ular Bosh kotib, beshta operatsion bo'lim, boshqaruv xizmati va moliyaviy nazorat xizmatiga bo'lingan. Ushbu bo'linmalarning har birini Bosh kotib yordamchisidan biri boshqaradi. Yordamchi - qo'mitaning tegishli bo'limi boshlig'ining raisi hisoblanadi. NATO organlarining vazirlar va elchilar darajasida faoliyatini tashkil etishga mas'ul bo'lgan Ijrochi kotib ham Bosh kotibga bo'ysunadi.

NATO hukumatlararo tashkilot bo'lib, uning a'zolari kundalik faoliyat uchun zarur bo'lgan mablag' va manbalarni Shartnomaga muvofiq taqsimlaydilar: yig'ilishlar o'tkazish, qaror loyihasi tayyorlash va qarorlar qabul qilish hamda alyansning barcha a'zolarining umumiy manfaatlarini doirasida boshqa vazifalarni bajarish kabilar shular jumlasidandir.

NATOga a'zo davlatlarga tegishli bo'lgan qurolli kuchlar va harbiy infratuzilmaning asosiy qismi ba'zi harbiy vazifalarni hal qilish uchun ularni to'liq yoki qisman jalb qilish zarurati paydo bo'lmaguncha ularning nazorati va milliy boshqaruvida qoladi. Milliy kontingentlarni tayyorlash va ta'minlash uchun talab qilinadigan mablag'lar tegishli davlatlar byudjeti hisobidan moliyalashtiriladi. Shuningdek, ular NATO dagi vakolatxonalarini faoliyatini muvofiqlashtirish hamda ittifoqning shtab-kvartirasida faoliyat yuritayotgan ofitserlarga ish haqini to'lash bilan bog'liq barcha xarajatlarni ham o'z zimmlariga oladilar. NATOning barcha dasturlari ularda ishtirok etayotgan davlatlar tomonidan birgalikda moliyalashtiriladi.

3-§. ANZUS faoliyati xususiyatlari

ANZUS (ANZUS ingliz. *Security Treaty - Australia, New Zealand, United States*) yoki "Tinch okeani havfsizligi to'g'risidagi pakt" - Avstraliya, Yangi Zelandiya va AQSh davlatlarining harbiy ittifoqidir. Avstraliya va Yangi Zelandiya hamda alohida Avstraliya va AQSh o'rtasida 1951-yilda imzolangan shartnomaga binoan ANZUS a'zolari Tinch okean mintaqasidagi harbiy masalalar bo'yicha hamkorlik qilishga kelishib olganlar, ammo bugungi kunda shartnoma butun dunyodagi nizolarga tegishli. Shartnomaga binoan yuqoridagi

uch davlatning biriga nisbatan qurolli hujumning uyushtirilishi boshqalarga xavfl tug'dirishi va ularning har biri umumiy tahdidga qarshi harakat qilishlari kerakligi belgilab qo'yilgan. Kelishuv doirasida tashqi ishlar vazirlari qo'mitasi tuzilgan bo'lib, u maslahatlashuvlar uchun yig'ilishi mumkin.

Shartnoma Sovuq Urush davrida kommunizm tahdidiga jamoaviy javob sifatida AQSh tomonidan 1949 va 1955-yillar oralig'ida tuzilgan bir qator shartnomalardan biri edi. 1986-yilda Yangi Zelandiya o'zining hududiy suvlarida yadro qurolidan xoli zonani yaratgani sababli ANZUS tarkibidan chiqarildi; 2012-yil oxirida AQSh taranglikni yumshatgan maqsadida Yangi Zelandiya harbiy kemalariga kirish bo'yicha taqiqini bekor qildi. 2007-yilda esa, Yangi Zelandiya ANZUSning asosiy yo'nalishlarida ishini qayta boshladi

ANZUS uchta ishtirokchi davlat nomlarining bosh harflari bilan atalgan (*Australia, New Zealand, United States*).

Ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarda Avstraliya va Yangi Zelandiya AQShdan rasmiy xavfsizlik kafolatini talab qilishni boshladi. Bu ikki davlat yaponiyaliklarning uyg'onishi va kommunizmning tarqalishi mumkinligidan xavfsirayotgan edilar. Bundan tashqari, 1942-yilda Singapurning qulashi ularning an'anaviy himoyachisi bo'lgan Buyuk Britaniya mintaqada endilikda katta kuchga ega emasligini ko'rsatdi. Dastlab, AQSh himoya qilishning norasmiy kafolatini berib keldi. Ammo 1949-yildagi Xitoyda fuqarolar urushida va 1950-1953-yillardagi Koreya urushida kommunistlarning g'alabasidan so'ng G'arb davlatlari Tinch okean mintaqasidagi pozitsiyalarini mustahkamlashlari zarur edi. Bundan tashqari, AQSh Yaponiya bilan "yumshoq tinchlik" o'rnatish bo'yicha Avstraliya va Yangi Zelandiyaning roziligini olishi lozim edi. Shartnoma Yaponiyaning tahdid solishi mumkinligi borasidagi qo'rquvni yengish imkonini berdi.

Blokni tuzish to'g'risidagi shartnoma ("ANZUS Xavfsizlik shartnomasi", "Tinch okeani xavfsizligi to'g'risidagi pakt") 1952-yil 1-sentyabrda San-Fransiskoda (AQSh) imzolaniib, 1952-yilning 29-aprelida kuchga kirdi. Shartnoma taraflarni Tinch okeanidagi davlatlardan biriga nisbatan qurolli hujumlar boshqalarning tinchligi va xavfsizligiga xavf tug'dirishi mumkinligini tan olishga majbur qildi. Shartnomaga ko'ra, "Tomonlar Tinch okeani mintaqasida, davlatlardan birining hududiy yaxlitligi, siyosiy mustaqilligi yoki

xavfsizligiga tahdid bo'lganda, qo'shma maslahatlashuvlar o'tkazadilar". Uch mamlakat, shuningdek, hujumlarga qarshi individual va jamoaviy usullarni qo'llab-quvvatlashga kelishib oldilar

Shartnomaning amal qilish muddati cheklanmagan. Keyinchalik harbiy hamkorlik to'g'risida alohida bitimlar tuzilgan:

- AQSh va Avstraliya,
- Avstraliya va Yangi Zelandiya,

AQSh va Yangi Zelandiya (1987-yilgacha)

Oliy boshqaruv organi - tashqi ishlar vazirlari yoki ularning o'rinbosarlaridan iborat Kengash hisoblanadi. Harbiy qo'mita blokka a'zo davlatlarning oliy harbiy shtablari vakillaridan tuzilgan. Shu bilan birga, blokda birlashgan oliy qo'mondonlik, birlashgan Qurolli kuchlar va doimiy shtab mavjud emas. ANZUS ishchi organlarining rasmiy tili ingliz tilidir

ANZUS AQShning tashabbusi bilan Tinch okeanida "kollektiv mudofaa harakatlarini muvofiqlashtirish" maqsadida tuzilgan, 1978-yilda esa, Hind okeani blok doirasiga kiritilgan. Dastlab ANZUS Janubi-Sharqiy Osiyo va Tinch okeani mintaqasidagi milliy ozodlik harakatlariga, shuningdek SSSR va uning Janubi-Sharqiy Osiyodagi ittifoqchilariga qarshi qaratilgan edi. ANZUSga a'zo davlatlar Koreya va Vetnam urushlarida kelishilgan holda ishtirok etib, Kambodja va Laos ishlariga aralashganlar.

4-§. Mintaqaviy xavfsizlik tizimi

Mintaqaviy xavfsizlik tizimi (RSS - *Regional Security System*) Lotin Amerikasining bir nechta davlatini o'zaro birlashtirgan harbiy-siyosiy blok. U 1982-yil oktyabr oyida 70-yillarning oxiri va 1980-yillarning boshlarida mintaqada barqarorlikka ta'sir ko'rsatgan xavfsizlikka tahdidlarga jamoaviy javob berish zarurati asosida tashkil etilgan.

1982-yil oktyabr oyida Antigua va Barbuda, Dominika, Sent-Lusiya, Sent-Vinsent va Grenadinlar Barbados bilan "o'zaro yordam" to'g'risidagi anglashuv memorandumini imzoladilar. Sent-Kits va Nevis 1983-yilda, Grenada esa AQSh va Mintaqaviy xavfsizlik tizimining bosqinchilik operatsiyasidan so'ng qo'shilgan.

Memorandum 1992-yilda yangilangan va tizim Grenadaning Sent-Georges shahrida imzolangan shartnoma asosida huquqiy maqomga ega bo'ldi. Mintaqaviy xavfsizlik tizimi (MXT) dastlab Karib

dengizida kommunizm tarqalishiga qarshi kurashish uchun AQSh vositasi sifatida yaratilgan. 2001-yilda MXT Mintaqaviy jinoyatchilik va xavfsizlik guruhi (CRTFCS) orqali CARICOM bilan keyingi hamkorlikni yo'lga qo'ydi.

2010-yilning iyun oyida Amerika Qo'shma Shtatlari va Karib havzasi davlatlari o'zaro hamkorlikni tikladilar. Qo'shma kelishuvga binoan MXT davlatlari o'rtasida Sharqiy Karib dengizi sohilidagi xavfsizlik blokini tashkil etishga ko'maklashishga kelishib olindi. Sohil xavfsizligi AQSh-Karib dengizi birlashmasi *Security Initiativening* markazida bo'ladi.

5-§. KXShTning harbiy-siyosiy tashkilotlar tizimida tutgan o'rni

Kollektiv Xavfsizlik Shartnomasi Tashkiloti (KXShT), kam hollarda Toshkent shartnomasi, Toshkent shartnomasi - mintaqaviy xalqaro tashkilot bo'lib, uning maqsadlari "barqarorlikni, xalqaro va mintaqaviy xavfsizlik va hamkorlikni mustahkamlash, mintaqaviy xavfsizlik va barqarorlik, a'zo davlatlarning mustaqilligi, hududiy yaxlitligi va suverenitetini kollektiv asosda himoya qilish"dan iborat bo'lib, bunga erishish uchun a'zo davlatlar siyosiy vositalarga ustuvor ahamiyat berishlari lozim. KXShTga 1992-yil 15-mayda Toshkentda Kollektiv Xavfsizlik Shartnomasi imzolangan paytga asos solingan. Tashkilotning oliy organi - tashkilotning Bosh kotibini tayinlaydigan Kollektiv Xavfsizlik Kengashidir.

A'zolar. Bugungi kunda tashkilotga a'zo bo'lgan davlatlar soni olti nafarni tashkil etadi, bular: Armaniston, Belarusiya, Rossiya, Tojikiston, Qozog'iston va Qirg'iziston davlatlaridir.

Parlament Assambleyasida kuzatuvchi davlatlar: Serbiya va Afg'oniston.

Sobiq a'zo davlatlar: Ozarbayjon, Gruziya va O'zbekiston.

Tarkibiy tuzilishi

Tashkilotning oliy organi *Kollektiv Xavfsizlik Kengashi* hisoblanadi. Kengash a'zo davlatlar rahbarlaridan iborat. Kengash tashkilot faoliyatining muhim masalalarini ko'rib chiqadi hamda uning maqsad va vazifalarini amalga oshirishga qaratilgan qarorlar qabul qiladi, shuningdek, ushbu maqsadlarga erishish uchun a'zo davlatlarning birgalikdagi faoliyatini ta'minlaydi.

Tashqi ishlar vazirlari kengashi tashkilotning tashqi siyosat sohasidagi hamkorligini muvofiqlashtirish bo'yicha maslahat va ijro etuvchi organdir.

Mudofaa vazirlari kengashi tashkilotning harbiy siyosat, harbiy tashkiliy rivojlanish va harbiy-texnik hamkorlik sohasidagi hamkorligini muvofiqlashtirish bo'yicha maslahat va ijro etuvchi organdir.

Xavfsizlik kengashlari kotiblari qo'mitasi tashkilotga a'zo davlatlar o'rtasida ularning milliy xavfsizligini ta'minlash sohasida o'zaro munosabatlarni muvofiqlashtirish bo'yicha maslahat va ijro organidir.

KXShT Doimiy kengashi - Kengash sessiyalari orasidagi davrda tashkilot organlari tomonidan qabul qilingan qarorlarni amalga oshirishda a'zo davlatlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni muvofiqlashtirish bilan shug'ullanadigan organ. Doimiy Kengash a'zo davlatlar tomonidan ularning ichki tartib-qoidalariga muvofiq tayinlanadigan doimiy va vakolatli vakillardan iborat bo'lib, Kengash tomonidan tasdiqlangan Reglamentga muvofiq ishlaydi.

Tashkilot Bosh kotibi tashkilotning oliy ma'muriy xodimi bo'lib, tashkilot kotibiyatini boshqaradi. KXX qarori bilan a'zo davlatlar fuqarolari orasidan tayinlanadi va Kengash oldida hisobot beradi.

Tashkilot Kotibiyati - tashkilot organlari faoliyatini tashkiliy, axborot, tahliliy va maslahat ta'minotini amalga oshirish bo'yicha doimiy ishlaydigan organdir.

KXShTning qo'shma shtabi - tashkilotning doimiy ishlaydigan organi bo'lib, u KXShTning harbiy tuzilishiga oid takliflarni tayyorlash, KXShT organlarining harbiy hamkorlik to'g'risidagi qarorlarining amaliy ijrosini tashkil etish va muvofiqlashtirish uchun javobgardir.

KXShTning vazifasi shartnomada ishtirok etayotgan davlatlarning hududiy va iqtisodiy makonini qo'shinlar va yordamchi bo'linmalarning birgalikdagi sa'y-harakatlari bilan har qanday tashqi harbiy-siyosiy tajovuzkorlardan, xalqaro terrorchilardan, shuningdek keng ko'lamlı tabiiy ofatlardan himoya qilishdan iborat. KXShT yagona harbiy-siyosiy ittifoq sifatida hech qachon harbiy operatsiyalarda qatnashmagan.

6-§. Amerikalalaro o‘zaro yordam to‘g‘risidagi shartnoma (“Rio Pakti”)

Amerikalalaro o‘zaro yordam to‘g‘risidagi shartnoma (1947-yilgi Rio-de-Janeyro shartnomasi), “Rio Pakti” sifatida tanilgan bo‘lib, ushbu shartnoma 1947- yilda ko‘plab Amerika davlatlari tomonidan Rio-de-Janeyroda imzolangan.

Ushbu shartnomaning asosiy prinsipi shundaki, shartnomaga a‘zo davlatlardan biriga nisbatan uyushtirilgan hujum shartnomaga a‘zo barcha davlatlarga nisbatan hujum sifatida e‘tirof etiladi. Shunday qilib, ushbu shartnoma o‘zaro mudofaa haqidagi shartnomadir. Shartnoma imzolash uchun 1947-yilda ochilganiga qaramay, oxirgi davlat uni faqat 1982-yilda imzolagan va ratifikatsiya qilgan.

Braziliya o‘zaro yordam to‘g‘risidagi Amerikalalaro shartnomaning vasiy davlati, tashkiliy va texnik ehtiyojlar uchun depozitariy tashkilot - Amerika davlatlari tashkiloti (OAS) hisoblanadi.

A‘zo davlatlar

Argentina	Kolumbiya	Peru
Bagam orollari	Kosta-Rika	Salvador
Braziliya	Dominikan Respublikasi	AQSh
Gvatemala	Panama	Trinidad va Tobago
Gonduras	Paragvay	Urugvay
		Chili

Shartnoma 1947-yil 2-sentyabrda Rio-de-Janeyroda barcha tomonlarning imzolari bilan qabul qilindi va tasdiqlandi. Ammo u 1948-yil 3-dekabrda kuchga kirgan va 1948-yil 10-dekabrda shartnoma BMT ro‘yxatiga olingan. Bu 1945-yil Mexiko shahrida bo‘lib o‘tgan Amerikalalaro konferentsiyada imzolangan Chapultepec deklaratsiyasining o‘ziga xos takomillashgan shaklidir. AQSh Monro doktrinasida kontinental mudofaa siyosatini qo‘llab-quvvatladi.

1967-yilda Trinidad va Tobagodan hamda 1982-yildagi Bagamadan tashqari, 1947-yildan so‘ng hech bir mustaqil davlat ushbu shartnomaga qo‘shilmagan.

2002-yilda AQSh Iroqqa bostirib kirishidan oldin Meksika 1982-yilda Malvinas (Folkland) orollari bo'yicha Argentina-Britaniya mojarosi paytida AQShning xatti-harakatlari (Vashington Britaniyani qo'llab-quvvatlagan edi) yuzasidan norozilik bildirib, Amerikalarga o'zaro yordam shartnomasidan chiqib ketdi.

2012-yilning 5-iyunda Boliviya, Venesuela, Nikaragua va Ekvador tashqi ishlar vazirlari Amerika xalqlarining Bolivar alyansi (ALBA) nomidan ADTning 42-Bosh assambleyasida chiqish qilib, o'zaro yordam bo'yicha Amerika-davlatlararo shartnomadan chiqishlarini ma'lum qildi. Boliviya, Kuba, Nikaragua va Ekvador 2012-yilda, Venesuela esa 2013-yilda ushbu shartnomadan chiqdi.

2019-yil iyun oyida prezident Maduroning muxolifati tomonidan boshqarilayotgan Venesuela parlamenti Venesuelaning Amerikalarga o'zaro yordam shartnomasidagi a'zolicini tiklash yuzasidan murojaat qilgan.

7-§. FPDA faoliyati tarixi

Besh qudratli davlatning mudofaa shartnomasi FPDA – 1971-yilda imzolangan Buyuk Britaniya, Avstraliya, Yangi Zelandiya, Malayziya va Singapur (barcha Hamdo'stlik a'zolari) o'rtasidagi ko'p qirrali bitimlar asosida o'rnatilgan mudofaa munosabatlari majmuidir. Unga ko'ra, mavjud besh davlatdan biriga nisbatan amalga oshirilgan hujum yoki tahdid holatlariga javoban birgalikda "zudlik bilan" chora ko'rish va maslahatlashuvlar tashkil etish to'g'risidagi kelishuvga erishilgan. Harbiy aralashuvlar yuzasidan aniq majburiyat yuklatilmagan.

A'zo davlatlar

- Avstraliya
- Buyuk Britaniya
- Malayziya
- Yangi Zelandiya
- Singapur

Tashkilot tarixi:

FPDA asosini tashkil etuvchi shartnomalar 1971-yilda imzolangan bo'lib, unga ko'ra, besh davlat tashqi tajovuz yoki Malayziya yarim oroli (Sharqiy Malayziya FPDA shartnomalari bo'yicha mudofaa obyektiga kiritilmagan) yoki Singapurga hujum uyushtirilishi yoki

tahdid yuzaga kelishi natijasida bir-biri bilan o'zaro maslahatlashuvlar olib borishga kelishganlar.

Besh davlat mudofaa idoralari rahbarlarining 1971-yil aprel oyida Kuala-Lumpurda uchrashuv chog'ida qabul qilingan qo'shma kommyunike bo'lib umumlashtiruvchi hujjat sanalib, u hamkorlikning maqsad va talablarini belgilab bergan. Malayziya yoki Singapurga qurolli hujum qilinganda, kelishuv taraflari birgalikda yoki mustaqil ravishda bir-biridan mustaqil ravishda amalga oshiriladigan choralar bo'yicha darhol maslahatlashishga kirishishlari kerakligi mustahkamlab qo'yilgan.

FPDA Malayziya va Singapurda Buyuk Britaniya tomonidan berilgan mudofaa kafolati tugaganidan so'ng tashkil etilgan (Angliya-Malayziya mudofaasi to'g'risidagi bitim 1967-yilda Angliyaning harbiy kuchlarini Suvayshdan sharqqa olib chiqib ketish to'g'risidagi qarori natijasida qabul qilingan). FPDA Malayziya va Singapurda mudofaa sohasida hamkorlikni va havo mudofaasi yuzasidan kompleks tizimini (IAD) ko'zda tutadi. 1988-yilga qadar Malayziyaning harbiy havo kuchlari Avstraliya qirolligining harbiy havo kuchlari nazorati ostida bo'lgan.

1981-yilda FPDA tomonidan birinchi yillik quruqlik va dengiz mashqlarini o'tkazdilar. 1997-yildan dengiz va havo mashqlari birlashtirildi. Hozirgi vaqtda bitta shtabda har uchala armiya uchun shaxsiy tarkib mavjud, shuningdek, har yili harbiy-dengiz va havo mashg'ulotlarini muvofiqlashtiriladi.

Ushbu muzokaralar fonida 1971-yil noyabr oyida ASEAN mamlakatlari Kuala-Lumpurda Janubi-Sharqiy Osiyoni tinchlik, erkinlik va betaraflik zonasi deb e'lon qilish to'g'risidagi deklaratsiyaga imzo chekdilar va uni "tashqi kuchlarning aralashuviga har qanday shakl yoki usuldan holi" tarzda yaratishga intilishlarini ta'kidladilar. mintaqa 6. Hamdo'stlik mamlakatlari bilan harbiy hamkorlikni kuchaytirish bo'yicha Malayziyaning faoliyati boshqa ASEAN mamlakatlari ega bo'lgan "mintaqadan tashqari" kuchlar bilan harbiy kelishuvlarni buzish zaruratini keltirib chiqardi. Tailand va Filippin Qo'shma Shtatlar oldidagi majburiyatlarini bajarishlari mumkin. Ulardan SEATO-da qatnashishni to'xtatish talab qilinmadi, garchi ushbu tashkilotning samaradorligi shubhali edi.

8-§. VShT va SEATOning faoliyati xususiyatlari

1955-yil 14-maydagi Varshava shartnomasi (*Do'stlik, hamkorlik va o'zaro yordam to'g'risidagi shartnoma*) SSSRning yetakchiligi asosida Yevropaning sotsialistik davlatlarining harbiy ittifoqi tashkil etilganligini rasmiylashtirgan hujjat hisoblanadi. Varshava shartnomasi tashkiloti (VShT) jahonda ikki qutbli olamning 36 yil davomida saqlanib qolinishini ta'minlab berdi. Shartnomaning tuzilishi Germaniyaning NATOga qo'shilishiga nisbatan javob harakati edi.

Shartnoma muqaddima va 11 moddadan iborat edi. Uning va Birlashgan Millatlar Tashkilotining Nizomi shartlari asosida Varshava Shartnomasiga a'zo davlatlar o'zlarining xalqaro munosabatlarida tahdid yoki kuch ishlatishdan tiyilishlari, shuningdek, ulardan biriga qurolli hujum qilingan taqdirda dushmanga nisbatan mavjud barcha vositalar yordamida shoshilinch yordam ko'rsatish, zarurat bo'lganda harbiy kuchdan foydalanishga ham kelishib olingan.

Shartnoma Albaniya, Bolgariya, Vengriya, Germaniya Demokratik Respublikasi, Polsha, Ruminiya, SSSR va Chexoslovakiya tomonidan 1955-yil 14-mayda Yevropada tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash maqsadida o'tkazilgan Yevropa davlatlarining Varshava yig'ilishida imzolangan.

1985-yilda Varshava shartnomasi tashkilotining Qurolli kuchlari soni 7562,987 kishidan iborat edi. 1990-yilga kelib, ularning soni 6960,700 kishigacha qisqardi.

Shartnoma 1955-yil 5-iyunda kuchga kirdi. 1985-yil 26-aprelda, muddati tugashi sababli, u 20 yilga uzaytirildi.

1989-1990-yillarda Markaziy va Sharqiy Yevropa davlatlarida kommunistik rejimlar tarqalib ketganidan so'ng, Varshava Paktining sotsialistik mamlakatlarning harbiy-siyosiy ittifoqi sifatida mavjudligi o'z mohiyatini yo'qotdi. 1991-yil 25-fevral kuni VShTga a'zo davlatlar o'zlarining harbiy tuzilmalarini tugatdilar. 1991-yil 1-iyulida esa, Pragada shartnomani to'liq bekor qilish to'g'risidagi Protokolni imzoladilar.

SEATO - Janubi-Sharqiy Osiyo Shartnomasi Tashkiloti. Janubi-Sharqiy Osiyo Shartnomasi Tashkiloti, Fransiya tashkiloti 1955-1977-yillar davomida faoliyat yuritgan.

A'zolar:

- Avstraliya
- Buyuk Britaniya
- Yangi Zelandiya
- Pokiston
- AQSh
- Tailand
- Filippin
- Fransiya

AQSh tashabbusi bilan tashkil etilgan harbiy-siyosiy guruh, aslida Janubi-Sharqiy Osiyodagi milliy ozodlik (asosan kommunistik va boshqa "progressiv" kuchlarga nisbatan) harakatlarga qarshi kurashishga qaratilgan edi. Aslida, NATOdan farqli o'laroq, SEATO shartnomasiga muvofiq, tomonlaridan biriga nisbatan uyushtirilgan hujum avtomatik tarzda boshqalarga qilingan hujum sifatida e'tirof etilmas, shu boisdan har bir ishtirokchi davlat SEATO ning har qanday kollektiv harakatiga samarali ravishda to'sqinlik qilishi mumkin edi. Biroq, Manila bitimiga muvofiq (4-modda) SEATO a'zolari ulardan biriga qarshi qurolli "tajovuzkorlik" yuzaga kelgan taqdirda shartnoma doirasida ushbu umumiy xavfni o'z konstitutsiyaviy tartibiga binoan bartaraf etish hamda maslahatlashuvlar o'tkazish ko'zda tutilgan. Manila shartnomasi boshqa mamlakatlarga ham tatbiq etilishi mumkin edi, zero ushbu shartnomaning 8-moddasiga binoan SEATOning faoliyat zonasi "Janubi-Sharqiy Osiyoning umumiy hududi"ni, shu jumladan Osiyoning ishtirokchi davlatlarini hamda "Tinch okeanining janubi-g'arbiy hududlari"ni o'z ichiga olgan. 1954-yilgi Jeneva yig'ilishining Vetnam, Laos va Kambodjada siyosiy tartibga solish prinsiplari va ularning suverenitetini hurmat qilish to'g'risidagi qarorlaridan zid ravishda, Manila uchrashuvi qatnashchilari Manila shartnomasining Janubiy Vetnam, Laos va Kambodjaga doir qo'shimcha protokolni imzoladilar.

Vazirlar Kengashi SEATOning oliy organi hisoblanib, uning yig'ilishlari har yili o'tkazilib turilgan. Doimiy organ tashkilot rahbari - bosh kotib boshchiligidagi Komissarlar kengashi edi. Vazirlar Kengashi harbiy maslahatchilar qo'mitasi (Mudofaani rejalashtirish qo'mitasi)ga bo'ysunar edi. Aslida, NATOdan farqli o'laroq, SEATO birlashgan qo'mondonlikka ega emas edi. Bosh ofis Bangkokda (Tailand) joylashgan. SEATO doirasida harbiy-dengiz, harbiy-havo kuchlari va quruqlikdagi manevrlar amalga oshirildi.

1971-yilda Pokistondan uning sharqiy qismining ajralib chiqishi va mustaqil Bangladesh Xalq Respublikasining tashkil topishi,

Islomobodning tashkilotda ishtirok etishning maqsad-muddasidan mahrum qildi va 1972-yil 7-noyabrda Pokiston SEATOdan chiqib ketdi. Amerika qo'shinlari Vetnamdan olib chiqilganidan so'ng, SEATOning obro'si keskin pasayib ketdi. Shartnomaga qiziqishning pasayishi SEATOning jamoaviy xavfsizlik tashkiloti sifatida samarali faoliyat yurita olmay qolgani bilan bog'liq bo'ldi.

1975-yil aprel oyida Tailand tashkilotni rasman tark etdi. Janubi-Sharqiy Osiyoda kommunistik kuchlarning pozitsiyalari umumiy kuchaygan sharoitda SEATO Vazirlar Kengashi (1975-yil sentyabr) ishtirokchi davlatlarning o'zaro roziligi bilan ushbu tashkilotni tarqatib yuborishga tayyorgarlik ko'rish to'g'risida qaror qabul qildi. 1976-yilda Vetnamning birlashishi e'lon qilindi va 1977-yilning 30-iyunida SEATO rasman tarqatib yuborildi.

Nazorat savollari:

1. Harbiy-siyosiy tashkilotlar tizimiga ta'rif bering.
2. Harbiy-siyosiy xalqaro tashkilotlarning asosiy belgilarini sanab o'ting.
3. O'rta asrlar harbiy-siyosiy ittifoqlari haqida ma'lumot bering.
4. Muqaddas ittifoq, uchlar ittifoqi haqida nimalarni bilasiz?
5. NATO, VShT, ANZYuS va SEATOning vujudga kelishi va faoliyati xususiyatlariga to'xtalib o'ting.
6. Harbiy-siyosiy xalqaro tashkilotlarning huquq subyekti sifatidagi maqomi nimalarda namoyon bo'ladi.
7. KXShTning huquq subyekti sifatidagi maqomini belgilab bering.

VIII BOB. IQTISODIY VA MOLIVAVIY XALQARO TASHKILOTLAR TIZIMI

1-§. Iqtisodiy va moliyaviy tashkilotlar tushunchasi

Hozirgi bosqichda jahon iqtisodiyoti - bu iqtisodiy munosabatlar va turli xil o'zaro bog'liqliklarning murakkab tizimi bo'lib, ular jahon iqtisodiyotining rivojini oldindan aytib bera oladigan "qonuniyatlar" siz rivojlana olmaydi. Xalqaro iqtisodiy tashkilotlar jahon iqtisodiyotini huquqiy tartibga solishning muhim qismidir. Xalqaro tashkilotlar bir-biri bilan faol hamkorlik qiladigan, dunyo iqtisodiyoti va siyosatiga ta'sir ko'rsatadigan murakkab tuzilmalardir. Bugungi kunda xalqaro iqtisodiy tashkilotlarning o'ziga xos keng tarmog'i mavjud bo'lib, ularning asosiy maqsadi savdo va iqtisodiy sohalarda turli davlatlar o'rtasidagi aloqalarni mustahkamlashdan iborat. Jahon iqtisodiyotining bosqichma-bosqich globallashuv tendentsiyasini hisobga olgan holda, bunday tashkilotlarning roli muntazam ravishda oshib boradi.

Mazkur mavzu doirasida xalqaro iqtisodiy tashkilotlar faoliyatining asosiy maqsad va asosiy yo'nalishlari tahlil qilinadi, ularning jahon iqtisodiyotidagi o'rni va roli aniqlanadi. Xalqaro iqtisodiy tashkilotlar davlatlar ittifoqi yoki ularning alohida boshqaruv organlari bo'lib, ularning asosiy maqsadi savdo, moliya va iqtisodiy faoliyat sohasida ishbilarmonlik aloqalarini mustahkamlashdan iborat.

O'z faoliyatini amalga oshiradigan, bir-biri bilan faol aloqada bo'lgan barcha iqtisodiy tashkilotlar yagona xalqaro tizimni tashkil etadilar. Ushbu tizimning asosiy maqsadi uning ishtirokchilariga iqtisodiy rivojlanish masalalarida, shuningdek xalqaro munosabatlarni tartibga solishning umumiy normalarini birlashtirishda ko'mak berishdan iborat⁷².

Tashkiliy tamoyillariga ko'ra, xalqaro iqtisodiy tashkilotlar quyidagilarga bo'linadi:

1. BMT tizimidagi xalqaro iqtisodiy tashkilotlar;
2. BMT tizimiga kirmaydigan xalqaro iqtisodiy tashkilotlar;
3. Mintaqaviy iqtisodiy tashkilotlar.

⁷² Ерпылева Н. Ю. Мировые финансовые организации в качестве субъектов международного банковского права. // Юриспруденция и экономика. 2015. – № 11 (240). – С. 57-73.

Faoliyat sohasiga ko'ra xalqaro iqtisodiy tashkilotlar quyidagicha tasniflanadi:

1. Valyuta-moliyaviy va kredit tashkilotlari: Xalqaro valyuta jamg'armasi (XVJ), Jahon banki guruhi, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (EBRD), Xalqaro hisob-kitoblar banki (BIS);

2. Savdo-iqtisodiy tashkilotlar: Jahon savdo tashkiloti (JST), Savdo va rivojlanish bo'yicha BMT konferentsiyasi (YuKNTAD), Xalqaro bojxona tashkiloti (XBT), Xalqaro savdo palatasi (XSP), BMTning Yevropa iqtisodiy komissiyasi (BMT YeIK);

3. Sohaviy va ixtisoslashgan iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy tashkilotlar: BMTning sanoat taraqqiyoti bo'yicha konferensiyasi (YuNIDO), Birlashgan Millatlar Tashkilotining Oziq-ovqat bo'yicha qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO), Intellektual mulk bo'yicha umumjahon tashkilot (IMUT), Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT), Atom energiyasi bo'yicha xalqaro agentlik (MAGATE).

2-§. BMT tizimidagi xalqaro iqtisodiy tashkilotlar

Birlashgan Millatlar Tashkiloti o'z homiyligi ostida iqtisodiy masalalar bilan shug'ullanuvchi birlashmalar guruhi to'plangan eng muhim xalqaro tashkilot hisoblanadi. Ularning orasida ECOSOC, Evrosiyo iqtisodiy komissiyasi (YeIK) va XVF kabilar mavjud. Iqtisodiy va ijtimoiy Kengash (ECOSOC) tor doiradagi bo'linma va xalqaro iqtisodiyot sohasidagi BMTning asosiy organidir. Ushbu bo'linma 1945-yil boshlarida tashkil etilgan bo'lib, u Nyu-Yorkda joylashgan. ECOSOCning asosiy maqsadi - BMT a'zolari o'rtasida iqtisodiy va ijtimoiy xizmatlar sohasida biznes hamkorlik o'rnatishdan iborat. ECOSOCning asosiy vazifalari xalqaro iqtisodiyotning o'sish sur'atlarini oshirish, ishsizlikni kamaytirish va qashshoqlikka qarshi kurashga qaratilgan. Shuningdek, ushbu bo'lim gumanitar sohadagi muammolarni hal qilish bilan shug'ullanadi.

ECOSOC ijtimoiy sohadagi (ta'lim va sog'liqni saqlash) muammolarni hal qiladi, shuningdek inson huquqlariga rioya etilishini nazorat qiladi. ECOSOC, o'z tuzilishiga ko'ra, nafaqat tartibga soluvchi, balki nazorat qiluvchi organ hamdir. U BMTning o'n besh tarkibiy bo'linmasi ishini nazorat qiladi. Bundan tashqari, ushbu bo'linmadagi ishtirokchi davlat vakillari global iqtisodiyotning eng dolzarb muammolarini muhokama qiladilar. ECOSOC a'zolari 54

davlatdan iborat. Ular BMT Bosh assambleyasining majlisida saylanadi. Barcha qarorlar ovozlarni hisoblash orqali qabul qilinadi. Shunday qilib, Iqtisodiy va ijtimoiy Kengashning jahon iqtisodiyotidagi roli ishtirokchi davlatlarning barqaror rivojlanishi uchun shart-sharoitlarni ta'minlashdan iborat⁷³.

Iqtisodiy Kengash doimiy ishlaydigan organ emas va u o'z faoliyatini yiliga bitta tashkiliy va ikkita doimiy sessiyalar asosida olib boradi. Davlatlarning vakillik kvotasi quyidagicha belgilanadi: 14 - Afrika; 11 - Osiyo; 6 - Sharqiy Yevropa; 10 - Lotin Amerikasi va Karib dengizi; 13 - G'arbiy Yevropa va AQSh. Xalqaro iqtisodiy hamkorlik sohasida ECOSOC BMT siyosatining iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va gumanitar jihatlari uchun javobgardir. U xalqaro xarakterga ega xalqaro iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni muhokama qilish, shuningdek, BMTga a'zo davlatlar uchun ushbu masalalar bo'yicha siyosiy tavsiyalarni ishlab chiqish uchun markaziy forum bo'lib xizmat qiladi. Bundan tashqari, Kengash iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik muammolar, madaniyat, ta'lim, sog'liqni saqlash, inson huquqlariga rioya qilish sohalarida ilmiy tadqiqotlar olib boradi.

ECOSOC o'z faoliyati davomida quyidagi funktsiyalarni amalga oshiradi:

- iqtisodiy va ijtimoiy sohalaridagi, shuningdek madaniyat, ta'lim, sog'liqni saqlash sohalaridagi xalqaro muammolar bo'yicha tadqiqotlar va ma'ruzalar tuzish va ushbu masalalar bo'yicha tavsiyalarni Bosh assambleyaga va manfaatdor ixtisoslashtirilgan muassasalarga taqdim etish;

- global va tarmoqlararo xalqaro iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni muhokama qilish va ushbu masalalar bo'yicha siyosiy tavsiyalarni ishlab chiqish;

- Bosh assambleya tomonidan iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa sohalarida ishlab chiqilgan umumiy siyosat strategiyasini nazorat qilish va baholash;

- BMT tizimining konferentsiyalari va boshqa forumlarida qabul qilingan siyosiy qarorlar va tavsiyalarni muvofiqlashtirish va amalga oshirish;

- BMT tizimidagi tashkilotlarning iqtisodiy, ijtimoiy va tegishli sohalaridagi faoliyatini umumiy muvofiqlashtirishini ta'minlash;

⁷³ Зубенко В. В. Международная экономика и мировые экономические отношения: учебное пособие / В. В. Зубенко, О. В. Игнатьева, Н. Л. Орлова. -- Люберцы: Юрайт-М, 2016. -- С. 333.

– Birlashgan Millatlar Tashkiloti tizimida operatsion siyosatni har tomonlama ko‘rib chiqish.

Iqtisodiy va ijtimoiy Kengash tarkibiga iqtisodiy masalalar bilan shug‘ullanadigan komissiyalar, qo‘mitalar va maxsus guruhlar kiradi. ijtimoiy rivojlanish muammolarini hal qiluvchi *6 funksional komissiya* va kichik komissiyalar faoliyat yuritadi:

- giyohvandlik vositalari bo‘yicha;
- fan va texnika bo‘yicha;
- rivojlanish maqsadlarini ko‘zlovchi;
- barqaror rivojlanishni ta‘minlash bo‘yicha;
- statistika bo‘yicha;
- transmilliy korporatsiyalar bo‘yicha.

5 ta mintaqaviy komissiya: Yevropa, Osiyo va Tinch okeani, Afrika, Lotin Amerikasi va Karib havzasi va G‘arbiy Osiyo uchun; *2 ta doimiy komissiya:* dasturlarni amalga oshirish va nodavlat tashkilotlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘yicha; *7 ekspert organlari:* Rejalashtirishni rivojlantirish qo‘mitasi; Soliq sohasida xalqaro hamkorlik bo‘yicha maxsus ekspertlar guruhi; - xavfli yuklarni tashish qo‘mitasi, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar qo‘mitasi, milliy manbalar qo‘mitasi, an‘anaviy va yangi energiya manbalari bo‘yicha qo‘mita.

Mintaqaviy komissiyalarning vazifalari quyidagilardan iborat: dunyoning tegishli mintaqalarining iqtisodiy muammolarini o‘rganish, mintaqaviy a‘zolarining iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishiga ko‘maklashish bo‘yicha chora-tadbirlar va vositalarni iqtisodiyotning rivojlanayotgan tarmoqlari va mintaqaviy savdo muammolarini hal etishga qaratilgan harakatlarini muvofiqlashtirish orqali rivojlantirish. Funksional komissiyalar Iqtisodiy va ijtimoiy Kengashning asosiy tarkibiy bo‘linmalari hisoblanib, faoliyat sohaslariga ko‘ra birbirlaridan farqlanadi.

Ijtimoiy rivojlanish bo‘yicha komissiya (Commission for Social Development – CSD) 1946-yilda kengashga umumiy ijtimoiy siyosatni amalga oshirishda, shuningdek ixtisoslashtirilgan muassasalar tomonidan qamrab olinmagan sohalarda ko‘mak berish maqsadida tuzilgan. Komissiya har yili Nyu-Yorkda sakkiz kun davomida yig‘iladi. 1997-yildan buyon komissiya a‘zolarining umumiy soni 46 tani tashkil etadi. A‘zo davlatlar vakilligi: 12 - Afrika; 10 - Osiyo; 9 - Lotin Amerikasi va Karib dengizi; 5 - Sharqiy Yevropa; 10 - G‘arbiy Yevropa va AQSh.

Statistika bo'yicha komissiya (Statistical Commission)ga a'zo davlatlarning milliy statistikasini takomillashtirish va taqqoslashni yaxshilashda ECOSOSga yordam berish maqsadida 1946-yilda tashkil etilgan. Uning vakolati doirasiga BMT organlariga statistik ma'lumotlarni to'plash, tahlil qilish, tarqatish va takomillashtirish bilan bog'liq muammolar bo'yicha yordam ko'rsatish masalalari kiradi. Komissiyada BMTga a'zo 24 davlat vakillari ishlaydi.

Giyohvand moddalar bo'yicha komissiya (Commission on Narcotic Drugs – CND) Kengashning eng qadimgi bo'linmalaridan biri hisoblanadi. U 1946-yilda ECOSOSga giyohvand moddalar nazorati bilan bog'liq barcha masalalar bo'yicha xalqaro shartnomalarni ishlab chiqishda yordam berish maqsadida tashkil etilgan. 1991-yildan buyon Komissiya tarkibiga 53 ta a'zo kiritilgan bo'lib, ular ixtisoslashtirilgan idoralar hamda Giyohvandlik vositalari to'g'risidagi konvensiyaga a'zo davlatlar vakillaridan saylanadi.

Rivojlanish maqsadlarini ko'zlovchi fan va texnologiyalar bo'yicha komissiya (Commission on Science and Technology for Development). Funktsional komissiya sifatida ushbu tashkilot 1992-yilda tashkil etilgan. Uning vazifalariga quyidagilardan iborat: BMTning iqtisodiy va ijtimoiy sohalaridagi faoliyatini isloh qilish va jonlantirish; Bosh assambleyaga BMTning fan va texnologiyalar sohasidagi siyosatini muvofiqlashtirish bo'yicha ko'rsatmalar ishlab chiqishda yordam berish; fan va texnologiyalarni rivojlantirishni tezkor rejalashtirish bo'yicha ustuvor vazifalarni aniqlash; rivojlanayotgan davlatlarning ilmiy va texnologik potentsialiga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan yangi ilmiy va texnologik yutuqlarni aniqlash va baholash choralarini ko'rish; resurslarni eng maqbul ravishda jalb qilish va BMTning fan va texnologiyalarni moliyalashtirish tizimiga rahbarlik qilish.

Barqaror rivojlanish bo'yicha komissiya (Commission on Sustainable Development - CSD) 1993-yilda atrof-muhitni muhofaza qilish va jamiyatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha BMT konferentsiyalari qarorlari ijrosini ta'minlash maqsadida tashkil etilgan. Bugungi kunga kelib komissiya tarkibiga 53 davlat vakillari kiritilgan, ularning vakolat muddati - uch yil. Davlatlarning vakolatxonalarini quyidagi kvotalarga ega: 13 - Afrika; 11 - Osiyo; 10 - Lotin Amerikasi va Karib dengizi; 6 - Sharqiy Yevropa; 113 - G'arbiy Yevropa va AQSh.

Transmilliy korporatsiyalar bo'yicha komissiya (Commission on Transnational Corporation) 1974-yilda transmilliy korporatsiyalar faoliyati bilan bog'liq masalalarni ko'rib chiqish maqsadida tashkil etilgan.

ECOSOC BMT tizimidagi yagona iqtisodiy tashkilot emas. 1965-yilda 43 nafar iqtisodiy nochor davlatlarda ko'mak berish maqsadida "BMTning Taraqqiyot dasturi" - (United Nations Development Programme – UNDP) yaratildi. Tashkilotga 48 davlat a'zo bo'lgan⁷⁴. Bu ko'p tarmoqli iqtisodiy va texnik yordamni moliyalashtiradigan BMT tizimidagi eng yirik tashkilot.

BMT TARAQQIYOT DASTURI faqat davlatlar hukumatlariga yoki ular orqali yordam ko'rsatishga mo'ljallangan

BMT Taraqqiyot dasturi iqtisodiy rivojlanishning quyidagi vazifalarini hal etishga da'vat etadi:

– rivojlanayotgan davlatlarga muntazam ravishda moliyaviy va texnologik yordam ko'rsatish orqali ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirishga ko'maklashish;

– rivojlanayotgan davlatlarga ushbu davlatlar aholisining iqtisodiy va ijtimoiy farovonligining yuqori darajasiga erishishda yordam berish.

Tashkilotning texnik yordam ko'rsatish borasidagi asosiy vazifalarini samarali hal qilishda quyidagi mexanizmlar ustuvor ahamiyat kasb etadi:

– maslahat va ekspert xizmatlarini ko'rsatish, seminarlar o'tkazish, mahalliy mutaxassislarning xorijda malakasini oshirish;

– atrof-muhit, aholi va global darajadagi boshqa muammolarni hal qilishning innovatsion usullarini ishlab chiqish;

– BMTning doimiy koordinatorlari faoliyati samaradorligini oshirish, shuningdek boshqa tashkilotlar bilan hamkorlikni kuchaytirish orqali o'z mavqecini mustahkamlash;

– kuchlarni "jamiyatning barqaror rivoji" ning asosiy jihatlariga safarbar etgan holda, qashshoqlikka barham berish, atrof-muhitni yaxshilash, bandlikni ta'minlash, ayollar va aholining ijtimoiy zaif qatlamlariga yordam berish;

⁷⁴ Ayrim manbalarda a'zolarning soni 46 nafarni tashkil etadi.

– milliy rahbar kadrlarni tayyorlash, iqtisodiy menejment sohasidagi islohotlarga ko‘maklashish;

– favqulodda vaziyatlarda yordam berish kabilar shular jumlasidandir.

BMT Taraqqiyot dasturining byudjeti (taxminan 1 milliard AQSh dollari) yillik ixtiyoriy badallar asosida shakllantiriladi. Asosiy donorlar iqtisodiy rivojlangan davlatlardan iborat: AQSh (199,5 million dollar), Yaponiya (98,1), Gollandiya (97,4), Daniya (92,8), Shvetsiya (79,2), Norvegiya (75,2), Germaniya (61,5). Rivojlanayotgan davlatlar orasida eng yirik sarmoyadorlar Hindiston (5,1), Xitoy (2,8), Saudiya Arabistoni (2,0) va Tailand (1,9).

Ijroiya kengashi (Executive Board) 3 yil muddatga saylanadigan 36 ta davlat vakillaridan iborat bo‘lgan organdir. U BMT Bosh kotibi tomonidan tayinlanadigan ma‘mur tomonidan boshqariladi. Ayni paytda ushbu dastur 150 dan ortiq davlatni qamrab olgan bo‘lib, ularda 6500 dan oshiq loyihalar amalga oshirilmoqda.

UNIDOga 1966-yilda sanoatni rivojlantirishga yordam berish maqsadida asos solingan. Tashkilotga 170 davlat a‘zo⁷⁵.

Iqtisodiy rivojlanish muammolarini global miqyosda hal qiladigan BMT tizimining yana bir tashkiloti **BMTning Sanoatni rivojlantirish tashkiloti – UNIDO (United Nations Industrial Development Organization)** hisoblanadi.

UNIDOning funksional vazifalari:

– BMT tizimida sanoatni rivojlantirish sohasida muvofiqlashtiruvchi rolini amalga oshirish;

– global, mintaqaviy, milliy va tarmoq miqyosidagi hamkorlikni rivojlantirish hamda sanoat ravnaqiga hissa qo‘shish;

– o‘tish davri iqtisodiyotiga ega bo‘lgan va rivojlanayotgan davlatlar sanoatni qayta qurishga ko‘maklashish;

– rivojlanayotgan davlatlarni sanoatlashtirish va infratuzilmani rivojlantirishga ko‘maklashish;

– aniq loyihalarni amalga oshirish orqali rivojlanayotgan davlatlarga texnik yordam ko‘rsatish.

⁷⁵ ЮНИДО // URL.: <https://ru.wikipedia.org/wiki/>

UNIDO faoliyatining asosiy yo'nalishlari:

- rivojlanayotgan davlatlarni sanoatlashtirishda ishtirok etish;
- Afrika davlatlarini ustuvor tarzda sanoatlashtirish.
- rivojlanayotgan davlatlar iqtisodiyotiga zamonaviy ishlab chiqarish usullari, boshqaruv dasturlarini joriy etish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni targ'ib qilish, milliy kadrlar tayyorlash, maqsadli loyihalarga investitsiyalarni jalb qilish;
- rivojlanayotgan davlatlarni moddiy va moliyaviy resurslar bilan ta'minlash (sanoat uskunalari, konsalting xizmatlari, yangi texnologiyalar va boshqalar);
- mutaxassislar va maslahatchilarni yuborish orqali ishlab chiqarish obyektlarini qurishda texnik yordam ko'rsatish;
- sanoat, kasaba uyushmalari, iste'molchilar ishtirokidagi konferentsiyalar, uchrashuvlar va tematik seminarlar shaklida maslahat yordamini ko'rsatish kabilar shular jumlasidandir.

Bosh konferentsiya va Sanoatni rivojlantirish kengashi UNIDONing asosiy organlari hisoblanadi.

UNIDO rahbarlik tamoyillari va siyosati har ikki yilda bir marta muntazam sessiyalarda o'tkaziladigan **Bosh konferentsiyada** belgilanadi. Unda tashkilotning ikki yillik byudjeti tuziladi va moliyaviy resurslardan foydalanish bo'yicha hisobotlar qabul qilinadi.

Konferentsiyalar o'rtasida davr mobaynida boshqaruv funktsiyalari **Sanoatni rivojlantirish kengashi** tomonidan amalga oshiriladi. Uning tarkibiga UNIDOGa a'zo 53 davlatning vakillari kiradi, ulardan 33tasi rivojlanayotgan davlatlar, 15tasi sanoatlashgan davlatlardan, 5tasi o'tish davri iqtisodiyotiga ega davlatlardan iborat. UNIDO operativ faoliyati bilan bog'liq xarajatlar ixtiyoriy badallar hisobidan moliyalashtiriladi. Yillik texnik yordamning umumiy hajmi 100 million AQSh dollarini tashkil etadi.

Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti - IHRT (Organization for Economic Cooperation and Development - OECD) xalqaro hukumatlararo iqtisodiy tashkilotdir. Uni tashkil etish to'g'risidagi konvensiya 1960-yil 14- dekabrda Parijda AQShning tashabbusi bilan imzolangan va 1961-yil 30- sentyabrda barcha a'zo davlatlar tomonidan ratifikatsiya qilinganidan so'ng kuchga kirgan.

IHRT1948-yil 16-aprelda Marshal rejasi asosida ajratilgan Amerika yordami asosida G'arbiy Yevropa davlatlari iqtisodiyotini tiklash va isloh qilish maqsadida tashkil etilgan Yevropa iqtisodiy hamkorlik tashkiloti negizida tashkil etilgan. Keyinchalik boshqa mintaqa davlatlarining qo'shilishi hisobiga IHRTning geografik qamrovi kengaydi. Hozirgi kunda 37 davlat tashkilot a'zosi hiaoblanadi: Avstraliya, Avstriya, Belgiya, Buyuk Britaniya, Vengriya, Germaniya, Gretsiya, Daniya, Isroil, Irlandiya, Islandiya, Ispaniya, Italiya, Kanada, Kolumbiya, Latviya, Litva, Lyuksemburg, Meksika, Niderlandiya, Yangi Zelandiya, Norvegiya, Polsha, Portugaliya, Slovakiya, Sloveniya, AQSh, Turkiya, Finlyandiya, Fransiya,Chexiya, Chili, Shveysariya, Shvetsiya, Estoniya Janubiy Koreya, Yaponiya.

IHRTga a'zo davlatlar dunyo aholisining 16 %ni tashkil qiladi va dunyo ishlab chiqarishining 2/3 qismini tashkil qiladi

IHRTning maqsadlari quyidagilardan iborat: a'zo davlatlarda iqtisodiy o'sish va bandlikni ta'minlash; a'zo davlatlar siyosatini muvofiqlashtirish orqali iqtisodiy va ijtimoiy farovonlikni ta'minlash; IHRT a'zolarining rivojlanayotgan davlatlarni qo'llab-quvvatlash borasidagi harakatlarini rag'batlantirish va muvofiqlashtirish.

IHRT tashkilot a'zolarining badallari hisobidan moliyalashtiriladi. Tashkilotning byudjeti ikki qismdan iborat. Uning bir qismi doimiy asosda tashkilotning barcha a'zolari badallari hisobidan shakllanadi. Qolgan qismi alohida ishlarning bajarilishidan manfaatdor davlatlar mablag'laridan iborat. IHRT boshqa xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikka alohida e'tibor qaratadi. Yevropa hamjamiyatlari komissiyasining vakillari ikki tashkilot o'rtasidagi protokolga muvofiq IHRTfaoliyatida qatnashadilar. IHRT XVF, XTTB, EFTA, XMT, FAO va boshqa tashkilotlar bilan hamkorlik aloqalarini o'rnatgan.

Tarkibiy tuzilishi. IHRTning oliy organi har bir davlatdan bittadan ishtirokchi-davlatlar elchilari darajasidagi doimiy vakillarni o'z ichiga olgan Kengash. Elchilar a'zo davlatlarning IHRTdagi doimiy vakolatxonalarini boshqaradilar. Kengash Bosh kotib tomonidan boshqariladi. Kengash odatda ikki haftada bir marotaba doimiy vakillar tarkibida va yilda bir marta, may oyining oxirida - iyun boshida tashqi ishlar, moliya va tashqi savdo vazirlari darajasida

yig'iladi. Kengashga, uning qarorlari ijrosini umumiy nazorat qiluvchi Ijroiya qo'mitasi bo'ysunadi. Uning tarkibi 14 vakildan iborat. Kotibiyat IHRTning doimiy faoliyat yuritadigan apparati bo'lib, uning boshqaruv organlari ishini ta'minlaydi. U Bosh kotib (shuningdek, Kengashning Bosh kotibi) tomonidan boshqariladi. Kotibiyat xodimlari 600 nafar tezkor va 1200 nafar ma'muriy-texnik xodimlardan iborat. Kotibiyat ma'lumot to'plash va qayta ishlash, hujjatlar va tavsiyalar tayyorlash, iqtisodiy va ijtimoiy masalalar bo'yicha hisobot va eslatmalar tayyorlash hamda nashr ishlari bilan shug'ullanadi. Ushbu materiallar Kotibiyat direktsiyalari tomonidan tayyorlanadi.

Iqtisodiyot direktsiyasi - jahon iqtisodiyoti va IHRTga a'zo davlatlarning rivojlanish tendentsiyalari va istiqbollari tahlili; - har bir a'zo davlatning iqtisodiy faoliyati va siyosatining yillik sharhlarini tayyorlash; - a'zo davlatlarda tarkibiy islohotlarni amalga oshirilishi monitoringini tashkil etish va tavsiyalar berish; - valyuta va moliya sohasida hamkorlik bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish; - IHRTga a'zo davlatlar, shuningdek ular va boshqa davlatlar o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlar tahlili bilan shug'ullanadi.

Statistika boshqarmasi - a'zo davlatlar bo'yicha statistik ma'lumotlarni to'plash; - statistik nashrlarni tayyorlash; - milliy hisoblar sohasidagi tadqiqotlarning statistik usullarini ishlab chiqish; - statistik tadqiqotlar samaradorligini tahlil qilish bilan shug'ullanadi.

Ekologiya direktsiyasi - atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi tadbirlarni belgilash; - energiya va atrof-muhitni muhofaza qilish o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni tahlil qilish; - ekologik toza texnologiyalarning tarqalishiga to'sqinlik qiluvchi omillarni aniqlash; - sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning odamlarga va atrof-muhitga ta'siri, shuningdek baxtsiz hodisalar muammolarini o'rganish; - shaharsozlik va atrof-muhit o'rtasidagi nisbatni aniqlash bilan shug'ullanadi.

Rivojlanishga ko'maklashish direktsiyasi - rivojlanayotgan davlatlarning barqaror iqtisodiy o'sishiga ko'maklashish; - rivojlanayotgan davlatlarning jahon iqtisodiyotiga integratsiyasi muammolari tahlil qilish; - tashkilotga a'zo davlatlarning rivojlanayotgan davlatlarga nisbatan siyosatini uyg'unlashtirish masalalari bilan shug'ullanadi.

Savdo direktsiyasi - ochiq xalqaro savdo tizimini takomillashtirish va proteksionizmni bartaraf qilish bo'yicha

tavsiyalar ishlab chiqish; - jahon savdosining davriy sharhlarini tuzish; - rivojlanayotgan davlatlar bilan savdo aloqalarini mustahkamlash; - Markaziy va Sharqiy Yevropa davlatlarining jahon savdosidagi ishtiroki; - savdo munosabatlaridagi cheklovlarni bartaraf etish kabi masalalar bilan shug'ullanadi.

Moliya, soliq va korxonalar direksiyasi - moliya sohasida tarkibiy islohotlarni ilgari surish; - moliyaviy hamkorlik (kapital oqimlari, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimini erkinlashtirish) va qulay investitsiya muhiti yaratish uchun shart-sharoit yaratish; - milliy soliq ma'muriyatlari o'rtasida hamkorlikni rivojlantirish; - turizm sohasidagi hamkorlik masalalari kabilar bilan shug'ullanadi.

Fan, texnologiyalar va sanoat direksiyasi - fan, texnologiya, iqtisodiyot va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarni tahlil qilish; - a'zo davlatlar texnologik va sanoat siyosatining makroiqtisodiy asoslarini o'rganish; - a'zo davlatlarning iqtisodiy siyosatini o'rganish; - dengiz transporti va kema qurilishini qayta qurish kabilar bilan shug'ullanadi.

Ta'lim, bandlik, mehnat va ijtimoiy masalalar bo'yicha direksiya - bandlik va mehnat bozorini takomillashtirish bo'yicha tadqiqotlar o'tkazish; - pensiya, sog'liqni saqlash tizimini tahlil qilish; - ta'lim va iqtisodiy rivojlanish o'rtasidagi munosabatlardagi muammolarni tadqiq qilish; - ta'lim olishda ijtimoiy adolat masalalari; - ijtimoiy siyosat, mehnat bozori, ta'lim va kadrlar tayyorlash o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni o'rganish kabilar bilan shug'ullanadi.

Oziq-ovqat, qishloq xo'jaligi va baliqchilik direksiyasi - a'zo davlatlarning qishloq xo'jaligi sohasidagi siyosatini monitoring qilish, baliqchilikka oid sharhlar tayyorlash; - qishloq xo'jaligi va baliqchilik sohasidagi tarkibiy islohotlarni tahlil qilish, qishloq xo'jaligiga ko'rsatilayotgan yordam samaradorligini baholash; - asosiy qishloq xo'jaligi mahsulotlarining bozor prognozlarini yuritadi.

Davlat boshqaruvi xizmati - davlat sektori samaradorligini tahlil qilish; - davlat siyosati va uni amalga oshirish o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik, resurslarning asosiy turlariga javob beradigan davlat mexanizmlarining samaradorligi bo'yicha sharhlar tayyorlash; - a'zo davlatlarning davlat xizmatlari to'g'risidagi ma'lumotlarni taqqoslash bilan shug'ullanadi.

Hududiy rivojlanish xizmati - shaharlar soni ortishining iqtisodiy rivojlanishga ta'sirini o'rganish; - shahar va qishloq

rivojining aholi bandligini oshirishga ta'sirini o'rganish; - shahar rivojlanishining atrof-muhitga ta'sirini tahlil qilish bilan shug'ullanadi. Tashkilotning asosiy faoliyati ixtisoslashgan qo'mitalar va ishchi guruhlarda amalga oshiriladi. IHRT tarkibida bir qator avtonom va yarim avtonom organlar ham mavjud bo'lib, ularning har biri o'z ma'muriy apparatlariga ega. Bularga quyidagilar kiradi: Xalqaro Energetika Agentligi, Yadro Energiyasi Agentligi, Taraqqiyot Markazi, "Sahel" do'stlari klubi, Tadqiqot va tajribalar markazi.

Vazifalari. IHRT faoliyatining muhim yo'nalishlaridan biri a'zo davlatlar tomonidan olib borilayotgan makroiqtisodiy siyosatni muvofiqlashtirishdan iborat. Tashkilotning ushbu sohadagi faoliyati inflyatsiyani pasaytirish va iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashga qaratilgan. Shu bilan birga, IHRT valyuta va byudjet siyosati kontseptsiyalarini ishlab chiqishga alohida e'tibor qaratmoqda, zero ularning yordami bilan talab tartibga solinadi va rivojlanishning o'rt muddatli tendentsiyalariga ta'sir ko'rsatish mumkin bo'ladi.

Tashqi iqtisodiy munosabatlardan ko'zlangan maqsad davlatlar o'rtasidagi muvozanatga erishishdan iborat. IHRT xalqaro uchrashuvlar, shu jumladan yetakchi kapitalist davlatlarning G7 rahbarlari uchrashuvlari uchun jahon iqtisodiyotini tartibga solish bo'yicha materiallarni ishlab chiqadi. Tarkibiy siyosatni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun ko'pgina davlatlar subsidiyalardan foydalanadilar. Jamoatchilik yordami samarali bo'lishi uchun, IHRT uni taqdim etishning asosiy prinsiplarini ishlab chiqqan.

Bularga quyidagilar kiradi: yordanning muddatlilik xususiyati, uning iqtisodiy rivojlanish rejaları bilan o'zaro bog'liqligi, tarkibiy nomutanosibliklarga ega bo'lgan tarmoqlar uchun ustuvorlik, past rentabelli korxonalariga yordam berishdan bosh tortish. IHRT faoliyatida bozorning normal ishlashini ta'minlash, tadbirkorlik faoliyatini tartibga solish vositalarini ishlab chiqish masalalari muhim o'rin egallaydi.

IHRT turli xildagi tadbirkorlik subyektlarining milliy bozorlardagi to'sqinliksiz faoliyati uchun shart-sharoitlar yaratish, alohida davlatlar tomonidan qo'yilgan cheklovlarni bartaraf etish, biznes amaliyotini har tomonlama liberallashtirish zaruratini hisobga oladi. IHRT tahliliy faoliyatining ustuvor yo'nalishlaridan biri xalqaro moliyaviy inqirozning tashkilotga a'zo bir qator davlatlarga ta'siri, ularning sabab va oqibatlarini o'rganishdan iborat. IHRT inqirozning kengayishining

oldini olish uchun tegishli amaliy choralarni ishlab chiqmoqda. Shu maqsadda milliy rivojlanish strategiyalarini qayta ko'rib chiqish imkoniyatlarini izlash ishlari olib borilmoqda. Xorijiy investitsiyalar IHRT faoliyatining yana bir muhim yo'nalishlaridandir.

3-§. Xalqaro valyuta-moliyaviy va kredit tashkilotlari (Jahon banki guruhi, XVJ)

Jahon banki guruhi (JB): Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki (XTTB), Xalqaro rivojlanish uyushmasi (XRU), Xalqaro moliya korporatsiyasi (XMK), Investitsiyalarni kafolatlash bo'yicha ko'p tomonlama agentlik, Investitsion nizolarni hal qilish bo'yicha xalqaro markaz. Pul-moliya siyosati bilan shug'ullanuvchi ko'plab xalqaro tashkilotlarning (ularning soni 40 dan ortiq) yiriklari: Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki (XBRB), Xalqaro rivojlanish uyushmasi (XRB), Xalqaro moliya korporatsiyasi (IFC), ko'p tomonlama. Investitsiyalarni kafolatlash bo'yicha agentlik (MIGA), Investitsiyalar bo'yicha nizolarni hal qilish xalqaro markazi (ICSID), Xalqaro valyuta jamg'armasi (XVJ). Ularning deyarli barchasi Jahon banki guruhining bir qismidir. U barcha hukumatlararo tashkilotlar tomonidan rivojlanayotgan mamlakatlarga ajratilgan mablag'larning kamida yarmini tashkil etadi. Ushbu tashkilotlarning xarakterli xususiyatlarini, shuningdek ularning ishlash prinsiplarini aniqlash maqsadida biz ularning har birini batafsil ko'rib chiqamiz.

JAHON BANKI (JB) BMT tizimiga kiruvchi beshta yaqin tashkilotlardan iborat bo'lgan ko'p tomonlama kredit tashkiloti bo'lib, uning maqsadi rivojlanayotgan davlatlar hisobidan rivojlanayotgan davlatlarga moliyaviy ko'mak berishdan iborat.

Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki – XTTB (International Bank for Reconstruction and Development – IBRD)

XTTB - Birlashgan Millatlar Tashkilotining ixtisoslashgan muassasasi bo'lib, uning vazifalariga konsalting va maxfiy bo'lmagan ma'lumotlarni taqdim etish kiradi

Tashkilot 1945-yilda 28 davlat tomonidan shartnoma imzolanishi natijasida tashkil etilgan. 1947-yilda bitim BMT Bosh assambleyasi

tomonidan ma'qullangan. Bundan tashqari, Birlashgan Millatlar XTTBni mustaqil xalqaro tashkilot sifatida tan olgan. Imzolangan shartnomaga muvofiq, bankka BMTning bir qator tashkilotlarida (ECOSOC, UNDP), mintaqaviy iqtisodiy komissiyalarda, shuningdek Bosh assambleyada vakillim qilish huquqi berilgan. Bugungi kunda XTTBga 189 davlat a'zo bo'lib, bunda Xalqaro valyuta jamg'armasining a'zolarigina bank a'zosi bo'lishi mumkin.

XTTBning maqsadi quyidagilardan iborat:

– ishlab chiqarishni rivojlantirish maqsadida sarmoyalarni jalb qilish orqali a'zo davlatlarning tiklanishi va rivojlanishiga ko'maklashish;

– xuddi shu maqsadlarda xususiy xorijiy investitsiyalarni rag'batlantirish;

– xalqaro savdning uzoq muddatli va mutanosib o'sishini ta'minlash.

XTTBning faoliyati yo'nalishlari:

– ishlab chiqarishga yo'naltirilgan maqsadli loyihalari, qishloq xo'jaligini va energetikani rivojlantirish maqsadida- rivojlanayotgan davlatlarga uzoq muddatli qarz va kreditlar berish;

– rivojlanayotgan davlatlarga infratuzilmani, ya'ni: avtomobil va temir yo'llari, telekommunikatsiya tarmoqlari, shahar portlari, elektr stansiyalari, shuningdek ta'lim, sog'liqni saqlash, kadrlar tayyorlashni rivojlantirish uchun kreditlar ajratish;

– bozor narxlariga yaqin bo'lgan foiz stavkalarini mustaqil ravishda to'lay olish imkoniga ega bo'lmagan rivojlanayotgan davlatlarga kreditlar taqdim etish;

– xalqaro moliyaviy bozorlarda to'lovga qodir bo'lmagan qashshoq davlatlarga kredit ajratish;

– bank a'zolariga, shu jumladan xususiy firmalarga uzoq muddatli qarz va kreditlar berish;

– rivojlanayotgan davlatlarga texnik ko'mak berish;

– obyektни aniqlash, loyiha qiymatini tayyorlash va baholash kabilarni o'z ichiga olgan moliyalashtiriladigan loyihalarni tayyorlash va amalga oshirish;

– iqtisodiy, ilmiy va texnik masalalar bo'yicha tadqiqotlar o'tkazish;

– tarmoq va umumiy iqtisodiy loyihalarning moliyalashtirilishi munosabati bilan bank va kambag'al a'zo davlatlar o'rtasidagi siyosiy muloqotga ko'maklashish;

– milliy darajada nodavlat tashkilotlari bilan hamkorlik qilish, ularga loyihalarni moliyalashtirish va maslahat yordami uchun mablag'lar ajratish;

– rivojlanayotgan davlat vakillari uchun seminarlar, o'quv kurslarini tashkil qilish va o'tkazish, o'quv materiallarini nashr etish va tarqatish.

XTTBning moliyaviy resurslari a'zo davlatlarning hissasi, xalqaro bozordagi qarz evaziga taqdim etiluvchi ssudali capitallar va bankning daromadlari hisobidan shakllantiriladi

Boshqaruvchilar kengashi bankning oily organi bo'lib, uning vazifalari quyidagilardan iborat:

- bankning umumiy siyosatini belgilash;
- yangi a'zolarni qabul qilish;
- bank ustav kapitalining miqdori to'g'risida qaror qabul qilish;
- sof daromadni taqsimlash.

Bugungi kunda XTTB ustav kapitali taxminan 190 milliard dollarni tashkil etadi (taqqoslash uchun: bank tashkil etilayotganda - 10 milliard). Tashkilot byudjetini shakllantirishda uning kvotasi bank jami kapitalining 3% (333,2 mln.) ni tashkil etadi⁷⁶.

Xalqaro rivojlanish uyushmasi - XRU (International Development Association – IDA) 1960-yilda tashkil etilgan. O'z nizomi va moliyaviy bazasiga ega bo'lgani bois, rasman XTTBdan mustaqil hisoblansada, amalda u XTTB tomonidan boshqariladigan resurs jamg'armasi va filialidir. XTTB prezidenti, shuningdek, Xalqaro rivojlanish uyushmasining prezidenti hisoblanadi. XRU (IDA) - BMTning ixtisoslashgan muassasidir.

XRU a'zolari soni 173 davlatdan iborat.

XTTB va XRU faoliyati mablag'lar manbalari va kredit ajratish talablariga ko'ra o'zaro farqlanadi. XTTB o'z moliyaviy resurslarining katta qismini xalqaro moliya bozorlaridan oladi va rivojlanayotgan

⁷⁶ 2019 yilda Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki tomonidan O'zbekistonga 500 million dollar miqdorida kredit mablag'i ajratilgan.

davlatlarga past foiz stavkalari bilan uzoq muddatli kreditlar ajratadi. XRU rivojlanayotgan davlatlarga donor-davlatlar hissasidan foizsiz kreditlar beradi.

XRUning maqsadlari:

– rivojlanayotgan nisbatan qashshoq davlatlarga uzoq muddatli kreditlar berish;

– Uyushma aʼzosi boʻlgan rivojlanayotgan davlatlarda iqtisodiy rivojlanishi va turmush darajasini oshirishga koʻmaklashish;

– aholi jon boshiga yillik daromadi eng past boʻlgan davlatlarda mehnat unumdorligini oshirishga koʻmaklashish.

XRUning faoliyat yoʻnalishlari:

– kambagʻal va kredit toʻlovini amalga oshirish layoqatiga ega boʻlmagan davlatlarga iqtisodiy rivoji uchun yoʻnaltirilgan loyihalarni kreditlash (bunda davlat bir qator shartlarga javob berishi kerak: siyosiy barqarorlik, har bir kishi uchun yillik daromad 1305 dollardan kamni tashkilo etishi, toʻlov balansida qiyinchiliklar mavjudligi, davlat siyosatining iqtisodiy rivojlanishga yoʻnaltirilganligi);

– moliyalashtirilayotgan loyihalardan foydalanish samaradorligini aniqlash maqsadida ekspertiza oʻtkazish;

– aʼzo davlatlarga iqtisodiy islohotlarni oʻtkazishga yordam berish.

Xalqaro moliya korporatsiyasi – XMK (International Finance Corporation – IFC.) Korporatsiya 1956-yilda mustaqil yuridik shaxs sifatida oʻz ustavi va resurslariga ega boʻlgan holda tashkil etilgan, ammo amalda u XITB va BMTning ixtisoslashgan organi hisoblanadi. XMK moliyaviy institut sifatida Jahon banki guruhlariga kiradi. Uning aʼzolari soni 184 davlatdan iborat.

XMKning maqsadlari:

– aʼzo davlatlarning iqtisodiy rivojlanishi uchun rivojlanayotgan davlatlarga xususiy tadbirkorlikni moliyalashtirishda koʻmaklashish;

– xorijiy kapital va mahalliy investitsiyalar ishtirokida tashkil etilgan korxonalarni boshqarishda koʻmaklashish;

– ishlab chiqarish sohasiga xususiy kapitalning kirib kelishini ragʻbatlantirish.

XMKning faoliyat yoʻnalishlari:

– aʼzo davlatlarda tadbirkorlikni hukumat tomonidan kafolatlanmagan holda, xususiy kompaniyalarga toʻgʻridan-toʻgʻri kreditlar berish yoʻli bilan moliyalashtirish (7 yildan 12 yilgacha);

– ishlab chiqarish va qazib olish sohalari, qishloq xoʻjaligi, kommunal xizmatlar va turizmga sarmoyalar kiritish;

- infratuzilmani rivojlantirish, atrof-muhitni muhofaza qilishga investitsiya kiritish uchun xususiy moliyaviy resurslarni jalb qilish;
- xorijiy kapital ishtirokida qo'shma korxonalar tashkil etish orqali kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishga ko'maklashish;
- ishlab chiqarish obyektlari loyihalarini tayyorlash va baholash;
- ishbilarmonlar doirasi va a'zo davlatlar hukumatlariga iqtisodiy rivojlanish bo'yicha quyidagi sohalarida maslahatlar berish: iqtisodiy siyosatni shakllantirish, biznes faoliyati maqsadlari va strategiyasini belgilash, xususiy sektorni moliyalashtirish manbalarini aniqlash;
- xususiy firmalarga texnik yordam ko'rsatish;
- chet ellik investorlar uchun ochiq bo'lgan yangi loyihalar, yangi bozorlar to'g'risida ma'lumot beruvchi axborot tadbirlarini o'tkazish.

XMKning yillik o'rtacha investitsiyalar hajmi 85 milliard dollarga baholanmoqda.

Boshqaruvchilar kengashi XMKning oliy organi bo'lib, uning tarkibiga XTTB Boshqaruvchilar kengashi tarkibidagi shaxslar kiradi. XTTB prezidenti - korporatsiya prezidenti hamdir. Tashkilotning moliyaviy resurslari, birinchi navbatda, a'zo davlatlarning XMK aksiyalariga egs bo'lishiga qarab shakllanadi; ikkinchidan, taqdim etilgan kreditlar bo'yicha foizlar hisobidan olingan XMK foydasidan ajratmalar; uchinchidan, aksiyalarni sotishdan tushgan mablag'lar hisobidan.

Investitsiyalarni kafolatlash bo'yicha ko'p tomonlama agentlik - MIGA (Multiateral Investment Guarantee Agency). MIGA agentligi 1988-yilda Jahon bankining filiali sifatida tashkil etilgan. Biroq, moliyaviy jihatdan ular mustaqildir. MIGA, ixtisoslashgan muassasaning xususiyatlari va funksiyalariga ega bo'lib, BMT tizimining tarkibiy qismi hisoblanadi. Bugungi kunda ushbu tashkilotga a'zo davlatlar soni 181 taga yetgan.

MIGAning maqsadlari:

- agentlikka a'zo bo'lgan rivojlanayotgan davlatlarda ishlab chiqarish maqsadlariga yo'naltirilgan investitsiyalarni kafolatlash;
- notijorat xatarlardan sug'urta va qayta sug'urtalash;
- loyihalarning ishlab chiqilishiga ko'maklashish, shuningdek, ma'lum bir davlatning ehtiyojlari nuqtai nazaridan ularning maqsadga muvofiqligini ta'minlash;
- rivojlanayotgan davlatlarga xorijiy investitsiyalar kirib kelishini rag'batlantirish uchun texnik yordam ko'rsatish.

MIGAning faoliyat yo'nalishi:

– qabul qiluvchi davlatda mulkni ekspropriatsiya qilish, urush va fuqarolik tartibsizliklari, milliy valyutaning konvertatsiyasidan kelib chiqadigan zarardan himoya qilish kafolatlarini ta'minlash;

– qo'shma sug'urta yoki qayta sug'urta operatsiyalarini o'tkazish;

– rivojlanayotgan davlatlarga loyihalarni ishlab chiqishda va kafolatlarga talabnomalarni tayyorlashda yordam berish;

– to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish maqsadida rivojlanayotgan davlatlarga yordam berish.

Boshqaruvchilar Kengashi MIGAning oliy organi hisoblanadi. Agentlikning umumiy operativ faoliyati uchun 20 kishidan iborat. Direktorat javobgar hisoblanadi. XTTB prezidenti Direktorat raisi hisoblanadi. MAIGNi moliyalashtirish manbai a'zo davlatlarning badallari hisobidan shakllantiriladigan asosiy kapitaldan iborat.

Investitsion nizolarni hal qilish bo'yicha xalqaro markaz (ICSID). Investitsiyalar bo'yicha nizolarni hal qilish markazi 1966-yilda hukumatlar va xorijiy investorlar o'rtasida hakamlilik va nizolarni hal etish bo'yicha xizmatlarni taqdim etish orqali xalqaro investitsiyalar oqimini ko'paytirishga yordam berish maqsadida tashkil etilgan.

Xalqaro valyuta jamg'armasi - XVJ (International Monetary Found -- IMF). Xalqaro valyuta jamg'armasi (XVJ) moliyaviy faoliyatni boshqaruvchi eng muhim tuzilmalardan biri hisoblanadi. XVJ BMF tizimining ixtisoslashgan muassasasi sifatida faoliyat yuritadi, ammo Birlashgan Millatlar Tashkiloti va XVJ o'rtasidagi kelishuvga muvofiq, BMT o'z siyosati bo'yicha jamg'armaga tavsiyalar berishga haqli emas. Xalqaro valyuta jamg'armasiga 190 davlat, shu jumladan O'zbekiston ham a'zo⁷⁷. Jamg'armaning bosh qarorgohi Vashington (Kolumbiya okrugi)da joylashgan.

Dastlab mazkur tuzilmani yaratish zarurati 1944-yilda - Ikkinchi jahon urushining qizg'in pallasida muhokama qilingan. O'sha vaqtda mashhur XVJ xartiyasi imzolangan bo'lib, unga muvofiq kelgusida xuddi shu nomdagi tashkilot tashkil etiladi. Ammo XVJ 1947-yilning boshida faoliyat yurita boshladi. Ushbu tashkilotning asosiy maqsadi o'z a'zolariga past foiz stavkali bilan kredit berish, shuningdek xalqaro moliya bozorini muvofiqlashtirishdan iborat. Ushbu tuzilmaning bir

⁷⁷ 1992 yil 21 sentyabrda O'zbekiston Respublikasi Xalqaro valuta jamg'armasiga a'zo bo'ldi. 1993 yil sentyabrdan beri O'zbekistonda XVJ vakolatxonasi ish boshladi.

qismi bo'lgan davlat, xalqaro to'lovlar (masalan, tashqi qarzni to'lash uchun)ni amalga oshirishda yetarli mablag'ga ega bo'lmasa, XVFDan moliyaviy yordam so'rashi mumkin.

Xalqaro valuta jamg'arma o'z arsenalida bir qancha vositalarga – taqdim etish maqsadi va shartlarida ko'ra farqlanuvchi kredit berish mexanizmlariga ega. Xalqaro valuta jamg'armasining asosiy kredit mexanizmlari:

- 36 oy muddatga uzaytirilgan kredit berish;
- 24 oyga moslashuvchan kredit liniyasi;
- kompensatsion moliyalashtirish;
- “tez yordam” va boshqalar.

Xalqaro valyuta jamg'arma qarz olayotgan davlatlar uchun o'ziga xos shartlarni belgilash huquqiga ega bolib, kredit olish uchun shunga muvofiq ravishda ularga qat'iy rioya qilish talab etiladi⁷⁸.

Fondning maqsadlari:

- valyuta sohasida xalqaro hamkorlikni rivojlantirish;
- xalqaro savdo va bandlikning o'sishi hamda a'zo davlatlar iqtisodiy sharoitlarini yaxshilashga ko'maklashish;
- a'zo davlatlarning valyuta kurslarini ushlab turish uchun pul-kredit siyosatini kelishish va muvofiqlashtirish orqali xalqaro pul tizimining ishlashini ta'minlash;
- tenglik va valyuta kurslarini aniqlash.
- to'lov balansini qoplash va valyuta kurslarini barqarorlashtirish uchun a'zo davlatlarga xorijiy valyutada ssudalar va kreditlar berish orqali ko'mak berish;
- a'zo davlatlarga moliyaviy va valyuta masalalari bo'yicha maslahatlar berish.

Xalqaro valyuta jamg'armasiga a'zo bo'lish - XTTBga kirish uchun zarur bo'lgan shartlardan biridir.

Jamg'arma xalqaro pul tizimining asosi bo'lib xizmat qiladi. U a'zo davlatlar o'rtasidagi pul-valyuta munosabatlarini tartibga solish va valyuta bilan bog'liq qiyinchiliklar bo'lgan taqdirda ularga xorijiy valyutada qisqa muddatli kreditlar berish orqali moliyaviy yordam ko'rsatishga mo'ljallangan.

⁷⁸ Ерпылева Н. Ю. Мировые финансовые организации в качестве субъектов международного банковского права. // Юриспруденция и экономика. 2015. – № 11 (240). – С. 57-73.

XV.Jning faoliyat yo'nalishlari:

- valyuta sohasida xalqaro hamkorlikni ta'minlash (maxsus qoidalarga muvofiq yagona hisob-kitob tizimini saqlab turish);
- davlatlartlarga moliyaviy yordam berish;
- valyuta operatsiyalari bo'yicha maslahat va texnik yordam ko'rsatish.

Boshqaruv kengashi tashkilotning oliy organi hisoblanadi. Uning vazifalariga quyidagilar kiradi: yangi a'zolarni qabul qilish, a'zo davlatlar valyutalari paritetidagi o'zgarishlarni tasdiqlash, kvotalarni qayta ko'rib chiqish, sof daromadlarni taqsimlash va ijrochi direktorlarni saylash.

Jamg'arma tomonidan ishtirokchi davlatlarga kreditlar taqdin etilishi ular tomonidan so'nggi siyosiy va iqtisodiy shartlarning bajarganliklari bilan bog'liq.

Kreditlash tartibi XV.Jning quyidagi prinsiplariga asoslanadi:

1. Jamg'arma tomonidan taqdim etilayotgan moliyaviy manbalarga qaytish.

2. Qarz oluvchi davlat tomonidan mablag'larning qaytarilishini asoslash - qaytarish oddiy qarzni to'lash muddati davomida ta'minlanishi lozim.

3. Qarz oluvchi davlat operativ tarzda xarajatlarni qoplash uchun zarur bo'lgan to'lovlarni to'laydi.

Kredit muddati 3-5 yil, ayrim turdagi kreditlar esa 7-10 yil bilan cheklanadi. XTTB faqat kambag'al rivojlanayotgan davlatlarga kreditlar berayotgan bir paytda, XVJ moliyaviy majburiyatlarni bajarish uchun chet el valyutasiga ega bo'lmagan har qanday a'zo davlatga moliyaviy yordam berishi mumkin. XVJ tomonidan ishlab chiqilgan tavsiyalar rivojlanayotgan davlatlarga ham, o'tish davri iqtisodiyotiga ega bo'lgan davlatlar uchun ham qo'llaniladi. Ularda quyidagi majburiy talablar mavjud:

1. Qarzdorning makroiqtisodiy siyosati qarz va foizlarning asosiy qismini qoplashning asosiy omili sifatida to'lovlar balansi profitsitini ta'minlashga yo'naltirilishi kerak.

2. Davlat xarajatlarini cheklash orqali ichki talabni barqarorlashtirish.

3. Ishlab chiqarish sektorini moliyalashtirish uchun kreditlardan foydalanish - olingan qarzdand va qarzning asosiy qismini olingan ishlab chiqarish foydasi hisobidan to'lash.

4. Kamomadsiz davlat byudjetini ta'minlash.
5. Investitsiyalar va tadbirkorlikni rag'batlantiradigan samarali soliq siyosatini yuritish.
6. Pul muomalasini barqarorlashtirish, bu ba'zi hollarda devalvatsiyani va pul islohotlarini anglatadi.
7. Bozor mexanizmlari va konferentsiyalardan maksimal darajada foydalanishni ta'minlash; narxlar va ish haqi ustidan nazoratni bekor qilish va boshqalar.
8. Uzoq muddatli taraqqiyot sifatida Iqtisodiyotni tarkibiy jihatdan qayta isloh qilish.
9. Siyosiy hokimiyat barqarorligini ta'minlash.

4-§. Savdo-iqtisodiy tashkilotlar

Ko'p tomonlama tartibga solish jahon savdo mexanizmining ajralmas qismidir. Ko'p tomonlama tartibga solishning mavjud holati obyektiv asosga ega. Ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojidadagi doimiy o'zgarishlar xalqaro mehnat taqsimotining ahamiyatini kuchaytiradi, bu esa o'z navbatida davlatlar o'rtasidagi xalqaro iqtisodiy munosabatlarni mustahkamlanishiga sabab bo'ladi.

Tartibga solish, bozorga kirish rejimining barqarorligi va bashorat qilinishiga erishish orqali, manfaatdor davlatlar o'rtasida jahon iqtisodiy munosabatlarini yanada rivojlantirishga yordam beradigan ma'lum shart-sharoitlarni yaratishga qaratilgan.

Jahon savdosini tartibga solishning asosiy yo'nalishlari:

- savdo-iqtisodiy munosabatlarning huquqiy asoslarini yaratish;
- dunyo miqyosida iqtisodiy munosabatlarga ta'sir etuvchi savdo va siyosiy vositalardan milliy darajada foydalanish bo'yicha shartnomalarni ishlab chiqish;
- ishtirokchi davlatlar va ularning guruhlarini o'rtasidagi bahsli muammolarni hal qilishga yordam beradigan xalqaro tuzilmalarni shakllantirish va yanada rivojlantirish;
- savdo-iqtisodiy aloqalarni tashkil etish bo'yicha ma'lumot va tajriba almashish.

Многостороннее регулирование – это сравнительно новое явление в истории мировых отношений.

Xalqaro savdoni rivojlantirish muammolarini hal qilish mexanizmini yaratish borasidagi *birinchi urinishlar* XX asrning

birinchi yarmiga to'g'ri keladi, ammo, afsuski, ularning barchasi muvaffaqiyatsiz yakunlandi. Bu umumiy qonunchilik bazasining yo'qligi va rivojlangan davlatlarning iqtisodiy manfaatlari o'zaro mos kelmasligi bilan izohlanadi.

Ikkinchi bosqich ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarni qamrab oladi, bunda yetakchi davlatlar o'rtasida ilk samarali bitimlar e'lon qilingan edi. O'zaro manfaatli asosda savdo cheklovlarini bekor qilish va eng maqbul milliy tamoyilni keng qo'llash orqali savdoni erkinlashtirish xalqaro tartibga solishga asoslandi. Mazkur yondashuv iqtisodiy rivojlangan davlatlarga ularning eksportiga qarshi choralar ko'rmasdan bozorlarni iqtisodiy nuqtai nazardan zabt etish imkonini berdi. Ushbu bosqichning asosiy sa'y-harakatlari proteksionizmni cheklash, savdoni liberallashtirish uchun sharoit yaratish, shuningdek rivojlanayotgan davlatlar bozorlariga kirishga qaratilgan edi.

Ko'p tomonlama tartibga solishning *uchinchi bosqichi* XX asrning 50-60 yillariga to'g'ri keladi. Bunda sanoat mahsulotlari va xom ashyo importi asosiy diqqat markazida bo'ldi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga kelsak, ushbu savdo tarmog'i hali ko'p tomonlama tartibga solish sohasiga kiritilmagan edi, zero mazkur soha oziq-ovqat mustaqilligini shakllantirishdan manfaatdor bo'lgan davlatlarning milliy siyosati himoyasi ostida edi. Shunday qilib, tartibga solish tizimidagi ishtirokchilarning barcha faoliyati raqobat erkinligini kengaytirishga, bozor kuchlari ta'siri ostida xalqaro savdoni shakllantirishga qaratilgan edi.

To'rtinchi bosqich (XX asrning 70-yillari) transmiller korporatsiyalar doirasida o'sib borayotgan internatsionallashuv sharoitida tobora rivojlanib borayotgan sanoat va texnik xususiyatga ega bo'lgan jahon iqtisodiy munosabatlari tarkibidagi jiddiy siljishlar bilan izohlanadi. Ishlab chiqarishni kelajakda xalqaro miqyosda o'tkazish uchun sharoit yaratish zarurati tug'ildi.

GATT - xalqaro savdo munosabatlarida normal muhitni saqlab, bir tomonlama xatti-harakatlarning oldini olish tizimidir

Hozirgi bosqichda ixtisoslashuv va ishlab chiqarish kooperatsiyasini rivojlantirish, xom ashyo va oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini muvofiqlashtirish, xizmatlar savdosi kabi masalalar ko'p tomonlama tartibga solishning asosiy obyektlari

hisoblanadi. Ushbu bosqichda ko'p tomonlama tartibga solishning o'ziga xos xususiyati unda nafaqat yirik, balki kichik sanoatlashgan davlatlar, shuningdek ko'psonli rivojlanayotgan davlatlarning ishtirokini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilgani bilan belgilanadi.

XX asrning 70-yillaridan boshlab umumiy *huquqiy makonni* shakllantirishning jadal jarayoni boshlandi. Bunda, avvalo Tariflar va savdo to'g'risidagi umumiy bitim (GATT-1947) doirasida tashqi savdoni tartibga solishning milliy tizimlarining muvofiqligini aniqlashga qaratilgan tadbirlar muhim o'rin egalladi.

GATTning vazifalari:

– xalqaro savdoda hukumatlarning faoliyatini tartibga soluvchi ko'p tomonlama kelishuvlarni amalga oshirish;

– savdoni erkinlashtirish va uning oldindan bashorat qilinishini ta'minlashga qaratilgan savdo muzokaralari uchun forum vazifasini bajarish;

– jahon iqtisodiy nizolari va ziddiyatli vaziyatlarni hal qilishda xalqaro sud rolini bajarish.

Urugvaydagi ko'p tomonlama savdo muzokaralari (1993-y.) davrida Butunjahon savdo tashkiloti (JST)ni tashkil etish to'g'risidagi kelishuv qabul qilindi. 1995-yilning 1-yanvaridan GATT JSTga tizimli ravishda kirdi, ammo uning bir qismi sifatida, hanuzgacha o'z avtonomligini saqlab qolgan.

Butunjahon savdo tashkiloti (JST) xalqaro iqtisodiyot sohasida o'ziga xos muhim o'rin egallaydi. U jahonning eng yirik iqtisodiy uyushmalardan biridir. JST o'z faoliyatini 1995-yil boshlarida boshlagan. Uning asosiy maqsadi a'zo davlatlarga bojxona to'siqlarini yengib o'tish, shuningdek, erkin raqobatni butun dunyo bo'ylab tarqatishdan iborat. JST organlari ushbu tashkilot ustavida belgilab qo'yilgan qoidalarning a'zo davlatlar tomonidan amalga oshirishini nazorat qiladilar. Hozirgi vaqtda JST 162 ta davlatni, shu jumladan ushbu tashkilotga 2012- yil o'rtalarida qo'shilgan Rossiyani ham o'z ichiga oladi.

Zamonaviy sharoitda tashqi savdo har bir davlat va umuman dunyo mamlakatlari faoliyati va rivojining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi, chunki globallashtirish jarayonlari sharoitida hech bir davlat boshqa davlatlar iqtisodiyoti bilan samarali iqtisodiy aloqalarni o'rnatmay turib, rivojlanishga qodir emas. Xalqaro iqtisodiy munosabatlar sharoitida milliy iqtisodiyotlar alohida iqtisodiy tizimlar

sifatida emas, balki jahon bozoridaagi xo'jalik yurituvchi subyektlarning o'zaro bog'liq tizimli majmui sifatida qaraladi, shu boisdan, milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda tashqi savdoning roli sezilarli darajada oshmoqda⁷⁹. JSTning jahon iqtisodiyotidagi ijobiy roli savdo to'siqlari pasayganda, import mahsulotlarining narxi pasayishi bilan belgilanadi. Mahsulotlar va xizmatlarning keng tanlovi paydo bo'ladi, tabiiyki mahalliy ishlab chiqaruvchilar mahsulotlarining bozorda o'z o'rnini egallashi uchun kurashadilar va sifatga alohida e'tibor qarata boshlaydilar. Shu o'rinda, yangi ish o'rinlari soni ham ortib boradi (bunda eksport alohida rol o'ynaydi).

JSTning faoliyat yo'nalishlari:

- ko'p tomonlama savdo shartnomalarini qabul qilish va qo'llash ustidan nazoratni amalga oshirish;
- ko'p tomonlama savdo muzokaralari forumi sifatida qatnashish;
- a'zo davlatlar o'rtasidagi savdo nizolarini tartibga solish;
- a'zo davlatlarning savdo siyosati monitoringi;
- xalqaro savdo mexanizmlarini rivojlantirish va ulardan foydalanish to'g'risidagi ma'lumotlarni to'plash, o'rganish va taqdim etish.

JST shartnomalari xalqaro savdo siyosatining barcha sohalarini va xalqaro tijorat amaliyotining muhim qismini qamrab oladi. JST o'z faoliyatida bir qator fundamental prinsiplarga amal qiladi.

JST tamoyillari:

- maqbullik prinsipi (kamsitmaslik tamoyili). Har qanday davlatdan yoki har qanday davlat uchun ishlab chiqarilgan mahsulotga berilgan har qanday ustunlik darhol barcha a'zo davlatlarda ishlab chiqarilgan yoki ular uchun mo'ljallangan shunga o'xshash mahsulotlarga nisbatan ham tatbiq etilishi lozim;
- milliy rejim tamoyili. Ishtirokchi davlatlar chet el tovarlarini milliy tovarlar kabi muomalada bo'lishini ta'minlashlari kerak;
- milliy siyosatni himoya qilish tamoyili. Milliy sanoatni rivojlantirish manfaati nuqtai nazaridan, davlat savdo va siyosiy choralarga emas, balki faqat bojxona tariflariga asoslanib himoya tizimini amalga oshirishi mumkin;
- savdo uchun barqaror zamin yaratish tamoyili. Tariflar ko'p tomonlama muzokaralar asosida qisqartirilishi va kelgusida ularning oshirilishiga yo'l qo'yilmasligi lozim;

⁷⁹ Полонкозв Ф.Я., Китнева М.И., Ориханова М.А. Роль внешней торговли для национальной экономики. Colloquium-journal. 2018. № 4-3 (15). С. 31-32.

– sogʻlom raqobatni rivojlantirish tamoyili. Bunda subsidiyalar va dumping masalalari xususida soʻz boradi;

– miqdoriy cheklovlarni umumiy taqiqlash;

– favqulodda vaziyatlarda yoʻl qoʻyilishi mumkin boʻlgan harakatlar tamoyili. Milliy ishlab chiqaruvchilarga jiddiy zarar yetkazish holatlari kuzatilganida, importga cheklovlar qoʻyish yoki tarif imtiyozlarini vaqtincha bekor qilish;

– mintaqaviy savdo bitimlari prinsipi. Mintaqaviy savdo guruhlari bojxona ittifoqi yoki erkin savdo zonasi sifatida faoliyat koʻrsatishi mumkin;

– rivojlanayotgan davlatlar uchun alohida imtiyozlar. Oʻz mahsulotlarini jahon bozorlariga olib chiqishlari uchun koʻmak berish va eng qulay shart-sharoitlarni taʼminlash, shuningdek, ushbu davlatlarni oʻzaro majburiyatlardan ozod qilish.

Har ikki yilda bir marta vazirlar darajasida oʻtkaziladigan konferentsiya *JSTning oliy organi* hisoblanadi. Konferensiyalar orasidagi vaqt oraligʻida tashkilot boshqivi *Bosh Kengash* tomonidan amalga oshiriladi. Kundalik ish faoliyati quyidagi kengashlar yordamida amalga oshiriladi:

1. Tovarlar savdosi boʻyicha kengash.
2. Xizmatlar savdosi boʻyicha kengash.
3. Intellektual mulk huquqining savdo jihatlari boʻyicha kengash.

Konferentsiyaning birinchi sessiyasi 1964-yilda Jenevada boʻlib oʻtgan. BMTning 195 aʼzosi YuNKTADga aʼzo hisoblanadi.

Globalashuvning tobora rivojlanib borayotgan hozirgi sharoitida jahon savdosini koʻp tomonlama tartibga solishning ahamiyati beqiyosdir. Shuning uchun Birlashgan Millatlar Tashkiloti ushbu jarayonda qatnashishdan chetda qololmadi. Shu boisdan, u bu jarayonning boshqarilishi uchun zarur tuzilmalarni yaratishga oʻz hissasini qoʻshdi.

1964-yilda BMT Bosh Assambleyasi yigʻilishida rezolyutsiya qabul qilindi. Unga muvofiq BMT doirasida maxsus doimiy organ - **BMTning Savdo va rivojlanish boʻyicha konferentsiyasi** - *YuNKTAD* (United Nations Conference on Trade and development - UNCTAD) tashkil etildi.

Konferentsiyaning maqsadi:

– avvalo, rivojlanayotgan davlatlarda iqtisodiy o'sish va rivojlanishni jadallashtirish maqsadida xalqaro savdoning rivojlanishiga ko'maklashish;

– moliya, investitsiyalar, texnologiyalarni o'tatib etish kabi sohalarda iqtisodiy rivojlanish bilan bog'liq muammolar hamda xalqaro savdo bilan bog'liq siyosat va prinsiplarni o'rnatish;

– BMTning xalqaro savdo va iqtisodiy rivojlanish bilan shug'ullanuvchi boshqa muassasalari faoliyatiga ko'maklashish;

– muzokaralarni tashkil etish hamda savdo sohasidagi ko'p tomonlama huquqiy me'yorlarni tasdiqlash;

– savdo va tegishli rivojlanish sohasidagi davlatlar va mintaqaviy iqtisodiy guruhlarning siyosatini muvofiqlashtirish.

Ko'rsatilgan maqsadlarni amalga oshirish UNCTAD faoliyatining tegishli yo'nalishi asosida amalga oshiriladi.

Yevropa Iqtisodiy Komissiyasi (YeIK) BMTning tarkibiy bo'linmalaridan biri bo'lib, u hududiy jihatdan mintaqaviy xarakterga ega bo'lib, ECOSOCga bo'ysunadi. YeIK 1947-yilda tashkil etilgan. Ushbu tashkilotning asosiy maqsadi Yevropa davlatlari o'rtasida iqtisodiyot bilan bog'liq masalalarda samarali va barqaror hamkorlikka erishishdir. Biroq, Yevropa iqtisodiy komissiyasi a'zolari nafaqat Yevropa mamlakatlari, balki boshqa davlatlar (masalan, AQSh va Kanada)dan ham oborat. Tashkilotning bosh qarorgohi Jenevada joylashgan. BMTning Yevropa iqtisodiy komissiyasining asosiy roli xalqaro iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirishdan iborat.

Moliyaviy faoliyat sohasidagi yana bir muhim xalqaro tashkilot - **Jahon bankidir**. Uning asosiy maqsadi "qoloq" davlatlarning rivojlanish sur'atlarini tezlashtirish maqsadida ularning iqtisodiyotiga to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar kiritish va texnik yordam ko'rsatishdan iborat. Ushbu moliyaviy tuzilmaning muhim vazifalari dunyoning nisbatan rivojlanmagan davlatlarida qashshoqlikni tugatish, turli kasalliklarga qarshi kurash, shuningdek, iqtisodiy va siyosiy yo'nalishdagi ko'plab boshqa masalalarni hal etishdan iborat. Jahon banki 1945-yilda tashkil etilgan bo'lib, bugungi kunda unga 188 davlat a'zo. Jahaon bankining tuzilmasi ikkita asosiy elementdan iborat: rekontruksiya (rivojlantirish) banki va rivojlanish assotsiatsiyasi.

Jahon banki va Xalqaro valyuta jamg'armasi xalqaro tashkilotlarning moliya va bank toifasiga kiradi. Ularning roli

“kambag‘al” davlatlarga minimal (ba‘zan nol) foiz stavkalari bilan imtiyozli shartlarda kreditlar ajratib, yordam berishdan iborat.

Yuqorida ta‘kidlanganidek, xalqaro tashkilotlarning alohida toifasi iqtisodiyotning muayyan sohasidagi muammolar bilan shug‘ullanadigan ixtisoslashtirilgan tashkilotlardir. Ushbu turdagi eng yetuk iqtisodiy tashkilotlardan biri bu Neft eksport qiluvchi davlatlar tashkiloti (**The Organization of the Petroleum Exporting Countries - OPEC**)dir. OPEKning faoliyat sohasi - uning a‘zolari orasida neft qazib olish va eksport qilish jarayonlarini tartibga solish va muvofiqlashtirishdan iborat. OPEC xalqaro bozordagi faoliyatini 1961-yilda boshlagan. Hozirgi kunda ushbu tashkilot 13 ta davlatni o‘z ichiga olgan bo‘lib, ular Jazoir, Angola, Venesuela, Gabon, Eron, Iroq, Kongo, Quvayt, Liviya, Birlashgan Arab Amirliklari, Nigeriya, Saudiya Arabistoni, Ekvatorial Gvineyadan iborat. Bosh ofis Vena shahrida joylashgan. Tashkilot bosh kotibi (2016-yil 1- avgustdan) - Muhammad Barkindo.

Mutaxassislarning fikricha, 2017-yilda qazib chiqarilgan neft umumiy hajmining 41 foizi OPEC davlatlari hissasiga to‘g‘ri kelgan. OPECning jahon iqtisodiyotidagi ahamiyati shundan iboratki, ushbu tashkilot “qora oltin” ning dunyo miqyosida ishlab chiqarish darajasini nazorat qilib, neft narxlarini tashkilot a‘zolari tomonidan belgilangan chegaralarda tartibga soladi⁸⁰.

Yuqoridagilardan xulosa qilib shuni ta‘kidlash joizki, iqtisodiy tashkilotlar xalqaro munosabatlar tizimida juda muhim va ajralmas bo‘g‘in hisoblanadi. Xalqaro tashkilotlarning davlatning iqtisodiy va moliyaviy faoliyatidagi ahamiyati katta. Ular davlatlarning o‘zaro yaqinlashuvi va integratsiyalashuviga xizmat qilib, iqtisodiy o‘sish sur‘atlarini jadallashtirishga yordam beradi. O‘z faoliyati davomida xalqaro tashkilotlar davlatlar o‘rtasidagi bojxona cheklavlarini yo‘q qilishga harakat qilmoqdalar, bu esa shubhasiz savdo jarayonlariga ijobiy ta‘sir ko‘rsatmoqda. Xalqaro tashkilotlar jahon iqtisodiyoti ko‘rsatkichlarini yaxshilashga, ularga to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalarni jalb qilish orqali ishtirok etuvchi davlatlarning moliyaviy sohalarini rivojlantirishga yordam bermoqdalar.

⁸⁰ Смыслов Д. В. Модернизация Международного Валютного Фонда: проблемы и решения. Регулятивные аспекты/ Д. В. Смыслов // Деньги и кредит/ – 2012 – №1 – С.36-43.

5-§. Sohaviy yoki ixtisoslashgan iqtisodiy va ilmiy-texnik tashkilotlar

So'nggi o'n yilliklarda ixtisoslashgan xalqaro iqtisodiy tashkilotlar jahon iqtisodiyotida tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ularning faoliyati jahon iqtisodiyotining turli sohalarini qamrab oladi: sanoatni rivojlantirish va qishloq xo'jaligini barqarorlashtirish, intellektual mulkni himoya qilish, atom energiyasini tinch rivojlantirish, bandlik va mehnat sharoitlarini ta'minlash va boshqalar shular jumlasidandir. Hukumatlararo ixtisoslashtirilgan tashkilotlar bilan bir qatorda, nodavlat ixtisoslashtirilgan tashkilotlar, shu jumladan konsalting xizmatlarini ko'rsatuvchi tashkilotlarning mavqei ham tobora mustahkamlanmoqda.

BMTning Sanoatni rivojlantirish tashkiloti – UNIDO (United Nations Industrial Development Organization) hisoblanadi.

UNIDOning funksional vazifalari:

- BMT tizimida sanoatni rivojlantirish sohasida muvofiqlashtiruvchi rolini amalga oshirish;
- global, mintaqaviy, milliy va tarmoq miqyosidagi hamkorlikni rivojlantirish hamda sanoat ravnaqiga hissa qo'shish;
- o'tish davri iqtisodiyotiga ega bo'lgan va rivojlanayotgan davlatlar sanoatni qayta qurishga ko'maklashish;
- rivojlanayotgan davlatlarni sanoatlashtirish va infratuzilmani rivojlantirishga ko'maklashish;
- aniq loyihalarni amalga oshirish orqali rivojlanayotgan davlatlarga texnik yordam ko'rsatish.

UNIDO faoliyatining asosiy yo'nalishlari:

- rivojlanayotgan davlatlarni sanoatlashtirishda ishtirok etish;
- Afrika davlatlarini ustuvor tarzda sanoatlashtirish.
- rivojlanayotgan davlatlar iqtisodiyotiga zamonaviy ishlab chiqarish usullari, boshqaruv dasturlarini joriy etish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni targ'ib qilish, milliy kadrlar tayyorlash, maqsadli loyihalarga investitsiyalarni jalb qilish;
- rivojlanayotgan davlatlarni moddiy va moliyaviy resurslar bilan ta'minlash (sanoat uskunalari, konsalting xizmatlari, yangi texnologiyalar va boshqalar);
- mutaxassislar va maslahatchilarni yuborish orqali ishlab chiqarish obyektlarini qurishda texnik yordam ko'rsatish;

– sanoat, kasaba uyushmalari, iste'molchilar ishtirokidagi konferentsiyalar, uchrashuvlar va tematik seminarlar shaklida maslahat yordamini ko'rsatish kabilar shular jumlasidandir.

Bosh konferentsiya va Sanoatni rivojlantirish kengashi UNIDOning asosiy organlari hisoblanadi.

UNIDO rahbarlik tamoyillari va siyosati har ikki yilda bir marta muntazam sessiyalarda o'tkaziladigan **Bosh konferentsiyada** belgilanadi. Unda tashkilotning ikki yillik byudjeti tuziladi va moliyaviy resurslardan foydalanish bo'yicha hisobotlar qabul qilinadi.

Konferentsiyalar o'rtasida davr mobaynida boshqaruv funksiyalari **Sanoatni rivojlantirish kengashi** tomonidan amalga oshiriladi. Uning tarkibiga UNIDOGa a'zo 53 davlatning vakillari kiradi, ulardan 33tasi rivojlanayotgan davlatlar, 15tasi sanoatlashgan davlatlardan, 5tasi o'tish davri iqtisodiyotiga ega davlatlardan iborat. UNIDO operativ faoliyati bilan bog'liq xarajatlar ixtiyoriy badallar hisobidan moliyalashtiriladi. Yillik texnik yordamning umumiy hajmi 100 million AQSh dollarini tashkil etadi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Oziq-ovqat qishloq xo'jaligi tashkiloti - FAO (Food and Agriculture Organization). FAOning asosiy maqsadi ochlikka qarshi kurashga qaratilgan. FAO rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar uchun teng huquqlarda oziq-ovqat xavfsizligi sohasidagi siyosiy qarorlarni muhokama qilish va kelishish maqsadida forum vazifasini o'taydi.

Bundan tashqari, FAO rivojlanayotgan davlatlarga qishloq xo'jaligi, o'rmonchilik va baliqchilik amaliyotini takomillashtirish uchun ma'lumotlar manbai bo'lib xizmat qiladi va barchaning sog'lom oziqlanishi va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga intiladi. Tashkilotning lotin tilidagi shiori "Fiat panis", ya'ni "U yerda non bo'lsin". FAOGa a'zo davlatlar soni 197 tani yashkil etadi, shu jumladan unga Yevropa Ittifoqi (a'zo tashkilot), Niue va Kuk orollari (Yangi Zelandiya bilan erkin birlashtirilgan davlatlar) va Farer orollari va Tokelau ham kiradi⁸¹.

⁸¹ Weigend S., Romanov M. N. The World Watch List for Domestic Animal Diversity in the context of conservation and utilisation of poultry biodiversity // World's Poultry Science Journal: Cambridge, UK: World's Poultry Science Association; Cambridge University Press, 2002. - Vol. 58, no. 4.-P. 411-430.

FAO qishloq xo'jaligini rivojlantirish, ovqatlanishni yaxshilash va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash – hamisha har bir kishining faol va sog'lom hayot tarsi uchun zarur bo'lgan oziq-ovqat bilan ta'minlanishiga xizmat qilish ta'minlash orqali dunyodagi qashshoqlik va ocharchlik darajasini kamaytirishga harakat qilmoqda. FAO neytral forum, shuningdek, bilim va ma'lumotlar manbai bo'lib xizmat qilmoqda. Rivojlanayotgan hamda o'tish davrini boshdan kechirayotgan davlatlarga qishloq xo'jaligi, o'rmonchilik va baliqchilikni modernizatsiya qilish va yaxshilashga yordam beradi.

FAO tashkilotning o'z bilim, ko'nikma va tajribalarini samarali qo'llashi va safarbar eta oladigan beshta *ustuvor yo'nalishlarini* aniqladi:

- ochlik, oziq-ovqat taqchilligi va to'yib ovqatlanmaslik bilan kurashishga hissa qo'shish - oziq-ovqat xavfsizligini qo'llab-quvvatlash va ochlik va ovqatlanish muammolari va yechimlari to'g'risida yangilangan borasidagi ma'lumotlar bilan ta'minlash orqali siyosiy majburiyatlarni ilgari surish va shu yo'l bilan ochlikni tugatishga hissa qo'shish.

- qishloq xo'jaligi, o'rmonchilik va baliqchilikning mahsuldorligi va barqarorligini oshirish - tabiiy resurslardan barqaror foydalanishni ta'minlashda yuqori mahsuldor qishloq xo'jaligini (ekinlar, chorvachilik, o'rmonchilik va baliqchilik) qo'llab-quvvatlash uchun dalillarga asoslangan siyosat va amaliyotni ilgari surish.

- Qishloq joylarda qashshoqlikni kamaytirish - ehtiyojmand aholi qatlamiga resurslar va xizmatlardan, shu jumladan qishloq joylarida bandlik va ijtimoiy himoyadan foydalanish bo'yicha keng imkoniyatlar yaratish.

- Agro oziq-ovqat tizimlarini keng qamrovli va samarali qilish - kichik biznes subyektlarini qo'llab-quvvatlaydigan hamda qishloqlarda qashshoqlik va ochlikni kamaytiradigan xavfsiz va samarali oziq-ovqat tizimini yaratishga yordam berish.

- Hayot tarzini tahdid va inqirozlarga bardoshli qilish - davlatlarni tabiiy va texnogen tabiiy ofatlarga tayyorlash orqaini ehtimoliy xavflarni kamaytirish hamda oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tizimlarining barqarorligini yanada mustahkamlash⁸².

⁸² Romanov M. N. Farm animal genetic resources. Global regions - breeds at risk. Europe. Ukraine (Chicken. Domestic duck. Domestic goose. Turkey) // World Watch List for Domestic Animal Diversity / Ed. by B. D. Scherf. - 3rd edn. - Rome, Italy: Information Division, FAO, UNEP, 2000. - P. 429.

FAOga a'zo davlat vakillari har ikki yilda global siyosat masalalari va xalqaro tuzilmalarni ko'rib chiqish va kelgusi ikki yil uchun byudjetni umumlashtirish va tasdiqlash maqsadida yig'iladilar. Tashkilotning dasturiy va byudjet faoliyatini umumiy boshqarish uchun konferentsiya qatnashchilari uch yillik vakolat muddatiga ega bo'lgan Kengash a'zolarini saylaydilar. Konferentsiya qatnashchilari, shuningdek, Bosh direktorni to'rt yillik vakolatga saylaydilar. Bosh direktor Qu Dongyu o'z vazifasiga 2019-yil 1-avgustdan kirishgan (uning vakolati 2023-yil 31-iyul kuni tugaydi).

Butunjahon intellektual mulk tashkiloti (BIMT).

Butunjahon intellektual mulk tashkiloti - BIMT (fr. Organisation Mondiale de la Propriété Intellectuelle, OMPI; ingl. World Intellectual Property Organization, WIPO) - intellektual mulk sohasidagi bir qator muhim xalqaro konventsionalarni, birinchi navbatda badiiy va san'at asarlarini himoya qilish bo'yicha Bern konvensiyasini hamda sanoat mulkini himoya qilish bo'yicha Parij konvensiyasi ijrosini amalga oshiruvchi xalqaro tashkilot. 1974-yildan buyon u Birlashgan Millatlar Tashkilotining ijod va intellektual mulk bo'yicha ixtisoslashgan organi sifatida faoliyat yuritadi.

Butunjahon intellektual mulk tashkiloti Birlashgan Millatlar Tashkilotining intellektual mulk sohasidagi siyosatni yuritish, hamkorlikni mustahkamlash, xizmat ko'rsatish va ma'lumotlar taqdim etishga ixtisoslashgan muassasadir. BIMT 1893-yilgi diplomatik konferentsiyada tashkil etilgan. Hozirda Butunjahon intellektual mulk tashkilotiga 193 davlat a'zo. Bosh direktor - Frensis Garri (Avstraliya)⁸³.

BIMTning boshqaruv organlari: BIMT Bosh Assambleyasi, BIMT konferentsiyasi, BIMT muvofiqashtirish qo'mitasi. Tashkilot yigirma oltita xalqaro shartnomani (sanoat mulki sohasida o'n yettita, mualliflik huquqi bo'yicha sakkizta va BIMT ta'sis etgan konvensiya) boshqaradi. BIMT butun dunyo bo'ylab intellektual mulkni himoya qilish, mazkur sohadagi milliy qonunchilikni o'zaro uyg'unlashtirish hamda intellektual mulk sohasidagi xalqaro qonun va normalarni ishlab chiqishga ko'maklashadi. BIMT Parij va Bern ittifoqlarining ma'muriy funksiyalarini bajaradi, shuningdek intellektual mulk sohasida texnik va yuridik yordam ko'rsatadi. Tashkilot ma'lumot

⁸³ Минков А. М. ВОИС и основные универсальные международные соглашения в сфере интеллектуальной собственности. – М.: РУДН, 2015. – С. 99.

to'plash va tarqatish, tadqiqotlar va ularning natijalarini nashr qilishni ta'minlaydi, intellektual mulkning xalqaro himoyashga doir xizmatlarni taqdim etadi.

1967-yilgi Stokgolm konventsiyasi (3-modda) tashkilotning quyidagi maqsadlarini belgilaydi:

1. Davlatlararo hamkorlikni ta'minlash orqali intellektual mulkni dunyo miqyosida himoyalashiga erishish hamda zarur hollarda, boshqa har qanday xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda ularni himoya qilishga ko'maklashish;

2. Ittifoqlarning ma'muriy hamkorligini ta'minlash⁸⁴.

Shunday qilib, BIMTning faoliyati ijodiy faoliyat va innovatsiyalarni rag'batlantirish hamda iqtisodiy taraqqiyotga munosib hissa qo'shishga qaratilgan.

Belgilangan maqsadlarga erishish uchun tashkilotning quyidagi *asosiy funksiyalari* ishlab chiqilgan (1967-yilgi Konventsiyaning 4-moddasi):

✓ jahonda intellektual mulkni himoya qilish va ushbu sohadagi milliy qonunchilikni uyg'unlashtirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqishda ko'maklashish;

✓ Intellektual mulkni himoya qilish bo'yicha xalqaro shartnomalar yaratish;

✓ Parij Ittifoqi, ittifoq bilan bog'liq bo'lgan maxsus ittifoqlar va Bern ittifoqining ma'muriy funksiyalarini bajarish;

✓ intellektual mulk sohasida texnik va yuridik yordam ko'rsatish;

✓ ma'lumotlarni to'plash, tarqatish hamda tadqiqotlar o'tkazish va ularning natijalarini nashr etish;

✓ intellektual mulkni xalqaro himoya qilishga ko'maklashish bo'yicha xizmatlar ko'rsatish;

✓ boshqa tegishli choralarni ko'rish kabilardan iborat.

Atom energiyasi bo'yicha xalqaro agentlik – MAGATE (International Atomic Energy Agency) - atom energiyasidan tinch maqsadlarda foydalanish sohasida hamkorlikni rivojlantirish bo'yicha xalqaro tashkilot. Ushbu tashkilotga 1957-yilda tashkil etilgan. Tashkilot qarorgohi Vena shahrida joylashgan (Xalqaro Vena markazi). A'zolari soni 171 ta.

Agentlik BMT tizimida mustaqil hukumatlararo tashkilot sifatida tashkil etilgan hamda Yadro qurolini tarqatmaslik to'g'risidagi

⁸⁴ Минков А.М. Международная охрана интеллектуальной собственности. - СПб: Питер, 2019. – С. 170.

shartnomaning paydo bo'lishi bilan uning o'rni alohida ahamiyatga ega bo'lgan, zero Yadro qurolini tarqatmaslik to'g'risidagi shartnoma har bir ishtirokchi davlat uchun xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha MAGATE bilan kelishuv tuzishni talab qilgan.

Agentlikning davlatdagi faoliyatining asosiy maqsadi tinchlik yo'lidagi yadro sohasida ishlash harbiy maqsadlarga yo'naltirilmagligi lozimligini bildirishdan iborat. Bunday bitimni imzolash bilan, davlat, harbiy tadqiqotlar o'tkazmasligini kafolatlaydi, shuning uchun ushbu hujjat kafolatlar to'g'risidagi shartnoma deb nomlanadi. Shu bilan birga, MAGATE sof texnikaviy tashkilotdir. Tashkilot u yoki boshqa davlatning faoliyatiga siyosiy baho bera olmaydi. MAGATE taxminlarni ilgari surishga haqli emas - Agentlik xulosalarni tekshiruvlarning aniq natijalariga asoslanib, faqat mavjud faktlar asosida ishlaydi. MAGATE xavfsizlik tizimi yadroviy materialning tinch maqsadlaridan harbiy maqsadlarda tarqalishiga to'sqinlik qila olmaydi, ammo himoya qilingan materialni tarqatish yoki himoya qilingan obyektни suiiste'mol qilishga imkon beruvchi dalillarning BMT tomonidan ko'rib chiqilishini ta'minlaydi. Shu bilan birga, Agentlikning xulosalari o'ta ehtiyotkorlikka asoslanadi va haqqoniyligi bilan ajralib turadi.

Agentlikning vazifalariga quyidagilar kiradi:

- atom energiyasidan tinch maqsadlarda foydalanish bo'yicha tadqiqotlar va ishlanmalarni rag'batlantirish;
- ilmiy yutuqlar va uslublar almashinuvini rag'batlantirish;
- fuqarolik yadro dasturlari va ishlanmalaridan harbiy maqsadlarda foydalanilmasligi kafolatlari tizimini shakllantirish va qo'llash;
- sog'liqni saqlash va xavfsizlik standartlarini ishlab chiqish, o'rnatish va moslashtirish.

MAGATE atom energetikasini rivojlantirish masalalarini muhokama qilish maqsadida xalqaro ilmiy forumlarni chaqiradi, tadqiqot ishlariga yordam berish uchun turli davlatlarga mutaxassislarni jalb qiladi, yadroviy uskuna va materiallarni yetkazib berish bo'yicha hukumatlararo xizmatlarni taqdim etadi, nazorat funksiyalarini bajaradi va, xususan, agentlik tomonidan taqdim etilgan yordamdan harbiy maqsadlarda foydalanilishiga yo'l qo'yilmasligini nazorat qiladi. MAGATE faoliyatida, ayniqsa 1986-yilda Chernobil AESdagi avariya dan so'ng atom energiyasining xavfsizligini ta'minlash masalalariga katta e'tibor qaratilmoqda.

Nazorat savollari:

1. Jahon savdo jarayonlarini doimiy ravishda tartibga solish nima uchun talab qilinadi?

2. Jahon savdosini tartibga solish tizimining tarixiy rivojidagi asosiy bosqichlar qaysilar?

3. Jahon savdosini tartibga solishning asosiy yo'nalishlari?

4. "Tariflar va savdo to'g'risida umumiy kelishuv" tashkilotini tasvirlab bering?

5. Ko'p tomonlama savdo muzokaralarining Urugvay davri nimasi bilan mashhur?

6. Jahon savdo tashkilotining (JST) asosiy tamoyillari va yo'nalishlari?

7. Savdo va rivojlanish bo'yicha BMT konferentsiyasi qanday maqsadda va qachon tashkil etilgan?

8. Xalqaro pul-moliya tashkilotlarining asosiy vazifalari nimalardan iborat?

9. Jahon banki deganda nimani tushunasiz? Unga qaysi xalqaro tashkilotlar kiradi?

10. Xalqaro tiklanish va taraqqiyot bankining asosiy maqsadlari haqida aytib bering va sharh bering?

11. XTTB byudjet mablag'lari qanday shakllantirilgan?

12. Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki va Xalqaro taraqqiyot assotsiatsiyasi faoliyatida qanday farqlar bor?

13. Xalqaro moliya korporatsiyasining maqsad va faoliyati?

14. Jahon banki guruhiga kiruvchi qaysi xalqaro tashkilot rivojlanayotgan davlatlarda chet el investitsiyalari uchun kafolatlar berishni maqsad qiladi?

15. Xalqaro valuta jamg'armasi kredit siyosatining qanday tamoyillari mavjud?

16. ECOSOS Birlashgan Millatlar Tashkiloti doirasida qanday vazifalarni amaga oshiradi?

17. ECOSOSning asosiy funksiyalarini sanab bering.

18. EKOSOSning tashkiliy tuzilmasini qanday?

19. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Taraqqiyot Dasturining asoschilari qanday maqsadlarni ko'zlagan?

20. UNIDOning vazifalari nimalardan iborat?

21. IHRTga a'zo davlatlarning vazifalari nimalardan iborat?

22. IHRT faoliyatining asosiy yo'nalishlarini sanab bering.

IX BOB. IJTIMOYIY XALQARO TASHKILOTLAR TIZIMI

1-§. Ijtimoiy xalqaro tashkilotlar tushunchasi va mohiyati

Jahon taraqqiyotining hozirgi bosqichida jahon hamjamiyati davlatlarning insoniyatning farovonligini ta'minlaydigan ijtimoiy siyosatning aniq yo'nalishlarini ishlab chiqishga alohida e'tibor qaratmoqda. Ushbu yo'nalishlar xalqaro hujjatlarda umume'tirof etilgan prinsiplar va xalqaro huquq normalari hamda ijtimoiy sohaga tegishli xalqaro shartnomalar shaklida mustahkamlangan. Ular ushbu sohadagi xalqaro shartnomalarning ishtirokchisi sifatida O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy himoya tizimini, shu jumladan, aholini ijtimoiy himoya qilish borasidagi milliy tizimlarini yaratish ustuvorliklari va asosiy yo'nalishlarini belgilab beradi.

Bitim deganda O'zbekiston Respublikasi tomonidan xorijiy davlatlar yoki xalqaro tashkilotlar bilan yozma ravishda tuzilgan va xalqaro huquq tomonidan tartibga solinadigan xalqaro shartnoma tushuniladi. Shu bilan birga, xalqaro shartnomalarning ichki qonun hujjatlaridan ustuvorligi to'g'risidagi qoida O'zbekiston Respublikasining butun huquqiy tizimi uchun majburiydir.

O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari qatoriga 1948-yilda qabul qilingan Inson huquqlari bo'yicha umumjahon deklaratsiyasi taalluqli bo'lib, unda quyidagi mustahkamlab qo'yilgan:

- har bir insonning jamiyat a'zosi sifatidagi ijtimoiy ta'minot huquqi;

- salomatlik va farovonlikni saqlashda insoniyat uchun zarur bo'lgan asosiy ehtiyojlarini qondirish imkoniyatini kafolatlaydigan munosib turmush darajasiga ega bo'lish huquqi;

- Ijtimoiy ta'minot huquqini vujudga keltiradigan ijtimoiy xavflar ro'yxati (nogironlik, qarilik, boquvchisini yo'qotganlik, ishsizlik va boshqalar).

Har kimning ijtimoiy ta'minotga bo'lgan huquqi, shuningdek, Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktida (1966) ham mustahkamlab qo'yilgan. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasidan keying o'rinda, u har bir inson va uning oilasi munosib turmush darajasiga, jumladan, yetarli oziq-ovqat, kiyim-kechak, uy-joyga ega bo'lish va munosib yashash sharoitlarini doimiy ravishda yaxshilash huquqini kafolatlaydi (11-modda).

2-§. Xalqaro mehnat tashkilotining vujudga kelishi, maqsadi va prinsiplari

Xalqaro mehnat tashkiloti - XMT (International Labour Organization, BMTning ixtisoslashgan muassasi, mehnat munosabatlarini tartibga soluvchi xalqaro tashkilotdir. Bugungi kunda XMTga 187 davlat a'zo. Tashkilotning bosh qarorgohi - Xalqaro mehnat idorasi Jenevada joylashgan. Sharqiy Yevropa va Markaziy Osiyo uchun Submintaqaviy byuroning idorasi Moskvada joylashgan.

XMTning asosiy maqsadlari - ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni rivojlantirish, insoniyat farovonligini oshirish. mehnat sharoitlarini yaxshilash hamda inson huquqlarini himoya qilishdan iborat.

XMT to'rt asosiy strategik maqsadga ega:

- mehnatga oid asosiy huquq va tamoyillarni ilgari surish va amalga oshirish;

- ayollar va erkaklar uchun munosib munosib mehnat bilan shug'ullanish imkoniyatlarini oshirish;

- barcha uchun ijtimoiy ta'minot qamrovi va samaradorligini oshirish;

- tripartizm va ijtimoiy muloqotni kuchaytirish.

Ushbu vazifalar turli yo'llar bilan amalga oshiriladi:

- shaxsning asosiy huquqlarini qo'llab-quvvatlash, mehnat va yashash sharoitlarini yaxshilash, bandligini ta'minlash imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan xalqaro siyosat va dasturlarni ishlab chiqish orqali;

- xalqaro mehnat standartlarini konvensiyalar va tavsiyalar shaklida qabul qilish, ularni amalga oshirilishni monitoring qilishning yagona tizimi yaratish yo'li bilan;

- keng ko'lamli xalqaro texnik hamkorlik dasturlari orqali;

- mavjud sa'y-harakatlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida kasbiy tayyorlash va ta'lim, tadqiqot va nashr etish orqali⁸⁵.

Nobel qo'mitasi ushbu tashkilotni laureat sifatida tanladi, chunki "Xalqaro mehnat tashkilotining asosiy vazifasi yangi dunyoni ijtimoiy adolat asosiga qurish, boshqacha qilib aytganda, Jeneva hujjati talablarini bajarish, ya'ni: "Adolatsiz tinchlik bo'lmaydi".

⁸⁵ Краснов С.М. Экономика труда. Социально-трудовые отношения. Учебник. – М.: Экзамен, 2016. – С. 314.

Sanoatlashtirish davridagi tub iqtisodiy va ijtimoiy o'zgarishlar Yevropada iqtisodiy o'sishning misli ko'rilmagan yuqori sur'atlarini ta'minlabgina qolmay, balki hukmron sinflar bilan qarama-qarshi bo'lgan ko'psonli va faol ishchilar sinfining paydo bo'lishiga olib keldi.

Yevropada XIX-XX asr boshlarida islohotchi va sotsialistik tafakkur asosida yaratilgan XMT turli kuchlarning uchrashuvlari uchun muhim forum sifatida ishchilar va ularning hukumatlari o'rtasidagi hamkorlik va muloqot vositasiga aylandi. "Jamiyat tubida joylashgan xavfli portlovchi moddalarni" qurolsizlantirishga yordam beradigan ushbu tashkilot dunyoga sanoat muloqoti g'oyasini ilgari surdi. Ikkinchi jahon urushidan keying yillarda dunyoda siyosiy kuchlari muvozanatining o'zgarishi, ushbu tashkilotning maqsadlarini kengaytirishga turtki berdi va 1946-yilda XMT BMT bilan bog'liq bo'lgan birinchi ixtisoslashgan tashkilotga aylandi.

XMT faoliyatining dastlabki bosqichlarida uning asosiy vazifasi "ayrim davlatlarda boylar va kambag'allar o'rtasida ko'prik vazifasini o'tash"dan iborat edi. Uning Nizomida nizolarni hal qilish va mehnat sharoitlarini yaxshilash maqsadida hukumatlar, ish beruvchilar va ishchilar o'rtasidagi muloqotni qo'llab-quvvatlaydigan uch tomonlamailik prinsipi ishlab chiqilgan. XMTning homiyligi va rahbarligi ostida kasaba uyushmalari va ish beruvchilar tashkilotlari izchil va samarali pozitsiyalarni ishlab chiqdilar. Ikkinchi jahon urushidan so'ng ushbu tashkilotning vazifasi milliy chegaralardan tashqariga tomon kengaydi hamda savdo va mehnat munosabatlari sohalarida hamkorlikni rivojlantirish orqali boy va kambag'al davlatlar o'rtasida "ko'priklar" barpo eta boshladi⁸⁶.

Kasb-hunarga o'qitish markazining tashkil etilganligi XMTning har bir davlatda mahalliy sharoitda amalga oshirilgan muhim tashabbuslaridan biri bo'ldi. U rivojlanayotgan davlatlarga resurslar, texnik va boshqaruv nou-xaularini yetkazib berish yo'li bilan rivojlanayotgan davlatlarni mustahkamlaydi hamda zamonaviy davlatchilik va barqarorlikni ta'minlash uchun zarur bo'lgan institutsional va ma'muriy tuzilmalarni yaratishga yordam beradi. U har bir davlatning ijtimoiy ta'minot to'g'risidagi qonunlarga doimiy ta'sir ko'rsatib, xalqaro qonunlar rivojiga munosib hissa qo'shadi.

⁸⁶ Самсон К. Нормотворческая и надзорная система Международной организации труда. // Введение в вопросы международной защиты прав человека. - СС. 154-186

XMT birinchi navbatda xalqaro mehnat standartlarini qabul qilish, shaxsning asosiy huquqlarini ta'minlashga qaratilgan xalqaro siyosat va dasturlarni ishlab chiqish; ish va uy-joy sharoitlarini yaxshilash va bandlikni ta'minlash; mehnat xavfsizligi masalalari, mehnat muhojirlarini himoya qilish va tegishli eng kam oylik ish haqining miqdorini belgilash bilan shug'ullanadi.

BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti), BMTning Ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha tashkiloti (YuNESKO) va Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JST) kabi boshqa ixtisoslashgan muassasalar bilan hamkorlikda ish olib borish hamda BMT tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlashi orqari XMT rivojlanayotgan davlatlarda asosiy maqsadi bo'lgan ishsizlik va bandlik muammolarini hal qilish maqsadida qishloq xo'jaligi va sanoatni rivojlantirish bo'yicha ilmiy loyihalarni amalga oshiradi. U agrar islohotlarni amalga oshirish, qishloq xo'jaligini rivojlantirish loyihalarini amalga oshirishda, o'quv dasturlari va kasb-hunar ta'limi bo'yicha ko'rsatmalar ishlab chiqish, investitsiya imkoniyatlarini tanlash, savdoni rivojlantirish va hokazolarda yordam beradi.

Dastlab XMTning maqsadi ishchilarni ekspluatatsiya qilish va adolatsiz mehnat sharoitlaridan himoya qilish yuzasidan xalqaro qonunlarni ishlab chiqishdan iborat bo'lgan bo'lsa, hozirda ushbu tashkilot iqtisodiy rivojlanish, shuningdek, majburiy mehnat va diskriminatsiya kabi inson huquqlarini poymol qiluvchi illatlarga qarshi kurashda samarali chora-tadbirlarni amalga oshirish vositasiga aylandi.

“Barcha insonlar, irqi, e'tiqodi va jinsidan qat'iy nazar, erkinlik va qadr-qimmat, iqtisodiy xavfsizlik va teng imkoniyatlar sharoitida moddiy farovonlik va ma'naviy rivojlanish huquqiga ega”⁸⁷.

Xalqaro mehnat tashkiloti aholini ijtimoiy himoya qilish tizimida muhim rol o'ynaydi. XMT Birlashgan Millatlar Tashkilotining ixtisoslashgan muassasasi bo'lib, 1919-yilda Versal shartnomasi asosida ijtimoiy adolat asosida barqaror tinchlikni ta'minlash maqsadida tashkil etilgan.

XMT o'zining asosiy hujjatlarida - ustavda, deklaratsiyalarda, konvensiyalarda, tavsiyalarda milliy ijtimoiy himoya tizimini tashkil etish bo'yicha tavsiyalarining izchil tizimini yaratdi. Ular orasida:

⁸⁷ Лютов Н. Л., Морозов П. Е. Международное трудовое право. – М.: Проспект, 2015. – С. 257.

- ijtimoiy himoya maqsad va tamoyillarini aniqlash;
- davlat va ijtimoiy subyektlarning roli funksiyalari;
- ijtimoiy kafolatlar darajasini aniqlash;
- tashkiliy, moliyaviy va huquqiy mexanizmlar.

Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT) aholini ijtimoiy himoya qilishning bir qismi sifatidagi ijtimoiy sug'urta tizimidagi pozitsiyasi shundaki, kollektiv ijtimoiy ta'minotning boshqa usullari (masalan, ijtimoiy yordam) bilan solishtirganda ushbu himoya instituti quyidagi muhim afzalliklarga ega:

- ishchilarni sog'liqni saqlash va mehnat qobiliyatini himoya qilish jarayoniga moddiy va ma'naviy jihatdan jalb qilish;

- sof profilaktika ishlari, tibbiy xizmatni tashkil etish va mazkur tashkilot tomonidan amalga oshiriladigan naqd to'lovlarni amalga oshirish bilan shug'ullanishga ixtisoslashgan sug'urta muassasalarini tashkil etish;

- nafaqalarni to'lashga mas'ul bo'lgan organlarning o'zboshimchalik bilan qabul qilinadigan qarorlardan himoyalash huquqlarini kafolatlaydi (shunga mos ravishda to'lov badalini amalg'a oshiruvchilarning o'z-o'zini hurmat qilishiga erishish);

- sug'urta hisob-kitoblariga muvofiq tarzda tegishli mablag'larni ajratish hamda uzoq vaqt davomida xarajatlarni o'zaro taqsimlash yo'li bilan kafolatlangan to'lovlarni amalga oshirilishini kafolatlash⁸⁸.

2003-yilda Jenevada o'tkazilgan Xalqaro Mehnat Konferentsiyasida XMT Bosh direktori X.Somavia "Munosib mehnat" konsepsiyasini taqdim etdi.

"Munosib mehnat" konsepsiyasi mehnatning sifat xususiyatlari va ishchilarni ijtimoiy himoya qilish xususiyatlarini ochib beradigan ijtimoiy siyosatning eng muhim yo'nalishlarini o'z ichiga oladi.

- davlatning raqobatbardoshligini ta'minlashga qodir bo'lgan ishlab chiqarish faoliyati yoki samarali mehnat faoliyati;

- ishchilar uchun adolatli daromad (munosib ish haqi);

- ish joyidagi xavfsizlik;

- ishsizlik, homiladorlik, bolani parvarish qilish zarurati, qarilik, boquvchisini yo'qotganlik, ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va kasbiy kasalliklardan ijtimoiy himoya qilish;

- shaxsiy kasbiy o'sish imkoniyati va istiqbollari;

- muhim boshqaruv qarorlarini qabul qilishda faol ishtirok etish (kasaba uyushmalari va biznes uyushmalari orqali);

⁸⁸ Бекяшев Д. К. Международное трудовое право. – М.: Проспект, 2014. – С. 82.

- ikkala jins vakillari uchun teng boshlang'ich pozitsiya va imkoniyatlar kabilar shular jumlasidandir.

3-§. Butunjahon sog'liqni saqlash tashkilotining vujudga kelishi, maqsadlari va prinsiplari

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti – JSST (*World health organization, WHO*) Birlashgan Millatlar Tashkilotining ixtisoslashgan muassasi bo'lib, 1948-yilda tashkil etilgan. Tashkilotga 194 davlat a'zo. Ularning asosiy vazifasi dunyo aholisining sog'liqni saqlash muammolarini hal qilishdan iborat. Tashkilotning bosh qarorgohi Jeneva (Shveysariya)da joylashgan.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining ixtisoslashgan guruhiga JSSTdan tashqari, YuNESKO (BMTning Ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha tashkiloti), Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT) va YuNISEF (Bolalar jamg'armasi) kiradi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotiga a'zo davlat ushbu Nizomni qabul qilish orqali JSST a'zosi bo'ladi. BMTga a'zo bo'lmagan davlat JSST a'zolicigiga Bosh assambleyaning oddiy ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Xalqaro munosabatlar subyekti sifatida faoliyat yuritish huquqiga ega bo'lmagan hududlar JSST a'zosi yoki ushbu hududlarning xalqaro aloqalari uchun mas'ul bo'lgan boshqa vakolatli organ tomonidan ularning nomidan berilgan bayonotlar asosida JSSTga a'zo sifatida qabul qilinishi mumkin.

Tashkilotning vazifalar:

- sog'liqni saqlash sohasidagi xalqaro tavsiyalar berish;
- sog'liqni saqlash standartlarini belgilash;
- milliy sog'liqni saqlash dasturlarini kuchaytirish maqsadida milliy hukumatlar bilan hamkorlik qilish;
- sog'liqni saqlash standartlari, axborot va tegishli texnologiyalarni ishlab chiqish va uzatish.

Faoliyat yo'nalishlari:

- mahalliy sog'liqni saqlash xizmatlarini kuchaytirish va takomillashtirish;
- yuqumli va yuqumli bo'lmagan kasalliklarning oldini olish va ularga qarshi kurash;
- atrof-muhitni muhofaza qilish va obodonlashtirish;

- ona va bola salomatligini muhofaza qilish;
- tibbiyot xodimlari malakasini oshirish;
- tibbiy va biologik tadqiqotlarni rivojlantirish;
- Sanitariya statistikasini yuritish.

JSST o'z faoliyati davomida ko'plab tanqidlar qurshovida qolgan. Xususan, 2009-yilda cho'chqa grippi atrofidagi vaziyat tufayli qattiq tanqid ostiga olindi, Yevropa Kengashi unga "tibbiy hunrezgi", deya ta'rif bergan edi. Shundan so'ng, JSST aholini ommaviy emlashga undadi. Rossiyaning o'zida mavjud bo'lmagan pandemiyaga qarshi vaqtsinani sotib olishga 4 milliard rubl sarflandi, AQShda esa, 138 million doza vaqtsinaga hech qanday ehtiyoj sezilmadi. Yevropa Ittifoqida farmatsevtlarning daromadi 7 milliard yevroga etdi. Tashkilot esa Roche Holding farmatsevtlari bilan til birlashtirishda gumon qilindi.

Pandemiyadan keyingi davrda tanqidchilar JSST xavfni "tezkor ma'lumot" emas, balki "qo'rquv va sarosimali" tarzda tarqatish orqali oshirib yuborgan, deya ta'kidladilar. Soha mutaxassislarning fikricha, 2009-yildagi pandemiya "global sog'liqni saqlash idoralari, olimlar va ishlab chiqaruvchilar o'rtasida misli ko'rilmagan hamkorlikka olib keldi. Bu pandemiyaga eng keng qamrovli javob berishiga olib keldi. Pandemiya e'lon qilingandan uch oy o'tgach, bir qator vaqtsinalar foydalanish uchun tasdiqlandi. Bunga so'nggi o'n yillikda qilingan keng qamrovli tayyorgarlik tufayli erishildi"⁸⁹.

Chegara bilmas shifokorlar 2015-yilda JSSTni Ebola xavfini hisobga olmaganliklari uchun tanqid ostiga oldilar. Rossiya Sog'liqni saqlash vazirligi va Rospotrebnadzor 2018-yilda Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining Rossiyadagi OITS epidemiyasi to'g'risidagi hisobotini tanqid qildi va unda keltirilgan ma'lumotlarning asossiz tarzda oshirilganini ma'lum qildi. 2020-yil may oyida AQSh Prezidenti Donald Trump esa, JSSTni islohotlarni tashlab qo'ygani uchun tanqid qildi va tashkilot rahbariyatini Pekin bilan yaqin aloqada aybladi, shu sababli u tashkilot bilan aloqalarni uzib, uni moliyalashtirish manbalaridan mahrum qildi.

⁸⁹ Abelina A. Lessons from pandemic influenza A (H1N1) The research-based vaccine industry's perspective // *Vaccine*. – Elsevier, 2011. – Vol. 29, no. 6. – P. 1135-1138.

4-§. YuNESKONing vujudga kelishi. maqsadlari, prinsiplari

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha ixtisoslashgan muassasasi - YuNESKO (UNESCO; United Nations Educational, Scientific and Cultural Organization).

Tashkilot tomonidan e'lon qilingan maqsadlar:

- ta'lim, fan va madaniyat sohasida davlatlar va xalqlar o'rtasidagi hamkorlikni kengaytirish orqali tinchlik va xavfsizlikni mustahkamlash;

- Birlashgan Millatlar Tashkiloti Nizomida barcha xalqlar uchun, irqi, jinsi, tili va dinidan qat'iy nazar e'lon qilingan adolat o'rnatish hamda qonun ustuvorligini, inson huquqlari va asosiy erkinliklarini ta'minlashdan iborat.

Tashkilot 1945-yil 16-noyabrda tashkil etilgan, uning bosh qarorgohi Parij (Fransiya) da joylashgan. Ayni paytda tashkilotga 195 davlat a'zo, shuningdek, 2 ta kuzatuvchi davlat va 10 ta qo'shma a'zolar (tashqi siyosat uchun javobgar bo'lmagan hududlar) kiradi. 182 a'zo davlat Parijda tashkilotning doimiy vakolatxonasiga ega, unda 4 doimiy kuzatuvchi va hukumatlararo tashkilotlarning 9 kuzatuv missiyalari mavjud. Tashkilot dunyoning turli burchaklarida joylashgan 60 dan ortiq ofis va bo'limlarni o'z ichiga oladi.

Tashkilot doirasida yechimino kutayotgan muammolar:

- ta'lim sohasidagi kamsitish muammolari va savodsizlik;
- milliy madaniyatlarni o'rganish va milliy kadrlar tayyorlash;
- ijtimoiy fanlar, geologiya, okeanografiya va biosfera muammolari

- Afrika va gender tenglik muammolari shular jumlasidandir.

Tashkilotning faoliyat yo'nalishlari beshta dasturiy sektorda taqdim etilgan:

- ta'lim;
- tabiiy fanlar;
- ijtimoiy va gumanitar fanlar;
- madaniyat;
- aloqa va axborotlashtirish.

Ta'lim

YuNESKO tashkil etilgan ilk yillaridan ta'limga alohida ahamiyat qaratib kelmoqda. Urushdan keying yillarda tashkilot tomonidan G'arbiy Yevropada vayron bo'lgan maktablarni qayta tiklash va ta'lim

sohasidagi uzilishlarni qayta tiklashga e'tibor qaratilgan edi. 50-yillarda ushbu tashkilot ta'lim sohasidagi inson huquqlarini himoya qilish bilan shug'ullana boshladi. 1960-yilda Ta'lim sohasida kamsitishlarga qarshi konventsiya qabul qilindi. Unga qadar rivojlanayotgan davlatlar bilan bog'liq tadbirlar, asosan, turli sohalardagi muhim ma'lumotlarni yetkazishga qaratilgan edi. 1960-yillarning boshlarida yangi Afrika davlatlari ushbu tashkilotga qo'shilgandan so'ng, YuNESKO rivojlanayotgan davlatlarga e'tibor qarata boshladi.

1990-yilda BMTning Taraqqiyot Dasturi, YuNESKO, YuNFPA, YuNISEF va Jahon banki tomonidan Tailandning Jomtien shahrida barcha uchun ta'lim bo'yicha Butunjahon konferentsiya tashkil etildi. Unda tomonlar 2000-yilga qadar boshlang'ich ta'limni universallashtirish va savodsizlikka chek qo'yishga kelishib oldilar. Loyiha "Ta'lim barcha uchun" nomini oldi. YuNESKO muvofiqlashtiruvchi sifatida moliyalashtirish manbalarini izlash va dasturning ijrosi yuzasidan yillik hisobotlarni tayyorlash bilan shug'ullanadi. 2000-yilda Dakarda (Senegal) BMT tizimidagi bir qator tashkilotlar homiyligi ostida Butunjahon Ta'lim Forumi o'tkazildi. Forumda milliy ma'ruzalar asosida dasturni baholash amalga oshirildi, unda ma'lum yutuqlarga qaramay, biron bir maqsadga erishilmagani e'tirof etildi. Keyinchalik forum doirasida "Ta'lim barcha uchun" dasturining 2015-yilgacha bo'lgan asosiy strategiyasi va maqsadlari bayon qilindi. Asosiy maqsadlar orasidan majburiy bepul boshlang'ich ta'lim, boshlang'ich va o'rta maktablarda gender tenglik, ta'lim sifatini oshirish, erta yoshdan boshlab har tomonlama ta'lim, yoshlar va kattalarning ta'lim ehtiyojlarini qondirish va kattalar savodxonligini oshirishdir kabilar muhim o'rin olgan. Dastlabki ikkita maqsad BMTning rivojlanish maqsadlari ro'yxatiga kiritilgan.

2008-yil 25-noyabrda YuNESKO tomonidan taqdim etilgan hisobotda tashkilot siyosiy tizimlarning ta'lim muammolariga befarqligini tanqid ostiga oldi va dasturning ehtimoliy inqirozi yuzasidan fikr bildirdi. Dastlabki 2005-yilga qadar gender tenglikka erishish borasidagi maqsadga erishilmadi. Mavjud vaziyatni hisobga olgan holda, 2015-yilga kelib ikkinchi maqsad, ya'ni universal boshlang'ich ta'limga ham erishishilmadi. 2011-yil 1-martda taqdim etilgan hisobotda "Ta'lim barcha uchun" dasturining maqsadlariga erishish bo'lmagani borasidagi xulosalar ham tasdiqlangan. Hisobotda

ta'kidlangan qo'shimcha muammo maktab o'quvchilarining qurolli mojarolarga jalb qilinishi bilan bog'liq edi. Xususan, Irlandiyaning sobiq prezidenti va BMTning inson huquqlari bo'yicha komissari Meri Robinson qurolli mojaroning tabiati o'zgarishi bilan, bolalar qasddan va sistematik hujumlarning nishoniga aylanganligini ta'kidladi.

1991-yilda dunyo bo'ylab YUNESKO kafedralari tarmog'i sifatida tanilgan UNITWIN (University Twinning and Networking) dasturi yaratilgan bo'lib, uning faoliyati universitetlar o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish va "aqliy yo'qotishlar"ning oqibatlarini yumshatishga yo'naltirilgan edi. YuNESKO kafedralari ta'lim sohasida tajriba, bilim va texnologiyalari almashinuvi shuningdek ta'lim sifatini oshirish, qadrlar tayyorlash va ilmiy izlanishlar sifatini oshirishga xizmay qiladi. 1992-yilda kasb-hunar ta'limi sohasida yuqoridagi kabi UNEVOC (Technical and Vocational Education and Training) dasturi yaratildi. 2009-yilda oliy ta'lim bo'yicha ikkinchi jahon konferentsiyasi o'tkazildi (ilk bor 1998-yilda o'tkazilgan va muvaffaqiyatli deb tan olingan).

Tabiiy fanlar

Tashkilot tabiiy fanlarga ta'lim va madaniyat bilan fanlararo o'zaro bog'liqlik nuqtai nazaridan qaraydi. YUNESKO Yevropa yadro tadqiqotlari markazi va Xalqaro tabiatni saqlash ittifoqi kabi xalqaro loyihalarning ishlab chiqilishida bevosita ishtirok etgan. Hozirgi vaqtda YuNESKO o'zining ilmiy faoliyatida 2002-yilda Yoxannesburgda bo'lib o'tgan Barqaror rivojlanish bo'yicha Butunjahon sammitining xulosalariga hamda 1999-yilda Budapeshtda bo'lib o'tgan Butunjahon fanlar konferentsiyasining xulosalariga tayanadi.

Ilm-fan masalalari bilan Nayrobi, Jakarta, Venetsiya, Qohira va Montevideodagi mintaqaviy vakolatxonalar, shuningdek, tashkilotning 23 vakolatxonasi shug'ullanadi. Yo'nalishni YuNESKOning Delft shahridagi suv ta'limi instituti va Abduss Salam xalqaro trestdagi nazariy fizika markazi qo'llab-quvvatlaydi.

YuNESKOning ta'lim dasturlari qatoriga Xalqaro gidrologik dastur, hukumatlararo okeanografiya komissiyasi, odam va biosfera dasturi (biosfera rezervlarining butunjahon tarmog'i), xalqaro geosiologiya dasturi (Umumjahon milliy geoparklar tarmog'i) va xalqaro ilmiy dastur kiradi.

Ijtimoiy va gumanitar fanlar

YuNESKOning ijtimoiy va gumanitar fanlar sohasidagi vazifasi ijtimoiy o'zgarishlarga, inson huquqlari va erkinliklariga yo'naltirilgan bilimlar, standartlar va intellektual hamkorlikni rivojlantirishdir. Tashkilot o'zining asosiy maqsadiga qo'shimcha ravishda, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi qoidalarini amalga oshirish, gender tenglik va ta'lim olish huquqi kabi jihatlar bilan ishlaydi. YuNESKO jamiyatdagi mavjud vaziyatni, istiqbolli tadqiqotlarni va falsafani aniqlash bilan shug'ullanadi va taraqqiyot yo'nalishini belgilaydi.

Tashkilotning ushbu sohadagi faoliyati to'rt qismga bo'lingan:

- axloq (bioetika, fan va texnologiya, axloqiy ta'lim);
- inson huquqlari (gender tengligi, qashshoqlikni tugatish, demokratiya, falsafa, diskriminatsiyaga qarshi kurash);
- ijtimoiy o'zgarishlar (migratsiya, shaharshunoslik, yoshlar)
- sport (jismoniy tarbiya va doping muammolari).

YuNESKOning ijtimoiy va gumanitar yo'nalishdagi dasturlari orasida MOST (Ijtimoiy o'zgarishlarni boshqarish) dasturi va bioetika dasturi mavjud.

Madaniyat

YuNESKOning madaniyat sohasidagi faoliyati asosini insoniy munosabatlarga asoslangan madaniy xilma-xillikni ilgari surish tashkil etadi. Ushbu yondashuv 2001-yilda Madaniy xilma-xillik to'g'risidagi deklaratsiyaning qabul qilinishi munosabati bilan yana bir bor tasdiqlandi. Tashkilot insoniyat uchun qadrlil bo'lgan jahon madaniy va tabiiy merosini himoya qilishdan tashqari, nomoddiy madaniy merosning turli shakllarini, xususan og'zaki ijod namunalarini himoya qilishga o'tdi. YUNESKO 1954-yilgi Gaaga konventsiyasiga asoslangan holda qurolli mojarolar zonasida madaniy obyektlarni saqlash masalasida muhim o'rin egallaydi.

Venetsiya va Gavanadagi mintaqaviy vakolatxonalar madaniy masalalar bilan shug'ullanadilar. Madaniy yo'nalishdagi YuNESKO dasturlari qatoriga Jahon merosi, Nomoddiy madaniy meros va Suv osti madaniy merosi kabi dasturlar kiradi.

Aloqa va axborotlashtirish

Ko'plab davlatlarda to'laqonli ma'lumotlarga ega bo'lishning yo'qligi barqaror rivojlanish uchun to'siq hisoblanadi. Bilimlar jamiyati konsepsiyasi asosiy yo'nalishlardan biri sifatida e'tirof etilib,

soʻz erkinligi, maʼlumotdan foydalanish va taʼlim olish erkinligi prinsipiga asoslanadi. YuNESKOning aloqa sohasidagi faoliyati rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar oʻrtasidagi mavjud sohadagi tafovutni kamaytirishga qaratilgan. Bundan tashqari, YuNESKO matbuot erkinligi buzilishi va ommaviy axborot vositalari xodimlari faoliyatiga nisbatan toʻsqinliklarni qoralaydi.

Yoʻnalish faoliyati tashkilotning 27 vakolatxonasi tomonidan yuritiladi. Aloqa va axborotlashtirish sohasidagi YuNESKO dasturlari qatoriga “Maʼlumot hamma uchun”, “Tinchlik xotirasi”, “Raqamli merosni himoya qilish” dasturi va “Xalqaro aloqalarni rivojlantirish” dasturi kiradi.

Asosiy yoʻnalishlarga qoʻshimcha ravishda, YuNESKO fanlararo hamkorlikni talab qiladigan bir qator maxsus muammolar ustida faoliyat yuritadi. Hozirgi vaqtda tashkilot diqqat markazida Afrika va gender tenglik masalasi qoʻyilgan. Ular bilan bir qatorda, iqlim oʻzgarishi, tsivilizatsiyalar, kichik orolli davlatlar, yoshlar, tillar, mojarolar va tabiiy ofatlarning muammolar-oqibatlarini bartaraf qilish kabi masalalar ham ilgari surilgan.

Tashkilotning tarkibiy tuzilishi

Tashkilotning Parijdagi shtab-kvartirasidan tashqari markazsizlashtirish strategiyasi doirasida tashkil etilgan va uning barcha mintaqalar va mintaqalarda samarali boʻlishini taʼminlaydigan, shuningdek, BMT agentliklari va boshqa hamkor tashkilotlar bilan aloqada boʻlgan YuNESKOning bir qator mintaqaviy, klaster va milliy idoralari mavjud.

YuNESKoga aʼzo davlatlar beshta mintaqaviy guruhlariga boʻlingan: Afrika, Arab davlatlari ligasi, Osiyo va Tinch okeani, Yevropa va Shimoliy Amerika, Lotin Amerikasi va Karib dengizi. Boʻlinish asoslarini geografik omillargagina asoslanmagan. Tashkilot faoliyatining koʻplab dasturlari va tematik yoʻnalishlari mintaqaga xos muammolarni hal qilishga qaratilgan mintaqaviy tarmoqlarni tashkil qiladi. Mintaqaviy tarmoqlarning faoliyati YuNESKOning mahalliy idoralari, mintaqaviy idoralari va tashkilotning shtab-kvartirasi bilan birgalikda muvofiqlashtiriladi.

YuNESKOning mintaqaviy vakolatxonalari tashkilotning klasteri va mahalliy idoralariga maxsus yordam koʻrsatadi. Tashkilotning taʼlim, fan va madaniyat sohalarida ishlaydigan 10 ta mintaqaviy idoralari mavjud.

Klaster tizimi YuNESKO tuzilmasining asosini tashkil etadi. Tashkilotning 27 klaster idorasi 148 a'zo davlatlar bilan ishlaydi va YUNESKO vakolatiga kiradigan masalalar bo'yicha klasterdagi davlatlar o'rtasida o'zaro hamkorlik qiladi, qo'shma loyihalarni amalga oshirish uchun BMTning turli tuzilmalari bilan o'zaro hamkorlik qiladi, shuningdek faoliyatning turli sohalarida tashkilotning boshqa idoralari bilan o'zaro hamkorlik qiladi.

XXI asr boshlarida ijtimoiy birlik doktrinasi jahon hamjamiyati tomonidan ijtimoiy siyosat yurituvchi tashkilotlar uchun tavsiyalar sifatida ishlab chiqilgan. U jamiyatning barcha a'zolarining farovonligini ta'minlash, tengsizlikni minimallashtirish va jamiyatning tabaqalashuviga chek qo'yishga yo'naltirilgan edi.

Yevropa Kengashiga a'zo davlatlar ijtimoiy hamjihatlikni ijtimoiy, madaniy va siyosiy hayotni tashkil etishning ustuvor yo'nalishi sifatida qabul qila boshladilar va bunga erishish inson huquqlari va shaxsning qadr-qimmatini himoya qilishning ajralmas sharti sifatida qaraldi.

Ijtimoiy hamjihatlik sohasida ijtimoiy uyg'unlikka erishish deganda, turli xil madaniy qarashlar va diniy e'tiqodlar mavjud bo'lgan sharoitda inson huquqlarini ta'minlashda tenglik va diskriminatsiyadan holi bo'lgan muhit tushuniladi va bunda quyidagi prinsiplarga rioya qilish asosida erishishiladi:

- o shaxsning qadr-qimmatini, uning qobiliyati va o'ziga xosligini tan olish;
- o insonlarning hayoti davomida shaxsiy rivojlanish erkinligini ta'minlash;
- o har bir erkak va ayolning ommaviy, madaniy va mehnat hayotida faol ishtirok etishiga imkoniyat yaratish.

Ijtimoiy birdamlik to'g'risidagi hujjatlarda Yevropa Kengashi ijtimoiy siyosatning eng mustahkam poydevori bo'lgan inson huquqlariga asoslangan ijtimoiy hamjihatlikka yondashuvni ishlab chiqishga intilayotganligi ta'kidlangan. Inson huquqlarining mavjudligi, jamiyat a'zolari teng sharoitlarda yashashiga imkon beradi. Davlatning ijtimoiy siyosat sohasidagi faoliyati endilikda eng nochor aholi qatlamiga xayriya va ijtimoiy yordam ko'rsatish bilan cheklanmay, balki barcha uchun bir xil huquq va erkinliklarni ta'minlashga yo'naltirilgan.

Nazorat savollari:

1. Ijtimoiy xalqaro tashkilotlarga ta'rif bering va belgilari haqida ma'lumot bering.
2. Inson huquqlari bo'yicha umumjahon deklaratsiyada ijtimoiy himoyaga oid masalalarning aks etishi.
3. Xalqaro mehnat tashkilotining vujudga kelishi, maqsadlari va prinsiplari.
4. XMT faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
5. "Munosib mehnat" konsepsiyasining mohiyatini ochib bering.
6. Butunjahon sog'liqni saqlash tashkilotining vujudga kelishi, maqsadlari va prinsiplari
7. Pandemiya sharoitida JSST qanday o'rin egalladi?
8. JSST va AQSh munosabatlar?
9. YuNESKOning vujudga kelishi. maqsadlari, prinsiplari.
10. YuNESKO doirasida yechimino kutayotgan muammolar.

X BOB. JINOYATCHILIKKA QARSHI XALQARO TASHKILOTLAR TIZIMI

1-§. Jinoyatchilikka qarshi kurashda xalqaro hamkorlik tushunchasi

Jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasidagi xalqaro hamkorlikni takomillashtirish muammosi hozirgi kunda rivojlangan mamlakatlarning huquqni muhofaza qilish idoralari faoliyatidagi eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Zamonaviy jinoyatchilik sifat jihatidan yangi shakllarga ega bo'lib, uning g'arazli maqsadlardagi faoliyat yo'nalishlari soni ortdi, xalqaro ahamiyatga molik bo'lgan jinoyatlar soni sezilarli darajada oshdi. Bugungi kunga kelib, yangidan-yangi xalqaro jinoyiy guruhlar faoliyati aniqlanmoqda.

Jinoyatchilikka qarshi xalqaro kurash deganda davlatlarning jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan sodir etilgan jinoyatlarning ayrim turlariga qarshi kurashishdagi hamkorligi tushuniladi. Bugungi kunda xalqaro jinoyatchilikka qarshi kurashda davlatlararo hamkorlikning ikkita asosiy turi (shakli) ajratiladi:

- xalqaro jinoyatchilikka qarshi kurash bo'yicha xalqaro shartnomalar tuzish yo'li bilan;
- ixtisoslashgan xalqaro tashkilotlar doirasida jinoyatchilikka qarshi kurashga ishtiroki etish orqali.

Jinoyatchilikning zamonaviy tendentsiyalari, uning davlatlar chegaralaridan chiqib ketishi, jinoyatchilikning mutloq va nisbiy o'sishi, ayniqsa uning uyushgan shakllari, transmilliy va ko'p hollarda global xarakterga ega bo'lganligi, davlatlarning jinoyatchilikka qarshi kurashda xalqaro hamkorlik orqali sa'y-harakatlarini birlashtirish zaruratini yuzaga keltirdi.

Bugungi kunda xalqaro xavfsizlikka tahdid soluvchi xalqaro xarakterdagi jinoyatlarga quyidagilar kiradi:

- genotsid jinoyatlari;
- insoniyatga qarshi jinoyatlar;
- harbiy jinoyatlar;
- bosqinchilik jinoyatlari.

Jinoyatchilikka qarshi kurash borasidagi xalqaro hamkorlik quyidagi ko'rinishda namoyon bo'lmoqda:

- ikkitomonlama hamkorlik;

- mintaqaviy hamkorlik;
- xalqaro hamkorlik.

Ikkimonlama hamkorlik nisbatan keng tarqalgan ko‘rinishlardan biri bo‘lib, bunda jinoiy ishlar bo‘yicha o‘zaro huquqiy yordam ko‘rsatish, jinoyatchilarni ekstraditsiya qilish kabilar muhim o‘rin tutadi.

Mintaqaviy hamkorlik muayyan mintaqa davlatlari o‘rtasidagi o‘zaro kelishuvlar asosida amal qiladi (masalan, Yevropa Kengashiga a‘zo davlatlar orasida, APEC, MDH va boshqalar). Bunga 1993-yilgi MDH davlatlari doirasidagi “Fuqarolik, oilaviy va jinoiy ishlar bo‘yicha huquqiy yordam to‘g‘risida”gi Minsk Konventsiyasi misol bo‘la oladi.

Xalqaro jinoyatchilikka qarshi kurash davlatlar o‘rtasidagi hamkorlikning ko‘plab sohalaridan biridir. Barcha sohalaridagi hamkorlik aloqalarida bo‘lgani kabi, u ham xalqaro huquqda tarixan shakllangan o‘zaro muloqotning asosiy yoki umumiy tamoyillari asosida yagona asosda rivojlanadi. Ushbu tamoyillar normativ ravishda ikkita katta hujjatlar guruhida ko‘rsatilgan:

1) jinoyatchilikka qarshi kurash sohasidagi xalqaro hamkorlikning umumiy tamoyillari va vektorlarini tashkil etuvchi xalqaro paktlar, kelishuvlar va konventsiyalar. BMT tomonidan qabul qilingan hujjatlar bunda alohida o‘rin tutadi.

2) davlatlarning jinoyatchilikka qarshi birgalikda kurashish siyosati va amaliyotini shakllantiruvchi shartnomalar.

Xalqaro hamkorlik xalqaro jinoyat huquqi sohasida ko‘ptomonlama shartnomalar doirasida amal qilmoqda, bular:

➤ 1948-yilgi “Genotsid jinoyatining oldini olish va jazolash to‘g‘risida”gi Konventsiya;

➤ 1949-yilgi “Odam savdosiga qarshi kurash va uchinchi shaxslarning fohishabozligini ekspluatatsiya qilish to‘g‘risida”gi Konventsiya;

➤ 1956-yilgi “Qullikni bekor qilish to‘g‘risida”gi qo‘shimcha Konventsiya;

➤ 1973-yilgi “Aparteid jinoyatiga qarshi kurashish va jazolash to‘g‘risida”gi xalqaro Konventsiya;

➤ 1963-yilgi “Samolyot bortida sodir etilgan jinoyatlar va boshqa ba‘zi harakatlar to‘g‘risida”gi Tokio Konventsiyasi;

- 1970-yilgi “Samolyotlarni noqonuniy olib qo‘yishga qarshi kurash to‘g‘risida”gi Gaaga Konventsiyasi;
- 1971-yilgi “Fuqaro aviatsiyasi xavfsizligiga qarshi noqonuniy xatti-harakatlarga qarshi kurash bo‘yicha” Monreal konventsiyasi;
- 1961-yilgi “Narkotik moddalar to‘g‘risida”gi Konventsiya;
- 1971-yilgi “Psixotrop moddalar to‘g‘risida”gi Konventsiya;
- 1988-yilgi “Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanishiga qarshi kurash to‘g‘risida”gi Konventsiya;
- 1973-yilgi “Xalqaro muhofaza qilinadigan shaxslarga, shu jumladan diplomatik agentliklarga qarshi jinoyatlarning oldini olish va jazolash to‘g‘risida Konventsiya;
- 1979-yilgi “Garovga olinishga qarshi” Xalqaro konventsiya⁹⁰.

Jinoyatchilikka qarshi kurash to‘g‘risidagi ko‘p tomonlama konvensiyalarning ko‘pchiligida qayd etilishicha, ularda qayd etilgan huquqbuzarliklar, ular qaysi hududda sodir etilgan bo‘lsa, yoki o‘sha davlatda ro‘yxatdan o‘tgan kema yoki samolyot bortida sodir etilgan bo‘lsa, yoki gumon qilingan jinoyatchi ushbu davlat fuqarosi bo‘lsa mavjud davlat yurisdiksiyasi amal qiladi. Shuningdek, ko‘plab konvensiyalar jinoiy ish yuritishda gumonlanuvchi tomonidan jinoyat sodir etilgan davlat hududining yurisdiksiyasi amal qiladi.

2-§. Jinoyatchilikka qarshi kurashda xalqaro hamkorlik shakllari

Jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasidagi davlatlar o‘rtasidagi hamkorlik bir necha shakllarda amalga oshiriladi:

– ayrim jinoiy qilmishlarning jahon hamjamiyati uchun xavfliligini tan olgan holda, qo‘shma xalqaro huquqiy hujjatlarni qabul qilish va shu yo‘l bilan ularni bartaraf etishda hamkorlikda ish tutish;

– xorijiy davlat hududida yashiringan huquqbuzarlarni qidirishda yordam berish orqali. Mazkur jarayon diplomatik muassasalar orqali hamda o‘z davlati hududida qidiruv va surishtiruv ishlarini olib boruvchi organlar (huquqni muhofaza qilish idoralari) bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri hamkorlik o‘rnatish orqali amalga oshiriladi.

– jinoyat ishi bo‘yicha zarur materiallarni olishga yordam berish orqali;

⁹⁰ А.Эгамбердиев, Ш. Мирзаев, З.Борсиева, У.Закирова. Международные правоохранительные организации.

Учебное пособие. – Т.: ТГЮУ, 2016. – С. 38.

– ayrim davlatlarga jinoyatchilik muammolarini hal qilishda mavjud muammolarni o'rganish hamda uslubiy va amaliy yordam ko'rsatish orqali amalga oshiriladi.

Har bir davlatda jinoyatchilik nafaqat farqlanadi, balki umumiy kriminologik belgilarga ham ega. Jinoyatchilikka qarshi kurashish bo'yicha ichi siyosiy nuqta nazardan ilgari surillgan vazifalarning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, davlatlar mavjud muammolarni hal qilishga intilmoqdalar. Bu bizga xalqaro huquqbuzarliklarning oldini olish muammosini ko'rib chiqishga imkonini beradi.

Jinoyatchilikka qarshi kurash bo'yicha xalqaro aloqalar uzoq muddatli amaliyotga ega va u quyidagi hamkorlik shakllarida namoyon bo'ladi:

– huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasidagi milliy va xalqaro strategiya bo'yicha o'zaro maslahatlashuvlar;

– xalqaro xavfli jinoyatlarning eng xavfli turlariga qarshi kurashish bo'yicha qo'shma dasturlarni ishlab chiqish;

– profilaktika tadbirlarini tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tajriba almashish. Tajriba almashish ixtisoslashtirilgan adabiyotlar bilan almashish, huquqbuzarliklarni sodir etish, yashirish va aniqlash usullari, huquqbuzarliklarni keltirib chiqaradigan holatlarni zararsizlantirish vositalari to'g'risida ma'lumot almashishni o'z ichiga oladi;

– tadqiqot natijalari bilan almashish;

– amaliy va ilmiy xodimlar delegatsiyalari almashinuvi;

– xalqaro kongresslar va seminarlar, simpoziumlar, kollokvialar o'tkazish;

– mutaxassislar almashinuvi.

Ayni paytda BMT va boshqa xalqaro hukumatlararo va nodavlat tashkilotlar jinoyatchilikning oldini olish va ularga qarshi kurashish bo'yicha samarali xalqaro hamkorlikni tashkil etish va amalga oshirish uchun katta sa'y-harakatlarni amalga oshirmoqdalar. Ularda ulkan ma'lumotlar banklari, me'yoriy materiallar, har bir davlat milliy va transmilliy jinoyatchilikka qarshi samarali kurashishda foydalanishi mumkin bo'lgan kriminalistik, jinoiy-huquqiy va jinoiy-siyosiy tadqiqotlarga oid ma'lumotlar jamlangan.

Biroq, ushbu tashkilotlarning faoliyati jinoyatchilikka qarshi xalqaro kurashni tartibga soluvchi ko'plab qoidalar bilan qat'iy

tartibga solingan. Ushbu me'yoriy hujjatlarni tasdiqlash va ratifikatsiya qilish, aksariyat hollarda, ma'lum bir davlatning suveren huquqi bo'lgani bois, ushbu tashkilotlar o'z imkoniyat va vositalarida cheklangan va shu sababdan samarali faoliyat yurita olmaydilar deb taxmin qilish mumkin. Bundan tashqari, ushbu tashkilotlar muayyan davlatlar tomonidan moliyalashtirilgani yoki ma'lum bir davlat hududida joylashganligi bois, muayyan davlatlar ta'siri ostida bo'lishi mumkin.

Shu bilan birga, hozirgi kunda xalqaro jinoyatchilikka qarshi kurash amaliyoti to'liq rivojlangan, deb aytib bo'lmaydi. Zero ular bir qator iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy tendentsiyalar ta'siri ostida rivojlanmoqda.

3-§. Xalqaro jinoyatchilikka qarshi kurashda BMTning tutgan o'ri va roli

Zamonaviy jinoyatchilikka qarshi kurashda yirik xalqaro tashkilotlar, avvalo, BMT eng katta imkoniyatlarga ega deb taxmin qilish mumkin. Bu ham normativ, ham huquqiy, ham ijtimoiy omillarga bog'liq.

Tashkiliy jihatdan jinoyatchilikka qarshi kurashda xalqaro hamkorlik BMT tomonidan boshqariladi. BMT Nizomining 1-moddasi mazmunidan kelib chiqib, boshqa vazifalar qatorida ushbu tashkilot davlatlarning xalqaro hamkorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Ushbu vazifani amalga oshirish BMT Nizomining 10-bobiga muvofiq BMTning Iqtisodiy va Ijtimoiy Kengashiga yuklatilgan. Jinoyatchilikka qarshi kurashda hamkorlik qilish bo'yicha faoliyat subyektlari qatorida BMT bilan maslahatlashuvchi maqomga ega bo'lgan nodavlat tashkilotlar va Interpol ham bor.

Aytish mumkinki, aslida u yaratilgan paytdan boshlab BMTda jinoyatchilikka qarshi kurashish organlari tizimi shakllangan. Umuman olganda, jinoyatchilikka qarshi kurashda BMTning asosiy organlari bu BMT kongresslari, KPPUP, UNODC va CTC bo'lib, ular o'zlarining zimmalariga yuklangan vazifalarni zudlik bilan hal qiladilar⁹¹.

Xalqaro jinoyatchilikka qarshi kurashni muvofiqlashtirishda BMTning Giyohvand moddalar va jinoyatchilikka qarshi kurash

⁹¹ Бастрыкин А.М. Формы и направления сотрудничества государств в борьбе с преступностью // Вестник МГУ, 2007. Сер. 6. Право. № 3. С. 52-53.

bo'yicha boshqarmasi muhim rol o'ynaydi. Ushbu tashkilot faoliyatining yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

- 1) uyushgan jinoyatchilik va noqonuniy savdo;
- 2) korrupsiya;
- 3) jinoyatchilikning oldini olish va jinoiy qonunchilikni isloh qilish;
- 4) giyohvandlikning oldini olish va sog'liqni saqlash;
- 5) terrorizmning oldini olish.

Bundan tashqari, UNODC jinoyatchilik va odil sudlovning paydo bo'layotgan tendentsiyalarini tahlil qiladi, ma'lumotlar bazasini ishlab chiqadi, global so'rovlar o'tkazadi, ma'lumot to'playdi va tarqatadi, shuningdek, terrorizmning kuchayishidan erta ogohlantirish choralarini baholaydi va hal qiluvchi rol o'ynaydi, shuningdek, BMTning qonun ijodkorligi faoliyati bilan shug'ullanadi⁹².

Hozirgi vaqtda BMTning huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyat odil sudlovi to'g'risidagi hujjatlari xalqaro huquqning asosiy manbai sifatida Birlashgan Millatlar Tashkilotining Ustaviga asoslanadi. Materiallarning aksariyati BMTning asosiy organlari qarorlari bilan tasdiqlangan va tavsiyaviy xarakteriga ega⁹³.

Yuqorida so'z yuritilgan unifikatsiya jarayonida O'zbekiston qonunchiligi istisno bo'la olmaydi. O'zbekiston tomonidan BMTning terrorizmga, transmilliy uyushgan jinoyatchilikka, giyohvand moddalar savdosiga, korrupsiyaga qarshi kurashga qaratilgan Konvensiyalarining imzolanishi va ratifikatsiyasi hamda keyinchalik O'zbekiston Respublikasining milliy qonunchiligiga transformatsiyalashuvi BMT kongresslari aktlarining O'zbekistonning jinoyat ishlari bo'yicha qonunchiligiga so'zsiz ta'siridan dalolat beradi.

Bundan tashqari, BMT kongresslari aktlari O'zbekiston Respublikasining jinoiy, jinoiy protsessual, jinoiy ijro qonunchiligida, shuningdek amaliy kriminologiyada ham o'z aksini topgan.

Shu bilan birga, ta'kidlash joizki, jinoyat qonunchiligi sohasidagi huquqiy tartibga solish holatini mukammal deb bo'lmaydi. Jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasidagi milliy qonunchilikni,

⁹² Наумов А.В., Кибальник А.Г. Международное уголовное право 2-е издание, переработанное и дополненное. М.: Юрайт, 2013. С. 120.

⁹³ Квашин В. Преступность как глобальная угроза // Юридический мир, 2011. № 10. С. 21.

avvalambor, BMTning universal standartlariga muvofiqlashtirishni davom ettirish zarur. Shu munosabat bilan, jinoyatchilikning oldini olish bo'yicha BMTning tajribasini, shuningdek, davlatning jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasidagi xalqaro tendentsiyalarini hisobga olish zarur. Xalqaro xarakterdagi jinoyatlar bilan muvaffaqiyatli kurashishning eng muhim sharti - bu jinoyat ishlari bo'yicha huquqiy yordamni amalga oshirish, shu jumladan jinoyat sodir etgan shaxslarni topshirish (ekstraditsiya)dir.

Ekstraditsiya ichki qonunchilik bilan tartibga solingan hollardagina jinoyatchilikka qarshi kurashishning samarali vositasiga aylanishi mumkin. Shu munosabat bilan biz "Jinoiy ta'qib qilish yoki jazoni ijro etish uchun shaxsni yoki qamoq jazosiga hukm qilingan shaxsni o'zi fuqarosi bo'lgan davlatda jazoni o'tash uchun topshirish (ekstraditsiya) to'g'risida" qonun ishlab chiqishni va qabul qilishni tavsiya etamiz. Ushbu qonun ekstraditsiya qilishning universal tamoyillari, tartiblari va asoslarini ta'minlashi kerak.

Jinoyatchilikka qarshi kurashish bo'yicha xalqaro hamkorlikning ko'p yillik amaliyoti jarayonida hamkorlik mexanizmlari, jumladan, BMT va uning ixtisoslashgan organlari, nodavlat xalqaro tashkilotlar, Xalqaro jinoiy politsiya tashkiloti (Interpol) kabi xalqaro tashkilotlar rivojlandi.

Ularning maqsadi, vazifa va funksiyalari jinoyatchilikka qarshi kurashning umumiy va maxsus tadbirlarini ishlab chiqish va amalga oshirishga xizmat qiladi.

Davlatlar o'rtasida jinoyatchilikning oldini olish bo'yicha BMT orqali hamkorlikni uning ixtisoslashgan organi - Iqtisodiy va Ijtimoiy Kengash (ECOSOC) muvofiqlashtiradi, uning tarkibida jinoyatchilikning oldini olish bo'yicha komissiya tashkil etilgan.

Komissiya ECOSOCga jinoyatchilikka qarshi kurash va huquqbuzarlarga nisbatan insoniy munosabatda bo'lish bo'yicha taklif va tavsiyalar kiritadi. Komissiya jinoyatchilikning oldini olish va huquqbuzarlarga nisbatan munosabatda bo'lish bo'yicha BMT Kongresslarini tayyorlaydi.

BMT kongresslari huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'yicha xalqaro qoidalar, standartlar va tavsiyalarni ishlab chiqishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Birinchi Kongress 1955-yilda Jenevada bo'lib o'tgan. BMTning keyingi Kongresslari har besh yilda bir marta o'tkazilgan.

Nodavlat xalqaro tashkilotlar orasida jinoyatchilikka qarshi kurashga Xalqaro jinoyat huquqlari uyushmasi (IAPL), Xalqaro kriminologik jamiyat (ICS), Xalqaro ijtimoiy himoya jamiyati (ISSP) hamda Xalqaro jinoyat va penitensiar jamg'arma (IFTF) tomonidan muhim hissa qo'shilmogda. Ular BMTda maslahat organi maqomiga ega.

Xalqaro jinoyat huquq uyushmasi (XJHU) 1924-yilda tashkil etilgan bo'lib, u alohida davlatlarning milliy guruhlarini yordamida ishlaydi. Uning maqsadi insonparvarlik va adolatni ta'minlaydigan qonunchilik va huquqiy institutlarni takomillashtirishdan iborat.

Asosiy vazifalari:

✓ jinoyat huquqi nazariyotchi va amaliyotchilari hamkorligini ta'minlash;

✓ jinoyatchilik, uning sabablari va unga qarshi kurashish vositalarini o'rganish;

✓ jinoyat qonunchiligi, jinoyat protsessual va penitensiar tizim islohotlarini o'rganish;

✓ xalqaro jinoyat huquqi muammolarini o'rganish.

Faoliyat shakllari:

✓ kongresslar tashkil etish;

✓ BMT, YuNESKO va boshqa xalqaro tashkilotlarga maslahatlar berish;

✓ davlatlarning so'roviga binoan, qonun hujjatlari loyihalarini ekspertizadan o'tkazish;

✓ xalqaro jinoyat-huquqiy sharhlar hamda xalqaro jinoyatchilikka qarshi kurash bo'yicha ilmiy ishlar nashr etish;

✓ kongresslar o'rtasida kollokviumlar tashkil etish.

Xalqaro kriminologiya jamiyati - XKJ (ICS) 1934-yilda Rimda tashkil etilgan. Uning asosiy maqsadi jinoyatchilikni xalqaro darajada o'rganishga ko'maklashishdan iborat.

Faoliyatning asosiy shakllari:

xalqaro kongresslar, seminarlar, kollokvialarni tashkil etish va ularning materiallarini nashr etish;

milliy ilmiy va o'quv markazlari o'rtasida ilmiy almashinuvga yordam berish;

ilmiy kadrlar malakasini oshirish uchun xalqaro kriminologik kurslarni tashkil etish;

xalqaro kriminologik markazlarni tashkil etish;

kriminologiya fanining rivojlanishini rag'batlantirish uchun stipendiya va mukofotlar ta'sis etish va tayinlash.

4-§. Interpol xalqaro munosabatlarning subyekti sifatida. Interpolning shakllanishi va rivojlanish tarixi

Jinoyatchilik va unga qarshi kurashish muammolari uzoq tarixga ega va tarixning barcha davrlarida doimiy ravishda barcha davlatlarning kun tartibida bo'lgan. Shu bilan birga, XIX va XX asrlar boshlarida bir qator omillarga bog'liq ravishda xavfli jinoyatlarga qarshi kurashda davlatlararo yordam ko'rsatishga alohida ehtiyoj tug'ildi: davlatlararo aloqalarni rivojlantirish, chegara tartib-taomillarini soddalashtirishi, turizmning rivoji jinoyatchilarning bir davlatdan ikkinchi davlatga o'tish imkoniyatini oshirdi hamda kasbiy va uyushgan jinoyatchilik avj oldi, shuningdek, kontrabanda, noqonuniy giyohvand moddalar savdosi, terrorizm, "odam savdosi", qalbakilashtirish kabi jinoyatlar turlari ko'plab guruhlarining diqqat markazida bo'lib, ular o'zlarining mohiyati va miqyosiga ko'ra jamiyat va shaxslarga yetkazilgan zararni yagona, davlatlar o'rtasidagi taktik va texnik choralar, yashirin jinoyatchilarni qidirish va hibsga olishni qat'iy protsessual birlashtirish hamda jinoyatchilarni ekstraditsiya qilish (ekstraditsiya) tartibini muvofiqlashtirish zaruratini yuzaga keltirdi.

Yaqin hamkorlik o'rnatish zarurati milliy jinoiy politsiya xodimlarini turli darajalarda rasmiy va norasmiy shakllarda muloqot qilishga undadi. Kriminologlar va kriminalistlarning jinoyatchilikka qarshi kurashish borasidagi sa'y-harakatlarni birlashtirish zarurati Interpol tashkil etilgunga qadar bir qator xalqaro forumlarning o'tkazilishiga sabab bo'ldi.

Bunga 1889-yilgi Bryusselda Xalqaro jinoyat huquqi birlashmasining ta'sis yig'ilishi, 1905-yilgi Gamburgdagi Xalqaro kriminalistlar ittifoqining X Xalqaro assambleyasi yig'ilishi, 1910-yilda Buenos-Ayresda (Argentina) Xalqaro kriminalistlar ittifoqining tuzish to'g'risidagi taklifning ilgari surilishi, 1912-yilgi Myunxen va Drezdenda Germaniya ichki politsiya konferentsiyasi, 1914-yilgi Monakoda I Xalqaro Jinoyat Politsiyasi kongressining o'tkazilishi misol bo'la oladi. Bunda 14 davlat hududida faoliyat yurituvchi huquqshunos va politsiya idoralari vakillari jinoyatchilikka qarshi kurash bo'yicha faoliyatini muvofiqlashtirish, xalqaro jinoiy ma'lumotlarni ro'yxatdan o'tkazish va jinoyatchilarni topshirish (topshirish) tartibini muvofiqlashtirish bo'limini tashkil etish

imkoniyatlarini muhokama qildilar. Ammo birinchi jahon urushi mazkur chora-tadbirlarning amalga oshirilish omkonini bermadi.

1923-yilda II Xalqaro jinoyat politsiyasi kongressi bo'lib o'tdi, natijada 1923-yil 7-sentyabrda doimiy tashkilot - Xalqaro jinoyat politsiyasi komissiyasi (The International Criminal Police Commission) tashkil etildi.

50-yillarning o'rtalarida uning faoliyatini tashkil etishning huquqiy asoslarini takomillashtirish zarurligi e'tirof etildi, natijada Xalqaro jinoiy politsiya komissiyasining 25-sessiyasida (1956-yil) **Xalqaro jinoiy politsiya tashkiloti** deb nomlangan yangi tashkilot (*The International Criminal Police Organization - INTERPOL*)ning Nizomi qabul qilindi.

1966-yilda Interpol Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan xalqaro tashkilot. 1971-yilda esa hukumatlararo tashkilot sifatida tan olindi. 1996-yildan buyon tashkilot BMT Bosh assambleyasi sessiyalari va ishlarida kuzatuvchi sifatida qatnashib keladi. 190 dan ortiq (193) davlat Interpolga a'zo. Uning markaziy organlarining rasmiy qarorgohi Lion shahri (Fransiya)da joylashgan.

Xalqaro jinoiy politsiya tashkiloti (INTERPOL) turli davlatlar politsiya idoralari (muassasalari)ning umumiy jinoyatchilikka qarshi kurash bo'yicha xalqaro hamkorligini muvofiqlashtiruvchi tashkilot hisoblanadi. Interpol faoliyatining huquqiy asoslari uning Ustavi va Nizomidan iborat. 1956-yil 13- iyunda kuchga kirgan Xartiya 1923-yilgi ta'sis shartnomasini almashtirdi. Interpolning tashkil etilishi va rivojlanishining murakkab va ziddiyatli tarixi, uning xalqaro tashkilot sifatida o'ziga xosligi, XX-XXI asrlarda jahon hamjamiyatining tobora murakkablashib borayotgan hayoti bilan uzviy bog'liqligi, uning huquqiy pozitsiyasini (maqomini) aniqlash va tavsiflashda muayyan qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi⁹⁴.

Tashkilot maqsadi:

➤ jinoyatchilikka qarshi kurash bo'yicha turli davlatlarning huquqni muhofaza qilish organlari (muassasalari) faoliyatini muvofiqlashtirish;

➤ davlatlarning amaldagi qonunchiligi doirasida va Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi ruhida jinoiy politsiya barcha organlari (muassasalari)ning keng hamkorligini ta'minlash.

⁹⁴ А.Эгамбердиев, Ш. Мирзаев, З.Борсиева, У.Закирова. Международные правоохранительные организации.

➤ jinoyatchilikning oldini olish va nazorat qilishga samarali hissa qo'shishi mumkin bo'lgan institutlarni tashkil etish va rivojlantirish.

1923-yilda Xalqaro jinoyiy politsiya komissiyasi sifatida tashkil etilganidan buyon Interpol o'z tarkibini doimiy ravishda kengaytirib boradi. Hamkorlik modeli siyosatiga asoslangan holda, tashkilot turli xalqlarning huquqni muhofaza qilish organlari o'rtasida ularning milliy qonunlari doirasida hamkorlikni rivojlantirish maqsadini ko'zlaydi. Ikkinchi Jahon urushidan so'ng, tashkilotning isloh qilinishi bilan Interpol siyosiy, irqiy va diniy masalalardan qat'iy nazar, jinoyiy huquqbuzarliklarga qarshi kurashga alohida e'tibor qaratdi⁹⁵.

Interpol tarixini huquqiy nuqtai nazardan tahlil qilib, quyidagilarni aytishimiz mumkin:

– tashkilot tomonidan 1923-1930-yillarda ko'p tomonlama a'zolik belgilari, doimiy organlar, ta'sis shartnomasi, suverenitetni hurmat qilish va a'zo davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik, qarorlarni qabul qilish va qonuniy kuchga ega bo'lish tartibi o'rnatilgan;

– xalqaro huquqlar mustaqilligining belgilari (imtiyozlar va immunitetlar, shtab-kvartiralarining mustaqilligi, xodimlarning daxlsizligi, arxivlarning daxlsizligi, rasmiy yozishmalar va barcha turdagi aloqa turlari, to'g'ridan-to'g'ri soliq va bojxona to'lovlaridan ozod qilish, valyuta imtiyozlari, tashkilot rahbarining diplomatik daxlsizligi, boshqa huquqlar) 1956-1984-yillarda o'rnatilgan.

Tashkilot vazifalari:

– rejalashtirilgan va sodir etilgan jinoyatlar, shuningdek boshqa huquqbuzarliklarning oldini olish;

– sodir etilgan jinoyatlarni fosh etish;

– jinoyat (huquqbuzarlik) sodir etgan shaxslarni qidirish, aniqlash va ushlab turish;

– sud-tibbiyot (militsiya) yozuvlarini yuritish;

– zarurat yuzasidan tayyorlangan va sodir etilgan jinoyatlarning oldini olish va ularni fosh etish bo'yicha tezkor-qidiruv tadbirlarini amalga oshirish.

Xalqaro tashkilot sifatida Interpol o'zining huquqiy maqomini aniqlashning quyidagi bosqichlarini bosib o'tdi: mustaqil bo'lmagan nodavlat (1923-1930), nodavlat (1930-1984), hukumatlararo (1984-yildan).

⁹⁵ Comparative and International Policing, Justice, and Transnational Crime, edited by Sessa Kethineni. Durham, NC: Carolina Academic Press, 2010.

Interpolning xalqaro hukumatlararo tashkilot sifatidagi tahlili uning ixtisoslashgan tashkilot ekanidan dalolat beradi:

- faoliyati turiga ko'ra - huquqiy;
- a'zolari qabul qilish tartibiga ko'ra - ochiq;
- hududiy qamroviga ko'ra - xalqaro;
- ishtirokchilar doirasiga ko'ra - universal tashkilotdir.

Tashkilotning huquqiy maqomini tahlil qilar ekanimiz, shuni ta'kidlash joizki, Interpol xalqaro huquq me'yorlariga rioya qilgan holda mustaqil ravishda tergov o'tkaza olmaydi, jinoyatlarni ochib, turli davlatlarda jinoyatchilarni axtara olmaydi (ya'ni, bu ishtirokchi davlatlar vakolatlari berilgan millatlararo tashkilot emas). Bugungi kunda u xalqaro jinoyatchilikning oldini olish va unga qarshi kurash bo'yicha axborot, texnik va tashkiliy imkoniyatlari bo'yicha yetakchi va noyob tashkilotdir.

Tashkilotning tarkibiy tuzilishi:

Interpolning oliy organi Bosh assambleyadir. Doimiy ishchi organ - Bosh kotib boshchiligidagi Bosh kotibiyatdir. Bosh assambleyaga barcha a'zo davlatlarning vakillari kiradi. INTERPOLga a'zo bo'lmagan davlat vakillari, shuningdek xalqaro tashkilotlarning delegatlari sessiya ishida kuzatuvchi sifatida qatnashishi mumkin.

Bosh assambleyaning sessiyalari har yili, kuzda, turli qit'alar va turli davlatlarda o'tkaziladi. Ovoz berishda har bir delegatsiya bitta ovozga ega.

Bosh assambleyaning qonuniy vakolatlari quyidagilardan iborat:

- 1) Interpol doirasida turli davlatlarning huquqni muhofaza qilish organlari o'rtasidagi hamkorlikning asosiy yo'nalishlarini belgilaydi;
- 2) bunday hamkorlikka ko'maklashish bo'yicha tadbirlarni uyushtiradi;
- 3) yangi a'zolari qabul qilish;
- 4) kelgusi yil uchun ish rejasi va byudjetini ko'rib chiqadi va tasdiqlaydi;
- 5) tashkilot mansabdor shaxslarini saylaydi;
- 6) moliyaviy masalalarni hal qiladi.

Tashkilotning faoliyat yo'nalishlari:

- jinoyatlarni ro'yxatga olish. Tarixan shaxslarni aniqlash va tekshirish Interpolning asosiy faoliyatlaridan biri bo'lib kelgan;
- xalqaro jinoyatlarni sodir etganlikda gumon qilingan jinoyatchilar, bedarak yo'qolgan shaxslar, o'g'irlangan qimmatbaho

buyumlar va boshqa jinoyiy tajovuz obyektlarining xalqaro qidiruvini tashkil etish;

- Interpol terrorizmga qarshi kurashda faol ishtirok etmoqda;
- Interpol xalqaro miqyosda giyohvand moddalar savdosiga qarshi kurashishda faol ishtirok etmoqda, xususan tashkilot tomonidan jinoyatchilikka qarshi kurash bo'yicha xalqaro politsiya loyihalari ishlab chiqilib, amalga oshirilmoqda.

- jinoyatchilikka qarshi kurashning asosiy yo'nalishlarini aniqlash, penitentsiar tizimni tashkil etish bo'yicha tavsiyalar berish va boshqalar orqali davlatlarga jinoyatchilikka qarshi kurashda ko'maklashish;

- jinoyatchilik muammolarini birgalikda o'rganish va unga qarshi kurash. Shu maqsadda xalqaro kongresslar, konferentsiyalar chaqiriladi, shuningdek xalqaro tashkilotlar, ilmiy-tadqiqot institutlari tashkil etiladi;

- tezkor va boshqa ma'lumotlar almashinuvi. Davlatlar aksariyat hollarda jinoyatni samarali tergov qilish va qo'lga olish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni, shuningdek jinoyiy xarakterdagi boshqa ma'lumotlarni taqdim etishga kelishib oladilar. Xususan, boshqa davlat fuqarolariga nisbatan chiqarilgan hukmlar to'g'risida ma'lumot almashadilar.

O'z vazifalarini amalga oshirish uchun Interpolda barmoq izlari va fotosuratlarni fototelegrafik uzatishni o'z ichiga olgan tunu kun xizmat ko'rsatadigan yuqori tezlikdagi aloqa liniyalari mavjud. Surishtiruv xizmatida sud-tergov materiallari va ma'lumotlarni qayta ishlash tizimlari, xalqaro jinoyatchilar to'g'risidagi ma'lumotlar banki mavjud. Xalqaro jinoyatchilarni, shu jumladan shaxslar va jinoyiy ishlarining toifalari bilan aloqalar va tasodiflarni o'rnatish imkoniyatlarini aniqlash uchun ma'lumotlarni baholash va qayta ishlash markazi yaratilgan.

Interpol tomonidan jinoyatchilar, o'g'irlangan shaxslar va bedarak yo'qolganlarni aniqlashda muayyan tizim yo'lga qo'yilgan. Unga ko'ra, qidirilayotgan shaxslar turiga ko'ra ajratiladi va tegishli rangdagi kartalar bilan belgilab qo'yiladi. Ular quyidagi xabarnomalar ko'rinishida bo'ladi

Interpol xabarnomalari turlari

Qizil xabarnomalar (red notices)	ayblanuvchini yoki mahkumni hibsga olish va ekstraditsiya qilish maqsadidagi qidiruv haqida
Ko'k (moviy) xabarnomalar (blue notices)	ayblanuvchi yoki sudlanuvchini uning manzilini aniqlash yohud uning harakatlanishini nazorat olish, shuningdek, gumondor yoki ayblanuvchining manzilini aniqlash haqida
Yashil xabarnomalar (green notices)	tezkor-qidiruv faoliyati olib borilayotgan, ammo jinoyat ishi bo'yicha gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchi deb tan olish to'g'risida protsessual qarorlar mavjud bo'lmagan shaxs, shuningdek, shaxsning chet elga chiqish niyati borligi to'g'risidagi ma'lumotlar mavjud bo'lganda va u yerda tergov uchun foydali ma'lumotlarni to'plash zarurati bo'lgan shaxsga nisbatan qidiruv faoliyati haqida.
Sariq xabarnomalar (yellow notices)	bedarak yo'qolgan shaxsni qidirish yoki musyaqil ravishda shaxsini aniqlay olmaydigan kishilarning shaxsni aniqlash haqida.
Qora xabarnomalar (black notices)	Shaxsi noma'lum jasadlarning aniqlangani haqida
Olov rangli xabarnomalar (orange notices)	jamoat xavfsizligiga bevosita tahdid soluvchi shaxslar, obyektlar, hodisalar yoki tadbirlar haqida

5. ShHT MATK xalqaro munosabatlar subyekti sifatida.

ShHT MATKining shakllanish va rivojlanish tarixi

ShHT faoliyati dastlab Markaziy Osiyoda terroristik harakatlarni, shuningdek, separatizm va ekstremizمنى bartaraf qilishga yo'naltirilgan edi. Ba'zi taniqli siyosiy arboblarning fikriga ko'ra, bu terrorizmga qarshi kurash g'oyasini o'z faoliyatining asosiy qismiga aylantirgan birinchi xalqaro tashkilot bo'ldi⁹⁶. Shanxayda bo'lib o'tgan ShHT sammiti ishtirokchilari tomonidan imzolangan dastlabki hujjatlar orasida (2001-yil) terrorizm, separatizm va ekstremizmga

⁹⁶ Москаленко В.Н. Проблемы безопасности: ШОС и Пакистан // Шанхайская организация сотрудничества: к новым рубежам развития : сборник материалов "круглого стола", апрель 2007 г. – М.: РАН, 2008. – С. 351.

qarshi kurash to'g'risidagi Shanxay konvensiyasi ham mavjud bo'lib, u xalqaro miqyosda birinchi marta separatizm va ekstremizmga zo'ravonlik, jinoiy faoliyat sifatida ta'rif bergan edi.

ShHTni ko'pchilik NATOga qarshi kuch yoki Shimoliy Atlantika blokining Osiyo versiyasi deb ataydibiladi⁹⁷. Biroq, ShHT harbiy blok emas (NATO singari) yoki xavfsizlik bo'yicha muntazam va ochiq tarzda o'tkaziladigan yig'ilish emas (ASEAN kabi). Tashkilotning asosiy vazifalari: ishtirok etuvchi davlatlarni birlashtirgan keng makonda barqarorlik va xavfsizlikni mustahkamlash, terrorizm, separatizm, ekstremizm, giyohvand moddalar savdosiga qarshi kurash, iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish, energetik sheriklik, ilmiy va madaniy aloqalarni mustahkamlash kabilardan iborat.

ShHT tomonidan qabul qilingan dastlabki hujjatlar "Shanxay Hamkorlik Tashkilotini tashkil etish to'g'risida"gi Deklaratsiya" hamda "Terrorizm, separatizm va ekstremizmga qarshi kurash to'g'risida"gi Shanxay Konvensiyasi edi. 2002-yil iyun oyida Sankt-Peterburgda bo'lib o'tgan davlat rahbarlarining uchrashuvi ShHTni institutsionalizatsiyasini davom ettirdi. ShHTni tashkil etish to'g'risidagi deklaratsiya amaldagi ikkita hujjatni - ShHTga a'zo davlatlar rahbarlarining Deklaratsiyasi hamda ShHT Xartiyasi - asosiy ustav hujjatini imzolashda o'z ifodasini topgan.

2003-yilning 28-29-may kunlari Moskva shahridagi ShHT sammitida tashkilotning Pekindagi qarorgohi va Mintaqaviy aksilterror tuzilmasi (MATK) tashkil etildi. Ishtirokchi davlat rahbarlari terrorizm va ekstremizmga qarshi kurash masalalariga to'xtaldilar. Imzolangan 30 hujjat orasida tashkilot organlari faoliyatini belgilaydigan qoidalar, xususan davlat rahbarlari kengashi, hukumat rahbarlari kengashi va tashqi ishlar vazirlari kengashi to'g'risidagi qoidalar belgilab berildi. Moskva sammiti natijalariga ko'ra, ShHTning tashkiliy davri yakuniga yetkazilib, 2004-yil 1-yanvardan e'tiboran u o'zining ish faoliyati, shaxsiy tarkibi va byudjetiga ega bo'lgan to'laqonli xalqaro tuzilma sifatida ishlay boshladi.

ShHTning maqsad va vazifalari:

- a'zo davlatlar o'rtasida o'zaro ishonch, do'stlik va yaxshi qo'shnichilikni mustahkamlash;
- mintaqada tinchlik, xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlash va

⁹⁷ G. Sysocv, "ShHT va boshqalar. NATO ", 2006 yil 15-iyun. http://www.kommersant.com/page.asp.2010yil8aprelda_maslahatlashdi.

mustahkamlash, yangi demokratik, adolatli va oqilona siyosiy va iqtisodiy xalqaro tartib o'rnatishga yordam berish maqsadida ko'p tarmoqli hamkorlikni rivojlantirish;

– terrorizm, separatizm va ekstremizmning barcha ko'rinishlari, giyohvand moddalar va qurol-yarog'ning noqonuniy savdosi, shuningdek, transmilliy jinoiy faoliyatning boshqa turlari hamda migratsiyaga birgalikda qarshi kurash;

– a'zo davlatlarning xalqaro majburiyatlari va milliy qonunchiligiga muvofiq inson huquqlari va asosiy erkinliklarini ta'minlashda ko'maklashish;

– xalqaro mojarolarning oldini olish va ularni tinch yo'l bilan hal qilishda o'zaro hamkorlik;

– XXI asrda yuzaga kelayotgan muammolarga yechimlarni birgalikda izlash.

Shunday qilib, tashkilot doirasidagi xalqaro-huquqiy aktlar sirasiga "Terrorizm, separatizm va ekstremizmga qarshi kurash to'g'risida"gi Shanxay Konventsiyasi (Shanxay, 2001-yil 15-iyun, kuchga kirgan) hamda quyida nomlari keltirilgan SHHTga a'zo davlatlar o'rtasidagi ko'p tomonlama va ikki tomonlama shartnomalar kiradi:

1. Qozog'iston Respublikasi, Qirg'iziston Respublikasi, Tojikiston Respublikasi va O'zbekiston Respublikasi o'rtasida terrorizm, siyosiy va diniy ekstremizm, transmilliy uyushgan jinoyatchilik va Tomonlarning barqarorligi va xavfsizligiga tahdid soluvchi boshqa tahdidlarga qarshi kurashish bo'yicha birgalikdagi harakatlar to'g'risida Bitim (Toshkent, 21.04.2000).

2. O'zbekiston Respublikasi hukumati va Tojikiston Respublikasi hukumati o'rtasida terrorizm, siyosiy, diniy va boshqa ekstremizm, giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanishiga qarshi kurashish bo'yicha hamkorlik to'g'risida Shartnoma (Xo'jand, 26.05.1999).

3. Xitoy Xalq Respublikasi va O'zbekiston Respublikasi o'rtasida terrorizm, separatizm va ekstremizmga qarshi kurash bo'yicha hamkorlik to'g'risida Shartnoma (Toshkent, 04.09.2003)⁹⁸.

⁹⁸ А.Эгамбердиев, Ш. Мирзаев, З.Борсиева, У.Закирова. Международные правоохранительные организации. Учебное пособие. – Т.: ППОУ, 2016. – С. 101.

Tasklotning tarkibiy tuzilishi

Bugungi kunda MATK ShHTning doimiy organi bo'lib, uning faoliyati ShHTga a'zo davlatlarning vakolatli organlariga terrorizm, separatizm va ekstremizmga qarshi kurashda ko'maklashish, muvofiqlashtirish va ular bilan o'zaro aloqada bo'lishga yo'naltirilgan. MATK tomonlarning vakolatli organlari bilan o'zaro aloqada bo'lib, ma'lumot almashish hamda ShHTning boshqa organlari so'roviga binoan tegishli materiallarni tayyorlash bilan shug'ullanadi.

MATK o'z faoliyatida ShHT doirasida qabul qilingan terrorizm, separatizm va ekstremizmga qarshi kurashga oid hujjatlar va qarorlar ijrosini nazorat qiladi.

MATKning vazifalari va funksiyalari:

- tashkilot ravnaqiga doir taklif va tavsiyalar ishlab chiqish;
- tegishli ShHT tuzilmalari uchun, shuningdek tomonlarning iltimosiga binoan terrorizm, separatizm va ekstremizmga qarshi kurashda hamkorlik qilish;
- tomonlardan birining iltimosiga binoan a'zo davlatlarning vakolatli organlariga terrorizm, separatizm va ekstremizmga qarshi kurashda yordam berish;
- terrorizm, separatizm va ekstremizmga qarshi kurashish masalalari bo'yicha RATSGa oid tomonlardan olingan ma'lumotlarni yig'ish va tahlil qilish;
- tomonlarning vakolatli organlari talabiga binoan MATK ma'lumotlar bankini shakllantirish va ma'lumot berish;
- tomonlarning iltimosiga binoan terrorizm, separatizm va ekstremizmga qarshi kurashish bo'yicha tezkor-qidiruv va boshqa tadbirlarni tayyorlash va o'tkazishda yordam berish;
- Konventsiyaning 1-moddasi 1-bandida ko'rsatilgan harakatlarni sodir etganligi taxmin qilingan shaxslarni jinoiy javobgarlikka tortish maqsadida xalqaro qidiruvni amalga oshirishda yordam berish;
- terrorizm, separatizm va ekstremizmga qarshi kurashga doir xalqaro-huquqiy hujjatlarni tayyorlashda ishtirok etish;
- aksilterror bo'limlari uchun mutaxassislar va instruktorlarni tayyorlashda yordam berish;
- ilmiy-amaliy konferentsiyalar, seminarlarni tayyorlash va o'tkazishda ishtirok etish, terrorizm, separatizm va ekstremizmga qarshi kurash bo'yicha tajriba almashishda ko'maklashish;
- terrorizm, separatizm va ekstremizmga qarshi kurashish bilan

shug'ullanadigan xalqaro tashkilotlar bilan ishchi aloqalarni o'rnatish va qo'llab-quvvatlash⁹⁹.

MATK Kengashi tarkibiga ShHTga a'zo davlatlarning vakillari kiradi. Kengash doimiy faoliyat yuritadi. Shunga ko'ra, har bir davlat doimiy asosda MATK markazida o'z vakiliga ega. Kengash vaqti-vaqti bilan yig'ilib turadi, unda har bir davlat o'z xohishiga ko'ra tegishli vakolatli organ rahbari yoki maxsus vakilini tayinlanlaydi.

Kengash barcha masalalar, shu jumladan moliyaviy masalalar bo'yicha majburiy xarakterga ega bo'lgan qarorlarni qabul qiladi. ShHTga a'zo davlatlar davlat rahbarlari kengashiga MATK faoliyati to'g'risidagi yillik hisobotlarni taqdim etadi.

Ijroiya qo'mitasi. Ijroiya qo'mitasi tarkibiga ShHT MATK faoliyatini muvofiqlashtiruvchi direktor va xodimlar kiradi. Direktor ijroiya qo'mitasining yuqori turuvchi ma'muriy xodimi hisoblanadi va u Kengashning barcha majlislarini boshqaradi. *Direktor* va uning o'rinbosari (o'rinbosarlari) Kengash tavsiyasiga binoan ShHTga a'zo davlatlar Davlat rahbarlari kengashi tomonidan tayinlanadi. Direktor va uning o'rinbosarini (o'rinbosarlarini) almashtirish tartibi Kengash tomonidan belgilanadi. Direktor Kengashning roziligi bilan Ijroiya qo'mita mansabdor shaxslarini ShHT byudjetiga qo'shgan hissalarini hisobga olgan holda ShHTga a'zo davlatlar fuqarolari orasidan tayinlaydi va ularni shartnoma asosida yo'llaydi.

Ijroiya qo'mitaning tarkibiy tuzilmasi, shuningdek uning shtat jadvali ShHTga a'zo davlatlar Hukumat rahbarlari kengashi tomonidan Kengash tomonidan tasdiqlangan direktor takliflari asosida tasdiqlanadi. O'z vazifalarini bajarishda Direktor, uning o'rinbosari (o'rinbosarlari), Ijroiya Qo'mitaning mansabdor shaxslari davlatlar hokimiyati yoki mansabdor shaxslaridan, shuningdek ShHTga a'zo bo'lmagan tashkilotlardan yoki shaxslardan ko'rsatmalar olishlari mumkin emas. Tomonlar direktor, uning o'rinbosar (lar)i va Ijroiya qo'mitasi xodimlarining vazifalarini xalqaro xususiyatlarini hurmat qilishga va o'zlarining rasmiy vazifalarini bajarishda ularga ta'sir qilmaslikka majburlirlar¹⁰⁰.

⁹⁹ Соглашение между государствами – членами ШОС о Региональной антитеррористической структуре //http.: www.lex.uz

¹⁰⁰ Соглашение между государствами – членами ШОС о Региональной антитеррористической структуре //http.: www.lex.uz

Ushbu mavzuga yakun yasas ekanmiz, davlatlarning jinoyatchilikka qarshi kurashish bo'yicha zamonaviy hamkorligi xalqaro munosabatlarning eng muhim tarkibiy qismi bo'lib, ularsiz zamonaviy dunyo tartibining mavjudligi imkonsizdir deya ta'kidlagan bo'lar edik.

Nazorat savollari:

1. "Jinoyatchilikka qarshi kurashda xalqaro hamkorlik" tushunchasiga ta'rif bering. Uning asosiy xususiyatlari qanday?
2. Jinoyatchilikka qarshi kurashda xalqaro hamkorlikning qanday shakllari mavjud?
3. Jinoyatchilikka qarshi kurashda xalqaro hamkorlikning predmeti bo'lgan jinoyatlar qanday belgilarga ega?
4. Jinoyatchilikka qarshi kurashda xalqaro hamkorlikni polistematik huquqiy tartibga solish prinsipi nimani anglatadi?
5. ShHT MATK faoliyatining tashkiliy va huquqiy asoslariga tavsif bering?
6. ShHT MATK organlarini sanab bering va ularning tarkibiy tuzilishi tavsiflang.
7. ShHT MATK faoliyatining asosiy yo'nalishlari?
8. ShHT MATK terrorizm, separatizm va ekstremizmga qarshi xalqaro kurashda qanday ishtirok etadi?
9. O'zbekistonning ShHT MATK faoliyatidagi ishtirokiga baho bering.

GLOSSARIY

“Xalqaro tashkilotlar nazariyasi va amaliyoti” fani bo‘yicha atamalar lug‘ati (glossariy)

AD REFERENDUM (LOT. AD REFERENDUM) - shartnomani shartli ravishda imzolash yoki hujjat matniga davlatning vakolatli organi yoki shaxsi tomonidan tasdiqlanishigacha rozilik bildirish.

ADAPTATSIYA - davlatning amaldagi ichki huquqiy normalari va qonunlariga biror o‘zgartirish kiritmay turib, ularni xalqaro shartnomalarga moslashtirish.

ADYUDIKATSIYA - xalqaro arbitraj yoki sud qarori vositasida hududni qo‘lga kiritish. Hududiy nizoni tinch yo‘l bilan hal etish vositalaridan biri.

agregatsiya – siyosiy tizim funksiyasi bo‘lib, u xilma-xil talablar va manfaatlar ni umumlashtirish, umumiy talablarni ishlab chiqish va ularning dolzarbligi, muhimligi nuqtai nazaridan pog‘onalashtirish bilan bog‘liq.

AGREMAN (FR. AGREER MA‘QULLAMOQ) - biror davlatning aniq bir shaxsini boshqa davlatda diplomatik vakolatxonaning boshlig‘i sifatida qabul qilishga rozilik.

AGRESSIYA (LOT. AGRESSIO, AGGREDIOR - HUJUM QILMOQ) - xalqaro huquqda bir davlatning BMT Ustavini buzgan holda boshqa davlat yoki ma‘lum bir davlatlarning hududiy yaxlitligi, siyosiy mustaqilligiga qarshi kuch ishlatilishi.

Akklamatsiya – ovoz berishsiz, muhokamada ishtirok etayotgan vakillarning qarsaklar, tovush chiqarish va shu kabilar orqali qaror qabul qilish usuli.

AKKREDITATSIYA (LOT. ACCREDERE - ISHONMOQ) -- xalqaro tashkilotda biror davlat vakolatxonasi boshlig‘i yoki davlat vakilini tayinlash jarayoni.

AKKRETSIYA - davlat hududining yangi paydo bo‘lgan quruqlik hisobiga tabiiy ravishda kengayishi.

aktor – siyosiy hayotda to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki bevosita ishtirok etuvchi siyosiy subyekt.

ALTERNAT PRINSIPI - shunday qoida bo‘lib, unga ko‘ra xalqaro shartnomaning nusxasida mazkur shartlashayotgan tomon uchun ushbu tomon nomini, uning vakolatli shaxslarining imzosini, muhrini, shuningdek, mazkur tomon tilidagi shartnoma matnini tomonlarning

umumiy ro'yxatida birinchi o'ringa qo'yish va bunda imzo uchun chap tomondan joy qoldirish.

analogiya – (gr. o'xshash, monand) umuman, turli-tuman predmet va hodisalarning muayyan ma'noda o'xshashligi, bir-biriga monandligi.

ANGARIYA - urushayotgan tomonlardan birining hududida joylashgan betaraf (neytral) davlatlarning kemalari va boshqa transport, temir yo'l vositalaridan ushbu tomorning harbiy maqsadlarda foydalanishi.

ANKLAV - atrofi boshqa davlat hududi, quruqlik bilan o'ralgan makon (davlat)

ANKLAV (LOT. INCLAVO - QULFLAYMAN) - bir davlat hududining boshqa bir davlat yoki davlatlar hududi bilan to'laligicha o'rab olingan qismi.

ANNEKSIYA (LOT. ANNEXIO - QO'SHIB OLISH) - bir davlat tomonidan boshqa bir davlat hududining butun qismi (yohud bir qismi)ni zo'rlik ishlatib qo'shib yoki bosib olinishi.

antinomiya – (fr. qonunga qarshi) bir xil darajadagi to'g'ri deb e'tirof etilgan, lekin bir-biriga qarama-qarshi hukmlar to'qnashuvi.

APARTEID (AFRIKA BURLARI TILIDAN APARTHEID - ALOHIDA YASHASH) - davlat aholisini irqiy belgilari bo'yicha ajratishga yo'naltirilgan irqiy siyosat.

APATRID (YUNON. A - INKOR + PATRIS (PATRIDOS) - VATAN) - fuqaroligi bo'lmagan shaxs, ya'ni biror davlat bilan doimiy va barqaror siyosiy-huquqiy aloqaga ega bo'lmagan shaxs.

artikulyatsiya – (lot. bo'g'in, tushunarli so'zlash) siyosiy tizim funksiyasi bo'lib, u qaror qabul qiluvchi tashkilotlarga talablarni bayon etish vazifasini bajaradi. Demokratik siyosiy tizimlarda bu vazifani manfaat gurulari, siyosiy partiyalar, parlament, avtoritar siyosiy tizimlarda esa korporativ institutlar bajaradi

assimilyatsiya - (lot. o'xshab ketmoq) singib ketish, qo'shilib ketish.

AUTENTIK MATN (YUNON. AUTHENTIKOS - HAQIQIY, DASTLABKI MANBA ASOSIDA) - xalqaro shartnomaning asl, barcha rasmiyatchiliklarga amal qilib tuzilgan matni.

AYB - xalqaro huquqda huquqqa zid qilmish sodir etilishining aniqlangan fakti.

BIPATRID (LOT. BI - IKKI + YUNON. PATRIS (PATRIDOS) - VATAN) - ikki yoki undan ortiq fuqarolikka ega bo'lgan shaxs. Xalqaro huquq tomonidan ma'qullanmaydi.

bixeviorizm – insonning xulq-atvor motivlarini, javob reaksiyalarini o'rganish zarurligi, shu tariqa ijtimoiy fanlar o'zlarining “gumanitar cheklanganligini” yengib o'tishi, hamda isbotlanganligi va aniqlik darajasiga ko'ra tabiiy fanlarga yaqinlashuvini asoslaydigan hozirgi zamon ijtimoiy fani yo'nalishi.

BOSHPANA – biror shaxsga siyosiy, diniy yoki boshqa qarashlari natijasida bo'layotgan ta'qiblardan yashirinish uchun muayyan davlat hududi yoki ushbu davlatning diplomatik yohud konsullik muassasasidan joy berish. Xalqaro huquqda hududiy va diplomatik boshpana, shuningdek, vaqtincha yashirish farqlanadi.

Breynstorming – biror muammoni yechishda ekspertlar guruhining aqliy hujumini tashkil etish.

CHAQIRIB OLISH YORLIG'I – davlat boshlig'ining rasmiy xati bo'lib, shu davlat vakili akkreditatsiya qilingan davlat boshlig'i nomiga, elchi (vakil)ni muddati tugaganligi yoki boshqa sababga ko'ra chaqirib olishi to'g'risida yuboriladi va tashqi ishlar vazirining imzosi bilan mustahkamlanadi.

CHEGARA - quruqlik va suv hududlari, havo kengligi va yer osti boyliklari ustidan davlat suverenitetini belgilaydigan, quruqlik, havo yoki suv sathi bo'ylab amalda yohud tasavvuran o'tkazilgan chiziqlar.

CHEGARALAR DELIMITASIYASI – chegaradosh-davlatlar birgalikda, shartnomaviy asosda quruqlikdagi va suvdagi davlat chegaralari o'tishining umumiy yo'nalishlarini jug'rofiy xaritaga tushirishni amalga oshirish jarayoni.

CHEGARALAR DEMARKATSIYASI (FR. DEMARKATION - CHEGARALASH) - delimitatsiya qilingan chegaralarni joylarda aniq belgilash. Delimitatsiya yo'nalishlaridan birmuncha farq qilishi mumkin.

DAVLAT SUVERENITETI (FR. SOUVERAIN - OLIY, YUQORI, SOUVERAMETE - OLIY HOKIMIYAT) - davlatning o'z ichki va tashqi huquq va majburiyatlarini to'raligicha, mustaqil ravishda amalga oshirishi.

DEKLARATSIYA (LOT. DEKLARATIO - E'LON QILISH) - ayrim xalqaro shartnomalarning nomlanishi bo'lib, shu sohaga oid asosiy prinsiplar va harakat dasturini belgilaydi.

DELIKT (LOT. DELECTUM - BUZISH, GUNOH) - xalqaro huquq subyekti tomonidan xalqaro-huquqiy normalar va prinsiplarni qasddan buzish bo'lib, u xalqaro-huquqiy javobgarlikni keltirib chiqaradi.

DEMARSH (FR. DEMARCHE - CHIQISH, HARAKAT) - horijiy davlatning munosabatlariga nisbatan diplomatik chiqish qilish.

DENGIZDAGI QAROQCHILIK - ochiq dengizda biror kema yoki uchish apparatiga yohud ularning bortidagi shaxslar yoki mulkka qarshi sodir etiladigan huquqqa zid zo'ravonlik harakati.

DENONSATSIYA (LOT. DENUNTIATIO - BILDIRISH, XABAR BERISH) - shartnomaning amal qilishini tugatish yoki shartnomaning o'zida ko'rsatilgan tartib va muddatlarda undan chiqish usuli.

DEPONIRLAJSH - xalqaro shartnomaning asl nusxasi, ratifikasiya yorlig'i, xalqaro shartnomaga qo'shilish va uni denonsatsiya qilish to'g'risidagi hujjatlarni depozitariyga saqlash uchun topshirish.

DEPORTATSIYA (LOT. DEPORTATIO - QUVG'IN, SURGUN) - shaxsni boshqa davlatga majburan chiqarib yuborish (odatda soqchi kuzatuv ostida amalga oshiriladi).

DEPOZITARIY (LOT. DEPOSITUM - SAQLASHGA BERILGAN BUYUM) -

DETERMINIZM - geografik yoki siyosiy asosda barcha hodisalarning o'zaro obyektiv qonuniy aloqadorligi va sababiy bog'lanishi tug'risidagi ta'limot.

DEZAVUIRLASH - o'z diplomatik vakilining harakatlari yoki bildirgan fikrini hukumat yohud boshqa vakolatli davlat organi tomonidan rad etilishi.

DINIY MODERNIZM - diniy ta'limotlarni yangi zamon muhitiga moslashtirish, dinning turli muammolari oldini olish uchun dinda yangicha prinsip va yo'llarni ishlab chiqishni yoklovchilar harakati.

DINIY TRADITSIONALIZM - diniy ta'limotlarning har qanday tomondan islox qilinishiga qarshi chiqib, dinning fundamental prinsiplarini qayta tiklash tarafdorlari.

dispersiya - (lot. tarqalgan, yoyilgan) siyosatda hokimiyatning bir markazda to'planmay, butun jamiyatga yoyilishi ko'plab o'zaro bog'liq, uyg'un, hokimiyat markazlarining mavjudligi.

disput – (lot. fikrlash, tahlil qilish, bahslashish) ogʻzaki ilmiy bahs, ommaviy maʼruzadan soʻng avvaldan belgilangan opponentlar ishtirokidagi munozara.

DISRAISL - (INGH DISMISSAL - BO'SHATISH) - diplomatni xususiy shaxs deb eʼlon qilish.

diversifikatsiya – (lot. teng qilmoq) yalpi koʻp tarmoqli rivojlanishga qaratilgan davlat siyosati.

DOGMATIZM - ijtimoiy xayot oʻzgarib borsa-da, uning har qanday yangi xususiyatlarini tan olmasdan muayyan tarixiy sharoitda yuzaga kelgan tushunchalar va qarashlarni qattiq turib yoqlovchilar.

DUAYEN (DEKAN) - diplomatik korpusning protokol boʻyicha boshligʻi (kattasi, oqsoqoli). Odatda duayen etib diplomatik korpus ichida eng uzoq muddat lavozimda boʻlgan elchi yoki vakil tayinlanadi.

Ekspert baholashning bevosita uslublari – shaxsiy muloqot asosida tashkil etilgan ekspert guruilarining taililiy faoliyati

Ekspert baiolashning bilvosita uslublari – bilvosita, noverbal oʻzaro iarakat asosida tashkil etilgan ekspert guruilarining taililiy faoliyati.

EKSTREMIZM - maʼlum maʼnoda terrorizmning sinonimi. Muayyan guruh va tashkilotlardagi oʻta mutaassib kishilar faoliyatining mafkurasi.

EKSTREMIZM - maʼlum maʼnoda terrorizmning sinonimi. Muayyan guruh va tashkilotlardagi oʻta mutaassib kishilar faoliyatining mafkurasi.

FANATIZM - murosasiz; oʻta ketgan mutaassiblik.

FRAKSIYA - 1) parlamentdagi mavjud partiyalarning u yoki bunisining guruhi. U doimo shu partiya aʼzolari ilgari surayotgan gʻoyalar asosida faoliyat olib boradi; 2) maʼlum bir ijtimoiy harakat yoki partiya ichidagi guruhlar. Ular ham oʻz gʻoyalarining bir butun harakat yoki partiya aʼzolari tomonidan tan olinishi uchun kurashadi.

FUNDAMENTALIZM - asosga qaytish demakdir. Bu harakat amaliyotda qanday tus olishiga bogʻlik. Agar u siyosiy tus olsa, qaysi soxada asosga qaytishni yoqlamasin, uning mohiyatii oʻzgaradi.

FUQAROLIK - jismoniy shaxsning davlat bilan oʻzaro huquq va majburiyatlar yigʻindisida namoyon boʻladigan barqaror siyosiy-huquqiy aloqasi.

futurologiya – (lat. kelajak to'jrisidagi ta'limot) ijtimoiy jarayonlar, insoniyat tailil qiluvchi ilmiy nazariyalar.

GEGEMONLIK (YUNON. HEGEMONIA - HUKMRONLIK, BOSHCHILIK) - xalqaro munosabatlarda boshqalarga nisbatan ustunlik, yetakchilik, hukmronlik qilish (tarixiy hodisa)

GENOTSID (YUNON. GENOS - NASH URUG4 + LOT. CAEDERE - O'LDIRISH) - biror milliy, irqiy yoki diniy guruhni to'la yoki qisman yo'q qilish niyatida amalga oshiriladigan harakatlar, siyosat.

GEOMAFKURA - xalqaro munosabatlar nazariyasiga oid kategoriya bo'lib, u har tomonlama xususiyatlarga hamda muayyan qonuniyatlar va mezonlarga asoslanuvchi geosiyosag va mafko'ra o'rtasidagi ham o'zaro bog'lanish, ham o'zaro ta'sir etuvchi amaliy harakatlar yig'indisidan iboratdir.

GEOSIYOSAT - xalqaro munosabatlar nazariyasining eng asosiy tushunchalaridan biri bo'lib, u ma'lum bir tarixiy sharoitda davlatning yoki davlatlar sistemasining hududiy joylashuvi asosida o'rganiladigan siyosiy bilimlar majmuasi. Qisqacha qilib aytganda, uni geografik o'lchovlar bilan insoniy munosabatlarning (siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, harbiy) bir butunligi mujassamlashgan soxa deb aytish mumkin.

geterogen – xilma-xil, sifat jihatidan turli negizlardan iborat.

GLOBALIZM - lotincha "globus" - shar demakdir. 1. Ilmiy jihatdan - yangi shakllangan fan bo'lib, uning atamasi ilmiy lugatda 60-70 yillarda paydo bo'lgan. Mazkur atama bevosita Rim klubining ilk faoliyat damlari bilan bog'lik bo'lib, u klubning dastlabki tahliliy ma'ruzalar tuplami - "Birinchi global inqilob" da ilmiy-nazariy jihatdan talqin qilingan. 2. Siyosiy jihatdan - insoniyatga dahldor global muammolarni nafaqat nazariy jihatdan, balki amaliy jihatdan o'rganish, ularni bartaraf etish yo'llarini topish kabi masalalarni anglatadi.

gomogen – asos e'tibori, kelib chiqishi hamda mohiyati jihatidan bir xil, bir turdagi, yagona.

GURUH - o'z faoliyatlarida yoki munosabatlarida umumiy qarashlar, motiv va qoidalarga asoslanuvchi kishilar uyushmasi.

GURUHBOZLIK - ikki yoki undan ortiq individ yoki guruhlarining o'zaro kelishib yashirincha yoki ochiqcha faoliyat olib borishi.

HARBIY ASIRLAR - urushayotgan davlat qurolli kuchlari tarkibiga kiruvchi, urushayotgan ikkinchi davlat tomonidan qo'lg'a clingan va shu davlat hokimiyati ostida bo'lgan shaxslar: Harbiy asirlar Jeneva konvensiyalari tomonidan himoya qilinadi.

HUDUDIIY NIZO - hududning kimga tegishliligi yuzasidan davlatlar o'rtasida vujudga keladigan nizo.

HUDUDNI DEMILITARIZASIYA QILISH - ilgari demilitarizatsiya qilingan hududga qurolli kuchlarni kiritish, unda qurilmalar, bazalar va boshqa harbiy obyektlarni qurish, bu hududga, ilgari taqiqlangan qurollarni joylashtirish.

identifikatsiya - u yoki bu siyosiy guruhga o'zini-o'zi boshqarishdan ajratish imkonini beruvchi barqaror belgilar, xususiyatlar birligi.

ideografik fanlar - hodisalarni, bo'lib o'tgan voqealarni, ya'ni xususiy holatlarni har tomonlama o'rganadigan fanlar.

immanent - biror voqea, hodisa yoki jarayonga xos xususiyat.

IMMIGRANT - biror mamlakatga doimiy yoki uzoq muddatli yashash uchun ko'chib kelayotgan chet el fuqarosi yoki fuqaroligi bo'lmagan shaxs.

IMPLEMENTATSIYA (INGL. IMPLEMENTATION - AYNAN AMALGA OSHIRISH, HAYOTGA TATBIQ ETISH) - xalqaro-huquqiy normalarni asl holida ichki huquqqa tatbiq qilish, kiritish, amalga oshirish

INDIGENAT - "madaniylashgan" davlatlarning fuqarolari hisoblanib, shu bois imtiyozlardan foydalangan jismoniy shaxslar yig'indisi (tarixiy hodisa).

institutsionallashuv - rasmiylashgan, barcha e'tirof etgan qoidalar, qonunlar, an'ana va marosimlarga asoslangan ijtimoiy munosabatlar barqaror namunalarning shakllanishi.

INSURREKSIYA - diplomatning o'z funksiyalarini bajarishdan bosh tortishi.

INTERNIRLASH (QABUL QILIB OLISH) - betaraf (neytral) davlat tomonidan, urushayotgan tomonlarga tegishli bo'lgan shaxslarni qabul qilish.

INTERNUNSIY - Shahar-davlat muqaddas taxt Vatikanning diplomatik vakili, favqulodda va muxtor vakil maqomiga tenglashtiriladi.

interpretatsiya – talqin qilish, sharhlash. Biror voqea yoki hodisani muayyan nuqtai nazardan talqin qilish, tushuntirish, qarab chiqish.

JO‘NATISH YORLIG‘I - elchi (vakil) akkreditatsiya qilinadigan davlat boshlig‘iga ushbu elchi (vakil)ni tayinlagan davlat boshlig‘i nomidan diplomatik kanallar orqali yuboriladigan rasmiy xati.

KAPITULATSIYA - dushman qurolli kuchlarining qarshilik ko‘rsatishni butunlay va so‘zsiz to‘xtatishi.

kauzallik – sabab bilan belgilanganlik, sabab va faoliyatning qonuniy aloqasi. Tamoyil (yoki qonun) sifatida kauzallik quyidagilarni anglatadi: har bir voqea yoki hodisa biror sababga ega (biror sabab bilan sodir bo‘lgan) va ayni vaqtda u yana boshqa bir voqea yoki hodisaning ham sababchisidir; sababsiz hech narsa paydo bo‘lmaydi.

KAZUS BELLI (LOT. SASUS BELLI) - davlatlar o‘rtasida urush boshlanishining formal, yuzaki sababi.

KAZUS FEDERIS (LOT. SASUS FOEDERIS) - yuzaga kelishi xalqaro shartnomadagi tomonlarga ma‘lum harakatlarni amalga oshirish huquqini beradigan sharoit yoki fakt.

klassifikatsiya – predmet, hodisa va tushunchalarni sinflar, bo‘limlar, darajalar bo‘yicha, ularning umumiy belgilari, xususiyatlari, yagona asosiga ko‘ra taqsimlash (tur, bo‘limlarga kiritmoq). Klassifikatsiya bir xillik va o‘xshashlikka quriladi.

KLAUZULA (LOT. CLAUSULA - XULOSA) - maxsus holatlarni belgilash uchun xalqaro shartnomalar yoki qonundagi alohida holat. Odatda xalqaro shartnomaning klauzula qismida tomonlar o‘rtasida qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan prinsiplar (masalan, milliy rejirn, eng ko‘p qulaylik yaratish prinsipi, preferensial rejim va boshq.) o‘z izohini topadi.

KOALITSIYA (LOT. COALITIO (COALITUS) - BIRLASHGAN) - ikki yoki undan ortiq davlatlarning erkin ravishda umumiy maqsadlarga erishish, umumiy dushmanga qarshi urush olib borish uchun tuzilgan birlashmasi, ittifoqi.

KOLONIYA – boshqa bir davlatga siyosiy yoki boshqa tomondan qaram bo‘lgan davlat yoki hudud.

KOMBATANT - urushayotgan tomonning muntazam qurolli kuchlari tarkibiga kiruvchi va harbiy harakatlarda bevosita ishtirok etayotgan shaxs.

KOMMUNIKE (LOT. SOMMUNICO, FR. COMMUNIQUEI - XABAR QILAMAN) - xalqaro shartnomalarning tuzilishi yoki

natijalari, xalqaro konferensiyalar va muzokaralarning yohud harbiy harakatlarning borishi to'g'risidagi rasmiy xabar.

KONDOMINIUM (LOT. CONDOMINIUM "CON - BILAN, BIRGA + DOMINIUM - EGALIK QILISH) – ma'lum hududni ikki yoki undan ortiq davlatning birgalikda tasarruf etishi.

KONFRONTATSIYA - qarama-qarshilik tufayli davlat ichida yoki xalqaro munosabatlarda vaziyatning keskinlashib, bir ijtimoiy guruhning ikkinchi ijtimoiy guruhga yoki bir davlatning ikkinchi bir davlatga muayyan masalalarda qarshi turgan davrini ko'rsatish uchun ishlatiladigan atama.

KONGILLILAR - urushayotgan tomonlardan birining qurolli kuchlari tarkibiga erkin ravishda qo'shilgan shaxslar.

KONSENSUS - ma'lum bir individlar, ijtimoiy guruhlar yoki davlatlar o'rtasida yuzaga kelgan u yoki bu darajadagi qarama-qarshiliklarga barham berish, murosaga kelish.

KONSENSUS (LOT. CONSENSUS - KELISHUV, YAKDILLIK) - xalqaro tashkilotlar (konferensiyalar; organlarda qaror qabul qilish usuli bo'lib, ishtirokchi davlatlarning nuqtayi nazarlarini ovoz berishsiz, qaror qabul qilishda qarshiliklar bo'lmaganda qo'llaniladigan usul.

konseptualashtirish – ma'lumotlarni, har bir alohida holat, hoya, voqea va hodisaning uning orqasida turgan narsani, mazmunini nomlash.

KONTRIBUTSIYA - urush tugagandan so'ng yengilgan davlat yoki davlatlarning g'olib davlatga to'laydigan to'voni (tarixiy hodisa).

KONVENSIYA - xalqaro shartnomalarni nomlanishidan biri. AQSHda konvensiyalar degan nomlanish ikki tomonlama shartnomalarni nomlash uchun, qolgan davlatlarda esa ko'p tomonlama shartnomalarni nomlash uchun qo'llanadi.

korporativlik – jamiyatni tashkil etishning o'ziga xos modeli bo'lib, uning birlamchi elementlari sifatida individlar emas, iqtisodiy va funksional guruhlar turadi. Markaziy hokimiyat korporatsiyalarga birlashgan ana shu guruhlar vakillaridan tuziladi.

korrelyatsiya – faqat bir-biri bilan o'zaro taqqoslaganda biror mazmunga ega bo'lgan narsa va tushunchalar.

kumuiyativ votum – ko'p mandatli saylov okruglarida ovoz berish tartibi: unda saylovchi o'zida mavjud bo'lgan ovozning bir qismini yoki barchasini birlashtirib, uni nomzodlardan biriga berish iuquqiga ega bo'ladi.

kvalifikatsion ko'pchilik – eng muhim masalalar bo'yicha qaror qabul qilish uchun belgilanuvchi, ishtirokchilarning 2/3 yoki 3/4 qismining bergan ovozlari.

KVORUM (LOT. QUORUM (PRAESENTIA SUFFICIT) - QATNASHUVCHILAR (YETARLI)) - xalqaro tashkilotlar, konferensiyalar va organlarda ishni boshlash va qaror qabul qilish uchun ularning reglamentlarida belgilab qo'yilgan ko'pchilik.

LEGAT - Rim katolik cherkovining boshqa davlatlardagi vakili

Legitimlik – muayyan davlat xokimiyatining qonuniyligi, a) fuqarolar tomonidan; b) xalqaro hamjamiyat tomonidan e'tirof etilishini anglatuvchi qadriyatiy tushuncha. U tarixan an'anaviy, xarizmatik, oqilona-qonuniy shakllarda namoyon bo'ladi.

libertarizm – davlatning ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarga aralashmasligi. Bu bozor munosabatlari sohasi ekanligi to'g'risidagi g'oyani targ'ib qiluvchi konsepsiya (“Chikago maktabi” – O.Fridman, G.Bekker, A.Laffer).

lokallashtirish – biror voqea, hodisa va xarakatlarni ma'lum joy bilan cheklash, uning muayyan hududdan, chetga chiqishiga yo'l qo'ymaslik.

longityud tadqiqot – bir xil shaxslar, guruh yoki obyektlarni uzoq vaqt kuzatish va ma'lum bir vaqt o'tgach ular orasidagi o'tkazilgan so'rovni qayta tashkil etish, natijalarni avalgilari bilan qiyoslashga asoslangan tadqiqot usuli.

manfaat guruhleri – fuqarolarning davlat bilan munosabatlarida o'zgarishning xokimiyatga doir manfaatlarini bayon etish yoki himoya qilishlari uchun ixtiyoriy tarzda birlashgan maxsus yoki moslashtirilgan tashkilotlar. Ular o'z oldilarga qo'ygan maqsadlari, faoliyat usullari, xokimiyatga ta'sir resurslari va boshqa belgilariga ko'ra siyosiy partiyalardan siyosiy partiyalardan farq qiladi.

MAQOM - xalqaro huquq subyektlari, alohida hududlar, shaxslar va mulk toifasining xalqaro huquq normalari bilan belgilab qo'yilgan holati.

matematik modellashtirish – ijtimoiy borliq xususiyatlarini matematik tilda bayon etish imkonini beruvchi empirik tadqiqot usullaridan biri. Borliqning tadqiqoti uchun ahamiyatli tomonlarini lo'nda va abstrakt shaklda aks ettiradi, tadqiq qilinayotgan masalaning asosiy muammolarini aniq tassavur etish; sifatiy usullar yordamida olib bo'lmaydigan xulosalarga kelish imkonini beradi; tahlil uchun kompyuter texnologiyalaridan faol foydalanishga asoslanadi.

MEMORANDUM - bir yoki bir necha davlatlarning boshqa davlatga yozma murojaati. Unda xalqaro voqeikka oid holatlar o'z aksini topadi.

miqdor usullari – siyosiy obyektlar xususiyatlari va belgilarini to'g'ridan-to'g'ri yoki bevosita o'lchashga, matematik formallashtirish va kvalifikatsiyaga asoslanuvchi usullar.

mobillik – stratifikatsiya nazariyasida shaxs va gurug'lar maqomining o'zgarishi bilan bog'liq ko'chishlar.

MODUS PROSIDENDI (LOT. MODUS PROSIDENDI - HARAKAT TARZIJ - u yoki bu harakat, yohud majburiyat qay tarzda va qanday tartibda bajarilishi kerakligini anglatadigan ibora.

MODUS VIVENDI (LOT. MODUS VIVENDI - VAQTINCHALIK BITIM) - mavjud holatlarda doimiy kelishuvga erishishning iloji bo'lmaganda hal qilinishi kerak bo'lgan masalalar yuzasidan vaqtinchalik bitimga erishish.

MONOTEIZM - grekcha monos - bir, yagona, theos - xudo demakdir, ya'ni yagona xudolik.

MORATORIY - xalqaro huquq subyektlarining hudud va vaqt doirasida biror harakatdan o'zlarini tiyib turishlari yoki bu harakatlarni keyinga surish to'g'risida kelishib olishlari.

MOTIV - odamlarning biron bir ehtiyojini qondirish uchun harakatga kelishiga sabab bo'ladigan yondashuv yoki intilish.

NATURALLASHISH - manfaatdor shaxsning iltimosiga ko'ra biror davlat tomonidan uning fuqarolikka qabul qilinishi.

NIZO (KOFLIKT, MOJARO) - muayyan individlar, ijtimoiy guruhlar yoki davlatlar o'rtasida o'zaro ehtiyojlari qadriyatlari, mafkuralari, manfaatlari va h.k. larning nomutanosibligidan kelib chiqqan qarama-qarshilik, ziddiyat, to'qnashuv.

NOKOMBATANT - qurolli kuchlar tarkibiga kiruvchi, qurolli kuchlarga yordam beruvchi, lekin o'zi bevosita harbiy harakatlarda ishtirok etmaydigan shaxs.

NORMATIV BASHORAT- cheklangan resurslar aniqlanganligi asosida kutilgan natijalarga erishish uslublari haqidagi prognoz

NOTA (LOT. NOTE - BELGI, MULOHAZA, NUQTAYI NAZAR) – diplomatik yozishmaga oid hujjatlarning bir turi (verbal va shaxsiy).

NOTFFIKASIYA - Tashqi ishlar vazirligi yoki diplomatik (konsullik) vakolatxona tomonidan nota yoki boshqa hujjat yuborish

yo'li bilan biror xalqaro masala bo'yicha o'z davlatining nuqtayi nazarini bildirib biror fakt yoki hodisa bo'yicha rasmiy xabar berish.

NUNSLY – Shahar-davlat muqaddas taxt Vatikaning diplomatik vakili, favqulodda va muxtor elchi maqomiga tenglashtiriladi.

OKKUPATSIYA (LOT. OCCUPATIO, OCCUPO - EGALLAB OLAMAN, QO'LGA KIRITAMAN) – 1) bir davlat qurolli kuchlari tomonidan boshqa davlat hududining bir qismini yoki butunlay, asosan, hujum qilish orqali vaqtincha egallab olish; 2) qadimgi Rimda egasi yo'q narsalarni, jumladan yerni egallab olish usuli.

OPTATSIYA (LOT. OPTATIO - ISTAK, TANLASH, XOHISH, OPTO - TANLAYMAN) - voyaga etgan shaxsning fuqarolikni ixtiyoriy ravishda tanlab olishi. Optatsiya huquqi bir davlatdan ikkinchi bir davlatga o'tayotgan hududning aholisiga taalluqli bo'ladi

OROL – suv bilan to'liq o'ralgan, tabiiy hosil bo'lgan quruqlik bo'lib, suv ko'tarilishida suv sathidan yuqorida bo'ladi.

PARLAMENTYOR (FIR. PARPER - GAPIRMOQ) - harbiy qo'mondonlik tomonidan qarshi tomon bilan muzokara olib borishga vakil qilingan shaxs. Diplomatik daxlsizlik va imtiyozlardan foydalanadi.

pauperizm- ommaviy qashshoqlanish, aholining kambag'allashuvi; yashash uchun zaruriy vositalardan maxrumlik

permanent – doimiy, uzluksiz davom etadigan.

PERSONA GRATA (LOT. PERSONA GRATA) - maqbul shaxs. Biror bir davlat oldida alohida xizmatlar ko'rsatganligi uchun chet el fuqarolari maqbul shaxs deb e'lon qilinishlari mumkin. Bu holat ularga, bir qancha, bojxona, soliq va boshqa erkinliklarni beradi.

PERSONA NON GRATA (LOT. PERSONA NON GRATA) - nomaqbul shaxs. Ayrim diplomatlar va razvedkachilar shunday shaxs deb e'lon qilinishlari mumkin. Bu holda, ular 24 soat ichida ushbu davlatni tark etishlari lozim.

PERSONA PREDILIKTA (LOT. PERSONA PRAEDILECTA) – eng maqbul shaxs. Xalqaro huquqda deyarli uchramaydigan holat

pilotaj uslubi – muayyan metodikalarning (anketalar, rejalar, intervyu va x.k.) validligini aniqlash, tadqiqot tadbirlarini tekshirib olish maqsadida o'tkaziladigan sinov tadqiqoti.

PLEBISSIT – u yoki bu masala yuzasidan aholining fikrini aniqlash maqsadida o'tkaziladigan umumxalq so'rovi. Odatda, hududiy o'zgarish yuzasidan o'tkaziladi

POLITEIZM - grekcha poly - ko'p, theos - xudo ma'nolarini anglatib, ko'p xudolilik ma'nosini anglatadi.

POLITEIZM - grekcha poly - ko'p, theos - xudo ma'nolarini anglatib, ko'p xudolilik ma'nosini anglatadi.

POLYARIZATSIYA - ijtimoiy guruhlar yoki muayyan bir jamiyatning ikkita asosiy qutbga bo'linib ketib, ular o'rtasidagi keskin qarama-qarshilik xolatlarining yuzaga kelishi.

POLYARIZATSIYA - ijtimoiy guruhlar yoki muayyan bir jamiyatning ikkita asosiy qutbga bo'linib ketib, ular o'rtasidagi keskin qarama-qarshilik xolatlarining yuzaga kelishi.

POPULIZM - lotincha populus - xalq, xalqparvalik, xalq manfaati va xuquqlari uchun ko'rash ma'nolarini anglatadi. Biroq bugungi kunda ko'prok "populizm" deganda, ma'lum bir arbob yoki siyosiy liderning xoqimiyat tepasiga kelishi uchun xalqning dolzarb muammosiga e'tiborini qaratib, ular olqishiga sazovor bo'lishi tushuniladi.

POPULIZM - lotincha populus - xalq, xalqparvalik, xalq manfaati va xuquqlari uchun ko'rash ma'nolarini anglatadi. Biroq bugungi kunda ko'prok "populizm" deganda, ma'lum bir arbob yoki siyosiy liderning xoqimiyat tepasiga kelishi uchun xalqning dolzarb muammosiga e'tiborini qaratib, ular olqishiga sazovor bo'lishi tushuniladi.

PRAKSEOLOGIYA - sotsiologik tadqiqotlar yo'nalishi. U faoliyat yoki faoliyatlar birligini ularning samaradorligi nuqtai nazaridan o'rganadi.

PREFERENSIYALAR - bir davlat tomonidan boshqa davlat yoki davlatlar guruhiga o'zaro savdoda beriladigan bojxona va soliq imtiyozlari.

PRELIMINAR TINCHLIK SHARTNOMASI - dastlabki, birlamchi bitim, unda urushayotgan tomonlar kelgusidagi tinchlik shartnomasining asosiy shartlarini belgilab oladilar.

PROTEST - qat'iy inkor qilish, bir davlat yoki davlatlar guruhining noto'g'ri deb tasavvur qilinayotgan harakatlarga nisbatan qat'iy chiqishi.

PROZELITIZM - biror diniy yo'nalish yoki konfessiyaga mansub dindorlarni boshqasiga kiritishga qaratilgan xatti-harakatlar.

PROZELITIZM - biror diniy yo'nalish yoki konfessiyaga mansub dindorlarni boshqasiga kiritishga qaratilgan xatti-harakatlar.

PROZELITIZM - biror diniy yo'nalish yoki konfessiyaga mansub dindorlarni boshqasiga kiritishga qaratilgan xatti-harakatlar.

Qidiruv prognozi – hozirgi vaqtda mavjud tendensiyalarning kelajakda ham davom ettirilishi haqidagi bashorat.

QOCHOQLAR – o'zlari doimiy yashab turgan davlatlarini, ta'qib qilish harbiy harakatlar yoki tabiiy ofatlar yohud favqulodda vaziyatlar tufayli tashlab chiqib ketgan shaxslar.

QULLIK – o'ziga nisbatan mulk huquqiga xos bo'lgan ba'zi yoki barcha vakolatlar amalga oshirilayotgan shaxsning holati. Xalqaro huquqda qullik, qullikka olish, qullik siyosatini amalga oshirish konvensiyaviy tarzda taqiqlangan.

RADIKALIZM - ma'lum bir guruh yoki jamoaning har qanday yo'l bilan bo'lsa, ham ko'zlagan maqsadiga erishish uchun harakat qilishi.

RATIFIKATSIYA LOT RATUS - HAL QILINGAN, TASDIQLANGAN + FACERE - QILMOQ) - davlatning oliy (vakillik) organi tomonidan xalqaro shartnomani tasdiqlash Odatda shundan keyin mazkur shartnoma ushbu davlat uchun yuridik kuchga ega bo'ladi. O'zbekiston Respublikasida Oliy Majlis xalqaro shartnomalarni ratifikatsiya qiladi.

RATIFIKATSIYA YORLIGI – xalqaro shartnomani davlatning vakolatli organi tomonidan ratifikatsiya qilinganligini tasdiqlovchi hujjat.

REINTEGRATSIYA - ilgari fuqarolikka ega bo'lgan va keyinchalik uni yo'qotgan shaxslarni o'sha davlat fuqaroligiga tiklanishfi.

REKVIZITSIYA (LOT. REQUISTIO - TALAB) - mulkni haqini to'lash yo'li bilan majburiy ravishda dushman davlatning mulkiga yoki vaqtinchalik tasarrufiga o'tkazish.

relyativ – muayyan munosabatlardagina ahamiyatga ega, shu munosabatlar bilan belgilanuvchi, nisbiy.

REPARATSIYA – moddiy javobgarlikning bir turi bo'lib, yetkazilgan moddiy zararni, ziyon yetkazgan davlat tomonidan naturada yoki qat'iy summada qoplash.

REPATRIATSIYA (LOT. REPATRIATIO - YANGIDAN, QAYTADAN + PATRIS (PATRIDOS) VATAN) - boshqa davlat hududiga turli holat va sabablarga ko'ra kirib qolgan shaxslarni fuqaroligi, doimiy yashashi yohud kelib chiqishi davlatlariga qaytarish.

REPRESSALIYLAR (QUROLI BO'LMAGAN) - biror davlat tomonidan sodir etilgan huquqbuzarliklarga javob tariqasidagi huquqqa mos majburiy harakatlar.

representativlik – tadqiq qilinayotgan birlikning xususiyatlarini aks ettiruvchi tanlov belgisi. (Reprezentatsiya-fr. vakillik).

RES KOMMUNIS (LOT. RES COMMUNIS - UMUMIY MULK) - Rim huquqi iborasi bo'lib, umumiy foydalanishdagi buyumni anglatadi

RES NUFLIUS (LOT. RES NULLIUS - HECH KIMNIKI BO'LMAGAN MULK) – Rim huquqi iborasi bo'lib, biror shaxsning mulki bo'lmagan, kim birinchi bo'lib qo'lga kiritrsa, uning mulkiga aylanishi mumkin bo'lgan buyumni anglatadi

RESEPSIYA (LOT. RECEPTIO) – o'zlashtirish davlatning ichki normativ hujjatlarida xalqaro-huquqiy aktlarning aniq ifodasini berish.

RESTITUTSIYA - urushayotgan davlat tomonidan noqonuniy ravishda olib qo'yilgan va olib chiqib ketilgan mol-mulkni naturada qaytarish.

RETORSIYA - xalqaro huquq normalarin buzmaydigan, dushmanlik xatti- harakatlariga javoban amalga oshiriladigan huquqqa mos bo'lgan individual harakatlar.

REZOLUTSIYA - xalqaro tashkilot, konferensiya yoki organ tomonidan qabul qilinadigan hujjatning nomlanishi. Odatda rezolutsiyalar xalqaro huquqning manbasi sifatida tan olinmaydi.

ruhiy paradigma – siyosatni tushuntirishdagi tabiiy paradigmalarning bir turi. U siyosat tabiatini ruhiy omillar orqali tushuntiradi, ya'ni inson ruhiyati motivlar, dunyoni qabul qilish usuli va x.k. orqali.

SATISFAKSIYA (INGL. SATISFACTION - QONIQISH) - davlatlar siyosiy javobgarligining bir turi bo'lib, huquqbuzar-davlat tomonidan zarar ko'rgan davlatni qoniqtirishni anglatadi. Masalan, zarar ko'rgan davlatning bayrog'i, madhiyasiga mulozamatlar ko'rsatish, kechirim so'rash, ushbu davlat to'g'risida ko'rsatuv tayyorlash va efirda namoyish etish.

SEGMENTATSIYA - davlat yoki jamiyatda muayyan darajadagi qatlam va guruhlarning yuzaga kelishi, ularning biror konsensusga kelmasdan o'rtada nizolarning tobora avj olishi.

SEKTA - 1) diniy jihatdan - sekta, mazhab, tariqat; 2) umumiy olganda - ko'pchilikdan ajralgan guruh.

SEKULARIZATSIYA - odamlarni ma'lum bir dindan chiqarish, diniy mulklarning musodara qilinishi.

SEPARAT TINCHLIK - koalitsiya yoki ittifoqdagi davlatlardan biri ushbu koalitsiya yoki ittifoqqa kirgan boshqa davlatlarga bildirmay dushman tomoni bilan tinchlik shartnomasi tuzishi yoki yarashishi.

SEPARATIZM - ma'lum bir guruh ichidan ajralib chikib, o'z manfaatlari yo'lida harakatini davom ettirish; ma'lum bir davlat ichidagi millatlarning davlatdan ajralib chiqib o'z mustaqil davlatlarini tuzishga intilishi.

SESSIYA - xalqaro shartnoma asosida davlat hududining bir qismini boshqa davlatga berish.

SETTLEMENTLAR - iqtisodiy qoloq mamlakatlarning shaharlari va mahalliy joylarida, xalqaro shartnomalarga binoan xorijiy fuqarolarga yashash va savdo-sanoat faoliyati uchun ijaraga berilgan va eksterritoriallikdan foydalanadigan hududlar (tarixiy hodisa).

sifat usullari – tadqiqotda individual tajriba, kuzatish, intuitsiya, tushunchalarining an'anaviy falsafiy va mantiqiy taitili usullari, tarixiy qiyoslash, shaxsiy va rasmiy hujjatlardan foydalanish, qaydlar, xulosa va tavsiyalarni publitsistik asoslash usullaridan foydalanishga e'tibor qaratadi. Sifat usullari siyosiy iodi-salar va jarayonlar, tizimlarning sifat jiiatlarini taitil qiladi. Shuningdek, sifat usullari miqdor usullari bilan birgalikda qo'llanishi ham mumkin.

Siyosiy adaptatsiya – (lat. moslashish) siyosiy tizim, siyosiy tuzilmalarning atrof-muhit talablariga moslashish jarayoni. U siyosiy tizim oldida turgan vazifalarning o'zgarishi, yangi maqsadlar aniqlanishi, muammolarni hal qilish uchun yangicha yondoshuvlarning ishlab chiqilishida namoyon bo'ladi.

SIYOSIY ANTIPATIYA - biror siyosiy lider, ijtimoiy guruhlar yoki davlatning davlat va jamiyatdagi faoliyatini xush ko'rmaslik oqibatida u bilan murosasiz bo'lishi.

siyosiy Bashorat – 1) siyosiy jarayon kelajagi va oqibatlari to'g'risidagi siyosiy fikrlarning ishlab chiqilishi; 2) siyosiy hayot, uning jarayonlari, xodisalari rivojlanishining istiqbollari to'g'risidagi maxsus tadqiqot.

siyosiy jarayon - jamiyat siyosiy tizimining shakllanishi, o'zgarishi va faoliyat ko'rsatishiga bevosita ta'sir etuvchi ijtimoiy subyektlar faoliyatining uyg'unligi

Siyosiy marketing - siyosatni siyosatchi va xalq, nomzod va saylovchi o'rtasidagi ratsional munosabatlar tarzida tushunishdan kelib chiqib, yetakchilikka da'vogar shaxsning sifatlari va fazilatlarini saylovchilarga (fuqarolarga) ma'qul tarzda ko'rsatish.

siyosiy me'yor – siyosat subyekti e'tirof etgan va amalda rioya qiluvchi na'muna, qoida, faoliyat tamoyili. Ular: rasmiy-norasmiy, og'zaki-yozma, oshkora-yashirin; universal-xususiy bo'lishi mumkin. Belgilangan tartibda qabul qilingan, qog'ozda qayd etilgan va siyosiy subyektlar uchun majburiy bo'lgan siyosiy me'yorlar ayni vaqtda huquqiy me'yorlar hamdir.

siyosiy menejment - davlat siyosatini samarali tashkil etish va samarali boshqaruvga oid fan.

siyosiy model – siyosiy tizim yoki uning tarkibiy qismining ma'lum shakldagi originaldan farq etadigan siyosiy tasviri.

Siyosiy vaziyat – siyosiy tizimning ma'lum bir davrdagi xolati.

Siyosiy vaziyat tailili – jamiyat siyosiy tizimini tashkil qiluvchi barcha siyosiy aktorlarning hozirgi vaqtdagi o'zaro xarakatini aniqlash va o'rganish.

Siyosiy vaziyatning diagnostik tailili – har xil muammoli vaziyatlar chiqish ehtimollarini o'rganish maqsadida siyosiy tizimning yoki uning ayrim tarkibiy qismlarining iozirgi holatini aniqlash va o'rganish.

Siyosiy vaziyatning gorizontal tailili – siyosiy jarayonlarda yaxlit aktor sifatida harakatlanuvchi noinstitutSIONal jamoalar va guruhlarning hozirgi holatini aniqlash va o'rganish.

Siyosiy vaziyatning vertikal tailili – siyosiy tizim ayrim institutlarning xolati va o'zaro xarakatini o'rganish.

statistik usullar - tadbiiy matematik statistikaga oid modellar va usullar birligi. Shartli ravishda ular ikkiga bo'linadi. 1-guruhga, terma (tanlash) usuli, tavsiflovchi (ta'riflovchi) statistika, bojliqlik va aloqalar tahlili, statistik xulosalar, baholar va mezonlar nazariyasi, tajribali rejalashtirish usullari kiradi. 2-guruiga darajalash, taksonomik tadbirlar, korrelyatsion, faktorli, sababiy tahlil va bir guruh statistik modellar kabi ko'p o'zgaruvchi usullar kiradi.

STATUS-KVO (LOT STATUS QUO - ILGARIGI, BIRLAMCHI HOLAT) - ayni vaqtdagi yoki biror muddat oldin davlatlar o'rtasidagi munosabatlarda yoki xalqaro maydonda mavjud bo'lgan holat.

STATUT (INGL. STATUTE - QAROR QILAMAN, HAL ETAMAN) - xalqaro organning faoliyatini tartibga soluvchi ko'p tomonlama xalqaro ta'sis hujjatining nomlanishi. Masalan, BMT Xalqaro Sudining Statuti, Xalqaro jinoyat sudining Statuti va boshq.

SUNT SERVANDA PAKTI (LOT- PACTA SUNT SERVANDA) - xalqaro majburiyatlarga qat'iy rioya qilinishi va ular vijdonan bajarilishi shartligi prinsipi

TABULA RASA (LOT. TABULA RASA - TOZA, YOZILMAGAN DOSKA) - boshqa davlatlar oldida o'tmishdosh-davlatning biror-bir majburiyatlarini olmagan, yangi paydo bo'lgan davlat.

TAQVODOR - arabcha so'z, xudodan qo'rqish; dinga o'ta e'tiqod qiluvchilarga nisbatan ishlatiladigan atama.

TEGISHILLIK (TOBCLIK, PODDANNIY) - juqarolikning o'zi, lekin monarxik boshqaruv shakliga ega davlatlarda qo'llaniladi. Tarixan, monarxga tegishli bo'lgan shaxslarfuqarolarga nisbatan huquq va erkinliklarning ko'pchiligidan foydalanishmagan.

TERRORIZM - jinoyatchilikka boshlovchi siyosat bo'lib, qo'rqitish, vaximaga solish harakatlari, g'oyalari va h.k bildiradi, uning taktikasi va turlari juda ko'p.

TRANSFERT (LOT TRANSFERRE - KO'CHIRMOQ, O'TKAZMOQ, JO'NATMOQ) - bir davlatdan boshqa davlatga o'tayotgan hudud bilan birgalikda, unda yashovchi aholini, tegishlicha boshqa davlat fuqaroligiga berish.

transformatsiya – siyosiy tizimlarning o'zgarish jarayoni

TRANSFORMATSIYA - xalqaro huquq normasini davlatning ichki huquq normasiga aylantirish.

ULTIMATUM (LOT. ULTIMUS - ENG OXIRGI) - biror davlatning, boshqa davlatga ultimatum yuborilgan muddat ichida talablarni bajarmasa, muayyan choralar qabul qilish mumkinligi bilan tahdid qilgan holda qo'yilgan, kelgusida hech qanday bahslarga o'rin qoldirmaydigan talabi.

URUSH - davlatlar o'rtasidagi, shuningdek, davlatlar va milliy-ozodlik harakatlari, qo'zg'olonchilik harakatlari o'rtasidagi tinch aloqalarni buzgan holda olib boriladigan harbiy harakatlar. Hozirgi zamon xalqaro huquqi urush iborasining o'rniga mojaro iborasini qo'llaydi, chunki Brian-Kellog paktiga (Parij pakti, 1928-y.) asosan, urush o'zaro muammolarni hal etish vositasi sifatida taqiqlangan.

URUSH TEATRI (SAHNASI) - urushayotgan davlatlarning harbiy operatsiyalar olib bora oladigan barcha hududlar (xalqaro rejimli hududlar bundan mustasno).

VASSALLIK (LOT. VASSUS - XIZMATKOR) - kolonial qaramlikning bir turi (tarixiy hodisa).

verbal – lot. og‘zaki, so‘zda ifodalangan.

verifikatsiya – respondent xabar beradigan ma‘lumotlarning aniqligini o‘lchash uchun zarur dalillarni to‘plash jarayoni.

XALQARO NIZO - fakt yoki huquq bo‘yicha davlatlar o‘rtasidagi bahs.

XALQARO SHARTNOMAGA ISTISNO (OGO VORKA, CLAUSE) - xalqaro ko‘p tomonlama shartnoma qatnashchilaridan birining, shartnomaning biror qoidasini o‘zi uchun majburiy emasligi haqida yoki shunday qoidani o‘zgartirib qo‘llash niyatida bir tomonlama rasmiy bayonoti.

XALQARO SHARTNOMANI NOVATSIYA QILISH - ishtirokchilarning kelishuviga binoan, xalqaro shartnomadagi majburiyatlarni zamon talabidan kelib chiqib yangilanish.

XALQARO SHARTNOMANI PARAFIRLASH - vakolat berilgan shaxslarning ismi va otasining ismini qo‘ygan holda xalqaro shartnomalarni umuman yoki bir qismini dastlabki imzoiash.

XALQARO SHARTNOMANI PROLONGATSIYA QILISH (LOT. PROLONGARE - UZAYTIRISH) - xalqaro shartnomaning amalda bo‘lishini, uning muddati tugagunicha shartnoma muntazamligini ta‘minlash maqsadida uzaytirish.

XALQARO SHARTNOMANI PROMULGATSIYA QILISH - xalqaro shartnomani davlat ichida belgilangan tartibda e‘lon qilish.

XALQARO SHARTNOMANI QAYD ETISH, RO‘YXATGA KIRITISH - kuchga kirgan xalqaro shartnomani xalqaro tashkilotning maxsus registr (ro‘yxat)iga kiritish. Bu holat, ushbu tashkilot organlarida, mazkur shartnomaga havolalar qilishga imkon beradi.

XALQARO SHARTNOMANI REVIZIYA QILISH - xalqaro shartnomaga tuzatishlar kiritish yoki uni o‘zgartirish.

xalqaro shartnomaning asl nusxasi, ratifikatsiya yorlig‘i, xalqaro shartnomaga qo‘shilish va uni denonsatsiya qilish to‘g‘risidagi hujjatlar saqlash uchun topshiriladigan organ yoki xalqaro mansabdor shaxs (odatda xalqaro tashkilotning Bosh kotibi).

XALQARO SHARTNOMANING MUDDATI - xalqaro shartnoma amalda bo'ladigan vaqt Xalqaro shartnomalar muddatli va muddasiz bo'ladi. Muddatli shartnomalar o'z navdatida aniq muddatli (masalan, 20 yilga) va nomuayyan muddatli (tomonlar kelishishiga bog'liq holda) bo'ladi.

XALQARO VAZIYAT - xalqaro kelishmovchiliklarning turlaridan biri bo'lib, ikki yoki undan ortiq davlatlar o'rtasidagi keskinlik bilan tavsiflanadi

ZARAR - xalqaro huquq subyektlari faoliyati natijasida boshqalarga yetkazilgan moddiy yoki nomoddiy ziyon.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. Rahbariy adabiyotlar

1. Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш - юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганнинг 24 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги маъруза. – Т.: Ўзбекистон, 2017. – 48 б.

2. Мирзиёев Ш.М. Танкидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик - ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак. – Т.: Ўзбекистон, 2017. – 104 б.

3. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга курашимиз. – Т.: Ўзбекистон, 2017. – 488 б.

4. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. – Т.: Ўзбекистон, 2017. – 592 б.

5. Мирзиёев Ш.М. Нияти улуг халқнинг иши ҳам улуг, ҳаёти ёруғ ва келажаги фаровон бўлади. – Т., 2019. – 400 б.

6. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шанкаг Мирзиёевнинг Олий Мажлисга мурожаатномаси (22 декабрь 2017 йил). – Т.: Ўзбекистон, 2018.

II. Asosiy adabiyotlar

1. Додобоев Ю.Т. Основы теории организации: Учебное пособие. – Фергана, 2000. – 215 с.

2. Каримова А. Международные организации - инструмент многостороннего сотрудничества (учебное пособие). – Т.: УМЭД, 2001.

3. Muminova N. Xalqaro tashkilotlar. – Т.: JIDU, 2014. – 64 б.

4. А.Эгамбердиев, Ш. Мирзаев, З.Борсиева, У.Закирова. Международные правоохранительные организации. Учебное пособие. – Т.: ТГЮУ, 2016. – 221 с.

III. Xorijiy adabiyotlar

1. Abbot K.W. Why States Act through Formal International Organizations. Journal of Conflict Resolution. 2013. – Amsterdam.: Elsevier. – 376 p.

2. Acharya A. Regionalism from a Non-Western Perspective. – Oxford: Oxford University Press, 2016. – 537 p.
3. Bagwell K., Staiger R.W. Protection and the Business Cycle // Journal of Economic Policy and Analysis. 2015. № 5. – PP. 545–565.
4. Barkin J.S. International Organization: Theories and Institutions: Textbook. – USA.: Palgrave Macmillan, 2006.
5. Börzel T. Diffusing (Inter-) Regionalism: The EU as a Model of Regional Integration. – GFR.: Free University of Berlin, 2009. – 356 p.
6. Dorucci E.S. The Link between Institutional and Economic Integration: Insights for Latin America from the European Experience // Open Economics Review. – № 1. – PP. 239-260.
7. Feng Y. Regional Integration and Domestic Institutional Homogeneity: A Comparative Analysis of Regional Integration in the Americas, Pacific Asia and Western Europe // Review of International Political Economy. 2018. – № 2. – PP. 278-309.
8. Les Organisations internationales entre l'innovation et la stagnation. Lausanne, 2015. – 455 p.
9. Madaminova D.I. Jahon siyosati. – T.: TDSHI, 2019. – 228 б.
10. Riggirozzi P. Region, Regionness and Regionalism in Latin America: Towards a New Synthesis // New Politica Economy. 2015. – № 4. – PP. 421-443.
11. The Yearbook of International Organisations 2017-2018. – Vol. 1. Brussels, 2019. – P. 56-58.
12. Venables A.J. Regional Economic Integration. Handbook of International Economics. – Amsterdam: Elsevier, 2017. – 208 p.
13. Vicard V. Trade, Conflict and Political Integration: Explaining the Heterogeneity of Regional Trade Agreements // European Economic Review. – № 6. – PP. 54-71.
14. Wallace M., Singer J.D. Intergovernmental Organization in the Global System, 1815-1964: A Quantitative Description / International Organizations. 2019. – № 2. P. 239–267.
15. Айдинян Р. М. Введение в теорию социальной организации. – СПб, 2015. – 404 с.
16. Бастрыкин А.М. Формы и направления сотрудничества государств в борьбе с преступностью // Вестник МГУ, 2017. – № 3. – С. 52-56.

17. Борко Ю.А. От европейской идеи – к единой Европе. – Москва: Деловая литература, 2015. – 464 с.
18. Бородин С.В. Международное сотрудничество в борьбе с уголовной преступностью. – М.: Юридическая литература, 2003. – 308 с.
19. Бородин С.В. Международное сотрудничество в борьбе с уголовной преступностью. – М.: Юридическая литература, 2003. – 308 с.
20. Буторина О. Европейская интеграция. – М.: Деловая литература, 2011. – 720 с.
21. Исламов З.М. Общество, государство, право. – Т.: Адолат, 2001. – 696 с.
22. Каюмова А.Р. Проблемы теории международного уголовного права. – Казань: Центр инновационных технологий, 2012. – 278 с.
23. Каюмова А.Р. Проблемы теории международного уголовного права. Казань: Центр инновационных технологий, 2012. – 278 с.
24. Квашиш В. Преступность как глобальная угроза // Юридический мир, 2011. – № 10. С. 20-27.
25. Квашиш В. Преступность как глобальная угроза // Юридический мир, 2011. – № 10. – С. 20-27.
26. Коваленко И.И. Международные неправительственные организации. – М.: Международные отношения, 2016. – 167 с.
27. Кутейников А.Е. Международные межправительственные организации. Теоретико-социологический анализ. – СПб.: Издательство Санкт-Петербургского университета, 2018. – 256 с.
28. Международные неправительственные организации и учреждения. Справочник. – М.: Международные отношения, 2012. – 374 с.
29. Моравецкий В. Функции международной организации. – Москва, 2016. – 308 с.
30. Морозов Г.И. Международные организации. Некоторые вопросы теории. – М.: Мысль, 2017. – 332 с.
31. Морозов Г.И.. Актуальные проблемы деятельности международных организаций: Теория и практика. – Москва.: Международные отношения, 2012. – 352 с.

32. Наумов А.В., Кибальник А.Г. Международное уголовное право 2-е издание, переработанное и дополненное. – М.: Юрайт, 2013. – 320 с.

33. Наумов А.В., Кибальник А.Г. Международное уголовное право 2-е издание, переработанное и дополненное. – М.: Юрайт, 2013. – 320 с.

34. Нешатаева Т.Н. Международные организации и право. – М.: Дело, 1999. – 272 с.

35. Пригожин А.И. Современная социология организаций. – Москва: Наука, 2016. – 354 с.

36. Филиппов Б. Папа Франциск и новая модель католической церкви // Эксперт. 2014. – № 42 (919). – С. 62–70.

37. Хакимов Т.Р. Узбекистан и организация объединенных наций: Монография. – Т.: Узбекистан, 1995. – 120 с.

38. Цыганков П. А. Политическая социология международных отношений. М., 2014. – 486 с.

39. Чернышев А.А. Международные организации и военно-политический аспект европейской интеграции // Теория и практика деятельности международных организаций. – СПб., 2017. – СС. 36-41.

IV. Qo'shimcha adabiyotlar

1. Хакимов Т.Р. Узбекистан и организация объединенных наций: Монография. – Т.: Узбекистан, 1995. – 120 с.

2. Исламов З.М. Общество, государство, право. - Т.: Адолат, 2001. - 696 с.

3. Madaminova D.I. Jahon siyosati. – Т.: TDShI, 2019. – 228 б.

4. Бородин С.В. Международное сотрудничество в борьбе с уголовной преступностью. – М.: Юридическая литература, 2003. – 308 с.

5. Каюмова А.Р. Проблемы теории международного уголовного права. Казань: Центр инновационных технологий, 2012. – 278 с.

6. Квашиш В. Преступность как глобальная угроза // Юридический мир, 2011. – № 10. – С. 20-27.

7. Наумов А.В., Кибальник А.Г. Международное уголовное право 2-е издание, переработанное и дополненное. – М.: Юрайт, 2013. – 320 с.

V. Elektron ta'lim resurslari

1. <http://www.zivonet.uz>
2. <http://www.gov.uz/>
3. <http://www.tiv.uz/>
4. <http://www.press-service.uz/>

KIRISH.....3

I BOB. XALQARO TASHKILOTLAR GENEZISI

1-§. Xalqaro tashkilotlarning paydo bo'lish asoslari.....5
 2-§. Delos ittifoqi, Ganzey Ligasi zamonaviy xalqaro tashkilotlarning prototiplari sifatida11
 3-§. XVII - XVIII asrlarda tashkil etilgan xalqaro Yevropa konferentsiyalari.....12
 4-§. Dastlabki xalqaro hukumalararo tashkilotlar (XHT)20
 5-§. Millatlar Ligasi: yaratilish tarixi, qulash sabablari.....26
 6-§ Xalqaro tashkilotlarning zamonaviy rivojlanish xususiyatlari.....32
 Nazorat savollari.....37

II BOB. XALQARO TASHKILOTLAR TUSHUNCHASI, TIPOLOGIYASI VA TASNIFI

1-§. Xalqaro tashkilotlar tushunchasi va mohiyati38
 2-§. Xalqaro tashkilotlar tipologiyasi41
 3-§. Xalqaro tashkilotlar tasnifi43
 4-§. Xalqaro tashkilotlar faoliyatining huquqiy asoslari45
 5-§. XHTlarning asosiy xususiyatlari.....49
 6-§. Xalqaro hukumatlararo tashkilotlarning funksiyalari55
 7-§. Xalqaro nohukumat tashkilotlar: ularning turlari, kategoriyalari va xarakteristikalari57
 Nazorat savollari.....62

III BOB. XALQARO TASHKILOTLAR ORGANLARI

1-§. Xalqaro tashkilotlarning organlari tushunchasi va turlari.....63
 2-§. Xalqaro tashkilotlarning yalpi organlari68
 3-§. Xalqaro tashkilotlarning ijroiya organlari69
 4-§. Xalqaro tashkilotlarning ma'muriy organlari.....70
 5-§. Xalqaro tashkilotlarning sud, arbitraj organlari71
 6-§. Xalqaro tashkilotlarning parlament organlari.....72
 7-§. Qaror qabul qilishda tashkilot organlarining tutgan o'rnini va roli73
 Nazorat savollari.....75

IV BOB. XALQARO TASHKILOTLARGA A'ZOLIK

1-§. Xalqaro tashkilotlarga a'zolik tushunchasi va mohiyati.....	76
2-§. A'zolikka qabul qilish	77
3-§. A'zolikning to'xtatilishi	81
4-§. Xalqaro tashkilotlarda a'zolikning tugatilishi	82
5-§. A'zolik toifalari.....	84
6-§. Tashkilot a'zolarining huquq va majburiyatlari	86
Nazorat savollari.....	90

V BOB. UNIVERSAL XALQARO TASHKILOTLAR TIZIMI

1-§. Universal xarakterdagi xalqaro tashkilotlar tushunchasi va mohiyati.....	91
2-§. BMT: tarixi, maqsadi va faoliyat prinsiplari	94
3-§. BMTning tarkibiy tuzilishi.....	97
4-§. Bosh assambleya va Xavfsizlik Kengashining maqsadlari, tarkibi, funksiyalari va vakolatlari.....	98
5-§. BMTning ixtisoslashgan organlari	103
Nazorat savollari.....	108

VI BOB. MINTAQAVIY XALQARO TASHKILOTLAR TIZIMI

1-§. Mintaqaviy xalqaro tashkilotlar tizimi tushunchasi va asosiy belgilari	109
2-§. Yevropa mintaqaviy tashkilotlari - Yevropa Ittifoqi.....	111
3-§. NAFTA va uning tashkilot sifatida shakllanishiga xizmat qilgan omillar.....	120
4-§. ASEANning mintaqaviy tashkilot sifatidagi o'rni va roli	124
5-§. Arab davlatlari ligasi faoliyati istiqbollari	130
6-§. Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH).....	131
7-§. Yevropa xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti (YXHT).....	133
8-§. Kollektiv xavfsizlik shartnomasi tashkiloti	134
9-§. Shanxay hamkorlik tashkiloti (ShHT).....	136
10-§. MERCOSUR faoliyati va istiqbollari.....	137
Nazorat savollari.....	139

VII BOB. HARBIY-SIYOSIY XALQARO TASHKILOTLAR VA BLOKLAR TIZIMI

1-§. Xalqaro harbiy-siyosiy tashkilotlar tizimi	141
2-§. Shimoliy Atlantika shartnomasi tashkiloti	142
3-§. ANZUS faoliyati xususiyatlari.....	149
4-§. Mintaqaviy xavfsizlik tizimi	151
5-§. KXShTning harbiy-siyosiy tashkilotlar tizimida tutgan o‘rni.....	152
6-§. Amerikalararo o‘zaro yordam to‘g‘risidagi shartnoma (“Rio Pakti”)	154
7-§. FPDA faoliyati tarixi	155
8-§. VShT va SEATOning faoliyati xususiyatlari.....	157
Nazorat savollari.....	159

VIII BOB. IQTISODIY VA MOLIYAVIY XALQARO TASHKILOTLAR TIZIMI

1-§. Iqtisodiy va moliyaviy tashkilotlar tushunchasi	160
2-§. BMT tizimidagi xalqaro iqtisodiy tashkilotlar	161
3-§. Xalqaro valyuta-moliyaviy va kredit tashkilotlari (Jahon banki guruhi, XVI).....	172
4-§. Savdo-iqtisodiy tashkilotlar.....	180
5-§. Sohaviy yoki ixtisoslashgan iqtisodiy va ilmiy-texnik tashkilotlar	187
Nazorat savollari.....	193

IX BOB. IJTIMOIIY XALQARO TASHKILOTLAR TIZIMI

1-§. Ijtimoiy xalqaro tashkilotlar tushunchasi va mohiyati.....	194
2-§. Xalqaro mehnat tashkilotining vujudga kelishi, maqsadi va prinsiplari	195
3-§. Butunjahon sog‘liqni saqlash tashkilotining vujudga kelishi, maqsadlari va prinsiplari.....	199
4-§. YuNESKOning vujudga kelishi, maqsadlari, prinsiplari ...	201
Nazorat savollari.....	207

X BOB. JINOYATCHILIKKA QARSHI XALQARO TASHKILOTLAR TIZIMI

1-§. Jinoyatchilikka qarshi kurashda xalqaro hamkorlik tushunchasi	208
2-§. Jinoyatchilikka qarshi kurashda xalqaro hamkorlik shakllari.....	210
3-§. Xalqaro jinoyatchilikka qarshi kurashda BMTning tutgan o'rni va roli.....	212
4-§. Interpol xalqaro munosabatlarning subyekti sifatida. Interpolning shakllanishi va rivojlanish tarixi.....	216
5. ShHT MATK xalqaro munosabatlar subyekti sifatida. ShHT MATKning shakllanish va rivojlanish tarixi	221
Nazorat savollari.....	226
GLOSSARIY	227
ADABIYOTLAR RO'YXATI	247

O'quv nashr

MADAMINOVA D.I.

XALQARO TASHKILOTLAR NAZARIYASI VA AMALIYOTI

*(5120700- Jahon siyosati bakalavriat ta'lim yo'nalishida tahsil
olayotgan talabalar uchun darslik)*

“Tafakkur avlodi” nashriyoti, 2021

Muharrir:	Abdukamol Abduljalilov
Texnik muharrir:	Yunusali O'rinov
Badiiy muharrir:	Shoimov Zuxriddin
Musahhiha:	Gulchehra Azizova
Dizayner:	Dilfuza Beknazarova

Nash.lits. № 2013-975f-3e5e-d1e5-
f4f3-8537-2366, 20.08.2020 y.

Terishga 24.08.2021-yilda berildi. Bosishga 29.12.2021-yilda ruxsat
etildi. Bichimi: 60x84 1/16. Ofset bosma. «Times New Roman»
garniturasida. Shartli b.t. 16.0. Nashr b.t. 14.88.
Adadi 150 nusxa. Buyurtma № O-12.
Bahosi shartnoma asosida.

“Tafakkur avlodi” nashriyoti, 100190, Toshkent shahri,
Yunusobod-9, 13-54. e-mail: tafakkur_avlodi@mail.ru

“Tafakkur avlodi” MCHJ bosmaxonasida bosildi.
Toshkent shahri, Olmazor tumani, Nodira ko'chasi, 1-uy.
Telefon: +99890 000-33-93